

**Q. ABDULLAYEVA, D. NASRIDDINOVA,
S. RAHMONBEKOVA**

O'QISH KITOBI

**Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishidagi
ixtisoslashtirilgan maktablarning
4- sinfi uchun sinov darsligi**

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tasdiqlagan*



„OQITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2008


83971

BBK 83ya71

4-sinflar uchun mo'ljallangan ushbu „O'qish kitobi“ darsligi 5-sinf „Adabiyot“ darslariga tayyorgarlik sifatida xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Undagi materiallar ham boshlang'ich sinflardagi kabi an'anaviy bo'limlarga bo'lib berilmay, ma'lum izchillikda joylashtirilgan. Bu darslik o'quvchilarning 5-sinf „Adabiyot“ darsligini oson o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Taqrizchilar: **N. Karimov** — *filologiya fanlari doktori, professor;*
R. Turopova — *RTM boshlang'ich ta'lim bo'limi bosh metodisti;*
M. Azizova — *Toshkent shahridagi 298- maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

HO 34232
391



4306020400 — 16
A 353(04) — 2008 Buyurtma var. — 2008

ISBN 978—9943—02—084—9

© „O'qituvchi“ NMIU, 2008

VATANIMIZ — FAXRIMIZ



HECH KIMGA BERMAYMIZ SENI, O'ZBEKISTON!

Muhammad Yusuf

Oq yo'rgakka o'ragansan o'zing bizni,
Oq yuvib-oq taragansan o'zing bizni.
Beshigimiz uzra bedor¹ ona bo'lib,
Kunimizga yaragansan o'zing bizni.
Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!..

Qalqoning² bor kim qasd qilsa gar joningga,
Alpomishning ruhi yor har o'g'loningga.
Asragaymiz giyohing ham gulday o'pib,
Yovlar yaqin yo'lolmagay qo'rg'oningga.
Adoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!..

Tuzing tatib, unutganlar xor bo'ladi,
Ko'zlariga ikki dunyo tor bo'ladi.
Shodon daming ko'rolmagan yurtfurushlar³,
Bir kun bir kaft tuprog'ingga zor bo'ladi.
Yoningda turgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!..

Gul ko'ringay dashtingdagi giyoh-xasdir,
Soddadil-u ulug'vorlik senga xosdir.
Sevamizki, cho'llaring ham bizga jannat,
Tuprog'ing ham Makka misol muqaddasdir.
Onadek ko'rgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!..

¹ **Bedor** — uyg'oq. ² **Qalqon** — balo-ofatlardan saqlovchi. ³ **Yurtfurush** — o'z yurtiga, vataniga xiyonat qiluvchi.



1. Shoir Vatanning azizligini qanday so'zlar bilan ifodalagan?
2. Vatanimiz tuprog'ini nimalarga o'xshatgan?
3. Vataniqa sodiq farzand qanday bo'lishi kerak?



1. Kelajakda Vatan uchun qanday xizmat qilmoqchiligingizni ayting.



2. She'ni ifodali o'qing va yod oling.

VATAN HAQIDA QO'SHIQ

Aziz Abdurazzoq

Qadimda Toshkentday shahri azimda Qahramon ismli bir pahlavon yigit yashagan ekan. U ne-ne polvonlar bilan kurash tushib, barini yiqitar ekan-u, o'zi hech ham yiqilmas ekan. Sovrindan tushgan pul-u buyumlardan o'ziga yetarlisini olib, qolganlarini kambag'allarga, beva-bechoralarga tarqatar ekan.

Bir kuni o'sha polvon o'zining oppoq otiga minib, qishloqdagi qarindoshlarini ko'rib kelish uchun yo'lga chiqibdi. Qishloqqa olib boradigan yo'l jazirama cho'ldan o'tar ekan. Qahramonjon o'sha cho'lning qoq o'rtasiga yetganida baqalarning vaqillab sayrayotganini eshitib qolibdi. U otining boshini o'sha tomonga buribdi. Borib qarasa, suvi yarimlab qolgan eski hovuzda o'ntacha baqa biri olib, biri qo'yib sayrayotgan emish.

— Qo'shig'ingiz nima haqida? — deb so'rabdi pahlavon yigit.

— Vatan haqida, — deyishibdi ular.

— Qanaqa vatan haqida?

— Mana shu vatan, hovuzimiz haqida.

— Vataningiz juda ham loyqa, bo'tana-ku.

— Baribir bu yer bizning jonajon vatanimiz, — deyishibdi baqalar.

— Dunyoda bundan yaxshi, go'zal vatanlar bor, bilasizlarmi? — debdi yigit. — Yaxshisi men sizlarni bu loyqa suvdan qutqaray. Olib ketib, suvi tip-tiniq hovuzga qo'yib yuboray. Rozimisizlar?

— Yo'q, kerak emas, — deyishibdi baqalar. — Biz shu yerda dunyoga kelganmiz, shu yerda dunyodan o'tamiz.

— Mayli, ixtiyoringiz, — debdi-da, pahlavon yigit o'z yo'lida davom etibdi. U qarindoshlarinikida bir necha kun mehmon bo'lib, yana o'z shahriga qaytayotganida baqalarni eslabdi. Otining boshini o'sha tomonga buribdi. Borib qarasa, hovuzning suvi yana ham kamayib, tugay deb qolgan va unda atigi ikkita baqa zo'rg'a-zo'rg'a sayrayotgan emish.



— Sheriklaringiz qani? — deb so'rabdi yigit.

— O'lib ketishdi, — deyishibdi baqalar.

— Hali ham kech emas, men sizlarni olib ketay, bundan yaxshi vatan topib beray, — debdi pahlavon.

— Yo'q, — deyishibdi baqalar. — Vatan bitta bo'ladi, ikkita bo'lmaydi. Bizning vatanimiz ham mana shu hovuz. Nima bo'lsak ham mana shu hovuzda bo'laylik.

„Bularni qutqarish kerak“, deb o'ylabdi Qahramonjon. U qachonlardir hovuzga quyilib, qurib qolgan ariq yoqalab ketaveribdi. Yarim kun yo'l yurib, kichikroq bir soyga yetib boribdi. O'sha soydan ariqqa suv o'tadigan yo'lni kimdir kattakon tosh bilan to'sib qo'ygan ekan. Qahramonjon o'sha toshni olib tashlagan ekan, ariq bo'ylab sharillab suv oqa boshlabdi. „Bu suv, albatta, baqalarga yetib boradi“, deb o'ylabdi xaloskor yigit.

Oradan bir yildan ko'proq, ikki yildan kamroq vaqt o'tib, Qahramonjon yana o'sha cho'l orqali qarindoshlarini ko'rgani ketayotganda juda ko'p baqalarning sayrayotganini eshitib qolibdi. Borib qarasa, o'zi ochgan suvdan lim-lim to'lib turgan hovuzning qirg'oqlari turli-tuman gullar-u ko'm-ko'k giyohlar bilan bezangan bo'lib, ichida baqalar biri olib, biri qo'yib sayrayotgan emish. Ular o'sha avvalgi yili o'lmay qolgan ikki baqadan tarqalgan jonivorlar ekan.

„Xayriyat, — deb o'ylabdi pahlavon o'zicha. — Mana, vatan haqida qo'shiq davom etayapti. Xayriyat ...“



1. Baqalar nima uchun boshqa tiniq suvli joyga ko'chishni xohlamadilar?
2. Ushbu hikoya asosida Vatan qanchalik azizligi haqida so'zlab bering.



1. Qissadan qanday xulosa chiqarganingizni ayting.
2. Ushbu qissa mazmuniga mos maqollar toping.



MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI

Abdulla Oripov

Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo?
Nechun vatan deya yer-u osmonni,
Muqaddas atayman, atayman tanho?
Aslida dunyoda tanho nima bor?
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku butun Osiyo!
Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Bog'larin jannat deb ko'z-ko'z etaman,
Nechun ardoqlarkan tuprog'ini, men
O'paman: „Tuprog'ing bebaho, Vatan!“
Aslida tuproqni odil tabiat
Taqsim aylagan-ku Yer yuziga teng!
Nechun bu tuproq deb yig'ladi Furqat?
O, Qashqar tuprog'i, qashshoqmiding sen?!
Xo'sh, men nechun sevaman O'zbekistonni,
Sababini aytgin desalar menga,
Shoirona, go'zal so'zlardan oldin
Men ta'zim qilaman ona xalqimga!
Xalqim, tarix hukmi seni agarda
Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,

Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,
Mehrimg bermasmidim o'sha muzlarga?
Vatanlar, Vatanlar, mayli gullasin,
Bog' unsin mangulik muzda ham, ammo
Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun
Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!



1. Har bir inson Vatanini nima uchun o'z onasizdek sevadi?



2. Vatan, istiqlol haqida yana qanday she'rlarni bilasiz?

Vatan haqida maqollar to'plang va yod oling.



VATAN HAQIDA SHE'R

Abdulla Avloniy

Tug'ilib o'sdim bu Vatanda,
Vatanim misli yo'q jahonda!

Tufroqlari unumlukdur,
Manzarasi ko'rumlukdur.

Bir tarafda tog'lari bor,
Mevasi mo'l bog'lari bor.

Tog'larida konlar chiqar,
Yerlarida donlar unar.

Bog'laridir shirin-sharbat,
Anjir, uzum, anor, nashvat.

Toshkand emas Toshqand erur,
Kesaklari gulqand erur.

O'tar kunlar, o'tar zamon,
Ey Vatanim, bo'lma hijron.

Men ketsam-da, sen bo'l omon,
Omon — Vatan, Vatan — omon!

1. She'rdagi Vatanimiz manzarasi qanday tasvirlangan?
2. „Vatan“ so'zi o'rnida yana qanday so'zlarni qo'llash mumkin?

1. She'rni o'qing, o'xshatishlarni toping va o'qib bering.
2. She'rdan shoirning xulosasini aniqlang.



QIRG'OQQDAGI JANG

QIRG'OQQDAGI JANG

Habibulla Zayniddin



Tong yorishishi bilan dushman tomonda nog'oralarning gumbur-gumbur sadolari, burg'ularning¹ ovozi yangrab ketdi. Xuddi shu paytda birinchi bo'lib Jaloliddin qo'shinlari safidan yuzboshi Mahmudbiy yakkama-yakka olishuv uchun yashinday ot surdi va jang maydoniga shijoat-

la kirib, o'rtada jangovar hunarlar ko'rsatib, javlon ura boshladi. U uchqur tulpori ustiga o'q va tig' o'tmas yopinchiq tashlagan, o'zi bamisoli arg'uvon daraxtidek edi. Ustidagi yelkapo'shti burgut qanotidek shamolda silkinardi. Boshidagi dubulg'asining² ikki chekkasi va o'rtasiga qo'ndirilgan ukparlar³ bahodir harakatiga monand tebranardi. Chingizxon ham o'zining nomdor pahlavoni, devqomat Jalmani maydonga tushirdi. Jalma uzun nayzasini raqibiga qarata g'azab bilan ot soldi.

¹ **Burg'u** — qadimiy cholg'u asbobi. ² **Dubulg'a** — tig' yoki o'qdan saqlanish uchun temir yoki po'latdan ishlangan bosh kiyim. ³ **Ukpar** — ukki pati.

Mahmudbiy ham dushmanga bo'lgan cheksiz nafrati oshib-toshgan holda o'qday tashlandi. Ular bir-birlari bilan olishib ketdilar. Ikki o'rtada uzoq harb-zarb bo'lishiga qaramay, bir-biriga shikast yetkaza olmadilar. Nihoyat, oxirida, Mahmudbiy chapdastlik bilan Jalmaga nayza sanchib, uni yaralagan holda otidan dast ko'tarib, yerga uloqtirdi. Bu manzarani ko'rib turgan Jaloliddin qo'shinining ruhi ko'tarilib ketdi. „Dastingga ofarin!“, „Mahoratingga ofarin, botir!“ — degan qichqiriqlar samoni tutdi. Shu onda Mahmudbiy epchillik bilan arqon tashlab, mo'g'il pahlavoni Jalmaning bo'ynidan bog'ladi-da, Jaloliddin oti oyog'i ostiga keltirib tashladi.

— Barakalla, er yigit! Asli ota uli ekansen! Dushmanni hamisha mahv etmoq kerak! — dedi sarkarda baland ovozda bahodir yuzboshidan mamnun bo'lib.

Bu holdan g'azabga kelgan alamzada mo'g'il qo'shinlari birinchi bo'lib jang boshladilar. Lekin Jaloliddinning oldingi safdagi qismlariyoq ularni tor-mor keltirib, uloqtirib tashladi. Bu narsa ayni bir vaqtda vatanparvarlarning jangovar ruhini benihoya ko'tarib yubordi. Dushman talafotlarga qaramay, har gal yangidan yangi kuch bilan hujumga o'tar, har safar ham o'shandan kuchli zarbaga duch kelardi. Bu hol bir necha bor takrorlangach, dushman chekina boshladi. Endi hujum qilish u yoqda tursin, qarshilik ko'rsatishga ham ko'zi yetmay qoldi. Jaloliddin Parvon ostonalarida qo'llagan jang uslubini bu yerda ham takrorladi. Uning jangchilari qat'iy buyruqqa amal

qilib, chekingan dushmanni hayratda qoldirib, orqasidan quvmay, turgan yerlaridan bir qadam ham qo'zg'almadilar.

Dushmanning asosiy zarbdor kuchlari bilan yuzma-yuz bo'lgan mardonavor jang shu tariqa surunkasiga yetti kun davom etdi. Sakkizinchi kun Jaloliddin ahvol nihoyatda tangligini nazarda tutib, jangchilarga qarata yangroq va baland ovozda dedi:

— Barakalla, azamatlar! Sizlar qahramonona muhoraba qilib, vatanning munosib farzandlari ekanligingizni ko'rsatdingiz. Ozodlik uchun kurashga astoydil bel bog'lag'on sizday shunqorlarni asrlar o'tsa-da, el-yurt aslo unutmag'ay. Xo'rlanib yashashdan ko'ra, nomusli o'lim a'lo! Aziz birodarlar, xudo yor bo'lsin, olg'a!..



1. Mahmudbiy va Jalma o'rtasidagi jang manzarasini so'zlab bering.



2. Jangda kim g'olib bo'ldi?



* * *

Alamzada sheryurak Jaloliddin oltin dastali olmos shamshirini qinidan shartta sug'urdi-da, boshi uzra baland ko'targan holda na'ra tortib, jang maydoniga ot soldi. Dushman kuchlari Xorazmshoh qo'shiniga keng maydon bo'ylab uch tarafdin yaqinlasha boshladi. Ular daryo bo'yiga yetib kelib, har biri yarim doira shaklida, xuddi bir-biriga ro'baro' qilingan ikki kamon, bir-biriga tashlanmoqqa shay ikki haybatli tog' singari to'xtadilar. Chingizxon Jaloliddinni daryo tomondan

iskanjaga olish uchun o'zining yangi saralangan qo'shinlarini yo'lladi. O'zi esa a'yonlari hamda shaxsiy qo'riqchilari qurshovida odamlar qoni qanday to'kilishini va ularning qanday tezlik bilan jon berishlarini tomosha qilish uchun bir tepalik ustiga chiqdi.



Xorazmshoh yetti kunlik jang davomida o'n mingdan ziyod kishisini yo'qotgan edi. Dushman tomondan ham yarador bo'lganlar bilan birga, yuz mingga yaqin kishi yo'qotildi. Jaloliddin Chingizxonning qolgan ellik mingga yaqin qo'shiniga qarshi yana uch kun davom etgan shiddatli janglar davomida bir necha bor muvaffaqiyat qozondi. Uning shu paytgacha mo'g'illarga qarshi olib borgan barcha janglari ham bir bo'ldi-yu, bu yerdagi jangi bir bo'ldi. Jangning benihoya qiziganligi, olishuv harorati hamda seldek to'kilayotgan qip-qizil qondan daryo yuzi olov sahosidek ko'rinar, qum singari tinimsiz maydalab yog'gan yomg'irdan hamma yoq ho'l edi. Shunday bo'lsa-da, jang sur'ati zarracha pasaymadi. Ajal urug'i sepilib turgan bu maydonda na o'lganlarni, na yaradorlarni aniqlab bo'lmas, jang qiy-chuvidan hammaning asabi taranglashgan, ikki tarafda shunday g'ala-g'ovur boshlangan ediki, go'yo ajdaho ikki tomonni ham birdan o'z domiga tortayotgandek edi. Shamolda hilpirayotgan bayroqlar ham qizg'in jang borayotganidan darak berardi. Namgarchilik

tufayli yerlarda yurish qiyinlashar, piyoda lashkarlarning harakatlaridan hamda suvoriylarning ot tuyoqlari ostida yanchilaverib, sirg'anchiqqa aylangan maydonda yiqilgan, yarador bo'lgan kishilar havo o'rniga loy-balchiq yutganlaridan nafas olishlari ham qiyinlashardi. Qurol-yarog'larning jiddu jahd ila bir-biriga urilishidan uchqun chiqar, otlarning kishnashidan zamin ham larzaga kelar edi. Bir-biri bilan aralash-quralash bo'lib ketgan qo'shinlar orasida zarhal sovut¹, boshiga tug'day hilpirab turuvchi ukpar qo'ndirilgan, dubulg'a kiygan, yirik oq tulporli Jaloliddinning alp qomati barala ko'rinib turardi. U qilichini har sermaganda dushman qatorasiga yer tishlayotgani ko'rinar edi. Necha bor u dushman qarorgohi joylashgan yergacha yashinday yorib kirib, ularga kutilmaganda talafot yetkazardi. Hatto Chingizxonning o'zini ham jon saqlash uchun qochishga majbur qildi. Lekin ayyor va makkor Chingizxon yangidan yangi harbiy qismlarini jangga tashlar, pistirmadagi tumanlarini kerakli paytlarda ishga solardi. Nihoyat, u o'z raqibining zo'r qarshiligini sindirishga muvaffaq bo'ldi.



Bo'limda jang manzaralari qanday tasvirlangan?



* * *

Jaloliddin Manguberdining qo'shinlari har tomondan iskanjaga tushib qolgandi. Shunga qaramay, ular jon olib, jon berib, bahodirona jang qilishda davom etardilar. Dushman ularni

¹ **Sovut** — tanani nayza, o'q zarbidan saqlash uchun kiyiladigan po'lat simdan to'qilgan kiyim.

tobora qisib kelmoqda, jangchilar safini Chingizxonning o'zi boshqarib bormoqda edi.

Jangda zafar qozonishiga ko'zi yetgan Chingizxon Jaloliddinni tirik qo'lga tushirish uchun qat'iy farmon berdi. Mo'g'illar bamisoli o'rab ov qilgandek, halqa siqig'ini zo'r berib kuchaytirdilar. Ter va changdan, sachragan qon tomchilari-yu g'azab alangasidan sarkardaning aftini tanish qiyin edi. Jaloliddin qarshilikni ortiq davom ettirish befoyda ekanini ko'rgach, oilasi — onasi Oychechak, xotini va bola-chaqalarini baland jar tepasidan daryoga tashlashga buyruq berdi. Quturgan ajdahodek to'lg'anib, shiddat bilan oqayotgan daryodan jigargo'shalarining faryodi jang suronlarini bir daqiqa bosib ketgandek bo'ldi ...

Bu judolik butun borlig'ini o'tday yondirib yuborgan Jaloliddin qahr bilan yov ustiga sherday tashlanib, mo'g'il saflarini to'fonddek yorib o'tdi-da, daryo bo'yiga ketdi. Qanchadan qancha og'ir damlar-u zafarlarda sohibining istaklarini quloq qoqmay bajarib kelgan, uni qirg'in-barot janglardan eson-omon olib chiqqan do'sti — sevimli oq turkman jiyroni ahvolni darrov tushundi, xo'jasining bu galgi amrini ham bajo keltirib, chuqur jar tubida qirg'oqqa guvullab urilib oqayotgan po'rtanali dar-



yoga o'zini otdi. Qolgan askarlardan bir qismi ham dovyurak sarkarda ortidan o'zlarini daryoga tashladilar. Tez oqib borayotgan suvda otlarning qamishdek quloqlari-yu manglaylarigina ko'rinib turardi. Ular ham g'ayrat va shijoatda jangchilardan qolishmay, kuchli oqimga bas kelgancha, qiyalab, qirg'oq tomon dam-badam pishqirib suzib borardi.

Mo'g'illar qo'ldan chiqqan Jaloliddin va uning yigitlarining cheksiz botirliklaridan hayratga tushib, alamlaridan qichqirib yubordilar. Mo'g'il xoqoni jar yaqiniga kelib, uning tubida dahshatli to'lqinlar uzra xorazmshohlar mamlakatining so'nggi bayrog'ini ko'targan holda mardona suzib borayotgan Jaloliddinni ko'rdi. Uncha-muncha botirlikni nazarpisand qilmaydigan Chingizxon dovyurak sarkardaning bu misli ko'rilmagan jasoratiga lol qolgan holda umrida birinchi marta tan berdi: „Qani emdi (endi) mening fazandlarim ham ana shunday bo'lishsa. Alar sherni ko'rg'onda shoqolga o'xshab dumin qisadurlar. So'ngak taloshg'on it kabi bir-birlari bilan g'ajishodur!“ — deya nolidi o'zicha ichida.



1. Nima uchun Jaloliddin o'z yaqinlarini daryoga g'araq qilishni buyurdi?
2. U nima uchun taslim bo'lmadi?
5. Vatanimiz ozodligi uchun kurashgan qahramonlardan yana kimlarni bilasiz?



Qahramonlar haqida qanday maqollarni bilasiz, aytib bering.



BUYUK AJDODLARIMIZ MEROSINI O'RGANAMIZ



Tarixda shunday ulug' zotlar o'tganki, ularning hayot yo'li, umr mazmuni biz uchun ibratdir. Ulug'lar izidan borish, ular qoldirgan merosdan bahramand bo'lishning o'zi Ulug' inson bo'lishga yetaklaydi.

Hurmatli o'quvchi!

Sizning qalbingizni Ulug'lar yoqqan chiroq bilan yoritish maqsadida, ulkan dengizdan bir tomchi sifatida, bobolarimiz qoldirgan xazinadan bahramand qilmoqchimiz. Ular insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik, do'st-birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, yaxshilik va yomonlikning oqibati, halollik, to'g'rilik, oliyjanoblik, botirlik va qo'rqqoqlik, odob-axloq, saxiylik va baxillik, kattaga hurmat, kichikka mehr-shafqat kabilar haqida.

Yusuf xos Hojib



Buyuk bobokalon shoirimiz Yusuf xos Hojib odamlarning baxtli-saodatli yashashlari uchun, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish maqsadida 1069-yilda „Qutadg'u bilig“ asarini yozganlar. „Qutadg'u bilig“ qutga, ya'ni baxt-saodatga eltuvchi bilim deganidir. Shoirning o'zlari aytganlaridek, bu kitob:

*Boshdan oxirgacha donolar so'zi
Go'yoki tuzilgan marjondek o'zi.*

Bu asarda eng yaxshi insoniy fazilat va xususiyatlar asar qahramonlari sifatida ramziy ma'noda berilgan.

Masalan: **Adolat** — **Kuntug'di** deb nomlanadi va shohlik vazifasini bajaradi. Demak, shohlik — bu adolat. Adolat har ishda ustun bo'lishi kerak ekan. **Davlat** — **Oyto'ldi** uning vaziri, **Aql-zakovat** — **O'gdulmish** va **Qanoat** — **O'zg'urmishlar** shohning maslahatchilari sifatida bayon etiladi.

„Qutadg'u bilig“ jahon adabiyotining nodir asarlaridan biri hisoblanadi. Bu asar o'sha davrlardan boshlab bir necha tillarga tarjima qilib kelingan va ko'pgina xalqlar undan bahramand bo'lganlar.

Hurmatli o'quvchi! Biz „Qutadg'u bilig“ asaridan lavhalar keltirar ekanmiz, o'ylaymizki, Siz kelajakda bu asarni to'liq o'qib chiqasiz.

Har biringizni adolat, davlat, aql-zakovat va qanoat kabi hislar tark etmasligini tilab qolamiz.



1. „Qutadg'u bilig“ qanday asar ekan?

INSON QADRI BILIMDA

(Asardan parchalar)

Yana bir hikmat bor: Hazrati odam — bilim, aql-u idrok sabab muhtaram.

Odamzod naslining ulug'ligi bilimdan. U aql-idrok tufayli ne-ne tugunlarni yechishga qodir. Idrok va bilim egasi bo'lgan har qanday odam sharaflidir.

*Bilimni buyuk bil, o'quvni ulug',
Shu ikkov ulug'lar kishini to'liq.
O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar,
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik olar.
Uquvli uqar-u, bilimli bilar,
Bilimli, uquvli shodlikka to'lar.*

Bilim egasi o'z tilaklarini topadi, orzu-maq-sadlariga erishadi.



1. Inson qadri nima bilan o'lchanar ekan?
2. Sizningcha bilimga intilmagan kishiga qanday baho berish mumkin?
3. Bilimli bo'lish uchun nimalar qilish kerak?



„O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar, Bilim kimda bo'lsa, buyuklik olar“ gapining ma'nosini tushuntirib bering.



TILINGNI AVAYLA — OMONDIR BOSHING

Kishiga ro'shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi. Qut-izzatni ham, obro'-e'tiborni ham kishi til orqali topadi. Agar tilga e'tibor berilmasa, uni noto'g'ri qo'llasa, odam boshini yorishi hech gap emas. Bilib so'zlangan so'z donolik sanaladi. Bilimsizning so'zi esa o'z boshiga yetishi mumkin.

Hech qachon ko'p gapirma. Juda oz so'zla.

*Kishi so'z tufayli bo'ladi malik,
Ortiq so'z bu boshni etadi egik.
Tilingni avayla — omondir boshing,
So'zingni avayla — uzayar yoshing.*

Tilning keltiradigan nafi juda ko'p. Shuning uchun qachon va qancha so'zlasang ham bilib gapir. Gapirgan gaping ko'p odamlar uchun ko'z bo'lsin. Nazar solib qarasang, bilimsiz odam ko'r kishiga o'xshaydi. Uning ko'zini ochish uchun bilimdan hissa berish lozim.

*Senga so'zladim men so'zim, ey o'g'il,
Senga o'git berdim o'zim, ey o'g'il.*



1. Nima uchun tilni avaylash kerak?
2. „Gapirgan gaping ko'p odamlar uchun ko'z bo'lsin“ o'xshatishini qanday tushunasiz?



So'zlash odobiga rioya qilish haqida gapiring.



FOYDALI FAZILAT VA YARAMAS ODAT

Elig¹ bir kuni o'z maslahatchisi O'gdulmishni chorlab undan: „Insondagi foydali fazilatlar hamda yaramas odatlar qaysilar?“ — deb so'rabdi.

O'gdulmish javob beribdi:

— Ey Elig, — debdi u, — odamdagi eng ulug' fazilat ezgu qiliq va go'zal xulqdir. Ikkinchisi — rostlik, uchinchisi — hayo hisoblanadi.

Mana shu uch fazilat birlashsa, kishi baxtiyor bo'ladi, qut-iqbol uning huzuriga bosh urib keladi.

¹ Elig — podshoh.

Chunki kimning xulqi go'zal bo'lsa, uni barcha xalq sevadi. Xulqi soz bo'lgan odamga doimo to'rdan joy tegadi.

Hayo yaramas ishlardan tiyadi. Hayosizlik aslida juda yomon dard, borib turgan balodir. Rostgo'ylik, hayo va xush xulq birlashgan joyda baxtiyorlik bo'ladi.

Kishiga naf bermaydiganlari ham uch xil bo'ladi. Ularning dastlabkisi o'jar va fe'li yomon kishilar, keyingisi yolg'on to'qiydiganlar va nihoyat, oxirgisi baxil va pastkash kishilardir.

Kimning fe'li yomon bo'lsa, uning omadi kelgan chog'da ham ishlari chappa bo'lib ketaveradi.

Kimda-kim yolg'onchilik bilan mashg'ul bo'lsa, rostgo'ylar orasiga sig'maydi.

Ochko'zlik tubanlik demakdir. Kimda-kim shunday ekan, uning qut-iqbolini ketadi, oti qolmaydi.

Elig O'gdulmishdan:

— Kishi onasidan dono bo'lib tug'iladimi yoki muayyan bir yoshga yetganidan keyin zakovatli bo'ladimi? — deb so'rabdi.

O'gdulmish shunday javob beribdi:

— Ey Elig, bu san'atning nomi bilim va uquvdir. Odamzod onasidan albatta bilimsiz tug'iladi. Ammo u bilib, o'rganib to'rga chiqadi. Uquv va zehn esa kishi tabiatida bo'ladi. Bilim ko'p o'qish va o'rganish mahsulidir.

Elig bu javoblardan qanoatlanibdi. O'gdulmishni tobora ko'proq qadrlabdi. Uning martabasini oshiribdi. O'gdulmish ham ko'nglini ochiq, tilini shirin tutibdi. Uning o'rtoqlari ko'payibdi. Axir, do'sti ko'p odam mustahkam qoyaga o'xshaydi.

Baxt-iqbol ochiqko'ngil odamga yarashadi. Agar u kamtar bo'lsa, husn ustiga husn.

*Ko'chatga o'xshaydi bu qutning o'zi,
Ko'ngil kamtarligi — uning ildizi.*

Xushfe'l kishi naqadar ezgu. U juda yashariq bo'ladi, ishlari ham rivoj topaveradi. Mutakabbir, gerdaygan kishi yaroqsiz bo'ladi. Uning ishi yurishmaydi, orqaga ketadi. Davlat hammaga ham yarashadi, ammo uquv-idrokli donishmand kishiga u ko'proq mos bo'ladi. Davlat nodon bilan faqat yonma-yon turadi, xolos, biroq u dono bilan haqiqiy go'zallik kasb etadi.

Elig bu xildagi sinovlarni davom ettirdi. Yigitning yetuk va komil ekanligi kundan kunga ayon bo'laverdi. O'gdulmish qadr topgan paytda ko'ksini kermadi, e'tiborsiz qolganida ham yuzini burgani yo'q. U xazina boshlig'i qilib tayinlandi.

O'gdulmish o'z o'gitlarini berishda davom etdi:

— Bu dunyoda oltin va kumush nihoyatda qimmatli narsa. Ammo o'zini tutgan kishi ulardan ham qadrliroq.

Dunyoda odamzod farzandi turli yumushlar bilan band. Ularning biri yugurib-yelib olamni kezadi, boshqasi tinim bilmasdan, jonini fido qilib dengizlarda suzadi:

*Qoya qo'poradi, tog' qazir birov,
Biri yer quloqlar, kezadi yayov.*

Shuncha harakatlar boisi tomoq, kiyimdir. Dunyoda maqtovim hamda boyligim ortsin degan odam odamgarchilik qiladi. Ko'ngil va tilni to'g'ri

tutsang, ey dono, sening rizqing hech qachon ozaymaydi. Boylik to'g'rilikdadir. Kunlarini to'g'rilik bilan o'tkazish kishiga ko'rk.

Odangarchilik hamma ezgu ishlarga asos bo'ladi.



1. Insonning ulug' fazilati nima ekan?
2. Nima uchun ulug' fazilat insonga foyda, yaramas odat esa ziyon keltiradi?



Ushbu mavzular yuzasidan ota-onangiz bilan ham suhbatlashing.



„QUTADG'U BILIG“DAN

Sa'dulla Ahmad tarjimasi

... Och, bolam, ochganing kitob tengsizdir,
Tengsiz bilim bilan to'lug' dengizdir.

Qadr ham qimmating, bilgil, bilimdan,
Bilim shukronasin tingla tilimdan.

Tuzdim nafli kitob, so'z-o'yinchoqmas:
Talay turklar, esiz, ma'nisin chaqmas.

Chinliklar: „Abadul mulk“, deb edi,
Mochinlik: „Anisul mamolik“, dedi.

Mashriq zaminda kim hakimdir, bilar,
„Ziynatul umaro“ nomin berdilar.

Eronlik atadi: „Shohnoma turkiy“,
Turonlik „Qutadg'u bilig“ der, chunki —

Tafakkur ham tilda ne turli so'z bor,
Keltirdim, o'zgalar bilmog'i dushvor.

Yana bu ismni qo'ygan ulug'dir,
Jismi haq nuri-la to'ygan, to'lug'dir.

Kitobda bitibman ajib hayratni,
Turkiylar tilidan olib g'ayratni.

O'ktam, sheryurak bo'l, zukko, keng siyna,
Adl-u himmat bilan to'lsin xazina.

So'zim — yodgor senga, so'zim — nasihat,
Sen ham duoda bo'l, toki tan sihat.

Bilim, poklik bilan elim ko'z ochdi,
Elim yodi bilan tilim so'z ochdi.

Yaqin tutmog'ini ko'rdi-yu vojib,
Vojib unvon bo'ldi Yusuf xos Hojib,

Bu qutlug' kitobdir, bilsang, qayoniy,
Mazkur to'rt tabarruk mag'zin bayoni: —

Biri Adolatdir — to'g'rilik asos:
Davlatdur — baraka, iqbol unga xos.

Bu biri — Aqlidir, ulug'lik tarzi:
Biri Qanoat, bu — ofiyat darsi.

Yana har biriga qo'yganman ism,
Ey kim, erinmasdan, aytay ma'nisin:

Kuntug'di Elig deb Adl otini,
Poyiga elitdim malik taxtini.

Aql — O'gdulmish-u Davlat — Oyto'ldi,
Oyto'ldi vazir-u O'gdulmish — o'g'li.

Qanoat O'zg'urmish nomini oldi,
Mansabda vazirning yonini oldi.

Durdek terib berdim turkiy qo'shiqni,
O'qurda qo'shib ayt banda-oshiqni.

Ketarman, ketganda ochiqdir eshik,
Kelganda qoldirdim ibratli beshik.



„Qutadg'u bilig“ asari haqida o'z fikrlaringizni ayting.

Alisher Navoiy



Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug'ilgan. Buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning ijodida bolalar tarbiyasiga bag'ishlangan asarlar juda ko'p. Bu asarlarida u bolalarni ilm-hunar egallashga, mehnatni sevishga undaydi.

Uning o'zi ham juda yoshligidan o'qishga beriladi. Alisher Navoiyning boy adabiy merosi bizgacha yetib kelgan.

LISON UT-TAYR

(Asardan parchalar)

Alisher Navoiy

Bir kun guliston, o'rmon, dengiz va biyobon qushlari har biri o'z guruhi bilan bir yerga jam bo'lib, majlis tuzdilar. Ular muhabbat bilan navo tuzib, bazm tugagach, osmonga parvoz qilmoqchi edilar.

Ammo bu yig'inda ulardan hech qaysisining tayin bir o'rni yo'q edi. O'tirishda tartib bo'lmagani uchun Kalog¹ To'tidan, Zog² esa Bulbul va

¹ Kalog' — olaqarg'a. ² Zog' — go'ngqarg'a.

Qumrilardan yuqoriroqda o'tirdi. Xod¹ Shunqordan to'rga chiqdi. Yurtachi² esa Tovusni ham nazar-pisand qilmay, yuqoriga o'tib ketdi. Hunarliklar o'rnini behunarlar egalladi. Tojsiz qushlar to'rga chiqib olishdi, tojdor qushlar esa poygakda qolishdi.

Nihoyat, poygakdagilar nizo chiqardilar, to'rdagilar esa ularning so'ziga quloq osmadilar. Natijada qushlar orasida g'avg'o-to'polon ko'tarildi, ular sodir bo'lgan ahvolni mojarolasha-mojarolasha qizg'in muhokama qila boshladilar. Vaqt o'tgan sari bu mojaro tobora oshib bordi.

Oxir-oqibat ular shunday bir shohga muhtoj bo'ldilarki, u shoh insofli va diyonatli, yaxshi tartib o'rnata oladigan va adolatli bo'lsin. Toki uning davlati soyasida tabaqadan yuqori tabaqadagilarga shikast yetmasin, yuqori tabaqadagilar esa o'rta tabaqalar oldida xor bo'lmasin. Har bir qush guruhi o'ziga aziz bo'lgani holda, hamma bir tamizli, aqlli va dono shoh bo'lishini istadi.

Ammo bunday odil shoh ular orasida yo'q edi. Shuning uchun ham qushlar zoru mahzun bo'lib, har biri o'zining yomon holidan afsus chekdi. Ulardan motam ohanglari eshitila boshladi. Bunday shoh topilmasligidan ularning barchasi noumidlikka berildilar. Bu hodisa ular qalbida og'ir iz qoldirdi.



1. Nima uchun qushlar orasida janjal paydo bo'ldi?
2. Ular qanday shohga muhtoj bo'ldilar?



Hikoya mazmunini so'zlab bering.

¹ Xod — kalxat. ² Yurtachi — o'laksaxo'r qush.

HIKOYAT

Bir zo'r pahlavon bo'lib, u behunarlik bobida sohibhunar edi. Choshgohda o'n botmon, kech-qurun ham xuddi shuncha ovqat yer edi. Bu ikki payt mobaynida yana shuncha ovqatlanib olardi. U shunchalik kuchli ediki, hatto mast filga ham shikast yetkaza olardi. Ittifoqo, hayot hodisalari tufayli mamlakatda xarobalik yuz berdi. Shu sababli u yerning aholisi o'z joyini tark etib, o'zga tomon ketishga majbur bo'ldi. Yo'l qiyinchiliklaridan bexabar pahlavon ham ularga hamroh bo'ldi. Yo'l uzoq bo'lib, unda badnafs kishilar nafsini to'q tutadigan obod joylar yo'q edi.

Taom yemagan pahlavon birinchi kundanoq o'z holiga aza tutishga kirishdi. Ikkinchi kuni esa uning jismida madori qolmadi. Ammo uchinchi kun u boyaqish biyobonda jon taslimlashga majbur bo'ldi.

Yana ikki-uch kun mashaqqat tortgach, yosh bolalar ham, hatto ikki bukilgan qariyalar ham sabr-toqat bilan yo'lni oxiriga yetkazishdi va obod bir manzilga yetib kelib, maqsadlariga erishishdi. Pahlavon esa bu azoblarga bardosh bera olmay, nobud bo'ldi.



1. Pahlavon haqidagi hikoyat nima uchun keltirildi?
2. Inson o'jiz bo'lib qolmasligi uchun nimaga berilmasligi kerak ekan?



Hikoya mazmunidan xulosa chiqaring.

HIKOYAT

Basra¹ shahrida bir xasis kishi bor edi. U nodonlik bilan oltin-kumush yig'ishga mukkasidan ketgan edi. Hotam Toy saxovat va karam ko'rsatishda qancha nom qozongan bo'lsa, dinor va dirham yig'ishda undan mashhurroq edi. Ushbu xasis va pastkash kishi ko'p mashaqqat chekib, bitta-bittalab oltin yig'ar edi. U katta bir xazina to'plagach, ularni yer tagiga ko'mdi. Bu ochko'z yana shunga teng keladigan boylikni to'niga gir aylantirib tikib olgan edi. Yashirgan behisob oltinlari o'sha shum hirsli kishining ko'ziga hatto kunduz kunlari ham osmonda yaraqlagan yulduzlar kabi ko'rinar edi. U o'zicha, tanimga quvvat, tanimga quvvatgina emas, balki jonimga sihat ham ana shu oltinlarim tufayli, deb o'ylardi.

Ittifoqo, bir kuni u savdo-sotiq qilish uchun daryo sohiliga keldi. U yerda savdo qilgan molidan tushgan harom pullarga taom olib yedi. Shundan so'ng, qo'lini yuvmoqchi bo'lib, daryo labiga engashdi. Ammo to'niga tikkan oltinlari og'irlik qilib, uni suvga tortib ketdi. Xasis kishi ana shu yomon fe'li tufayli daryoga cho'ka boshladi. U suvdan chiqmoqchi bo'lib, iztirob bilan chunon talpinar, birov kelib qutqarar, degan umidda baqirib-chaqirar edi. Ammo odamlar yordamga yetib kelgunga qadar u daryo tubiga cho'kib bo'ldi. Chunki uning oltindan bo'lgan langari behad og'ir ediki, shu sababli u suv tubida sadaf ichidagi gavhardek mangu tik turib qoldi.

¹ Iroqdagi shahar.



Uning joniga ofat yetkazgan narsa, albatta, o'zi yig'gan siym-zar edi. Shuningdek, uning yashirib qo'ygan xazinasini ham talon-taroj bo'ldi. Oltin-kumush yig'ish oqibatida ana shunday mudhish voqea bilan tugadi. Sen bunday jirkanch ishlardan qo'lingni tort!



1. Xasis, ochko'z bo'lgan odam o'z boyliklarini qanday yashirdi?
2. Ochko'zlik qanday oqibatlarga olib kelar ekan?



Kaykovus



Kaykovus Hazar dengizining janubiy qirg'og'ida qadimiy Gilon davlatida yashagan. U 412- hijriy, 1021 —1022- milodiy yilda tug'ildi. U „Qobusnoma“ asarini 475- hijriy, 1082 — 1083- milodiy yilda yaratdi.

„Qobusnoma“ 44 bobdan iborat bo'lib, bulardan to'rt bobi diniy mavzuda, qolgan 40 bobi hayotiy voqealarni ifoda etadi. Kaykovus o'zining hayotiy

tajribalari bilan o'g'li Gulonshohni tarbiyalashni istaydi va bu pand-nasihatlarni o'g'li uchun eng qimmatbaho meros deb ta'kidlaydi.

„QOBUSNOMA“DAN

DO'ST TUTMOQ ZIKRIDA

Ey farzand, bilg'ilki, to kishi tirikdur, do'stsiz bo'lmag'usidur. Kishining do'stsiz bo'lg'onidin birodarsiz bo'lg'oni yaxshidur. Bir hakimdan so'radilar: „Do'st yaxshiroqdurmi yo birodar?“ Hakim aytdi: „Do'st bo'lsa yaxshidur“.

Demak, do'stlarning ishi haqida o'ylag'il, ularga hadyalar bermoq, muruvvatlar qilmoq bila do'stlik qoidasin mahkam qilg'il. Nedinkim, har kishi do'stlarni yod qilmasa, do'stlar ham yod qilmag'usidur va ul kishi hamisha do'stsiz qolg'usidur.

Hamma vaqt do'st tutmoqni odat qilg'il, zeroki, har kishining do'sti ko'p bo'lsa, ayblari shuncha sir tutilur va fazilati ko'payur. Lekin har vaqt yangi do'st topsang, ko'hna do'stlarni tark etmag'il va ulardin yuz o'gurmag'il, toki hamisha do'sting ko'p bo'lsun, debdurlarki, yaxshi do'st kishiga ulug' ganjdur. Odamlar haqida o'ylab ko'rki, ular sen bilan do'stlik yo'lga kirarlar, ammo yarim do'st bo'lurlar. Shular bila soz munosabatda bo'l va ular bila har turluk yaxshi va yomonda muttafiq¹ bo'lg'il, toki ular sendin ko'p yaxshiliklarni ko'rsa, tadrij² bila keyinroq yakdil do'st bo'lurlar. Bir kun Iskandardin so'radilarki: „Buncha oz sarmoya bila

¹ **Muttafiq** — do'st, birlashgan. ² **Tadrij** — asta-sekin.

bu miqdor ko'p mulkni qanday xislat bila qo'lga kirguzding?" Iskandar javob berdikim: „Talattuf¹ bila dushmanlarni qo'lga kiritdim va taahhud² yo'li bilan do'stlarni yo'lga soldim. Bu jihatdan shuncha mamlakatni qo'lga oldim“.

Yana bilg'ilki, do'stlarning do'stlari ham do'stlaringdur. Ehtimolki, uning o'sha odamga do'stlig'i sening do'stlig'ingdin ko'proqdur. Agar do'sting sening dushmaningni sevsa, bunday do'stdin ehtiyot bo'l, nedinkim bunday do'st dushman tarafidin senga yomonlik qilishdin ham andisha qilmag'ay. Sening do'stingga dushman bo'lg'on do'stdin ham parhez etg'il.

Har do'stkim, sendin hech sababsiz ginali bo'lsa, uning do'stlig'idan tama qilmag'il va jahonda undan aybliroq va undan ham yomonroq bo'lmag'ay.

Bilg'ilki, jahonda aybsiz odam bo'lmas, ammo sen salohiyatlig', muruvvatlig' bo'l, nedinkim bundaylarning aybi kam bo'lur. Muruvvatsiz, fazilatsiz kishini do'st tutmag'ilki, bunday kishining xosiyati bo'lmas va ularni non do'stlari zumrasidin³ tutg'il, nedinkim, ular non do'stidurlar, or va nomus do'sti emasdurlar.

Yaxshi-yomon odamni bilg'il va ikkoviga ham do'stlik qilg'il. Yaxshilarga ko'ngul bila va yomonlarga til bila do'stlik qilg'il, toki ikki toifaning ham do'stlig'i senga nisbatan hosil bo'lsun, nedinkim,

¹ **Talattuf** — rahmdillik, yumshoqlik bilan muomala qilish.

² **Taahhud** — ahd qilish, so'z berish. ³ **Zumra** — to'da, jamoat, guruh.

kishining hojati tanho do'stig'a tushmag'usidur. Bir vaqt bo'lurki, kishining hojati zarurat yuzidin yomonlarga ham tushg'usidur. Demak, bu ikki toifaning ham do'stlig'in hosil qilg'il.

Aqlsiz odamlar bila hargiz do'st bo'lmag'il. Aqlsiz do'st aqlli dushmandin yomonroqdur, chunki aqlsiz do'st shundoq ish qilurki, aqlli dushman uni qila olmas. Muruvvatlig', ilmlig' va vafolig' kishilarni do'st tutg'ilki, to sen ham ul fazilatlar bila yanada mashhur bo'lg'aysan. Bemuruvvat, mehr-shafqatsiz, hunarsiz (ilmsiz) kishilar bila o'lturmag'il. Behunar bila o'lturg'ondan tanholig' yaxshiroqdur. Hargiz do'stlarning haqin zoye qilmag'il, to sendan malomat qilmasunlar.

HIKOYAT

Undog' eshitibmanki, Suqrot hakimni o'ldirish uchun olib borayotgan chog'da unga: „Butparast bo'li!“ — deb ko'p aytdilar. Ul dedi: „Bundoq so'zni ayturdin til chekinglarkim, men hargiz ul ishni qilmasman!“ Uni o'ldirishga olib borar edilar. Shogirdlaridin bir jamoa unga hamroh bo'lib borar edilar. Ular yig'lab, zorlig' qilib so'rardilar: „Ey hakim, endi o'limga ko'ngil qo'ymishsan, aytg'il, seni qaysi yerga dafn etaylik?“ Suqrot tabassum qilib dedi: „Qay joyni ko'nglungiz tilasa, ul joyga dafn qiling, ya'ni mening jasadim qayda bo'lsa, so'ngaklarim unda bo'lg'ay, faqat meni yod qilsangiz bas!“

Ey farzand, odamlar bilan do'stlig'ing o'rtacha bo'lsun. Do'stim ko'p deb barchasiga umid bila ko'ngul bog'lamag'il, ilgari va keyinga qarag'il.

Do'stlaringning e'tiqodidan g'ofil bo'lmag'il. Agar sening mingta do'sting bo'lsa, zohirda barchasiga sendin do'stroq kishi bo'lmag'ay. Do'stlikni farog'liqda va tangdastlikda imtihon qilg'il, farog'liqda roz va taom bila, tangdastlikda sud va ziyon bila.

Har do'stki, sening dushmaningni dushman tutmas, uni do'st demag'il.

Agar do'stingning ko'ngli hech gunohsiz sendin qolsa, uni qaytib kelurga mashg'ul bo'lmag'il, nedinkim, tamagir, kekchi do'stdin uzoq bo'lg'il, uning do'stlig'i haqiqiy ermasdur, balki tama uchundur. Hasadlig' kishilarga hargiz do'st bo'lmag'il, chunki hasadlik kishi do'stliqqa loyiq ermasdur, chunki hosidning¹ hasadi hargiz ketmag'usidur va hamisha sendin ozurda² va ginador bo'lg'usidur.



1. Do'st bo'lishning qanday qoidalari bor ekan?
2. Qanday kishilar bilan do'st bo'lish foydali?



OMONATNI SAQLAMOQ ZIKRIDA

Ey farzand, agar senga bir kishi omonat topshirsa, to qila olsang, hech hol bila qabul qilmag'il. Ul jihatdanki, omonatni qabul qilmoq bag'oyat dushvordur (qiyindur). Mardum va juvonmardlik (insonparvarlik)ning yo'li uldirki, omonatni qabul qilmag'il va agar qabul qilsang, yaxshi saqlag'il, toki omonatni egasiga salomat topshirg'aysan.

¹ **Hosid** — hasadchi, birovning borligini ko'rolmaydigan kishi.

² **Ozurda** — ozor chekkan, ranjigan.



Hikoyat. Men shundoq eshitibmanki, bir kishi bir kecha sahar vaqtida qorong'uda uyidin tashqari chiqdi va hammomga bormoq tiladi. O'z do'stlaridan biriga dedi: „Mening bila hammomga hamroh bo'lub borg'il“. Ul dedi: „Senga hamrohlik qilurman va lekin hammomga kirmasman, nedinkim, mening bir zaruriy ishim bordur“. Ul kishi hamrohi bila hammom tomonga ketdi. Ikki yo'lning ayrilg'on boshiga borib, hammomga borg'uvchi kishiga xabar qilmay iziga qaytdi va o'zga yo'lga ravona bo'ldi. Ittifoqo, bir o'g'ri hammomga borguvchining izidan tushdi. Lekin ul kishi: „Izimdand kelaturg'on do'stimdur“, deb xayol etdi. Ul kishining qo'ynida yuz tillosi bor erdi. Hammomning eshigida tilloni qo'ynidan chiqarib, kecha qorong'usida tanimay tilloni o'g'riga berdi va dedi: „Ey birodar, men hammomga kirib chiqquncha bu zar senda tursun, hammomdand chiqsam menga topshirg'il“. O'g'ri zarni olib, ul joyda o'lturdi. Ul kishi hammomdand chiqib, liboslarin kiyib, yo'lga ravona bo'ldi. O'g'ri uning izidan chaqirib dedi: „Ey juvonmard, kelg'il va mendand zaringni olg'il. Bugun men sening omonatingni saqlab, o'z ishimdin qoldim“. Ul kishi dedi: „Sen kimdursand, bu oltin qanday oltindur?“ O'g'ri dedi:

— Men bir o'g'ridurman va bu sening menga topshirgand zaringdur. — Agar ming tillo bo'lsa ham sendin andisha qilmay olib ketar edim. Lekin sen bu zarni menga omonat topshirding. Omonatga xiyonat qilmoq juvonmardlikdin ermasdur.

Bas, ey farzand, omonat qabul qilib, omon saqlab, to egasiga topshirguncha senga ko'p ranj yetadur. Omonat egasi sendin hech minnatdor bo'lmag'usidur va aytadurkim:

„Topshirg'on molimni oldim, unga ne zarar tushdi“. Demak, chekkan ranjing zoye bo'lur. Agar omonatga bir ofat yetib yo'q bo'lsa, sening so'zingga hech kishi ishonmag'usidur va sen xaloyiqning o'rtasida xiyonatchi nomi bilan mashhur bo'lursan. Ana shunday tuhmatni bo'yinga ko'tarmak yaxshi ermasdur. Agar munkir¹ bo'lsang, sendan jabr-sitam bila olurlar. Shundan so'ng senga hech odam e'tibor qilmas.

Ammo agar sen bir kishiga omonat qo'yimoq tilasang, molingni pinhon bermag'il va ikki odil guvohning oldida berg'il. Bir nima bersang, qozi xati olib berg'il, to so'ngra qozining oldiga bormoqdin qutulg'aysan va agar qozining oldig'a borsang, ojiz va zalil² bo'lmag'aysan.

Omonatga xiyonat qilmag'il, omonatni kimyoyi zar debdurlar. Rostgo'y bo'lg'il, olam moli rostgo'ylikka vobastadur (bog'liq). Ko'shish qil, to firib yemag'aysan va hazar qil, to firib bermag'aysan.



1. Omonatni olish va berish tartibi haqida so'zlab bering.



3. Asardan kerakli xulosa chiqaring.

¹ **Munkir** — aybdor.

² **Zalil** — xor, tuban.

Gulxaniy 18-asrning oxiri — 19-asrning boshlarida yashab ijod etgan. Uning asl ismi Muhammad Sharif bo'lib, Gulxaniy adabiy taxallusidir.

Uning eng yirik asari „Zarbulmasal“dir. Bu hajviy asarida jamlangan masallari orqali o'zi yashagan zamondagi voqea-hodisalarga munosabatini ifodalaydi.

TUYA BILAN BO'TALOQ

Bor edi Farg'onada bir sarbon,
Tevasi bor erdi tug'di nogahon.
Ko'p ayolmand erdi-yu ham tangdast...
Ahli ayoli aning bas erdi cho'q,
Ozug'idan kulbasida narsa yo'q.
Hosili dunyo edi bir tevasi,
Emadurgon orqasida bo'tasi.
Bir kuni ul tevasini qumlodi,
Ortadurgan yuklarini jublodi.
Yuk og'ir edi-yu ham yo'l yiroq,
O'rtodi toyloqni nori firoq.
Fasli tamuz erdi havo ko'b isig',
Yo'lda temurdek edi qumlar qizig'.
Och o'tina kuydi onodin judo,
Modarini mehrida erdi ado.
Jahd ila yetmay anosin keynidin,
Qumda kuyardi g'ami ul siynadin.
Og'di yuki yo'lda, o'shal sarbon,
Yerga cho'kurdi tuzatay deb ravon.
Bo'tasi borib edi orqosidin,



Yondi haroratlari yag'mosidin.
Yuzlonib aydi: „Ayo, berahm onam,
Kuydi-yu yondi, tutashdi tanam.
Asta-asta yursang na bo'lg'ay, na g'am?
Siyna sutingdin emayin dam-badam“.
Aydi anosi balosig'a boqib,
Ko'zlarini yoshlari seldek oqib:
„Ko'rki, burunduq kishini qo'lida,
Bu kishini ko'zlari o'z yo'lida.
Manda agar zarra kabi ixtiyor —
Bo'lsa erdi: bo'lmas erdim zeri bor“.

Nasriy bayoni:

Farg'onada bir tuyakash bor edi. To'satdan tuyasi tug'di. Sarbon juda ayolmand bo'lib, qo'li qisqa edi. Oila a'zolari juda ko'p, ammo kulbasida hech ozuqa qolmagan edi. Uning dunyodagi yagona boyligi: bir tuyasi va uning orqasidagi bo'talog'i edi.

Bir kuni u tuyasini abzallab, ortadigan yuklarini yukladi va yo'lga tushdi. Yuk juda og'ir, ammo safar manzili juda yiroq edi. Bo'talog'i onasidan orqada qolib ketib, rosa qiynalardi. Chunki saraton fasli bo'lib, havo juda issiq; yo'ldagi qumlar temirdek qizigan edi. Bo'taloq onasiga yetolmay, och qolib, onasining mehridan yiroqda adoyi tamom bo'layozdi. Qanchalik chopmasin onasiga yetib yurolmas, ochlik va tashnalik azobidan qutulish uchun onasini emgisi kelardi.

Yo'lda tuyaning yuki sal og'di-yu, tuyakash yukni tuzatgani tuyani cho'ktirdi. Kuchli harorat dastidan kuyib-yongan bolasi ham yetib bordi va onasiga yuzlanib dedi: „Ey, rahmsiz ona! Kuyib-yondim. Olov tanamga tutashdi. Astaroq yursang netadi? Men ham sutingdan goh-goh emayin“.

Onasi ko'z yoshlarini seldek oqizib, bolasiga boqib dedi: „Ko'rgin: burunduq manovi kishining qo'lida-ku. Uning ko'zi yetar manzili yo'lidadir. Oh, agar menda zarracha ixtiyor bo'lsa edi, yuk ostida ezilib yurarmidim?“



1. Gulxaniyning qanday masalini bilasiz?
2. Sarbon ona tuyaga nimalarni yukladi?
3. Bo'taloq onasidan nima uchun ranjidi?
4. Tuya Bo'taloqqa nima deb javob berdi?



Masal mazmunini tahlil qilib, xulosa chiqaring.

Masal — ta'limiy va tarbiyaviy mazmunga ega bo'lgan, majoziy obrazlar vositasida voqelikni aks ettiruvchi kichik hikoyachalardan iborat asardir.



Bilimingizni sinab ko'ring

1. Alisher Navoiyning yoshlik yillari haqida nimalarni bilasiz?
2. „Lison ut-tayr“ asari yuzasidan o'z fikrlaringizni ayting.
3. Pahlavon haqidagi hikoyat yuzasidan o'z fikrlaringizi so'zlab bering.
4. Xasislik qanday oqibatlarga olib borishini bo'limdagi hikoya asosida so'zlab bering.
5. Kaykovus kim, u nimalar haqida yozgan?
6. Omonatni qanday saqlash lozim ekan?
7. Gulxaniy kim? Uning qaysi asarlarini bilasiz?
8. Masal nima?



Cho‘pchagim — cho‘pchak, oltin belanchak



Ertaklar xalq og‘zaki ijodiyotining eng qadimiy, ommaviy va keng tarqalgan janrlaridan biridir. Ertaklarda mehnatkash xalq ommasining eng yaxshi sifatleri — insonparvarlik, vatanparvarlik, do‘stga sadoqat, mardlik, saxiylik kabi fazilatlar ulug‘lanib, zulm va zo‘rluk, yolg‘onchilik, xiyonat qoralanadi. Ertaklar hayotga muhabbat uyg‘otadi, kelajakka umid ko‘zi bilan qarashga, farovon hayot uchun kurashishga chaqiradi, Yer yuzida adolat tantana qilishiga ishonch hosil qiladi.

Ertaklar obrazlar talqini, g‘oyaviy mazmuni, sujeti¹ va kompozitsiyasiga² ko‘ra shartli ravishda **hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklarga** bo‘linadi.

¹ **Sujet** — adabiy asarning mazmuni. ² **Kompozitsiya** — adabiy asar qismlarining tuzilishi, joylashishi, o‘zaro munosabati.

UCH HIKMATLI SO'Z

(Ertak)

Bir boyvachcha yo'lda ot minib ketayotib, yo'lovchi mo'ysafidga duch kelibdi. Ikkalasi yonmayon boraveribdi. Qarasa, mo'ysafid sira gapirmas emish.

— Otaxon, gaplashib ketaylik, — debdi boyvachcha jimlikni buzib.

— Ming tanga bersang, bitta gap aytaman, — debdi mo'ysafid.

Boyvachcha uning gapiga qiziqib, ming tanga beribdi.

— Yo'lda hamrohingdan oti-zotini bil, — debdi mo'ysafid. Shu bilan yana jim bo'lib, yo'lda davom etishibdi.

— Otaxon, gurunglashib ketaylik, — debdi boyvachcha yana chidamay.

— Ming tanga bersang, bitta gap aytaman, — debdi mo'ysafid yana. Boyvachcha unga yana ming tanga sanab beribdi.

— Mehmondorchilikka borsang, o'tirgan o'rningni berma, — debdi mo'ysafid.

Tag'in jim bo'lishibdi. Boyvachcha, tag'in gaplashaylik, deb evaziga uchinchi marta ming tanga tutqizibdi.

— Birov so'ramasa, pichog'ingni chiqara ko'rma, — debdi mo'ysafid.

Achchig'i chiqqan boyvachcha qachongacha ming tanga berib, bu miyasi aynigan cholning bitta gapini eshitaman, deb otiga qamchi urgancha ilgarilab ketibdi. Shaharga kirib, choyxonada dam

olib o'tirsa, g'ala-g'ovur boshlanib qolibdi. Hamma yoqda odamlar, pirimiz kelyapti, deb shahar darvozasi tomon chopib borayotgan emish. Boyvachcha ham qiziqsinib qarasa, yo'lda o'ziga hamroh bo'lgan mo'ysafid emish. Hamrohingdan avval oti-zotini so'ra, degandi-ya, deb boyvachcha afsuslanib qolibdi. Odamlar orasida turgan boyvachchani ko'rib, pir uni yoniga chaqirib olibdi. Birga shoh saroyiga borishibdi.

Birinchi kuni yosh hamrohi bilan pirni bosh vazir mehmondorchilikka chaqiribdi. Avvaliga izzat-ikromli bo'lib, pirning yonida o'tirgan boyvachcha ichkariga kirgan kazo-kazo mehmonlarga joy beraverib, oxiri poygakka tushib qolibdi. Mo'ysafidning ikkinchi gapini eslab boshini ko'tarsa, mo'ysafid unga tikilgancha boshini sarak-sarak qilibdi.

Nihoyat, dasturxonga osh tortilibdi. Shunda boyvachcha boyligini ko'rsatib qo'yish maqsadida, oshning go'shtini to'g'ranglar, deb pichog'ini dasturxonga tashlabdi. Pichoq qimmatbaho ekan. Go'sht to'g'rayotgan vazirning pichoqqa havasi kelibdi va qaytarib bermabdi.

— Shohimizning xazinasida bitta shunaqa pichoq bo'lib, u yo'qolgandi. Uni sen o'g'irlab ketgan ekansan,— deb vazir boyvachchani zindonga tashlattiribdi.

Boyvachchaga ichi achigan pir uni ertalabgacha kafillikka berishlarini harchand so'ramasin, vazir rozi bo'lmabdi. Shunda pir bir mushukni silab-siypab, o'zicha gapirgan kishi bo'lib, zindonning boshiga kelibdi.

— Yo'lda uchta nasihat aytdim, bittasini ham qulog'ingga olmading. Ertaga seni dorga tortishadi. Shohning o'zi tomoshaga keladi. Dor tagiga chaqirishganda, mening shohga ikki og'iz gapim bor, shuni aytay, keyin nima qilsalaring roziman, degin. Shoh nima arzing bor, deb so'raydi. Men badavlat savdogarning o'g'li edim. Otamning mingta tuyasi bo'lib, unga yuk ortar va shaharma-shahar savdosotiq qilib yurardi. Otam so'nggi safaridan kutilgan muddatda kelmadi. Keyin men otamni izlab, o'ligini cho'l-u biyobonlardan topib keldim. „Vo otam“ deb ustiga o'zimni otgandim, bir narsa ko'kragimga qadaldi. Qarasam, otamning ko'ksiga bir pichoq sanchilib turibdi. O'shandan beri qishloqma-qishloq, shaharma-shahar kezib, otamning qotilini izlab yuribman. Qaysi ziyofat, qaysi bazmga bormay, pichoqni ataylab dasturxonga tashlayman. Kim uni meniki desa — o'sha otamning qotili, deb izlayman, deysan,— uqtiribdi mo'ysafid.

Ertasiga tumonat odam to'planibdi. Dor tagida boyvachcha mo'ysafid o'rgatgan gaplarni takrorlabdi.

— Guvohing bormi, — so'rabdi podshoh.

— Men bu yerda musofir odamman. Ayni damda sizga hech qanday guvoh keltirolmayman, — debdi boyvachcha. Podshoh vazirdan ham guvoh so'ragan ekan, vazir darhol ko'chaga chiqib, to'rtta qimorbozni topib, har biriga ming tangadan berib, gap o'rgatib olib kelibdi. Podshohning bir xislati bor ekan: qattiq tikilib qarasa, qarshisida yolg'on gapirganning kallasi uzilib tushaverarkan.

„Men avvaldan bilaman, pichoq vazirniki“ degan qimorbozlarning boshi uzilib, yerga tushaveribdi. Vazirning yolgʻonchiligi maʼlum boʻlibdi. Boyvachchaning oʻrniga vazir dorga osilibdi.

Boyvachcha esa shahardan chiqib, oʻz yoʻliga ravona boʻlibdi.



1. Hikmatli soʻzlarning maʼnosini uqib oldingizmi?
2. Nega boyvachcha hamrohining gaplariga eʼtibor bermadi?



1. Yomon niyatli odam haqida gapirib bering.
2. „Birovga chuqur qazisang, oʻzing tushasan,“ maqolining mazmunini hikoya asosida tahlil qiling.



ADOLAT¹

Asqad Muxtor

Burun zamon bir tul kampir boʻlgan emish,
Yuzi, koʻzi gʻazab bilan toʻlgan emish.
Boʻlgan ekan uning erka arzandasi,
Soʻz aytolmas bu qishloqning bir bandasi.
Yovuz kampir koʻp badavlat boʻlgan ekan,
Xizmatida qiz — Adolat boʻlgan ekan.
Adolatning otasi yoʻq, onasi yoʻq,
Turay desa, turar joyi — xonasi yoʻq.
Hech kim unga kulib boqmas shafqat bilan,
Mehnatini taqdirlamas rahmat bilan.
Kampir uni kaltaklatar, tepkilatar,
Arzandasin kecha-kunduz erkalatar.
Adolatxon aslo orom olmas ekan,
Qishin-yozin ishdan sira tolmas ekan.
Yalangoyoq oʻtin tashir qahratonda,

¹ Ushbu sheʼriy ertak xalq ogʻzaki ijodi namunalari asosida yozilgan.



Ter artkali vaqt bo'lgan saratonda,
Shildir-shildir suvlar oqsa bahorda,
Adolatxon gilam yuvar anhorda.
Kuz shamoli barg to'kadi qilib o'yin,
Adolatxon supuradi hovuz bo'yin.
Sahar turib haydab ketar qo'ylarini,
So'ngra kelib tozalaydi uylarini.
Hech kim unga kulib boqmas shafqat bilan,
Mehnatini taqdirlamas rahmat bilan.
Arzandasi atlas-kimxob kiyganida,
Novvot bilan parvardalar yeganida,
Shum kampirning nazaridan qo'rqib-pisib,
Adolatxon non tishlaydi yuzin to'sib.
Boy qizlari bayram qilar payt-payt,
Adolatga na bayram bor va na hayit.
Ba'zan kampir xursandchilik paytlarida,
Ba'zi katta bayramlarda, hayitlarda,

Adolatni urmas edi, tegmas edi,
Arzandasi rashk qilardi, sevmas edi.
Adolatni yo'q qilsa-yu, shu zamonda,
O'zi yolg'iz erka bo'lsa xonadonda.



1. Adolat nima uchun xizmatkorlik qilar ekan?
2. U qanday yumushlarni bajarar ekan?



* * *

Shu maqsadda erka bir kun yotib oldi,
Hiyla bilan kasallikka o'zin soldi.

Tashqarida izg'irin yel esar edi,
Qish sovug'i tekkan yerni kesar edi.
Onani ham, tabibni ham so'kdi kasal,
Hiyla bilan ko'z yoshini to'kdi kasal.

Xonadonni ostin-ustin qildi kampir,
Xizmatkorlar kaltakni ham yedi bir-bir.
Adolat ham kechalari uxlamadi,
Arzanda qiz xizmatidan to'xtamadi.

Hech muvofiq dori-darmon topilmadi,
Arzandaning sira og'zi yopilmadi.

Qaymoq dedi, qaymoq topib keltirdilar,
Yong'oq dedi, yong'oq topib keltirdilar.

Mayiz dedi, qovun dedi, asal, anor,
Arzandaning istagani bo'ldi tayyor.

— Yana ko'ngling nima istar, tilla qizim,
Shirin qizim, har narsadan a'lo qizim?

— Ko'pdan beri tansiq tomoq ko'rganim yo'q,
Ko'k yalpizdan somsa qilib berganing yo'q.

— Bo'lar, qizim, har narsaning vaqti, joyi,
Ko'k yalpizni qaydan topay yanvar oyi?

— Bir yalpiz ham topilmasa so'raganda,

Adolatga muhabbating zo'r ekan-da?
 O'ldirmoqmi maqsadingiz yakka-latib,
 Qoldirmoqmi Adolatni erka-latib?
 Arzandasi dod deb o'zin urdi har yon.
 Ko'k yalpizni qaydan topar, kampir hayron.
 Ammo darhol Adolatni chaqirdi u,
 — Yalpiz topib kelgin, — deya baqirdi u.
 — Yanvar oyi ko'k yalpizni qaydan topay,
 Izg'irinda qayga borib, qayga chopay?
 Ona-bola qichqirdilar unga shu choq:
 — Ko'p gapirma, ol savatni, haromtomoq.
 Yarim kecha, izg'irinda izlab yalpiz,
 Adolatxon chiqib ketdi o'zi yolg'iz.



1. Kampir va uning arzanda qizi Adolatni nima olib kelish uchun jo'natdilar?



2. Ayting-chi, qishda yalpiz topsa bo'ladimi?

* * *

Suvuq bo'ron to'zg'ir edi qish yelidan,
 Qorga botib dam tizzadan, dam belidan,
 Adolatxon ko'z ocholmay yurdi hamon,
 Qotib qoldi biyobonga chiqqan zamon.
 Qorong'ida bir jonivor ovoz qilmas,
 Izg'irinda parranda ham parvoz qilmas.
 Biyobonni bosib o'tdi toza horib,
 To'xtadi u bir o'rmonga yetib borib.
 O'rmonning ham daraxtlari yalang'ochlar,
 Sovuqlikdan qarsillaydi qayrag'ochlar.
 Qora o'rmon dahshat bilan unga boqar,
 Ichkarida shovqin solib daryo oqar.
 Daryoning ham qirg'og'ida qor bilan muz,

Qahratonda qanday o'ssin bunda yalpiz?
Turar ekan boshi qotib u tanglikda,
Katta gulxan yaltiradi yalanglikda.
Alangasi daraxtlarga chirmashadi,
Tutunlari osmon bilan birlashadi.
Atrofida to'planishib allakimlar,
Oq soqolli bir keksaning so'zin tinglar.
Sanab ko'rsa, o'n ikkita odam ekan,
Hammalari bir-biriga hamdam ekan.
Keksa to'rda podsho kabi o'tiribdi,
Oq soqoli etagini to'ldiribdi.
Keksa aytar:
— Tun shamolin
Izg'itaman.
Jahon bo'ylab
Qor bo'ronin
To'zg'itaman.
Shu orada Adolatni ko'rib qoldi,
Ahvolini sezib undan so'rab qoldi:
— Nega kelding, hay qizaloq, bu bo'ronda?
Savat bilan ne qilasan bu o'rmonda?
— Meni bunda yubordilar ko'k yalpizga.
— Kim yubordi, qaysi zolim, aytgil bizga.
— Xo'jayinim, arzandasi kasal edi,
Tilagani doim qand-u asal edi.
Mana bugun yalpiz somsa tiladilar,
Yalpiz top, deb meni uydan quvladilar.
— Keltiringlar, o't yoniga o'tkazamiz,
Kengashaylik, qizni qanday qutqaramiz?
Birodarlar, oshnamiz-ku o'zimizning,
Oramizda kim ko'rmagan ushbu qizni?



— Men koʻrganman suv boʻyida kir yuvganin.
 — Men koʻrganman dalalarda mol quvganin.
 — Tom boshini suvaganda koʻrganim bor.
 — Qopga oʻtin toʻldirganda koʻrganim bor.
 — Men koʻrganman xirmon poylab oʻtirganda.
 — Men koʻrganman xazonlarni supurganda.
 — Men tanidim, — dedi kekxa,—ushbu qizni,
 Ammo qaydan topib bersak koʻk yalpizni?
 — „Ey hurmatli ogʻa!“ — dedi bir qanchasi,
 Cholga qarab soʻz boshladi oʻrtanchasi:
 — Qarshi boʻlmas akamlar ham, ukamlar ham,
 Berib turing oʻrningizni menga bir dam.
 — Juda toʻgʻri ogʻaynimiz Mayning soʻzi,
 Yanvar ogʻa nima deydi endi oʻzi?
 „Mayli“ dedi, chol ham ochib chiroyni,
 Bir soatga berib turdi oʻz joyini.
 May oʻtirdi bu oʻringa podshosimon,
 Bahor boʻlib yashnab ketdi butun oʻrmon.
 May aytdi:
 — Yashna, olam,
 Ochil, gullar.
 Xushboʻy hidlar
 Taratingiz
 Mayin yellar.
 Adolat ham savatini olib qoʻlga,
 Baxmal kabi soy boʻyidan tushdi yoʻlga,
 Yalpiz desa, yalpiz toʻla, gul desa, gul,
 Savat xushboʻy yalpiz bilan toʻldi butkul.
 U oʻn ikki birodarga rahmat aytib,
 Shod qoʻshiqdar ayta-ayta ketdi qaytib.
 Uyga qadar oy yoritdi uning yoʻlin,

Gul-chechaklar bezab bordi o'ng-u so'lin.
Qo'ygan zamon ostonaga oyog'ini,
Yana sovuq bosib ketdi har yog'ini.
Boyagiday izg'irin yel esar edi,
Qish sovug'i tekkan yerin kesar edi.
Kirish bilan qichqirdilar kampir-u qiz:
— Qayda eding, haromtomoq, qani yalpiz?
Uyning ichi yalpiz hidi bilan to'ldi,
Kampir bilan arzandasi hayron bo'ldi.
Ko'k yalpizni to'rga yoyib tashladi u,
Ko'rganlarin bir-bir ayta boshladi u.
Kampir-u qiz buni tinglab boshi qotar,
Ishonmasa qarshisida yalpiz yotar.
— Senga ular boshqa narsa bermadimi?
Yo bersa ham, bizga olib kelmadingmi?
— Men ulardan boshqa narsa so'rganim yo'q,
Ko'k yalpizdan boshqa narsa ko'rganim yo'q.
— Ahmoq! Birdan o'n ikki oy ko'rgan ahmoq!
Kelib-kelib bir ko'k yalpiz so'rgan ahmoq!
Arzandasi Adolatni qarg'ab ketdi,
Onasidan ortiqroq u faqir edi:
— Bu pastkashni aldabdilar toza boplab,
O'zim bo'lsam, keltirardim qoplab-qoplab:
Bittasidan bir qop olma olar edim,
Anorlarni bosib-bosib solar edim,
Bittasidan qovun-tarvuz tilar edim,
Qisqasi men ne olishni bilar edim.
— Qani, mening aqligim, o'zing ketgil,
Ular seni aldayolmas, tezroq yetgil.
— Hoy, onajon, ikkovimiz yuguraylik,
Qo'ni-qoshni turgunicha ulguraylik.

Apil-tapil chiqib ketdi kampir-u qiz,
Adolatxon uyni poylab qoldi yolg'iz.



1. Adolat yalpiz qidirib qayerga borib qoldi?
2. U yerda nimalarni ko'rdi?
3. O'n ikki oy qizga qanday yordam berdilar?



* * *

Tashqarida izg'irin yel esar edi,
Qish sovug'i tekkan yerin kesar edi.
Kampir-u qiz ko'z ocholmay yurdi hamon,
Qotib qoldi biyobonga chiqqan zamon.
Qorong'ida bir jonivor ovoz qilmas,
Izg'irinda parranda ham parvoz qilmas.
Biyobonni bosib o'tib, toza horib,
To'xtadilar bir o'rmonga yetib borib.
Qora o'rmon dahshat bilan boqar edi,
Ichkarida katta daryo oqar edi.
Turardilar bosh qotirib ko'p tanglikda,
Katta gulxan yaltiradi yalanglikda.
Alangasi daraxtlarga chirmashadi,
Tutunlari osmon bilan birlashadi.
Atrofida to'planishib allakimlar,
Oq soqolli bir keksaning so'zin tinglar.
Sanasalar o'n ikkita odam ekan,
Hammalari bir-biriga hamdam ekan.
Keksa to'rda podsho kabi o'tiribdi,
Oq soqoli etagini to'ldiribdi.
Shu orada u bularni ko'rib qoldi,
Hayron bo'lib „Ne kerak?“ deb so'rab qoldi.
Qiz dedi:
— Meva bering bizga qoplab,
Mana qanor, to'lg'izingiz buni boplab.

— Men sizlarni tanimayman, ko'rganim yo'q.

— Men dunyoga xo'jayinman, qilmangiz do'q.

Oylar aytdi:

— Tanimaymiz sizlarni biz.

Ko'rmaganmiz buning kabi qizlarni biz.

Yanvar aytdi:

— Tun shamolin

Izg'itaman.

Jahon bo'ylab

Qor bo'ronin

To'zg'itaman.

Qorli bo'ron to'zib ketdi, qorong'i tun,

Yo'llarni ham bo'ron ko'mib ketdi butun.

Kampir-u qiz adashdilar, muzladilar,

Tuni bilan qishloqqa yo'l izladilar.

Shundan beri shum kampirning o'zi ham yo'q,

Qizi ham yo'q, zaharxanda so'zi ham yo'q.

Adolat ham ko'rmay zulm-zahmatini,

Yayrab-yayrab qilar emish mehnatini.

Hali-hali baxtli ekan, bardam ekan,

O'n ikki oy doim unga hamdam ekan.



1. Ushbu ertak qaysi ertakka o'xshab ketadi?

2. Nima uchun oylar Adolatga yordam berishdi-yu, ona-bolani quruq qaytarishdi?



1. Ertak haqida o'z taassurotlaringizni yozing.

Bilimingizni sinab ko'ring



1. Ertak nima? U qanday turlarga bo'linadi?

2. Qaysi ertak sizga juda yoqdi, ulardan nimalarni o'rganib oldingiz?

3. Uch hikmatli so'z ertagidan qanday xulosa chiqardingiz?

4. „Adolat“ ertagining muallifi kim?
5. Ertakdagi yaxshilik qilgan qahramonlarni birma-bir aytib bera olasizmi? Yomonlik qilganlarni-chi?
6. Ertakdan o'zingiz xohlagan joylarni yodlang va ifodali qilib aytib bering.



Maqollar — xalq og'zaki ijodining qadimiy janrlaridan biri. Ularda xalqimizning dunyoqarashi, axloq-odob mezonlari o'z ifodasini topgan.

Maqollar qadimdan xalq donishmandligi, aql-idroki, fikr-o'ylarining ifodasi sifatida yashab kelgan, sinalgan, turmush tasdig'idan o'tgan tushunchalarni ifodalab, unga qanot baxsh etgan. Maqollar ta'lim-tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Mehnat va mehnatsevarlik haqida

Mehnat — mehnatning tagi rohat.

Mehnatdan do'st ortar.

G'iybatdan — dushman.

Oltin o'tda, odam mehnatda bilinar.

Bog'ni boqsang, bog' bo'ladi,

Botmon dahsar¹ yog' bo'ladi.

Boqimsiz bog' tog' bo'ladi,

Yurak-bag'ring dog' bo'ladi.

Do'stlik va ahillik haqida

Do'st — do'string oynasi.

Kengashganga keng dunyo,

Talashganga tor dunyo.

¹ **Dahsar** — qadimiy og'irlik o'lchovi.

Hamjihatlik — davlat,

Yolg'izlik — kulfat.

Yolg'iz otning changi chiqmas,

Changi chiqsa ham dong'i chiqmas.

Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.

Ilm va hunar haqida

O'qigan o'qdan oshar,

O'qimagan turtkidan shoshar.

Hunar — hunardan unar.

Qunt bilan o'rgan hunar,

Hunardan rizqing unar.

Bilimdan ortiq boylik yo'q.

Bilim — aql chirog'i.



Maqollarni yod oling.



Topishmoqlar ham xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lib, ular xalq orasida topishmoq, jumboq kabi atamalar bilan yuritilib kelingan.

Topishmoq insonni o'rab olgan muhit va tabiatning turli-tuman hodisalari haqidagi tushunchalarning badiiy ifodasi sifatida maydonga kelgan. Topishmoqlar avloddan avlodga o'tib, katta va kichikka hayot, tabiat sirlari haqida o'ylanishni, bilishni o'rgatib kelganligi bilan g'oyat ahamiyatlidir. Topishmoqlarda savol tarzida aytiladigan fikrlar ma'lum bir badiiy shaklga solingan bo'ladi.

Tabiat hodisalari haqida



Og'a-ini ming botir,
Ko'm-ko'k gilamda yotir.




Qora parda so'kildi,
Shildirab suv to'kildi.



Yarimta patir, olamga tatir.



Elakdan un elandi,
Supra unga belandi.



Ariqdan oyna oldim.



Tilla sandiq ochildi,
Ichidan zar sochildi.

Hayvonlar va qushlar haqida



Yurib-yurib, savatday joyni
egallaydi.



Boshi taroq, dumi o'roq.



Rangi har xil: kulrang, oq,
Oyoqlari yung paypoq.
Yerda yuradi asta,
Suvda suzishga usta.



Emaklagan toshni ko'rdim,
Toshdan chiqqan boshni ko'rdim.



Hasharotlar haqida

Yakka yurmay birlashar,
Qishga oziq g'amlashar.



Zuv-zuv boradi,
Zuv-zuv keladi,
G'alvir to'qiydi.



O'simliklar haqida

Uzun terak, ichi kovak.



Kunga qarab tolmaydi,
Kundan ko'zin olmaydi.





1. Topishmoqlar nimasi bilan ahamiyatli?
2. Ularni qaysi jihatiga ko'ra topasiz?



Topishmoqlarni yod oling.



Tez aytishlar — xalq og'zaki ijodining o'ziga xos janri hisoblanadi. Ular bolalarda aqliy o'tkirlik va zukkolikni tarbiyalaydi. Tez aytishlar bolalarni biyron so'zlashga o'rgatib, fikr va qobiliyatlarini o'stirishga, xotiralarini mustahkamlashga yordam beradi.

Shokir sholipoyada shovqin solib, shaqildoqni shaqillatdi.

Bir juft cho'p ko'pmi, qo'sh juft cho'p ko'pmi?

Jamila jiydani joyiga joyladi.

Sovuqda tustovuq sovuq qotdi.

Boqi bog'ga, Soqi tog'ga boradi.

Saadat soatini soatsozga sozlatdi.

Qo'sh qo'lqop, qo'shovi ham bo'sh qo'lqop.

Tubsiz dengiz dedingizmi?

Dengiz tubsiz dedingizmi?

O'ktam ko'm-ko'k, ko'rkam ko'klam rasmini ko'm-ko'k qalamda chizmoqchi.

Doston — o'zbek xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biri. Ularda xalqimizning asriy orzu-umidlari o'z ifodasini topgan.



Dostondagi voqea va hodisalar mazmunan qahramonlik xarakteriga ega bo'lib, ular yakka shaxs — xalq orzusidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi. Doston va dostonchilikning paydo bo'lishi, taraqqiyoti baxshilar nomi bilan bog'liq. Baxshilar xalq dostonlarini biror sozda — ko'p yerlarda do'mbira, ayrim joylarda qo'biz yoki dutorda kuylaydilar.

O'zbek xalq dostonlarining **qahramonlik, jang-noma, tarixiy dostonlar** kabi turlari bor. Qadimiy qahramonlik dostonining yorqin namunalaridan biri „Alpomish“ dostonidir. „Alpomish“ dostonida xalqimizning qahramonlik haqidagi orzu-umidlari, mardlik tuyg'usi yorqin tasvirlangan.

ALPOMISHNING QAYTISHI

(Dostondan parcha)

Qultoy ha deganda to'yxonaga yetdi. Bir tepaga chiqib qarasa, o'n olti urug' qo'ng'irot eli bo'l-ho bo'l, tort-ho tort qilib, shu to'ydan bir nimalik bo'lib qolaylik, deb uloq tortib yotir. Shunda Qultoyning mardligi tutib, bu sho'rliklarga Alpomishning kelganidan xabar berayin deb, shu so'zlarni aytdi:

Sarg'aydingmi, so'ldingmi?
Qullarga qul bo'ldingmi?
O'z chechangni qo'shqo'llab,
Begonaga berdingmi?
O'zbek eding, o'r eding,
Sen ko'plardan zo'r eding,
O'z elingdan ayrilib —
Qolibsanku, ko'rdingmi?
Ostimdagi otimning
Dukuriga tog' ko'char.
Holing ko'rib botirning
Yuragiga dog' ko'char.
Tort-ho tort, deb chuvlaysan,
Uloq tortib quvlaysan,
To'ydan keyin holingning
Ne bo'larin bilmaysan.
O'n olti urug' qo'ng'irot,
O'n ming uyli Qo'ng'irot,
Alpomishing keldi-yov,
Ko'kragingni tut ozod!
Bizga uloq choptirib,
Bayram qilgan qullar-a,

Qo'ngi'rotda qatag'on—
Qiron qilgan qullar-a.
Ol-ha, Alpomish keldi!
Ol-ha, Alpomish keldi!
O'z elida beklarni,
Sarson qilgan qullar-a,
O'zga elni egallab,
Xandon qilgan qullar-a,
Ol-ha, Alpomish keldi!
Bil-ho, Alpomish keldi!
Tariqdayin tiqirib,
Titrab ketgan botirlar,
Qon-qon qaqshab qismatin
Qarg'ab ketgan botirlar.
Jildirmay jiltillab
Jilab ketgan botirlar.
Kel-ha, Alpomish keldi!
Bil-ho, Alpomish keldi!
Payt poylashib panaga,
Pusib ketgan botirlar.
Tus-tusiga taysallab,
To'zib ketgan botirlar.
Bir kun birikamiz deb,
Big'ib ketgan botirlar.
Chiq-ho, Alpomish keldi!
Jur-ho, Alpomish keldi!

Qultoy shu gaplarni aytib, otini to'daga solib, uloqni taqimga olib berdi. Odamlarning orasida „Alpomish kelibdi!.. Alpomish kelibdi!“ degan shivir-shivir qola berdi. Bu uloqda Alpomish bilan xudoni o'rtaga qo'yib do'st kirishgan, o'zi qalmoq bo'lsa-



da, o'zini o'zbek sanovchi alp Qorajon ham bor edi. Qullar uni xo'rlab, qari cho'birga mingizib, uloq choptirib qo'ygan edilar. Qultoyning gapini eshitgan Qorajon uvvos solib yig'lab, shu so'zlarni aytib, uning orqasidan jo'nay berdi:

Shivir, shivir, shivir-a,
Chuv, jonivor cho'bir-a!
Saqolingdan aylanay,
Botir bovom, bir qara!
Ostingdagi otingni
Boychiborga o'xshatdim,
Jilab aytgan gapingni,
Chini borga o'xshatdim.

Soqolingdan aylanay,
 Bovojonim, rosting ayt,
 Rostdan qaytib keldima,
 Alpomishday asl mard?
 Chuvlar suvlab qolgan xalq.
 Quvnar uvlab qolgan xalq.
 Soqolingdan aylanay,
 Bovojonim, rosting ayt,
 Yurtga qaytib keldimi,
 Alpomishday asl mard?

Iloyo shu kunlarning kelganligi rost bo'lsin, o'zbek deganlari katta el farzandlari, bir-biriga do'st bo'lsin. Yurtning iqboli, istiqloli kulganligi rost bo'lsin. Bu elning farzandlari qayg'u bilmasin.



1. Bu doston qaysi alp haqida?
2. Qultoy Alpomish kelganligini qanday xabar qildi?
3. Qorajon kimning do'sti bo'lgan?



1. Dostondagi alp — Alpomishni o'zingiz ta'riflang.
2. Qorajonning so'zlarini yod oling.



RUSTAMXON

... Rustam tog'-toshda yurib, ov ovlab keladi, enasi pishirib beradi. Shunday qilib qirq kecha-yu qirq kunduz oradan o'tdi. Yo dev, yo odamzod: „Bu joy bizniki edi“, — deb kelmadi. Endi o'zlarining hovlisiday bo'lib, bag'ir bosib qoldi.

Shunday qilib, oradan necha kunlar o'tdi. Bir kun enasi aytdi:

— Bolam, sen ovda, tog'-toshda ko'p yurasan, yaqin orada borib-kelguday joy ko'rinadimi, borib

kelsang, ust-boshimiz kir bo'lib ketibdi, satta tuzsiz ovqat yeb, qovoqlarimiz ham shishibdi; bir tuz bilan sovun olib kelsang.

Rustam aytdi:

— Ovda yurib, kecha bir tog'ning baland cho'q-qisidan qaradim, tog'ning etagida bir qora daraxt ko'rindi. Lekin olis-yaqinini bilmayman. Magar shunda borib kel demasang...

Rustam yo'lda ko'rdi: ajab suratli bir qiz, jamoli kunni xira qilgudek, har kim husnini ko'rsa, aqli ketib, otdan yiqilib qolguday. Ikki qo'li orqasiga boylangan, sochidan uyning keragisiga boylovli turibdi. Rustam ko'rib hayron qoldi.

... Rustam o'z boshini qutqarib, qizni tashlab ketgani ko'zi qiymay, ajdaharga bir begunohni bergisi kelmay, qizga qarab bir so'z aytib turgan ekan:

Ushbu damdir o'zga damni dam dema,
Ajdahardan sira meni kam dema.

Qiz ilgari ajdaharni o'z ko'zi bilan ko'rgani yo'q, xalqning qilgan ta'rifiga, elning maobatiga, Rustamning qaddi-jasadiga, ajdaharning siyosatiga qarab, „Yaxshi yigit ekan, o'lmasin“ deb, yana ham ko'p qaytardi. Shunda Rustam:

— „Mard so'zidan, yo'lbars izidan burilmaydi“, degan gap bor, ajdahar damiga tortadi, meni yutadi, deb vahm qilmayman, qayishmay ajdaharning yo'lini aytgin, — dedi.

Unda qiz aytdi: „Harchand zo'rurdim, bo'lmadi; sening ham ajaling yetgan ekan, kuning bitgan ekan, gavdago'shting ajdaharga taqdir etgan

ekan, — deb bir beldos qirni ko'rsatdi. — Ajdahar shu tarafdin keladi“.



Shunda Rustam qizning gapi bilan otiga qamchi urib, boyagi ko'ndalang qirning ustiga chiqdi. Qarasa, ajdahar ko'zi olovday yonib, pishqirib, har tarafga o't sochib, tog'ning tangisidan Charxinko'l degan ko'lga kelyapti ekan.

Haybat bilan kelayotir ajdahar,
Yaqinladi Rustambekday zo'rabor;
Ajdahar chopinib damga tortganda,
Langar to'sib Rustam o'zin to'xtatar.
Hech narsani pisand qilmas ajdahar,
Chiday olmay endi Rustam zo'rabor,
Bir-biriga endi yaqinlab qolar.
Na'ra tortib bunda Rustamday qaysar,
Quvvatiman Rustam na'ra urganda,
Rustamning tovushi ajdarga yetdi,
Bu tovushdan uning qulog'i bitdi.
Ko'targan boshini yerga tashladi,
Jiyirib quyrug'in o'ziga tortdi.
Ajdahar behushdi, Rustambek bildi,
Qilichin chiqarib qo'lga oldi,
Haybatli ilonning qoshiga bordi,
Ilonning boshiga qilichni soldi.
Haybatidan qo'rqmay Rustam ish qildi;
Ajdaharni qaysar Rustam o'ldirdi.
Dushmanni o'ldirib ko'nglin xushladi,
Qirq bir g'o'la qilib kesib tashladi.
Bir g'o'ladan oldi uzun bir tasma,
„Ajdahar belgisi“ dedi, jo'nadi ...

-  1. „Rustamxon“ dostoni nima haqida ekan?
2. U ajdaharni qanday yengdi?

 Doston haqidagi taassurotlaringizni yozing.

Bilimingizni sinab ko'ring

-  1. Maqollar haqida nimalarni bilasiz?
2. Topishmoqlar sizni nimaga o'rgatadi? „Kim ko'p topishmoq biladi“ musobaqasini o'tkazing.
3. „Doston“ so'zining ma'nosi nima? Dostonlar qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega?
4. Bo'limda o'qiganlaringiz asosida og'zaki insho tuzing.
- 

BOLAM

Berdaq

Taltaymagin erka bo'lib,
Yig'lamagin to'lib-to'lib.
Qolmasin och, ranging so'lib,
Mard bo'l yoshlikdan, ey bolam!

Munosib bo'l rizq-u ro'zga,
Yomon bo'lib tushma ko'zga.
Dog' qo'ndirma oppoq so'zga,
Yomondan qoch, yoshdan bolam!

Ishla, manglaydan oqsin ter,
Yaxshi-yomonni sinab yur.
Yaxshilarga qo'lingni ber,
Shunda yo'ling bo'lar, bolam!

Yomonlarga hech sir aytma,
So'z kelganda so'zdan qaytma.
Do'stingni aslo mung'aytma,
Shunda baxting kular, bolam!

Elni qoshingdan qochirma,
Yo'q deb, boringni yashirma.
Quvlik, shumlik yo'lga kirma,
Oqko'ngil bo'l doim, bolam!

Otangdan pand-u nasihat:
Qo'ldan kelsa, bo'l bohimmat.
Birovlar qilmasin uyat,
Ertangni ko'p o'yla, bolam!

1. Shoir nima uchun yoshlikdan mard bo'lgin deb nasihat qilgan?
2. Nima uchun odam ertangi kunini o'ylab ish qilishi kerak?



She'rni ifodali o'qing.



DO'MBIRA¹

Otaylor

I

Ham bor-u ham yo'q ekan,
Bir paytlar Mamat degan
Cho'pon yashab o'tibdi,
G'oyibdan baxt kutibdi.
Sho'rlik Mamatga biroq
Baxt yoqmabdi hech chiroq...
Taqdiriga berib tan,
Tog' oshib, bosib tikan,
Unsiz to'kib ko'z yoshin,
Xam qilib har kun boshin
Qo'rg'onga qaytarkan u.
Boy esa qaysar va quv,

¹ Ushbu she'riy ertak xalq og'zaki ijodi namunalari asosida yaratilgan.



Mamatga sohib qahrin
Ezarkan dil-u bag'rin.
Bir kuni tong bo'zarib
Otarkan, Mamat g'arib
Horib uxlab qolibdi,
Tonggacha dong qotibdi.
... Tongotarda ko'rib tush,
Ixtiyordan uchib hush
Botibdi qora terga,
Emish: adir-u qirga,
Qoyalar-u sho'x soyga
Bir maxluq tashlab soya,
Qo'ylarga chang solibdi,
Qirlar qonga botibdi.
Sakrab uyg'onar Mamat,

Boshiga tushib qahat.
 Go'yo telbalardayin,
 Soqovdayin, kardayin
 Mamat gangib ketibdi,
 „Qayda qo'y-qo'zim!“ debdi.
 Yelibdi shamoldan tez,
 Topolmabdi biron iz.
 To'xtatolmay yoshini,
 Changallab sho'r boshini,
 O'tiribdi ancha payt.
 Oxir, qo'l siltab loqayd,
 O'rnidan shart turibdi,
 Ham la'natlar o'qibdi—
 Zulmlar-u zamonga.
 So'ng bosh oqqan tomonga
 Dadil yurib ketibdi.



1. Mamat kim bo'lgan ekan?
2. U qanday kun kechirarkan?



II

... Kezarkan Mamat g'amda
 Eshitibdi shu damda
 Jaranglagan bir ovoz.
 Hushiga kelib oz-oz
 Ko'taribdi Mamat bosh.
 Ko'rsa: chiqmoqda quyosh,
 Shudringlarda nur raqsi,
 Nur raqsi — quyosh raqsi.
 Hu, cho'qqida ajib hol:
 Unda quyosh bemalol
 Vodiy tomon oshmoqda.

Qir-adir-u toshloqqa
Zarrin harir yopmoqda,
Nur gulxanin yoqmoqda.
Bir payt buloq tomondan
Taralibdi ajib sas.
Mamatda oshib havas,
Sas topib tirik jondan,
O'sha yoqqa yuribdi.
Duch kelib hur qizlarga,
Ishonmay ko'zlariga,
O'ngimmi, deb turibdi.
Ko'za tutib bir suluv
Uzatarmish unga suv,
Biri bo'lib parvona
Aytar qiziq hangoma.
To'kilib ko'zadan suv,
Kulgu uchar yana guv.
Ko'ring endi Mamatni,
Rostlab qad-u qomatni
Yelibdi buloq tomon.
(Qo'lida gavron hamon!)
Biroq Mamat entikib
Baxt qushiga ko'z tutib,
Yonib tani-a'zoyi,
Chopgani ketib zoye,
Ko'rganlari bir sarob
Bo'lib chiqibdi, xolos,
Kimdan ham olsin qasos?!
Bir kun toliqib ortiq
Mamat o'ygga cho'mibdi.
Olay, deb birpas hordiq
Yo'l chetiga cho'kibdi.

Qarasa, bir toshbaqa
Ag'darilib yotganmish,
Turtib ko'rsa aq-baqqqa,
Tarashadek qotganmish.
(Balki shu dovondan u
Izlaymani, deb rizq-ro'zin
To'ntarilib qolgan-u
O'nglolmagan so'ng o'zin!)
Ne bo'lsa ham Mamatning
Bu hol ko'nglin ezibdi,
Shu holatga qismatin
O'xshatib g'am chekibdi.
Qo'lida cho'pon tayoq,
Toshbaqa kosasini —
Tan-jonsiz xonasini
Ag'darib u yoq, bu yoq
O'ylab ketibdi Mamat:
„Qiziq, — debdi, — bu hayot, —
Hattoki shu toshbaqa
Shundoq metin toshdaqa
Uychasida yashagan,
Rizqin terib oshagan.
Yashashiga ko'rk berib,
Ham ma'ni-yu erk berib
Necha yil toshbaqani
Boshqargan bosh va tani.
Undan-ku nishon bo'lib
Qolibdi shu tosh makon,
Men ketar bo'lsam o'lib
Yo'qolaman benishon.
Bor-yo'qligim bilishmas,
Na ko'mgani kelishmas.

Nahot, topmay biror iz
Umrim o'tsa samarsiz?—
Deya Mamat tayog'in
Uribdi toshbaqaga —
Tan-jonsiz toshbaqaga.
Tayog'ining bir yog'i
Toshbaqa makoniga,
Bosh chiqar tomoniga
Shart sanchilib qolibdi.
Tayog'in chiqarolmay
Mamat rosa tolibdi.
So'ng alamga chidolmay,
Tayog'-u tosh makonni
Ko'tarib boshda baland
Uribdi zarang yerga.
Shu payt chiqib bir sado,
„Dara-ng-g...“ deb bo'пти ado!
Mamat tushib jiq terga,
Ko'ksiga „tuf-tuf“labdi.
O'ylab qopdi ko'p gapni.
Olib boshqatdan tag'in
Tayog'-u tosh makonni
Chertib-chertib ko'ribdi,
Taralib o'sha sado:
„Ta-ng, tang...“ deb bo'пти ado.

III

Mamat o'ylab qolibdi...
Tog' tomon yo'l olibdi.
O'zicha shoshma, debdi,
Zab fikrga kelibdi:
Tanlab olib bir archa,

O'Ichab uch-to'rt qarichcha
Qirqibdi bir amallab,
Iljayibdi lab yalab.
Yasay, debdi, bir ermak,
Sirdoshim bo'lsin doim,
Yo'ldoshim bo'lsin doim.
Toliqtirmay yo'limda
Kuylasin u qo'limda, —
Debdi-da, yerda yotgan,
Boya qahrin uyg'otgan
Tayog'-u tosh makonni
Qo'liga olib qayta,
Ashula ayta-ayta
Nusxa ola boshlabdi,
Fikrlab bosh qashlabdi.
Kun o'tib, hafta o'tib,
Mamat o'zin unutib,
Shu ishga berilibdi,
Evini keltiribdi:
Qornidan o'yibdi soz,
Bo'ynidan qiyibdi soz.
Qopqoq qilib qorniga,
Ichak eshib toriga,
Qulog'in qo'ndiribdi,
Ishini undiribdi.
Eshak yasab juft dorli,
Mindiribdi qo'sh torni.
So'ng irg'ishlay-irg'ishlay,
Quvonchi ichga sig'may
Chalibdi-yey, chalibdi!
Ming maqomga solibdi:

Ohular hurkmay, yovvosh,
Maysalar tebratib bosh,
Boshin egib tog'-u tosh,
Buloqqa tushib quyosh
Tinglabdi ajib sozni!
Sozga ulab ovozni
Mamat jo'shaveribdi,
So'zlar qo'shaveribdi.
Qo'shib ehtirosini,
Alqab ixtirosini —
Do'mbira, deb atabdi.
Ko'ring endi Mamatni
Do'mbiraga jo'r bo'lib,
Kayf-u chog'i zo'r bo'lib,
Kunchiqarga yuz burib,
O'zicha suhbat qurib,
Uzoqni aylab yaqin,
Tushibdi yo'lga tag'in.
Tog'lar kelsa, qulunday
Oshib o'tib ketibdi.
Daryo kelsa, to'lqinday
Toshib o'tib ketibdi.
Jarlar kelsa, to'xtamay
Hatlab o'tib ketibdi.
To'qay kelsa, to'qnashmay
Chetlab o'tib ketibdi.
Enishlarga duch kelsa,
Enib o'tib ketibdi.
Yirtqichlarga duch kelsa,
Yengib o'tib ketibdi.
Cho'llar kelsa, siltanib,

Tezlab o'tib ketibdi.
Qayda mening baxtim, deb
Izlab o'tib ketibdi ...



1. Mamat qanday g'aroyib hodisalarga duch keldi?

2. U nima yasamoqchi bo'libdi?



3. Nima deb o'ylaysiz, Mamat o'z baxtini topdimi?

IV

Hamroh bo'lib do'mbira
Mamat kuylab qolgan yer,
Og'ushiga olgan yer —
Nurota tog'larining
Qo'rg'on qishlog'i ekan.
Uning ham odamlari
Erkning mushtog'i ekan.
Quvnog'i ham notavon
Shu qo'rg'onda topib shon,
Qo'lida cho'pon tayoq,
Tushirmay kasbiga dog',
Mamat ko'p yil yashabdi,
Oshin halol oshabdi.
Ham do'mbira qo'lida
Hamdam bo'lib yo'lida,
Elining kun-tunida —
Yaxshi-yomon kunida
Baxshi bo'lib kuylabdi,
El tiliga tushibdi.
Shu Samarqand tomonda,
Juda yaqin zamonda,
Sizga tanish va suyuk,
Boya aytgan eng buyuk

Dostonchilar naslidan,
Naslining eng aslidan —
Dovruq solib osmoncha
Oʻtdilar toʻrt dostonchi.
Dostonchi — soʻzga mohir
Ergash-u Islom shoir,
Fozil-u Poʻlkan bobo,
Toʻrt buyuk ulkan bobo
Xalqqa berib mehrini,
Xalq ijodin sehrini
Kuylab-soʻylab keldilar
„Tinglang, oʻqing!“ — dedilar ...
Qoʻllarida doʻmbira,
Kuylab-soʻylab keldilar,
Bu chin meros, dedilar.
Yoʻq, yoʻq! Ular oʻlmagan
Horish nima bilmagan,
Kuylashib doston, oʻlan,
Doim siz-u biz bilan!



1. Doʻmbira chalib doston aytuvchilarni xalq orasida kim deb atashgan?



2. Samarqandda qaysi baxshilar mashhur boʻlgan?

Afsonalar kichik hajmli, mazmunan sodda va hikoyalar shaklida tuzilgan boʻlib, xalq ogʻzaki ijodining eng qadimgi namunalaridan hisoblanadi. Afsonalar ijtimoiy hayot bilan bogʻliq voqea va hodisalarni xayoliy shaklda hikoya qiladi.

„Afsona“ forscha soʻz boʻlib, fantastika, sehr-jodu hamda hayotiy uydirmalar asos boʻlgan hikoyalar demakdir. Afsonalarni mavzu jihatdan

uch xil turga bo'lish mumkin: 1) xayoliy voqea va xayoliy qahramonlar haqida hikoya qiluvchi afsonalar; 2) tarixiy voqea va tarixiy shaxslar haqida hikoya qiluvchi afsonalar; 3) jang-nomalar yoki qahramonlik afsonalari.

INSONIYAT TARIXI

Erkin Vohidov

(Sharq afsonasi)

Soylar kelur kumush tog'lardan,
Gul bo'ylari — chaman, bog'lardan.
Yer ko'ksidan oqar buloqlar,
El naqlidan chiqar saboqlar.
She'r quyilib yurakdan kelur,
Ertak ezgu tilakdan kelur ...

Juda qadim zamonda,
Qobuliston tomonda
Bir podsho o'tgan ekan
Davron surib jahonda.
Butun umrin kechirib
Kayf bilan, safo bilan,
Ishi bo'lmagan ekan
„O'tkinchi“ dunyo bilan.
Yillar o'tib nihoyat
Yoshi yetgach bir joyga,
Barcha ulamo ahlin
Chaqiribdi saroyga.
Debdi: — Olamga kelib
Olam nedir, bilmadim,
Odam bo'lib yashadim,
Odam nedir, bilmadim.

Qirq yil podsholik qilib
Umrim o'tdi g'aflatda,
Qolganini ilmga
Sarf qilurman, albatta.
Shuning uchun farmonim:
Barcha bilimni to'plab,
Odam ahli yaratgan
Barcha ilmni to'plab,
Insoniyat tarixin
Jam qilib kitob yozing,
Yozganda ham batafsil
Va lekin shitob yozing.
Sohibqiron podshoning
Farmonin bajo etib,
Qirq faslda qirq olim
Qirq tuya kitob bitib,
Karvon bilan podshoning
Saroyiga eltmishlar.
Ta'zim bilan keltirib
Shohga taqdim etmishlar.
Demishlar: — Qullaringiz
Yuragining qoni bu,
Insoniyat tarixin
Eng qisqa bayoni bu.
Hayrat ichra debdi shoh:
— Ko'p yozibsiz bunchalar.
Insoniyat tarixi
Uzunmidi shunchalar?
Kimga darkor buncha gap,
Sanjob qiling, ulamo,
Ko'pi bilan bir tuya
Kitob qiling, ulamo.

Yana ulug' podshoning
Farmonin bajo etib,
Insoniyat tarixin
Qirq bor muxtasar bitib,
Qirq donishmand saf chekib
Saroy tomon yurmishlar.
Podshoning qarshisida
Ta'zim qilib turmishlar.
Olimlarga debdi shoh:
— Rahmat sizga, ulamo,
Barchasini o'qishga
Umrin yetmaydi ammo.
Shuning uchun, azizlar,
Tafsilotni kam qiling.
Bor ilmni yig'ing-u
Bir kitobga jam qiling.
Qaytib yana qirq olim
Qirq faslcha o'ltirmish.
Qirq tuyalik kitobni
Bir kitobga keltirmish.
Ular yana saf chekib
Yo'l olganda shoh tomon,
Shoh o'lim to'shagida
Yotar ekan bu zamon.
Kitobni ko'rib debdi:
— Rahmat sizga, ulamo.
Bir kitobni o'qish ham
Endi menga muammo.
Olimlarga boqibdi
Podsho ma'yus ko'z bilan:
— Mazmunin aytib bering
Ikki og'iz so'z bilan.



Eshitib o'lar bo'lsam
Qolmas edi armonim.
Olimlar donishmandi
Shunda debdi: — Xoqonim,
Odamlar tug'iladi,

G'am chekadi, o'ladi.
Insoniyat tarixin
Mazmuni shu bo'ladi.
Shundan buyon o'tmishdir
Qancha-qancha asrlar.
Qancha-qancha avlodlar,
Qancha-qancha nasllar.
Dunyoga ne olimlar,
Ne fozillar kelmabdi.
Hech kim bu haqiqatni
O'zgartira bilmabdi.
Zamon-zamonlar o'tib,
Bizning zamon keldi-yu,
Olamga quyosh bo'lib,
Istiqlolim kuldi-yu,
Qadimdan qolgan bu gap
Afsona bo'lib qoldi.
G'am-anduh odamlarga
Begona bo'lib qoldi.
Odamzod tarixida
Ortga qaytish bo'lmaydi.
Odamlar tug'iladi,
Kurashadi, o'lmaydi.
Har bir inson yo'lchidir
Porloq asr yo'lida.
Haqiqat mash'ali bor
Odamzodning qo'lida.



1. Podsho o'z umrini qanday o'tkazgan ekan?
2. U olimlarga nimalarni buyuribdi?
3. Insoniyat tarixi nimalardan iborat ekan?



DONOLAR O'GITI

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmiş ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin ming ganj ila.

* * *

Odamiy ersang demagil odami,
Onikim yo'q, xalq g'amidin g'ami.

* * *

Umrni zoye etma, mehnat qil,
Mehnatni saodating kaliti bil.

Alisher Navoiy

* * *

Odamlar aqlining chirog'i bilim,
Balodan saqlanish yarog'i bilim.

Abu Abdullo Rudakiy

* * *

Biliming osmonga yetgan bo'lsa ham.
Boshqalar ilmiga quloq sol har dam.

* * *

Insonning qimmatı emas siym-u zar,
Insonning qimmatı ilm ham hunar.

Abduqodir Bedil

* * *

Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir,
Yopiq eshiklarni ochar birma-bir.

Nizomiy Ganjaviy

* * *

Bo'lsa bir hunaring, agar yuz aybing,
Do'st nazdida hunar yopar yuz aybing.

Sa'diy Sheroziy

* * *

Mayli, mushkul bo'lsin sen tanlagan yo'l,
Tole ham, mayliga, kelmasin oson,
Faqat odam qadrin bilar odam bo'l,
Bo'l inson dardini bilguvchi inson.

Erkin Vohidov

* * *

Yo'lga chiqqaningda yo'ldoshni unutma,
Mabodo adashsang, bardoshni unutma!
Boshingdagi quyoshga bo'lib mahliyo,
Oyog'ing ostidagi toshni unutma.

* * *

Mabodo qoqilsang, do'st tutar yelka,
Ko'lmakdan iz qolmas, bo'lma ko'lanka.
Yaxshilar yoyadi nomingni elga,
Yo'lingda uchrasa yaxshi odamlar...

O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil,
Hayot to'siqlarin mardona yenggil.
Yuking og'ir bo'lsa, ko'chadi yengil,
Yo'lingda uchrasa yaxshi odamlar.

Normurod Narzullayev



Bilimingizni sinab ko'ring

1. „Bolam“ she'rini kim yozgan va she'rda yoshlar uchun qanday ibratli so'zlar bor?
2. „Do'mbira“ dostonida shoir nima haqida hikoya qilgan?
3. Afsona nima? Qanday afsonalarni eshitgansiz?
4. Donolar o'g'itlarini o'qib, o'zingizga nimalarni o'zlashtirib oldingiz?



O'ZBEK YOZUVCHI VA SHOIRLARI — BOLALARGA



Abdulla Avloniy

(1887 — 1939)



Abdulla Avloniy o'zbek bolalar adabiyoti, o'zbek milliy teatri dramaturgiyasi, pedagogikasi va matbaachiligining asoschilaridandir. U 1878-yilda Toshkent shahrida tug'ildi. 1890-yilda eski maktabni bitirib, madrasaga kirib, ta'lim-tarbiya darslari bilan shug'ullandi. U o'zining birinchi she'rlarini 1894-yilda yoza boshladi. 1904-yilda Mirobodda „Usuli jadid“ maktabini ochib, o'qituvchilik qila boshladi. Shu maktab uchun to'rt qismdan iborat „Adabiyot yoxud milliy she'rlar“ hamda „Birinchi muallim“, „Ikkinchi muallim“, „Maktab gulistoni“, „Turkiy guliston yoxud axloq“ kabi darslik va o'qish kitoblari yaratdi.

SAXIYLIK

Bir kishining Said ismli o'g'li bor edi. Otasi har kuni maktabdan ta'lim olib yemak uchun o'n tiyin pul berur edi. Bir kuni maktabga ketub borganda, bir faqir kishi yo'luqub:

— O'g'lim, ikki kundan beri ochman. Tamoq olib yey desam ustimdagi yirtiq chakmondan

boshqa hech narsam yo'q. Biroz oqchang bo'lsa bersang, savob topur eding, — dedi.

Said faqirning so'ziga toqatsiz bo'lib, holig'a rahmi kelub, otosi bergan o'n tiyin pulni faqirga beribdi. Faqir bu yosh Saidning qilg'on shafqat-u marhamatiga ofarin aytib, yig'lay-yig'lay duolar qilub ketdi. Said ul kun o'zi och qolsa ham, ochlig'ini hech kimga bildurmay, sabr-u qanoat ila o'tkardi. Maktabdan ozod bo'lub, uyiga borgan zamon qilg'on ishini otosiga so'zladi. Otosi ham „Saxiy Saidim“ deb xursand bo'lib, duo qildi ham bundan so'ng Saidga har kun yigirma tiyindan berurg'a va'da qildi. Saodatli Said otasi bergan yigirma tiyinning o'n tiyini yeb, beshini faqirlarga berub, beshini yig'ib, tezda boy bo'lib ketdi.



Saxiylik deganda nimani tushunasiz?

MAQTANCHOQ G'OZ

Bir g'oz suvda yurib, o'ziga o'zi maqtanib: „Olamda mendan hunarmand qush yo'qdir. Yerda yuguraman, suvda suzaman, havoda uchaman. Bir o'zimning uch xil hunarim bor“, — dedi. G'ozning bu so'zini bir qurbaqa eshitib: „Birodar, sen shuncha maqtanmasang ham bo'lar edi. Chunki baliqdek suzolmaysan, kiyikdek yugura olmaysan, lochindek ucha olmaysan. Chalachulpa uch hunarni bilguncha, birini yaxshilab bilganing yaxshi edi“, — dedi.

Maqol: Maqtanma g'oz, hunaring oz.



1. G'oz nima deb maqtanibdi?
2. G'ozning maqtanganini eshitib qurbaqa nima dedi?

QANOAT

Bir kishining Ali va Vali ismli ikki o'g'li bor edi. Ali qanoatli, Vali qanoatsiz edi. Bir kuni otasi bozordan olma olib kelub, bolalarini sinamoq uchun chaqirub: „Sizga olma beraman“, — dedi. Vali tezlik birla kelub: „Otajon, menga hammasini bering“, — dedi.

Ali sekingina kelub: „Menga birgina olma bersangiz bo'ladur“, —dedi. Otasi Alining qanoatiga ofarin qilub, quchog'iga olub, peshonasidan o'pub, ikki olma berdi. Ammo Valiga olma bermak qayda, balki „qanoatsiz bo'lma“, deb adab berdi.

*Qanoat birla qorin to'ydirursiz,
Qanoat bo'lmasa, ko'p och bo'lursiz.
Qanoatsiz kishi bag'rini dog'lar,
Qanoatli kishi og'zini yog'lar.*



Sabr-qanoatli bo'lish deganda nimani tushunasiz?



Hikoyadan xulosa chiqaring.

YAXSHILIK YERDA QOLMAS

Bir ari suv ustida uchib borur edi. Birdan suvga yiqilub ketdi. Qanotlari ho'l bo'lub, ucharga kuchi yetmadi. O'lar holatga yetdi. Buni bir kabutar ko'rub, ariga rahmi kelub, darhol bir cho'bni tishlab, suvga tashladi. Bechora ari bu cho'bni kema qilub, suv balosidan qutuldi. Arodan ko'p o'tmadi. Bir bola tuzoq qo'yub, kabutarni tutmoqchi bo'ldi. Ari buni ko'rgan zamon kelub, bolaning qulog'ini chaqdi. Bola og'riqning alamidan tuzoqni tashlab, qulog'ini ushladi. Kabutar vaqtni g'animat bilub, uchub ketub, o'lumdan qutuldi.

*Yaxshilik qilsang, bo'lar joning omon,
Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.
Yaxshi so'z birlan ilon inidan chiqar,
So'z yomon bo'lsa, pichoq qinidan chiqar.*



„Yaxshilik yerda qolmas“ maqolining mazmunini hikoya asosida izohlang.



**Abdulhamid Sulaymon
o'g'li Cho'lpon**
(1897 — 1938)



O'zbek adabiyotining atoqli namoyandalardan biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon Andijonning Qatortarak mahallasida ziyoli oilasida tug'ildi. U o'z ijodida millat taqdirini o'ylagan, erk va hurriyatni kuylagan betakror shoirdir.

QISH KECHALARI

Bolalar, sizlarga,
Ko'p yaxshidir qishki tun.
Erinibgina yotasiz,
Tancha issiq, cho'g' qizg'in.
Goh-goh chiqib tanchadan,
Quvonishib o'ynaysiz.
Esga tushgan o'yinning
Hech birini qo'ymaysiz.

Shovqin qilib, baqirib,
Chaqirasiz, janglaysiz.
Eng so'ng yotib kampirning,
Cho'pchagini tinglaysiz.
Tashqarida qor-bo'ron,
Zahar to'kar qora qish.
Undan qo'rqib, to'xtolmas,
Sizda o'ynash va kulish.
Ammo bu xil sevinchlar,
Hammada ham bo'lmaydi.
Hammaning ham bolasi,
Qishda o'ynab-kulmaydi.
Yer yuzida juda ko'p,
Yo'qsil yetim bolalar.
Bechoralar nonga ham,
Yaxshigina to'ymaylar.
Ba'zilarning yosh chog'da,
Onalari o'lgandir.
Shundoq qilib yoshlikdan,
Gul yuzlari so'lgandir.
Ular uchun na tancha,
Na o'tin bor va na cho'g'.
Na cho'pchaklar aytgali,
Na sevgali kishi yo'q.
Shundoqlarni ko'rsangiz,
Ko'ngillarini ko'taring,
Yo aka, yo uka deb,
Birga turing, bir yuring.



1. Shoir bu she'rida qishning ko'rinishini qanday ifodalayapti?



2. Shoir qishning sovuqligini insonning qanday holatiga o'xshatayapti?

KUZ YOMG'IRI

To'kildi tomchilar ...
Yaproqning yuzlari
Tomchiga o'ptirib
Ho'llandi ...
Chuqurcha ko'llandi ...
Tomchini ko'ptirib,
Betida o'ynatdi.
Chuqurcha,
U — jindek ko'lcha,
Tomchilar —
Ko'klarning so'zlari
Yerlarni qamchilar!..



Siz nima deb o'ylaysiz, she'rda tabiat tasviri orqali shoir qanday hissiyotni ifodalagan?



Mirtemir

(1910 — 1976)



O'zbek she'riyatining yirik namoyandasi Mirtemir Turkiston shahri yaqinida joylashgan Iqon qishlog'ida tug'ilgan. U o'zbek va qozoq xalqlari yonma-yan yashagan zaminda tug'ilgani uchun o'z ijodida bu ikkala xalqning qardoshligini keng tasvirlagan.

YURT QO'SHIG'I

Qancha yiroq chopsa, charchamas tulpor,
Qancha yiroq oqsa, qurimas buloq.
Maysa qulf urganda mast bo'ladi nor,
Nafsi yomon kishi bo'lur qurg'uloq.
Tuproq ostida ham zar — hamisha zar,
Kumushni zang bossa, kumushdir hamon.
Dengiz tublarida gavhardir gavhar,
Chiqar tog' tagidan kon ham bir zamon.
Oyni etak bilan to'sib bo'lurmi?
Tutatqi bo'lurmi yulduz cho'g'ida?
Ayting-chi, mard odam aslo o'lurmi?
Nomi qolur uning yurt qo'shig'ida ...



1. Shoir „Yurt qo'shig'i“ she'ri orqali qanday o'xshatishlardan foydalangan?
2. Bu she'rda shoir mard inson haqida nima demoqchi?

ONA TILIM

Ona tilim — onajonim tili bu,
Beshikdanoq singgan jon-u quloqqa.
El-u yurtim, xonumonim tili bu,
Qadimlikda o'xshar ona tuproqqa.
Bobolardan bizga meros ezgu til,
Avlodlarga xazinayi bebaho.
Qalbimizga, ruhimizga ko'zgu til,
Bu dunyoga bag'ishlamish ne daho ...

* * *

Yobonlarning¹ cheksizligi,
Ham samumi, ham hovuri,

¹ Yobon — dala, dasht, cho'l.

Onajonlar allasidan,
Ko'z yoshidan, oq sutidan.
To'qaylarning tengsizligi,
Jilg'alarning sho'x g'ovuri,
Yigitlarning yallasidan,
Suluvlarning sukutidan —
Yo'g'rilgan til —
Ona tilim.

Daryolarning toshqin payti
Arslon yanglig' arillashi,
Dovonlarning ko'k qiyosi,
Qorli tog'lar jilosidan,
Cho'ponlarning qamish bayti,
Childirmaning darillashi,
Go'ro'g'lining alp siymosi,
Alpomishning da'vosidan —
Tug'ilgan til —
Ona tilim.

Tulporlarning asovligi,
Tosh chaqishi, olovligi,
Bobolarning oltin so'zi,
Bo'yoqchining o'lanidan:
To'quvchining alg'ovligi,
Chilangarning dalg'ovligi,
Bu tuproqning qo'sh ho'kizi,
Qo'shchisi ham qo'lanidan —
Yaralgan til —
Ona tilim.

Shu tuproqning jon ayamas
Tarlonlari, burgutlari,

Kelinlarning dildoshligi,
Yor-yorlarning jarangidan:
Bosqinlarning bedodligi,
Buvilarning o'g'itlari,
Do'mbiraning mungdoshligi,
Dutorning ham tarangidan —
Taralgan til —
Ona tilim.

* * *

Talonlarda talanmish, yong'irlarda qovrilmish,
Ertaklig-u cho'pchaklar, odimi til bu,
Bo'ronlarda somondek talay-talay sovrilmish,
Bu dunyoning o'ziday qadimiy til bu.
Shu tilda qo'shiq aytmish To'maris xotun,
Bu tilga ta'zimkormish mavlono Jomiy.
Shu tilda o'z jarangin topmish Aflotun,
Bu tildan xabardormish buyuk Nizomiy.
Bu tilga olis emas Manasday showvoz,
Toshlarga naqsh bo'lib o'yilmish til bu.
Bu tilda kuylab o'ldi hirotlik ustoz,
Qora qo'rg'oshindan quyilmish til bu ...

Bobolardan bizga meros, ezgu til,
Avlodlarga xazinayi bebaho.
Qalbimizga, jonirinizga ko'zgu til,
Bu dunyoga bergay hali ko'p daho...



1. She'ni ifodali o'qing va mazmunini o'z so'zlaringiz bilan so'zlab bering.



2. She'dan o'zingiz yoqtirgan bir bo'lakni yod oling.

Hamid Olimjon

(1909 — 1944)



Hamid Olimjon o'zbek bolalar adabiyotini rivojlantirishga barakali hissa qo'shgan ulkan adiblardan biri. U „Oygul bilan Baxtiyor“, „Semurg“ kabi ertak-dostonlari va bolalarga atalgan she'rlari bilan bolalar adabiyoti xazinasini boyitdi.

BUNYODNING JANGI

(„Semurg“ poemasidan)

Kunbotarda bir yovuz
Dev bor emish, yalmog'iz.
Odamga dushman emish,
Qon emish unga yemish,
Har musibat, har ofat,
Har bir mudhish kasofat,
Barcha jabr-u jafolar,
Hamma dard-u balolar
O'shandan kelar emish.
Odamlarni yemirish
Bilan bo'lur emish shod,
Ko'ngli g'amlardan ozod.
O'zi balo tog'ining
Va ofat bulog'ining
Boshida o'ltirarmish,

Kun-u tun-u yoz ham qish.
Uni ko'rgan har chaman
Qo'yarkan tuproqqa tan.
U tikilgan har bir gul
To'kilar ekan butkul.
Uni ko'rgan har bir jon
Tez bo'lar ekan xazon.
Daryolar qurir ekan,
Baliqlar chirir ekan.
Bunyod uzoqqa boqdi,
Chorbog'ga, tog'ga boqdi,
Nazari cho'lga tushdi,
„Huv“ deya yo'lga tushdi.
Ko'zdan yo'qoldi shu on,
Tarqaldi hamma hayron.
Baland tog'lardan oshdi,
Daralarda adashdi.
Vodiylarga ko'z yoshi
To'kib, aylandi boshi.
Daryolardan o'tdi ul,
Yana uzoq ketdi ul.
Yurti qoldi uzoqda,
Tushunchasi tuzoqda.
Zo'r bir ishga qo'shib bosh,
O'ziga o'zi yo'ldosh.
Uzoq cho'llarga yetdi,
Qaynoq ko'llarga yetdi.
Poyoni yo'q keng sahro
O't purkab soldi sado,
Oyog'i ostida qum
Yotadi uyum-uyum.

Biror ko'kat ko'rinmas,
Biror jonivor urinmas.
Yoniga tushib quyosh,
Kuyar edi ich-u tosh.
Boshdan ter quyar edi,
Oyog'i kuyar edi.
Halqumlari bo'lib qoq,
Toqatlari bo'lib toq,
Qimirlar edi sekin,
Zo'rg'a olar edi tin.
Bir yildan so'ng banogoh¹
Bir sirdan bo'ldi ogoh:
Poyoni yo'q keng cho'lda,
Qaynagan qumli ko'lda,
Bir zo'r daraxt ko'rindi,
O'shanda ko'zi tindi.
Ko'p toliqqan bu odam
Shu tomon qo'ydi qadam.
Daraxt qurigan edi,
Qurib chirigan edi.
Edi minglar yoshida
Uning baland boshida
Qush uyasi bor edi,
Ham zo'r, hamda tor edi.
Daraxtga bir zo'r ilon
Chirmashib, u oshiyon²
Sari zahar sochardi,
Ham og'zini ochardi.
Chaqalar chirqirashib,

¹ **Banogoh** — birdan, to'satdan.

² **Oshiyon** — in, uya.



Faryod qilib, tutashib,
Onani kutar edi,
Qon, zardob yutar edi.
Bag'ini o'rtab bu dod,
Yaqinroq bordi Bunyod.

Yordamga fahmi keldi,
Qushlarga rahmi keldi.
Qilichini chiqarib,
Daraxt yoniga borib,
O'sha yovuz ilonni,
Xunuk va mudhish jonni
To'g'rab tashladi shu on,
Qumlar bo'ldi qizil qon.
Chaqalar omon qoldi,
Ancha omon jon qoldi,
Chaqalarni qutqarib,
Ilonni qonga qorib,
Daraxtning soyasida,
Uya himoyasida,
Uzoq uyquga ketdi,
Joniga orom yetdi.
Kun choshgohdan og'ganda,
Quyosh tikka boqqanda,
Qo'zg'algan kabi bo'ron,
Guvullab qoldi osmon.
Yashin uchganday bo'ldi,
Poda ko'chganday bo'ldi.



1. Yovuz dev odamlarga qanday ofatlar keltiribdi?
2. Bunyod devni yengish maqsadida yo'lga chiqib, nimalarni ko'rdi?



* * *

Ko'kni tutib qanoti,
Butun olamning oti —
Semurg¹ qush kelib qoldi,
Bunyodni bilib qoldi.

¹ **Semurg'** — afsonaviy qush.

Changalida zo'r arslon,
Tumshug'ida botmon don,
Ko'zi ichidagi o't
Olamni qilib nobud,
Uyasiga qo'nmasdan,
Biroz bo'lsin tinmasdan,
Bunyodning boshi uzra
Chizaverdi doira.
Jahon buzib o'kirdi,
Qah-qah urib bo'kirdi.
Yemak uchun odamni,
Torta berdi u damni.
Chaqalari chirqirab,
Ko'z yoshlari tirqirab,
Yalindilar, qizg'on deb,
U bir gunohsiz jon deb:
„Qizg'on, ona, o'ksizni,
O'sha qutqazdi bizni.
Bo'lmasa o'lar edik,
Ochilmay so'lar edik.
Bizni yer edi ilon,
Ayrilarding, onajon“.
Semurg' o'ylanib qoldi,
Qalbini shafqat oldi.
Qumning bag'riga botgan,
Quyoshda kuyib yotgan
Bunyodga soya soldi,
Qanot ostiga oldi.
Qush nomli bu buyuk zot,
Undagi kumush qanot
Butun borliqni tutdi,

Bor osmonni bekitdi.
Bunyod salqin-soyada,
Bunday zo'r himoyada
Yetti tunni uxladi,
Yetti kunni uxladi.
Uyg'ona bermagach u,
Bosib tobora uyqu,
Semurg' daryoga ketdi,
Hayal o'tmasdan yetdi.
Suvni shimirdi cho'llab,
Qanotlarini ho'llab,
Shu zamon uchib keldi,
Jaladay ko'chib keldi,
To'xtab Bunyod qoshida
Bir silkindi boshida.
Bunyod uyg'ondi darhol,
Uni lol etib bu hol,
Birdan turib seskandi,
Qushni ko'rib seskandi,
Odamlarga o'xshabroq
Semurg' boshladi so'roq:
„Ikki ming yildan beri
Shu keng sahroning yeri
Bo'lmishdir menga makon.
Mendan boshqa biror jon
Kelolmadi bunga hech.
Qumlar kechib erta-kech,
Vatanidan ajraldi,
Sahro giyohsiz qoldi.
Qurtlar sarson bo'ldilar,
Uchgan qushlar o'ldilar.

Bunda faqat topdi jon
Sen halok qilgan ilon.
Hech yog'madi yomg'ir ham,
Yer ko'rmadi zarra nam.
Qadam bosmadi inson,
Darimadi¹ hech hayvon.
Shuncha yil yolg'iz turdim,
Yer va osmonni ko'rdim.
So'yla menga, ey odam,
Boshingga tushdi ne g'am?
Zo'r bir mardlik qilibsan,
Lekin bekor kelibsan.
Tilagingni ayt menga,
Ne ko'mak beray senga?"
„Dunyoni g'amga ko'mgan,
Jafo-alamga ko'mgan
Devni bir ko'rmoqchiman,
Ko'rib o'ldirmoqchiman.
Odamlarga baxt bermoq,
Baxtlilarga gul termoq —
Eldan shiorim bo'ldi,
Nomus va orim bo'ldi ...“
Qushda mehr uyg'ondi,
Qizg'anish bilan yondi.
„Kel, esa ustimga chiq,
Mening qanotimga chiq.
Bir nafas o'tirgin jim,
Bir nafas ko'zingni yum,
Men kuningga yarayin,
Seni olib borayin.

¹ Darimadi — kelmadi, ko'rinmadi.

Dengizlardan o'tganda,
Dunyoni suv tutganda,
Ko'zlaring ochilmasin,
Xayoling sochilmasin.
O'zingni yo'qotmagil,
Yana suvga otmagil.
Seni olib borarman,
Kurashingga qararman.
O'lsang, gunoh o'zingda,
Qo'rquv bilmas so'zingda.
Agar devni o'ldirsang,
Yerni nurga to'ldirsang,
Yana olib qaytarman,
Ofarinlar aytarman".
Qanotga chiqdi Bunyod,
Ko'zini chirt yumdi bot
Va Semurg' qildi parvoz,
Dunyoni tutdi ovoz.
Kunbotar tomon ketdi,
Tunyotar tomon ketdi.
Semurg' ostida dunyo
Aylangan bo'ldi go'yo;
U o'qday uchib o'tdi,
Yashinday ko'chib o'tdi.
Yer-u ko'kka soldi jar,
Shovqiniga dunyo kar.
Xezlaganda yurt oldi,
O'lkalar ketda qoldi.
Qolmay o'tmagan yeri,
Ucha-ucha oxiri
O'rmonlikka yetishdi,

Shovullab pastga tushdi.
Yalmog'izning qoshidan,
Daraxtlarning boshidan
Vabo o'tganday bo'ldi,
Balo yetganday bo'ldi ...
Semurg' dedi: „Ey botir,
Kel endi, o'rningdan tur!
Borib dushmaningni top,
Qilich sol, bo'ynidan chop.
Jo'na, baxting bor bo'lsin,
O'tkir qilich yor bo'lsin.
Seni shunda kutarman,
Kelmasang, qon yutarman“,
Deya ko'zdan yo'qoldi.
Bir kesak bo'lib qoldi.



1. Semurg' qush nima uchun Bunyodga yordam berdi?
2. Qush uni qayerga olib bordi?



* * *

Bunyod o'rmonga kirdi,
Suv kechib qonga kirdi.
O'tkir qilich qo'lida,
Borar ekan yo'lida,
Daraxtlar qular edi,
Yirtqichlar o'lar edi.
O'rmonda harnaki bor —
Qurt-u qush-u jonivor
Qarshi olar edilar,
Nazar solar edilar.
Bu ham bo'lar deb qurbon,
Edilar ko'p pushaymon.

Chumchuqlar chirqirardi,
Bulbul yig'lab turardi.
Bunyod esa mardona,
Mard-u bahodirona
O'rmonda borar edi,
Devni axtarar edi.
Oshiqardi ko'ray deb,
Qarshisida turay deb ...
Bunyod yetti kun kezdi,
Yetti qora tun kezdi.
Eng oxiri tun chog'i
Bir hid sezdi dimog'i.
Tani jimirlab ketdi,
Qalbi qimirlab ketdi.
Boraverdi u hamon,
Guvullab qoldi har yon.
O'rmon shatirlab qoldi,
Barglar patirlab qoldi.
U yana yurdi biroz,
Oxir dev chiqdi peshvoz.
Sekin-sekin yurardi,
Qah-qah urib kulardi.
Dumidan boshigacha,
Boshdan oyog'igacha
Xursandlik olgan edi,
Shodlikda qolgan edi.
Zahar tomar tishidan,
O'lim yog'ar ishidan.
Shoxi osmonda edi,
Tirnog'i qonda edi.
Bunyodga kulib boqib,

Nafsigga yigit yoqib:
„Salom, o'g'lim, kel, — dedi.
Dushman emas, el, — dedi.
Tilagingni ayt menga,
Ne murod kerak senga?“
Yigit so'zlay boshladi,
Gapni tizib tashladi:
„Bunyod senga el emas.
El bo'lganni dev yemas.
Sen bir ofat emishsan,
Zo'r qabohat emishsan,
Odamzodning yovi,
O'g'lonlarning go'rkovi
O'zing emishsan yolg'iz ...
Boshingga yetajakman,
O'ldirib ketajakman“.
Bunyod qilich chiqardi,
O'rmon yaltirab qoldi.
Bunyodning qahri keldi,
Devning ham zahri keldi.
Ko'zlaridan o't sochdi,
O'rmonlikdan tun qochdi.
U har og'iz ochganda,
U har bir o't sochganda,
Zo'r bir yong'in ketardi,
Qancha o'rmon bitardi.
Nafasidan zo'r bo'ron
Qo'zg'alar edi har yon:
Tomirlar ko'char edi,
Daraxtlar uchar edi.
Osmonni qushlar tutib,



Hammasi ham qon yutib,
Chirqirashib turardi,
Zo'r kurashni ko'rardi.
To'kilar edi qonlar ...
Barcha yirtqich hayvonlar
Kezardi besaranjom,
Saqlab qolmoq uchun jon.
Bunyodni yutmoq uchun,
Bo'g'zidan tutmoq uchun
Dev hamla qilar edi,
Ba'zida kular edi.
Otashda edi ichi,
Bahodirning qilichi
Yaltirardi boshida,
Kular edi qoshida.
Bunyod qilich solganda,
Har bir sirmab olganda,
Devni uzib o'tardi,
Uzib, buzib o'tardi.
To'xtamadi qonli jang,
Bo'ldi devning holi tang.
Ikki kun-u ikki tun
Solishdi ular butun.
Tinimni bilmadilar,
Yarashga kelmadilar,
Bunyod qilichi bilan,
Zaharli uchi bilan
Devni burdalayverdi,
Qilich qon yalayverdi.
Dev makon qurgan o'rmon
Boshdan oyoq bo'ldi qon.

Qilichni har solganda,
Har bir sirmab olganda,
Bir joyni olib o'tdi,
Bir raxna solib o'tdi.
Oxiri jon qolmadi,
Jon-u darmon qolmadi,
Qilich bo'g'zidan tutgach,
Tog' kabi yorib o'tgach,
Dev harsillab quladi.
Birdan yakson bo'lganda,
Yerlar qimirlab ketdi,
Zilzila gurlab ketdi.
Cho'zila tushgan chog'i,
Devning bosh-u oyog'i
O'rmonni tutib ketdi,
Sig'may chetga ham o'tdi.
U tipirlab berdi jon
Va jimjit qoldi o'rmon.
Shundan so'ng botir Bunyod
Bo'lib o'zida yo'q shod,
Qilichin yuvib oldi,
Bir o'pib qinga soldi.
Parrandalar barchasi,
Go'zali — oy parchasi
Botirni uzatdilar,
Olqishlab kuzatdilar.
Yigit Bunyod mardona,
Mard-u bahodirona,
Yurib o'rmondan chiqdi,
G'avg'o va qondan chiqdi.
Botir g'oyat beqaror,
Semurg'ga intizor

Turar edi ko'z tutib,
Har ko'zini yuz tutib.
Kesak bo'lib yotgan qush,
Go'yo ko'rgan kabi tush,
Qonlar to'kilganini,
Bunyodning yengganini,
Botirning g'ussadan pok,
Dev bo'lganini halok —
Bilar edi hammasin.
Kesak bo'lib, ko'lkasini
Yerga solib yotardi,
Orom olib yotardi.
Bunyod kelgan zamon ul
Shodlikka to'ldi butkul.
Bir aylanib qush bo'ldi,
Bunyod ko'ngli xush bo'ldi.
Botir izidan o'pdi,
Ikki ko'zidan o'pdi.
Dedi: „Kel, ustimga chiq,
Mening qanotimga chiq!
Endi ketga qaytaylik,
Elga doston aytaylik.
Botir yigit, ketdik, bo'!!
Kelgan joyga yetdik, bo'!!“
Botir qanotga chiqdi,
Zo'r „duldul ot“ga chiqdi.
Ko'zini yumgan zamon,
Xayolga cho'mgan zamon,
Semurg' ko'yida yo'l oldi,
O'rmonlar ketda qoldi.
Bir yurt ko'chib borganday,
Ko'chib uchib borganday,

Shovqin-suron zo'r edi
Va beimkon zo'r edi.
„Ey Bunyod, ko'zingni och,
Jahonni ko'r, nazar soch!
Endi yo'lni toparsan,
Kerak bo'lsa choparsan.
Bor, yaxshilar yor bo'lsin,
Botir, baxting bor bo'lsin!“
Qaytadan qo'l ushlashib,
Semurg' bilan xo'shlashib,
Bir-birini quchoqlab,
Mehr-u muhabbat bog'lab,
Ajraldilar ikkovlon.
Bunyod jahonni javlon
Urrib yana yo'l ketdi,
Sahro bilan cho'l ketdi.
Tog'lar oshdi, qir oshdi,
Oylar bo'yi adashdi.
So'nggi qirdan o'tganda,
O'z yurtiga yetganda,
Kunlarini sanadi,
Tunlarini sanadi,
Angladi rosa uch yil,
Kezganini muttasil.



Ertakda Bunyod qanday tasvirlangan, tabiat manzaralari-chi?



1. Ertakni bo'limlarga ajrating va har qaysi bo'limga sarlavha o'ylab toping.
2. Ertak asosida rasm chizing va insho yozing.





G'afur G'ulom

(1903 — 1966)



Hassos shoir va adib G'afur G'ulom Toshkent shahrida tug'ilgan. U o'zidan „Sen yetim emassan“ singari o'lmas she'riy asarlar qoldirdi. Jumladan, uning „Shum bola“ qissasi, ayniqsa, bolalar uchun sevimlidir.

SHUM BOLA

(Qissadan parcha)

... Shunday qilib, bu falokatli ishni Yo'ldosh boshladi. Mahallaning bir to'da o'spirin bolalari Laylakmachitning jilovxonasiga yig'ilib, oshiq o'ynamoqchi edik. Men bugun juda ko'p yutgan edim. Olacha yaktagimning cho'ntagi, yengim, lippam oshiqqa to'lib ketgan edi.

— Bolalar qanda, oshiqlar manda, — deb sevinch bilan qichqirmoqda edim. Xuddi shu oraga Yo'ldosh shilqim suquldi-yu, ishning pachavasini chiqardi. U bari mog'orlab ketgan surp yaktagining etagi bilan burnini arta-arta gapira boshladi:

- Bolalar, xalfana qilamizmi?
- Bo'пти, qilamiz.
- Qayerda?

— Rizqi xalifaning ko'chib ketgan hovlisida.

— Bo'пти.

Xalfanaga palov qilmoqchi bo'ldik. Masavur otaliqning nabirasi Omonboyning o'g'li Husnibiy oshpaz bo'ladigan bo'ldi. Qozon, cho'mich, tuz, qalampir, suv — undan, qolgan masalliqnlarni shu yo'sinda taqsim qildik: guruch bilan sabzi — Yo'ldoshdan, go'sht — Abdulla do'lvordan, yog' — mendan. Qolgan-qutgan narsalar — Po'latxo'ja mug'ambirdan. Hamma har tarafga qarab ketdi. Men ham yog' keltirgani uyga ketdim. Onam oshxonada yertandirga o't qalab, qovoq somsa taraddudida edi. Bizning ro'zg'or mayda-chuydalari zax uyning orqasidagi uzun hujrada bo'lar edi. Ayvonda o'rtancha singlim kichik ukamni ovutib o'tirgan ekan. Uning yonida hujraga kirishning evini topolmadim, bironta hiyla ishlatish kerak edi.

— Shapag', — dedim unga, — katta to'ping qayerda?

— Qo'g'irchoqlarimning oldida, nima qildi?

— U yerda yo'q-ku!

— Ha... o'lgur, sen olgandirsan, hozir berasan, ber.

Men iljayib turaverdim. U ovutib turgan ukamni qo'ydi-da, qo'g'irchoqlarining oldiga yugurib ketdi. Men ham „lip“ etib hujraga kirib, xo'qachadan yog' o'yib oldim. Yog'ni bir qog'ozga turmug'lab¹ lippamga qistirdim. U yerdan chiqib o'tinxonaga kirdim. Kulrang tovug'im piyozdan qilingan moyak

¹ Turmug'lab — o'rab.

ustida tug'ib o'tirar edi. Sekin borib, qanotini ko'tarib qarasam, allaqachon tug'ib bo'lgan ekan, lekin onalik mehri bilan tuxum ustida bosib yotgan ekan. Tuxumni oldim. Tovuq qaqalab qochdi.

O'rtoqlarimga yaxshi ko'rinish uchun rasamadda ko'rsatilmagan bo'lsa ham, yog' yoniga tuxumni ham qo'shib olib borishni o'zimga ma'qul qilgan edim. Zing'illab ko'chaga chiqib keta boshladim. Oshxonamiz yo'l ustida bo'lganidan, onam ko'rib qoldi.

— Hoy, juvonmarg, zumrasha, tag'in ko'chagami? Bu yoqqa kel, olovni jo'nashtirib ket, tutay berib ko'zimni ko'r qilayozdi.

Noiloj qoldim, tuxumni qalpoqchamga solib, kiyib oldim-da, oshxonaga kirdim. Onam meni tergay boshladi. Men jimgina quloq solib, o'choqning yoniga cho'qqayib, o't qalashtirmoqqa boshladim.

Men bilmagan ekanman. O'tning taftiga lippamdagi yog' erib, pochamdan oqmoqda ekan. Oyim qo'lidagi xamir yoyib o'tirgan o'qlov bilan boshimga astagina urdi.

— Juvonmarg, kap-katta bola, uylansang, bolang bo'ladi. Shu yerda, shunday Fotimayi Zuhroning dastgohlari¹ bo'lgan qutlug' yerda siyib o'tiribsanmi?

Oyim boshimga o'qlov bilan urganda, qalpoq tagida bo'lgan tuxum pachochlangan edi. Uning sarig'i oqqa aralashib, chakkamdan sirqib, yuzimga

¹ **Fotimayi Zuhroning dastgohi** — o'choq o'zbeklar orasida qadimdan muqaddas joy hisoblangan.



oqmoqda edi. Oyim: „Bola bechoraning boshini yorib, qatig'ini chiqarib yubordimmi?“ — deb esi chiqib ketgan ekan. Men bo'lsam, xalfana qilamiz deb o'margan o'g'riligim ochilib qolganidan, bir chekkasi qo'rqish va bir chekkasi uy ichidagilardan uyalganimdan, oshxonadan chiqib, ko'chaga qochgan edim. Yog' erib oqqan, tuxum singan bo'lganidan, xalfanachi o'rtoqlarimning oldiga borishdan ma'no chiqmas edi. Kechqurun uyga qaytib kelish ham mushkul, nima qilish kerak, qayerga borish kerak?!



1. Bolalar yig'ilib nima qilmoqchi bo'lishdi?
2. Bola yog' bilan tuxumni yashirib olib chiqib ketayotganda qanday voqea ro'y berdi?



* * *

O'ylab-o'ylab topdim. Sa'vonda bitta ammam bor. Shunikiga boraman. O'zi befarzand. O'zi ham, eri ham meni juda yaxshi ko'rishadi, bularning uyida kishi zerikmaydi ham. Ammamning eri mo'ynado'z-kosib. Bola-chaqalari bo'lmaganidan, uylari biznikiga o'xshab bozor emas — yig'inchoq. Innaykeyin, bularning uyi salkam ajoyibxona. Unda dunyodagi hamma narsa bor.

Ovga kirishadigan sohibchanga qushlardan — qarchig'ay, miqqiy, qirg'iy; urishadigan qushlardan — dakangxo'roz, oddiy xo'roz, amirkon xo'roz, kaklik, bedana (bu so'nggi ikkisi sayrashi uchun ham boqilib, cho'p qafasda, to'rqovoqda saqlanadi).

Sayraydiganlardan: qumri, sa'va, bulbul, mayna va boshqalar. Bulardan tashqari, faqat uyning ziynati uchun boqiladigan bitta ov tozisi, bitta ko'ppak, bitta laycha kuchuk, besh-oltita bolalari bilan ko'ppak, bitta Buxoro baroq mushugi bor edi.

Ularning uyidagi gullarning-ku son-sanog'i yo'q: gulbeor, gulira'no, gulsafsar, gulhamishabahor, qo'qongul, qalampirgul, namozshomgul, sambitgul, atirgul, kartoshkagul, qashqargul — ishqilib, sanab tugatib bo'lmaydi.

Pochcham bilan ammam bu gul, bu hayvonotlarning har bittasini nuridiydalariday parvarish

qiladilar. Har holda, menga o'xshagan o'yinqaroq bolalar uchun bu yerda ermak topiladi. Zerikib qolmayman.

Ammam bilan pochcham meni erkalab qarshi oldilar:

— Kel-a, bo'yingdan girgитton bo'lib ketay, seni qaysi shamol uchirdi, akam tirilib keldimi, haligina qovog'im uchib turgan edi, — dedi ammam.

— Ha, balli, necha kundan beri ko'zim uchib, yo'lpashsha aylanib yurgan edi, haytovur, yaxshilikka ko'rindi. Sen kelar ekansan, balli-balli, — dedi pochcham.

Men bu erkalatishlardan juda taltayib ketdim...

Yoz payti pochchamni o'rtoqlari qovun sayliga chaqirgan. Bir tarafi hayitlashib ham kelaman-ku, degan niyat bilan yoniga tozisini ham qarchig'ayini olib, matrab ko'tarib, uch-to'rt kunga dalaga chiqib ketdi, ketar oldida menga uchta buxor tanga¹ berib:

— Qushlarning ovqatidan xabar olib tur, ochiqib qolmasin, — deb tayinladi. Men juda quvondim — mana endi o'sib ham qoldim, yoshim o'n to'rtga kirdi, odamlar menga ishonadigan bo'lib qoldi, — deb ich-ichimdan sevindim, kimsan miqqiy, kimsan qirg'iy deganday, sohibchagal qushlarning ixtiyori mening qo'limda.

Qushxonaga kirdim, uyning bir burchagida miqqiy, bir burchagida qirg'iy — boshlarini yerga tiqib, qo'ndoqda o'tirar edilar.

¹Buxoro amirlari zamonidagi kumush tanga.

Ov qushlarining tezagi oppoq bo'lar ekan. „Qatiq icharmikan-a? Albatta, qatiq ichadi: bo'lmasa tezagi oq bo'lmasa kerak“, deb o'yladim.

Ammamdan yashirib oshxonaga kirdim-da, katta xumchani ko'tarib bozorga ketdim. Bir tangani maydalab, bir paqirga (ikki tiyin) bir xurmacha qatiq olib, uyga keldim. Ikki kosani qatiq bilan to'ldirib, har ikki qushning oldiga qo'ydim. Har ikki qush ham ovqatga qo'ndoqdan turib sipohgarchilik bilan bir ko'zlab qaradi-da, yuzini chirtta teskari o'girib oldi...

Qushxonaning qirma gilqog'ozida pochchamning qush qo'ndiradigan ov qo'lqopi ilig'liq turgan ekan. Qo'limga kiyib oldim-da, miqqiyni ko'tardim. Butimga qisib, og'zini yirib, kumush qoshiq bilan qatiq ichira boshladim. Obdan to'ydi, boshqa qushlarni ham shunday qildim: „Ana endi to'y-dilaring. Kishi bir yerga qadalib o'tira bersa ham charchaydi, qorni to'q bo'lgandan keyin kishi tolmaydi. Mana endi o'tira beringlar, qornilaring to'q — qayg'ularing yo'q“.

Shu xilda ikki-uch kun ammamdan yashirib, o'z bilgimcha qushlarni qatiq bilan siylab yurdim. Qushlarning ichida o'zim yaxshi ko'radigan bittasi bor edi, unga boshqalardan yashirib, qatiqning yuzini berar edim.

Uchinchi kunga borganda erta bilan qushxonaga kirib qarasam, hamma qushlar qo'noqdan pastda — hammasi hurpaygan, boshini ichiga olgan, ayniqsa, miqqiy qo'noq tagida bir qanotini ostiga solib, oyog'ini baralla uzatib, yonboshlab yotgan edi.

— Ha, mana bu kiroyi ish bo'пти, — deb o'yladim. — Yarim qorong'i uyda hadeb qo'nib o'tira berish ham kishini zeriktiradi. Shunaqa o'tirish-turishni ham qilib turgan yaxshi, yonbosh qil, yot, kerish ...

Qushxonaga kirib, ne ko'z bilan ko'ray? Miq-qiyning qulog'i ostida qolgan, ya'ni o'lgan edi. Qarchig'ay ham jon beray deb turibdi. Masala menga ravshan bo'la boshladi. Endi pochchamga nima deyman! Bu qushlarning har bittasini u ko'zining qorachig'iday ko'rar edi-ku! Bu yerdan ham nasibam uzilganday ko'rinib ketdi. Pochcham qushlarga ovqat olish uchun bergan puldan ikki tanga-yu, bir mirisi hali yonimda. Katta darvozaning ro'parasidagi yo'lakning tepasiga qafasda osib qo'yilgan bir juft qumrini ham yaxshi ko'rar edim. Asta borib, qafasni ilgagidan chiqardim. Boshimga qo'yib, katta safar uchun yo'lga tushdim, ammam mushuklarga shavla pishirish bilan ovora bo'lgani uchun, mening chiqib ketganimni payqamay qoldi. Belimda pul, boshimda savag'ichdan to'qilgan katta qafasda kukulab turgan bir juft qumri. Etakni turmaklab, sag'rimga bir mushtlab, „hayyo-hu“ deb, shahardan tashqariga qarab, yo'lga ravona bo'ldim.



1. Bola ammasinikida nima ishlar qildi?
3. Bolaning qilgan ishlarini siz qanday baholaysiz?





**Muso Toshmuhammad
o'g'li Oybek**
(1905 — 1968)



O'zbek adabiyoti xazinasini o'zining roman va qissalari, she'r va dostonlari bilan boyitgan atoqli adiblardan biri Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek bolalar adabiyotiga ham munosib hissa qo'shgan. U yaratgan she'r va hikoyalar, qissa va dostonlar bolalar ma'naviyatini boyitishda katta rol o'ynamoqda.

Uning „Odobli Tursun“, „Ahmadjon bog'bon“ kabi she'riy kitoblari, „Alisherning yoshligi“ qissasi, „Bolalik“ kabi asarlari shular jumlasidandir.

BOLA ALISHER

(Qissadan parcha)

Shu asnoda barchaning birdan eshikka yo'nalgan ko'zlarida oniy tabassum jilvalandi. Sho'x Alisher to'nining yelkalarini hilpiratib yugurib kirdi. U bir lahzagina ostonada to'xtadi-da, qizarib: „Assalomu alaykum!“ dedi nazokat bilan qo'llarini ko'ksiga qo'ygan holda va mehmonlarga qopqora ko'zlari javdirab, bir qarab chiqdi; otasini ko'rgan hamono yana ham sevinib ketdi; chopib bordi-da, yonboshiga biqinganicha erkalandi. G'iyosiddin Kichkina bir kesim pista holva bilan o'gilchasini mehmon qildi.

To'rt yoshlar chamasidagi Alisher kelishgan, xipcha gavnali, tuyg'un ko'zlari teran ko'rinar edi. Uning boshida takya, ustida adras to'n, oyoqlarida etik, holvani yeb turib, majlisni odob ila kuzatar edi.

— Otni yaxshi ko'urmisen, Alisherbek? — deya so'radi kulimsirab sipohlardan biri.

— Ko'p yaxshi ko'rurmen, lekin... — dedi otasiga termula turib Alisher, — ot choptirishdan fikr yugurtirish yaxshiroqdir, chamamda.

Hamma hayratda qotib qolgan edi.

— Ofarin! — dedi kekxa barlos. — O'qiting o'g'lonni, mulla qiling! Ilmning cho'qqisiga arziydi o'g'lingiz.

G'iyosiddin Kichkinaning yuzi quvonchdan yorug'lanib ketgan edi, ko'zlarida tabassum-la dedi:

— Niyatimiz xuddi shunday, o'qitmoq orzu qilurmiz. Ziyrak bola, picha sho'xligi bor...

— Qani, jiyan, bir g'azal o'qib yubor, bilasan-ku, — dedi tog'asi shoir Mirsaid Alisherning yelkasidan quchib. Alisher otasiga o'qisam maylimi, deganday yalt etib qaradi.

— O'qi, o'g'lim, o'qi, ixlos bilan o'qi, — dedi G'iyosiddin uning yelkasiga qoqib.

Alisher oyoqlarini yig'ib, darrov cho'kka tushdi va tiniq tovush bilan muloyim ohangda she'r o'qib ketdi:

*Ko'kardi chaman, gulzorim qani?
Zihi sarvi bo'yluq nigorim qani?
Topibdur bu kun vasli gul andalib,
Darig'o, mening navbahorim qani?*

Majlis ahli maroq bilan jim quloq solurdi. Qizarib ketgan Alisher birozgina sukut qilgach:

— Mavlono Lutfiy hazratlari aytmişlar, bu she'ni. Men juda yoqtiramen, ota, ne deysiz? — dedi ixlos bilan otasiga termilib.


Otasi sevinganidan ixtiyorsiz ravishda qah-qahlab kulib yubordi.

— Juda yaxshi, o'g'lim, menga ham ma'qul. Mavlono Lutfiy nihoyat hassos, nozik tafakkurli, har nechuk madhga yarashuk bir shoirdirlar.

Majlis ahli zavq, maroq to'lqinida, ajoyib hayratda edi.

— Yo rabbim! — dedi kekxa barlos yoqasini ushlab. — Ko'ngillaringizni nurga to'ldirgan bu jujuqdan qanday burgut yetishur? Parvardigorim hamisha panoh bo'lgay senga, omin! — qo'llarini yuziga surkadi u.

Mehmonlar boshlarini qimirlatib tasdiq qildilar va barlosga ergashib, Alisherni ixlos bilan duo qildilar.

 1. Nima uchun kekxa barlos yosh Alisherning gaplaridan hayratga tushdi?

 2. U Alisherni nima deb maqtadi?

* * *

Alisher bu katta bog' hovlining har bir burchagini tomosha qilib uzoq yurdi. Daraxtlarning novdalariga osilgan rangdor qafaslardagi to'ti, bulbul, maynalarni maroq ila tomosha qildi. Ularning qafas ichra tinimsiz sakrashlarini, sayrashlarini uzoq kuzatdi. Qushlarga qarab yuradigan maxsus xismatkorga ergashib, unga bitmas-tuganmas savollar berdi.



Bir payt qarshisida yetti yoshlardagi shahzoda Husayn paydo bo'ldi. Uning boshida kichkina ipak salla, ustida yangi baxmal to'n, oyoqlarida zarhal etik, kamariga oltin sopli kichkina xanjar solgan. Husayn osmonga sapchishga tayyor, olovday shijoatli bola edi.

— Qullar, kanizlar oyog'iga o'ralib, ne qilib yurursen? — deb so'radi qah-qahlab Husayn.

— Qushlarni sayr eturmen... Biri biridan ko'r-kam... — deb javob berdi Alisher.

— Voh, qushlar toifasi behisobdir! Lekin kabutarlardan o'zgasi bilan ishim yo'q, do'stim. Yur ko'chaga, zerikdim.

Shahzoda Husayn va Alisher ko'chaga otildilar.

Katta maydonda yigitlar o'q uzish mashqi ila mashg'ul edilar. Beklar, mirshablar ko'p edi.

Sovut kiygan, ot mingan yigitlar bir qo'llarida yoy, bir qo'llari bilan o'q uzar edilar. Ular bir marraga yetganda darhol qilich-qalqon tutib, qilichbozlikka kirishar, shovqin-suron ko'tarar, chuvvos qiyqiriq bilan maydon o'rtasida yig'ilib qolar edilar. Maydon chetida bir to'da beklar „Yaxshi-yaxshi!“, „Balli“, „Durust“, „Ofarin!“ deb ularni rag'batlantirib turardilar.

— Jasur yigitlar-a! — dedi Husayn kattalardek salmoqlanib. — Xudo xohlasa, men qilichboz bo'lurmen, ko'zimga ko'ringan yovning kallasini sapchadek uchirurmen.

Alisher kuldi:

— Tushundim, qilichbozlikning sizga zarurati kattadir.



— Ha, do'stim, — dedi Husayn mag'rurona,
— aqling joyida!

Alisher indamadi; u maydonda chopib yurgan otlarning qaysi biri suluv, qaysi biri chopqirroq, degan xayol bilan band edi.

— Qara, kabutarlar raqsini ko'r! — Alisherning yengini tortdi osmonga qarab Husayn.

Osmonda raqs etib yurgan to'da kabutarlarni bir nafas kuzatdilar.

— Kabutarlar farishtalarga o'xshaydi-ya,— dedi o'ylanib Alisher.— Men xo'p sevadurmen kabutarlarni! Tomoshadan charchashni bilmaydurmen, ishqim baland ...

Bolalar tashqari hovliga kirganlarida, odam ozligini, soyadek jim turgan bitta-yarimta sipohini ko'rib, Husayn shivirladi:

— Hazrat uyquga ketibdurlar. Ulug' bobomiz Temurdan bitta-yu bitta shu kishi qolmish... Bechora keksaydi... — deya istehzo bilan kulib qo'ydi.

Shu topda Husayn oldida beo'xshov o'ralgan katta sallali, ko'zlari hiylakor, o'ttizlardan oshgan bir yigit, qo'llari ko'ksida, ta'zim ila to'xtadi:

— Shahzoda, kech bo'ldi, ruxsat bersalar ketaylik.

Shahzodaning qizarib ketganidan jahli chiqqanini Alisher payqagan edi.

— Bek janob, hali barvaqt, sabr eting! — dedi Husayn toqatsizlangan holda.

Bek ot tayyorligini, Husaynning onasi kech qolmaslikni uqtirganligini aytgach, u bir zum sukut qildi, so'ng Alisherga qaradi:

— Xayr, Alisherbek! — dedi kattalardek shiddat bilan.

— Shahzoda, xayr, yaxshi borsinlar, — dedi Alisher ham hayajonda.



Nima uchun yosh Alisher Husaynga „Qilichbozlikning zarurati sizga kattadir“, deydi?



Bo'lajak podshoh — shahzoda Husayn Boyqaro bilan yosh Alisherning bog'dagi uchrashuvini so'zlab bering.



* * *

Alisher yangi taxtachani qo'ltig'iga mahkam qistirgan, shod va mag'rur, uch qadamcha ilgari-lagan holda otasining oldida borur edi. Onasi ixlos bilan cho'miltirib, pokiza kiyintirgan. Oppoq salla, mullayoqa ko'ylak ustidan yengil adras to'n kiygan, oyoqlarida etik. G'iyosiddinbek ham

soddagina, kamtar kiyingan. Ustida uzun yaktak, katta salla, oyog'ida maxsi-kalish, katta dasturxonga tugilgan bir talay non va qatlamani ko'tarib borar edi. U ham shod, ruhi ko'tarinki. Bolasining salohiyatiga shubhasi yo'q, imoni komil.

Ular guzardan o'tib, o'ngga burilganlarida, quyuq daraxtlar orasidan maktab ko'rindi. Alisherning hayajoni tobora oshardi.

— Domulla mo'tabar odam, — dedi G'iyosiddin o'g'lining yelkasidan quchib. — Hurmat ila salom berib, qo'lini o'p!

— Jonim bilan aytganingizni bajo keltirurmen, — javob berdi Alisher.

G'iyosiddinbek o'g'lini yetaklab, maktab xonasiga kirar ekan, o'qish shovqini shartta to'xtadi: bolalar duv etib o'rinlaridan turdilar va „Assalomu alaykum!“ deya ta'zim qilgach, qayta o'rinlariga cho'kdilar. G'iyosiddin Alisherning qo'lidan ushlagan holda domulla oldiga borib, ehtiram ila salom berib ko'rishdi.

— Assalomu alaykum, taqsim! — deya Alisher egildi-da, qizarib domullaning qo'lini o'pdi.

— Borakallo, o'qishga keldingizmi? Balli, o'g'lon, — deya G'iyosiddinga joy ko'rsatdi domulla.

Qari, sersoqol, gavdali domlaning egnida ikki, uch qat to'n, boshida katta salla, ulug'vor, savlat to'kib o'ltirar edi.

— Taqsir, panohingizga keldik, — javob qildi Alisher, hayajondan titrab.

— Ofarin, balli. Taxta keltirdingizmi? Ko'p yaxshi. Alifboning avvalgi harfi Ollohning muborak

ismidan boshlanur. Buni aslo unutmagaysiz, — dedi-da, domulla G'iyosiddinga qaradi. — Alisher-bek tuyg'un va zakiy ko'rinadur.

G'iyosiddin qulluq qildi:

— Tashakkur. Ixtiyoringizga topshirdim, taqsir!
— U tugunni domulla oldiga surdi va kissasidan bir tillo chiqarib, ta'zim ila domullaga tutdi. — Taqsir, endi kaminaga javob bersinlar, — deya qo'llarini ko'ksiga qo'ydi...

Shogirdlar saboqlarini sustroq o'qir edilar. Domulla uzun jing'il tayoqni qo'lga olib, havoda bir aylantirdi:

— Qani, ildam o'qinglar!

O'qish shovqini darhol avjga mindi. Bolalarning toza, jarangdor tovushlari xonani to'ldirdi.

Domulla archa hidi burqiragan yangi taxtaga qamish qalam bilan yirik qilib, husnixat ila yoza boshladi.

— Hali aytganim, bu Ollohning oti, uqdingmi?

— Alif! — deb o'qidi Alisher ixlos bilan.

— Be! — dedi domulla qamish qalamni tortib.

— Be-e!.. — dedi Alisher qoidasi bilan, cho'ziq ohangda.

— „Alif“, „be“... O'qi, o'g'lim, — deya kichkinalar qatoridan joy ko'rsatdi domulla. — O'tib o'ttir, ertaga yangi saboq berurmen.

Alisher sevinchga to'lgan holda domullaga qulluq qilib, ko'rsatilgan joyga o'ltirgach, tiniq, baland ovozda „alif“, „be“ni qayta-qayta takrorlashga kirishdi.

Peshin vaqti bo'lganda, kichkinalar ozod qilinib, kattalarga tanaffus berildi. Shogirdlar shovqin-suron ila ko'chaga otildilar.

„Alif“, „be“ni takrorlashdan tomoqlari qirilgan Ali bir to'da bolalar bilan birga o'z mahallasiga jo'nadi.

— Oyi, qornim och, tamoq bering! — deya onasining qo'liga taxtani tutqazdi darvozadan yugurib kirgan Alisher va darhol qo'llarini yuvishga kirishdi.

— Sahardan to shomga qadar ko'cha-ko'yda kechar eding. Mana endi yaxshi bo'ldi, Aliginam, peshindan so'nggi o'yin ham yetadi.

Oppoq sochiq ila yuz-qo'llarini nari-beri artar ekan Alisher:

— Mayli, maktab ulug' dargoh, oyijon, ko'p hikmatlarga oshna bo'lurmen, — dedi kattalardek.

Onasi Alisherning oldiga ovqat qo'yib, mamnun holda qarshisiga o'tirdi va birinchi saboq haqida, domulla haqida surishtira boshladi.



1. Oybekning „Navoiy“ romanidan olingan ushbu hikoyalarni o'qigach, sizda qanday taassurot paydo bo'ldi?

3. Alisher o'sib-ulg'ayib, buyuk shoir bo'lib yetishishida u bolalikda yashagan muhit va atrofdagi odamlarning ta'siri bo'lganmi?



Navoiyning bolaligi va qiziqishlari haqidagi fikrlaringizni so'zlab bering.



Alisherning maktabga borgani haqida so'zlab bering.

BOLALAR YOZUVCHI VA SHOIRLARI IJODIDAN

**Quddus
Muhammadiy**
(1907 — 1997)



Quddus Muhammadiy 1907- yil Toshkentda dehqon oilasida dunyoga kelgan. U faqat bolalar shoirigina emas, bolalar adabiyotining jonkuyari va targ'ibotchisi sifatida ham samarali faoliyat ko'rsatgan, o'nlab maqolalar yozgan. U mohir tarjimon hamdir.

Shoirning „Dunyoda eng kuchli nima?“, „Qirq o'g'il va qiz“, „Bizning do'stlarimiz“, „Ochil dasturxon“, „Qanotli do'stlar“ kabi kitoblarini bolalar sevib o'qishadi.

URISHQOQ CHIVIN VA SHAMOL POLVON HAQIDA

Bir bor ekan, yo'q ekan,
Bir chivinboy bor ekan.
Fe'li zahar, urishqoq,
Ko'ngli qora, tor ekan.
O'simliklar shirasin,
Jonivorlar qonini —
So'rib, tekin yasharkan,
Koyitmasdan jonini.

Bir kuni shira istab,
Qo'nibdi bir yantoqqa.
Yantoq chivin burniga,
Tikonin suqar paqqa.
Chivin chinqirib qolar,
Uchib borar echkiga:
— Echki, echki, hoy echki!
Qara yantoq ishiga.
Burnimni chaqib oldi,
Tikanagini sanchib.
Uni g'ajib yeb qo'ygin,
Bosib, tepkilab, yanchib.
„Ma-ma“lab echki debdi:
— Barra o'tlar turganda,
Yantoqni men yemayman.
Ko'zingga qarab yur-da,
O'zingga qarab yur-da.
Chivin uchar g'ing'illab:
— Hap, senimi, to'xtab tur!
Bo'riga seni aytib,
Shishirmoqni mendan ko'r!
— Bo'ri, bo'ri, hoy bo'ri,
Sen-ku jondorlar zo'ri!
Echki sendan qo'rqmasmish,
Yeb qo'y qurisin sho'ri!
Uvullab bo'ri debdi:
— Qo'y turganda echkining,
Yog'siz oriq go'shtini
Yalinsang ham yemayman.
Chivinning jahli chiqar:
— Hap, seningdek bo'rini,
Mergan akamga aytib,

O'ldiray sen o'g'rini.
Uchar mergan yoniga:
— Mergan, mergan, hoy mergan!
Bo'ri sendan qo'rqmasmish,
Bela qora qoniga.
Mergan debdi: — Shoshmay tur!
Ishim bor mening hozir,
Erta otib o'ldiray,
Bu gapim emas hazil.
Chivin diqqat — g'ing'illar:
— Hap, senimi, mergan, — der.—
Teshtiray ov xaltangni,
Mendan ovni o'rgan, — der.
Uchib borar sichqonga:
— Sichqon, sichqon, hoy sichqon!
Mergan xaltasin teshgin,
Tishing bor olmoosimon.
Sichqon debdi: — Chivinjon,
Turganda bug'doy, arpa,
Mergan xaltasin teshaymi?
Teshmayman, bo'lma xafa.
Chivin uchar mushukka:
— Sichqon sendan qo'rqmasmish,
Berkinmasmish teshikka.
Mushuk mo'ylovin silar:
— Qo'rqmasa, qo'rqmasin! — der,—
Yumshoq go'sht-yog' turganda,
Sichqon go'shti qursin, — der.
Chivin rosa tutaqar:
— Hoy, Olapar, Olapar!
Mushuk sendan qo'rqmasmish,
Yumalat, ol, talavor.

Olapar der chivinga:

— Menga ne qildi mushuk,
Tegmaganga tegmayman,
Bo'lmay urishqoq shumshuk.

Chivin tajang tutaqar:

— Hap, senimi, kuchuk, — der, —

Bolalarga urdiray,

Burning qilay puchuq, — der.

G'ing'illab uchib borar,

Bolalarning yoniga:

— Hoy, bolalar, bolalar!

Yuguringlar maydonga.

Olaparni tutinglar,

Tosh, kesaklab uringlar!

Sizlarni qopar emish,

Qopmasdan o'ldiringlar!

Bolalar kulishibdi,

— G'ing'illama, chivin, — deb.

— Kuchuk bizga tegmasa,

Biz uraylik nechun, — deb.

Shum chivin jig'ibiyron:

— Hap, siznimi, bolalar,

Onalaringga aytib,

Savatay yungdek chunon.

Chivin uchar zing'illab,

Onalarning yoniga:

— Hoy, onalar, onalar!

Quloq soling dodimga.

Bolangizni uringiz,

Adabini beringiz!

Menga tinchlik berishmas,

Buni yaxshi bilingiz!

Onalar debdi: — Tuzuk,
Hozir emas, kechqurun.
Chivin joni chiqibdi,
Gapi topmagach o'rin.
— Hap, siznimi, onalar,
Shamolga aytay sizni,
Shamol akam changitib,
Bulg'atsin hovlingizni.
— Shamol, shamol, Mirhaydar!
Shamolingni qo'yaver.
Ota-onang o'libdi,
Ketmon olib kelaver! —
Degan ekan, bir qattiq
Kuchli shamol turibdi.
Onalar hovlisini
Tozalab supuribdi.
Ammo urishqoq chivin,
Qolibdi-ku baloga.
Shamol uni uchirib,
Ko'taribdi havoga.
Chang-chung, to'zon aralash
Yiroqlarga suribdi.
Yumalatib, mijg'ilab,
Tog'-u toshga uribdi.
Qanoti qayrilibdi,
Oyoq, qo'li sinibdi.
Changak bo'lib ucholmay,
Chivin ko'zi tinibdi.
O'lay-o'lay deb tolib,
Bir chekkada yotganda,
Chittakcha yeb ketibdi,
Yel tinib, tong otganda.



1. Shamol chivinni uchirib, qayerlarga olib ketibdi va chivinning holi nima kechibdi?



2. Siz she'ni o'qib, qanday xulosaga keldingiz?



Po'lat Mo'min

(1922 — 2004)



Atoqli bolalar shoiri Po'lat Mo'min 1922- yilda Toshkentda tug'ilgan. O'zining sermahsul ijodi — she'rlari, qo'shiqlari, pyesalari bilan elga tanilgan va bolalarning sevimli ijodkori sanaladi. U „Sayrang qushlar“, „Tish cho'tkasi ertagi“, „Hunardan unar“, „To'g'ri o'sgan gul bo'lar“, „Aql qayerda bo'lar?“ kabi o'nlab she'riy to'plamlarning muallifidir.

XO'ROZ NEGA QICHQIRADI?

Ufqlarga ko'ksin tirab qichqirar xo'roz,
Olislarga yangrab ketar u quvnoq ovoz,
O'z tilida nelar so'zlar xo'roz „quv-quv“lab,
Kim biladi nelar ko'zlar, so'zlar g'uldullab.
To'rt tarafga talpinib u shovqin-jar solar,
Baland yerga uchib chiqar, cho'zib quv-quvlar.
Tun ham kirar, avjga chiqar, qichqirar uzoq,
Ko'ksin kerib talpinadi ko'ksi qoya tog'.
Qora tunni qanot bilan uradi tars-tars,
Tunning zulmat chodirini yirtar zabardast.

Shunda uni olqishlab chiqar tong quyosh,
Oppoq sutdek olam yorir, tinchiydi showvoz.
So'ngra kunduz nur qo'ynida yayrar — charx urar,
Tovuq jo'ja bolalarin o'ynatib yurar.
Bilsam, xo'roz „qora tun ham kunduz bo'lsin“ der,
„Butun olam kunduz bo'lib, mangu kulzin“ der.
Ufqlarga ko'ksin tirab qichqirar xo'roz,
Olislarga yangrab ketar bu quvnoq ovoz.

 Xo'rozning nega qichqirishini she'rdan topib o'qing
va o'z so'zlaringiz bilan tushuntiring.

YER CHOPILDI — JAVOB TOPILDI

— Bezovta qilmang —

Deya onamga,

Dars tayyorlashga

Kirdim xonamga.

Boshimni qashib,

Rosa o'tirdim.

Ko'p misollarni

Yozdim, o'chirdim.

Xayol otlari

Uchishib chaqqon,

Tutqich bermaydi,

Qochdilar har yon.

Masala qurg'ur

Yechilmaydi hech.

Bunday qarasam,

Bo'lib borar kech.

Cho'kib o'tirmay

Hovliga chiqdim,

So'ng yerni chopib,
Rosa chiniqdim.

Birozdan keyin
Yorishdi ko'nglim.
Go'yo ochildi
Fikrimga yo'lim.

Barcha savolga
Javob topildi.
Shu bahonada
Yer ham chopildi.



Mehnatning inson salomatligi va aqliy faoliyati uchun foydasini ushbu she'r misolida izohlang.



Nosir Fozilov

(1929-yilda tug'ilgan)



Nosir Fozilov 1929-yilda Turkiston tumanining Qorachiq qishlog'ida tug'ilgan. U O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining G'afur G'ulom nomi-dagi mukofoti sovrindoridir. Adib bolalarga atab ham ko'p asarlar ijod qilgan. Uning „Irmoq“, „Shum bolaning nabiralari“, „Bolaligim — poshsholigim“ kabi qator kitoblari o'quvchilarning sevimli asarlariga aylangan.

INSHO

... Kecha havo bulut bo'lib, kun bo'yi yomg'ir yog'di, peshinda maktabdan qaytib kelayotganimizdagina tindi. Yomg'ir tingach, ufq qip-qizil bo'lib ketdi. Dadamlar: „Ufq qizarsa, ertaga havo yaxshi bo'ladi“, — der edilar. Havo ochilgach, sevinib ketdim.

Mana, bugun havo ochiq. O'rnimdan turib dalaga chiqdim. Ertalabki sof havoda rohat qilib kerishdim. Bahrim ochilib ketdi. Tog' ortidan endi yarmisi chiqqan quyoshga tik qaray olmadim, ko'zimni kaftim bilan uqalab, tomorqadagi muzdek ariq suviga yuvindim. „Mana endi dars tayyorlasanmi, o'ynaysanmi, ixtiyor o'zingda!..“ — dedim o'z-o'zimga.

Bundan bir hafta ilgari adabiyot o'qituvchimiz hammamizga bir hafta muddat ichida insho yozib kelinglar, degan edi. O'qituvchimizdan:

— Qanaqa mavzuda yozaylik? — deb so'raganimizda, u:

— Erkin mavzuda; masalan, o'zlaring ko'rgan-bilgan narsalaringni hikoya qilib yozsanglar ham mayli, — degan edi.

Ko'z ochib-yumguncha bir hafta ham o'tib ketdi. Bugun dam olish kuni.

Ertalabki choyimni ichib, keyin xontaxta yoniga o'tirdim. Daftarimni ochib, qalamimning uchini tarashladim. Qo'limda o'tkir qalam, oldimda toza daftar, o'ylab o'tiribman. Qani endi, miyamga biror fikr kelsa. Bekorchilik paytida o'ylab qo'ygan mavzularim ham qo'limga qalam olganimdan keyin tumtaraqay bo'lib ketdi ...

Meni bu azobdan Juman akam qutqarmaganda, ehtimol, kechgacha qalamimni chaynab, o'ylab o'tirarmidim?!

— Bugun menga bir qarashvormaysanmi, Otabek? — dedi u oldimga kirib.

— Bugun zarur ishim bor-da, — dedim men, — bo'lmasa jon deb borardim.

— Qanaqa ish o'zi?

— Insho. Ko'rgan-bilgan narsalarimni hikoya qilib yozaman.

— Uni kechqurun yozsang ham bo'laveradi. Bugun qo'zi-uloqlarni yuvmoqchi edim... Mansur shaharga tushib ketdi-da. Bo'lmasa...

— Mayli, — dedim men Juman akamga rozilik bildirib, — hozir kiyinib chiqaman.

Men kiyinib, har ehtimolga qarshi cho'ntagimga qalam, daftarimni ham solib oldim. Vaqtim bo'lsa yozarman, bo'lmasa cho'ntagimda turar... Mendan nima ketdi, dedim o'zimcha.

Qo'raga borsam, Juman aka qo'zi-uloqlarni chiqarib, meni kutib turgan ekan.

— Anavi eshakka minib ol, — dedi u menga.

Men eshakka mindim, Juman akam bo'lsa o'zining to'riq otiga mindi. Ikkimiz qo'zi-uloqlarni oldimizga solib, asta-sekin yaylovga haydadik. Orqamizdan Olapar ham ergashdi...

Qo'zi-uloqlarning sekin yurishiga o'rgangan eshakning bir maromdagi harakati meni zeriktira boshladi. Juman aka bu yurishlarga rosa ko'nikib ketgan bo'lsa kerak. Axir u ancha yildan buyon shu „Ko'kterak“ jamoa xo'jaligining qo'zi-uloq'ini boqadi! Rost, qancha yil boqdi ekan-a?



— Juman aka, — dedim asta unga yaqinlashib,
— qo'zi-uloq boqqaningizga necha yil bo'ldi?
— Yetti yil, — dedi u qisqa qilib ...

Endi men ham indamay boraverdim.

Yana nazarim beixtiyor Juman akamga og'di: u kun issiq bo'lsa ham ustiga paxtali sirma chopon kiyib, belini mahkam bog'lab olgan. Boshda quloqchin, yelkasida qo'shog'iz miltiq ... Sirdan qaragan kishining ko'ziga u qadimiy ertaklardagi botirlarga o'xshab ko'rinardi.

U ham otining tizginini tortib:

— Otabek, bu yil nechanchida o'qiysan? — deb so'rab qoldi.

Hayron qoldim. Nahotki, tug'ishgan amakim bo'la turib nechanchi sinfda o'qiyotganimni bilmasa?! Beparvoligidandir-da!

— Yettinchida.

— O'ho'!

Shu savol-javobdan keyin uzilib qolgan so'zimiz yaylovga borganda ulandi:

— Endi sen qo'zilarga biroz qarab o'tira tur, — dedi Juman akam miltig'ini yelkasidan olib o'qlar ekan, — men huv qo'ychilarga borib qashlag'ich olib kelaman. Qo'zilarni yuvganda kerak bo'ladi. Uchrab qolsa, baxtingga, yo'l-yo'lakay quyon-puyon ham otib kelaman. Qo'zilarni suvot¹ga tushda olib borib yuvamiz. Ungacha biroz o'tlasin ... Eshagingni tushovlab qo'ysang, ketib qolmay, qo'zilarning ichida yuradi. Ehtiyot bo'!

¹**Suvot** — mol sug'oriladigan joy, ariq bo'yi.



1. Otabek dam olish kuni nima qilmoqchi bo'ldi?
2. U Juman aka bilan qayerga yo'l oldi?



* * *

— Xo'p bo'ladi, — dedim.

Juman akam otiga minib ketdi. Olapar ham uning ketidan ergashdi. Qo'zi-uloqlarga bir o'zim qarab qoldim. Qushlarning sayrashi bilan chigirtkalarining chirillashi demasa, yaylov jimjit. Faqat uzoq-uzoqlarda suruv-suruv qo'ylar, podalar yoyilib yuribdi, bir to'p jing'il tagidan yer bag'irlab qochgan yumronqoziq nariroqqa borib, ko'ksiga qo'lini qo'yib, tik turibdi ... Yerdan ikki-uch metr baland ko'tarilgan so'fitorg'ay qanot qoqib, javlon urib sayrayapti. Atrofdan, uzoq-uzoqlarda jim-jim qilib kumush nur — sarob balqiydi.

Hademay tush bo'lib qoldi. Qo'zilar ko'm-ko'k barra o'tdan bosh ko'tarmasdi. Juman akam aytib ketgandek, eshakni tushovlab qo'yib, bir jing'ilning soyasiga yonboshladim. Kun isib ketdi. Cho'ntagimdan qalam olib, yana xayolga cho'mdim. Baribir hech narsa chiqmadi. Esnay boshladim.

... Uyqu bosgan ekan, qo'zilar g'ur etib hurkiganidan uyg'onib ketdim. Qarasam, qo'zi-uloqlar hurkib, eshak atrofiga borib to'planib turibdi. Eshak bo'lsa orqasiga qarab xo'rs-xo'rs qiladi. Ularni bir tomonga siljitib, yana jing'il ko'lankasiga o'tirdim. Soyadagi zax qum biram yoqadiki ... Bu gal uxlab qolaman deb, yonboshlamadim. Soyada o'tirib, xayolga cho'mdim: „Mana endi oppa-oson cho'pon ham bo'lib olding, Otabek! Cho'pon bo'lgan kishining zerikkanda ovunadigan nayi bo'lardi.

Seniki qani? Ashula aytsang ham bo'laveradiku, biroq qoyil qila olmaysan-da!..“

Rostini aytsam, zerikib ketdim: ilgari Juman akamlarning xizmatini mensimay yurardim. Endi bildim, og'ir ekan. Yarim kunga, yo'q-yo'q, uch soatga ham chiday olmadim.

Qo'zi-uloqlardan ba'zilari hali ham to'p jing'ilga qarab-qarab qo'yadi. Boyagi yumronqoziq o'sha tomonga ketgan edi, shundan hurkkan bo'lsa kerak, deb o'yladim. Mayli, bu hech gap emas-ku, lekin zerikib ketdim, nima bilan ovunsam ekan?

Shu mahalda qilayotgan qilig'imni birov bir chetdan kuzatib turgan bo'lsa, mening yettinchi sinf o'quvchisi ekanligimga ishonmasdi. Nima qilding, deng?!

Bitta kaltakesakni quvlab, zo'rg'a tutdim. Tutdim-u, jing'il cho'p bilan bosib qolgan edim, dumi uzilib ketib, bilang-bilang qila boshladi. Bu ham bo'lsa ermak-da. Tomosha qilib o'tirib, bir mahal qarasam, meni dumi bilan aldab, o'zi qochib qopti. Juda alam qildi. Shu kip-kichkina kaltakesakka aldanganimdan keyin...

Shunda qonjig'asiga¹ ikki-uch quyon, bulduruq osib olgan Juman akam kelib qoldi.

— Ha, Otabek, zerikmadingmi? — dedi u menga kulib.

Zerikkanimni basharamdan payqadi, shekilli, mening javobimni kutmasdanoq:

— Qani, eshagingga min, qo'zilarni suvotga hayda!.. — deb yubordi.

¹Qonjig'a — ov bog'lanadigan charm tasma.

Men xo'p deb eshakka mindim-da, tayog'imni ko'tarib qo'zi-uloqlarni hayday boshladim.

— Suvot qaysi tomonda?

— Bilmaysanmi, ilgorigi joyida-ku.

— Anovi, o'tgan yilgi katta tol tagidami? Shirinsoydagi ...

— Ha, ana. Bilarkansan-ku. Hayda ... — Qur-ey, jonivor, qur-ey!

Sal o'tmay, Shirinsoy bo'yidagi katta tol tagiga yetib bordik. Charchab, uyqum kelib turganigami, qaydam, tol tagi biram chiroyli, biram ozoda ko'rinib ketdiki! Suvotni aytmaysizmi, har kuni tushda qo'zi-uloqlar, sigir podalari shu yerga kelarkan. Shunday tekis, biram taqir joy bo'libdiki, naq oynaday yaltiraydi ... Qo'zi-uloqlar kela solib suvga yopishishdi. Men eshakdan tushib, Juman akam olib kelgan qashlag'ichni, quyon, bulduruqlarni tol tagiga olib borib qo'ydim. Juman akam otini tolning narigi tomoniga olib o'tib bog'lab bo'lguncha, sigir poda ham kelib qoldi.

— Hormanglar, — dedi podachi.

— O'zingiz hormang, — dedi Juman akam, — Qalay, Irisbek aka, sigirlarga so'na tegmayaptimi?

— Hozircha tinch, yana bir oydan keyin ko'rasan so'na tegishini. Jonini qo'yarga joy topmay qoladi, jonivorlar ... — u tol tagiga kelganda, ovlarni ko'rib qoldi. — O'ho', ish katta-ku. Bugun „joningdan sho'rva“ ekan-da.

— Albatta, — dedi Juman akam, — endi o'sha „joningdan sho'rva“ni o'zingiz qilasiz. Bizlar bugun mana bu qo'zi-uloqlarni bir yuvintirib tashlaylik.

— E, Otabek mirza kelgan ekanlar-da. Obbo azamat-ey. Bugun nega buncha ishlar katta bo'lib ketdi desam... — dedi Irsbek aka, go'yo meni boyadan beri ko'rmay turgan kishidek. — Ha, durust-durust.

Juman akam tayog'i bilan qo'zi-uloqlarni (har kungiday) sanay boshladi. Nazarimda, yanglishdi, shekilli, yana qayta boshdan sanadi. Yana sanadi. Qo'zi-uloqlarni sinchiklab, oralab ham chiqdi. Keyin meni oldiga chaqirdi:

— Otabek bu yoqqa kel-chi.

Negadir yuragim shuv etib ketdi. Asta yurib oldiga bordim.

— Oq qo'zi yo'q-ku?

— Qaydam?— dedim men hayron bo'lib.



1. Otabek yolg'iz o'zi poda bilan qolganda nima qildi?



2. Juman aka nima uchun xavotirga tushdi?

* * *

— Qayoqqa ketadi? — dedi u menga tikilib.
— Bir-biridan sira ajralmasdi-ku?!

Men indamadim. Juman akam qo'zi-uloqlarga tikilganicha o'ylanib qoldi.

— Qo'zilar hech hurkdimi?— deb so'radi allamahal o'tgach.

— Ha,— dedim men.

U menga shunday tikildiki, jahli chiqqani yuzidan bilinib turardi.

— Kana bossin seni... — dedi. Bu so'z menga avval oddiy so'zdek eshitilsa ham, keyin borib alam qildi. Axir u qo'zilarini, qo'ylarni shunday deb so'kmasmidi? Endi meni mol qatoriga qo'sh-

ganimi? Axir men bu yerga o'z ixtiyorim bilan kelganim yo'q-ku. Yana... Ha mayli, indamadim.

— Bor tezroq, anavi otga min! Sen og'zingni ochib o'tirganingda, bo'ri olib ketgan uni. Bo'lmasa qo'zilar bekorga hurkarmidi?

O'zi tez borib, tol tagidagi miltig'ini yelkasiga ildi. Qo'zi-uloqlarni esa Irsbek akaga tayinlab, eshakka mindi.

— Qani jadalroq... — dedi u eshakni niqtab, — sen narigi tomondan yur, men bu yoqdan aylanib, sening oldingdan chiqaman.

Men otni yeldirib boyagi bir to'p jing'ilga yetib bordim. Olapar ham mening orqamdan ergashdi. Ot ustida bo'lsam ham, qo'rqa boshladim. Jing'ildan ancha nariga o'tdim, oldimdan bir katta suvsiz ariq chiqib qoldi. Ariq yoqalab biroz yurgan edim, to'satdan otim hurkib ketdi. Sal bo'lmasa yiqilib tushayozdim...

U oq qo'ziga achingandek, atrofida aylanib, dumini likillatardi. Bechora oq qo'zi meni ko'rishini bilan ayanchli ma'rab yubordi. Otdan o'zimni tashladim. Darrov qo'zining u yoq-bu yog'iga qaradim: xayriyat, omon ekan, faqat ikki-uch joyiga tish botib, usti ho'l bo'lib qolibdi, xolos. Boyaqishning jon-poni chiqib ketibdi. Dir-dir titraydi. Chaqqon oldimga o'ngarib olib, ariq bo'yiga ko'tarilganimga, oldimdan Juman akam chiqib qoldi.

— Ha, qayoqda ekan? Omonmi? — dedi u hayajon bilan oldimdagi qo'zini ko'tarib. — Nega ho'l?

Men unga bo'lgan voqeani aytib berdim.

— Qani, boraylik-chi, — u eshagini qistab



ariqqa tusha boshladi. — Bo'ri bolalari qaysi tomonga qochdi?

— Huv anavi bir to'p qamish ichiga.

Borib qarasak, o'sha bir to'p qamishning narigi tomonida bo'ri ini bor ekan. In uncha chuqur emas, qo'l cho'zsa yetadigan ko'rinadi. Juman akam eshakdan tushib, bermalol in og'ziga borib, biroz turdi-da, bir nima deb to'ng'illadi. Keyin menga qarab:

— Tagingdagi, egarning ustidagi qopni olib ber, — dedi.

Men qopni olib unga uzatdim. U qopning og'zini ochib cho'kkalab o'tirdi-yu, engashib inga qo'lini tiqdi. Badanim jimirlab ketdi...

Qarasam, Juman akam mushukdek bir bo'ri bolasini qopga olib soldi. Keyin ikkinchisini, uchinchisini... To'rtinchisi og'zini ochib Juman akamning qo'lini tishlamoqchi bo'lgan ekan, mahkam bo'y-nidan ushlab turib so'kdi:

— Kana bossin seni.

Bo'ri bolalarining to'rtalasini ham qopga solib, og'zini mahkam bog'ladi-da, eshakning ustiga og'maydigan qilib chandib tashladi.

— Otabek, endi sen eshakni oldingga solib yo'lga tush, — dedi Juman akam miltig'ini qo'lga olib, — men nariroqda — yo'l bo'yida ona bo'rini poylayman. U shu yerda bo'lsa, albatta bolalarini qidiradi.

Men yo'lga tushdim. Orqamda olapar, oldimda oq qo'zi. Bechora hali ham o'zini bosolmay titraydi. Juman akamning keyin hikoya qilib berishicha, bo'ri o'z bolalarini ovga o'rgatish uchun qo'zinimi yo uloqnimi — tirik o'g'irlab, bolalariga olib kelib berar ekan. Agar uloq olib kelsa, baqirib ma'lum qilar ekan. Yuvosh oq qo'ziga rahmim kelib ketdi.

Sal o'tmayoq, orqamizdan ketma-ket ikki marta miltiq ovozi eshitildi. Olapar qulog'ini dikkaytirib turdi-da, birdan orqaga otildi. Men ham eshakni shu yerda qoldirib orqamga qaytdim. Borsam, Juman akam bir katta bo'ring ustiga minib olib, terisini shilayotgan ekan. Rostini aytsam, Juman akamga qoyil qoldim. Axir bu bo'ri ko'pdan beri qo'lga tushmay yurgan ekan-da.

Bo'ring terisini olib borib eshakka yuklab, suvotga jo'nab ketdik.

Bizlar kelganda, Irsbek aka sho'rvani tayyorlab o'tirgan ekan. Azbaroyi, qornimning ochligi ham

esimdan chiqib ketibdi. Shunday bo'lsa ham tovoqqa quyilgan issiq, go'shtli sho'rvani ishtaha bilan ichib oldik.

Qornimiz to'ygandan keyingina qo'zi-uloqlarni yuvish uchun o'rnimizdan turib yechina boshladik. Birinchi bo'lib oq qo'zini suvga men olib tushdim. Juman akam menga narigi yaylovdan olib kelgan qashlag'ichini uzatdi:

— Ma, yaxshilab yuv, avaylab tara!

Bu mahalda kun peshindan og'ib, Irisbek aka sigirlarni yaylovga haydab ketgan edi...



1. Oq qo'zi qayerda ekan?

2. Cho'pon bo'rini va uning bolalarini qanday qilib



qo'lga tushirdi?

* * *

Bir hafta o'tdi...

Mana, adabiyot darsida o'tiribman. O'qituvchi bolalarning daftarlarini qaytib beryapti: bir mahal navbat mening daftarimga keldi. Daftarim taniqli turibdi — qizil muqovada, o'n ikki varaqli oddiy daftar. O'qituvchi mening daftarimni qo'lga oldi. Yuragim duk-duk ura boshladi. „Juda cho'zib yuboribsiz“ deb urishmasa edi, deb turibman ichimda.

— Nazirov, — dedi o'qituvchi menga qarab. Keyin daftarimni varaqlarkan, — inshoyingiz menga yoqdi. Sal cho'zilib ketibdi-yu, mayli, hechqisi yo'q. Shu bahona bilan yozishni o'rganib olasiz... O'qituvchini va uning topshirgan vazifasini hikoyaga kiritmasangiz ham bo'lar ekan... — dedi u, yoqimli jilmayib.

Men qizarib ketdim. U asta kelib daftarimni berdi. Men uyalganimdan uni varaqlay boshladim;

faqat bir-ikki joyiga qizil qalam tegibdi, xolos. O'qituvchining nazari boshqa bolalarga og'anda, daftarinimg oxirgi betini sekin ochgan edim, chiroyli qilib qizil qalam bilan yozilgan „5“ni ko'rib, quvonib ketdim.

Juda ham sevinib ketib, sizga bir narsani aytishni unutib qo'yibman: o'sha yuqorida o'qigan hikoyangiz men yozgan insho edi...

❓ Otabek Nazirovning yozma ishiga o'qituvchi qanday baho qo'ydi?

! Yaylov manzarasini so'zlab bering.



Xudoyberdi To'xtaboyev

(1932- yilda tug'ilgan)



Xudoyberdi To'xtaboyevning yoshligi Farg'ona viloyatida, Ropqon degan joydagi Xo'ja qishlog'ida o'tdi.

Xudoyberdi To'xtaboyev o'rta maktabni bitirgach, Toshkent davlat universitetida o'qidi. U juda ko'p yozuvchilarning asarlarini mutolaa qildi. Uning 1961- yilda bolalarga bag'ishlangan „Shoshqaloq“ nomli birinchi kitobi nashr qilindi.

Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari bolalarimizni hayotni sevishga, bilimli bo'lishga, qiziquvchanlikka, topqirlikka o'rgatadi.

ERKINLIK

O'tgan safar aytganimdek, bu voqealarga ellik yillarcha bo'lib qoldi, ehtimol undan ham ko'p bo'lgandir...

Bir kuni xo'jalik omborxonasining orqasida o'rtoqlarim bilan „shiqildoq“ o'ynayotgan edim, hov narida bir kuchuk bolasining bizga mung'ayibgina qarab turganini ko'rib qoldim. „Egasi yo'q, daydiga o'xshaydi“, degan fikr keldi boshimga.

O'rtoqlarimdan ajralib chiqib, asta-sekin yoniga bora boshladim, cho'ntagimda yarimta sutli patir bor edi. Onam bergan nonning yarmini yeb, yarmini o'rtoqlarimga ko'z-ko'zlab yeyishni yaxshi ko'radigan odatim bor edi. Patirning burdasini kuchukning yoniga qo'ydim. Kuchuk avval cho'chigandek orqasiga tisarildi-da, keyin nonga yaqinlashib hidlab ko'rdi-yu, yemasdan menga tikilib qoldi. Aftidan, „Noningni yesam, keyin minnat qilmaysanmi?“ deya yotgandek edi. „Yo'q, hech ham minnat qilmayman!“ deb o'ylagan bo'lsam kerak o'shanda.

Harqalay kuchuk nonni yedi, yeganda ham yutoqib, ochko'zlik bilan, shosha-pisha yedi, xuddi ikki yamlab bir yutgandek bo'ldi-da, so'ng „Noning lazzatli ekan-ku, yana yo'qmi?“ degandek menga quvonch to'la sariq ko'zlarini tikib, dumini likillata boshladi. Erkanib, oldingi oyoqlarini ko'tarib ko'ksimga qo'ydi.

Achomlashgancha uyga jo'nadik. Eh, o'shanda quvonganimni ko'rsangiz! Kumushdan quyilgandek chiroyli, mayda to'qilgan zanjircham bor edi, „Yangi mehmon“ni o'shanga bog'lab (qochib ketmasin dedim-da), oldiga tovoqda suv, ovqat qo'ydim. Na ovqatga qaraydi, na suvga! Zanjirni uzmoqchi bo'ladi, dumalab yer tirnaydi, ingillab, tinmay yig'laydi.

Uch-to'rt kun shu ahvolda o'tdi. Kuchukcha ozib-to'zib, yangi tug'ilgan mushuk bolasidek kichkina bo'lib qoldi. Lekin ingillashi, zanjirni uzib ketaman, deya urinishlarini qo'ymaydi deng. Ko'zi to'la g'azab-nafrat, qarashga botina olmayman.

Bir kuni ertalab o'rnimdan tursam, kuchukcha yo'q, zanjirni tishi bilan g'ajib uzibdi-yu, qochib qolibdi.

Shunday achindimki, shunday xafa bo'ldimki, ishonsangiz, yig'lavoray dedim. Hamma voqeani boshidan kuzatib yurgan rahmatli bobom meni bag'irlariga olib yupatgan bo'ldilar.

— Xafa bo'lma, og'lim, — deya boshimni siladilar, — kuchuging bo'ynida zanjir bilan tobe bo'lib ovqat yegandan ko'ra, erkinlikda och yurishni afzal ko'ribdi. Sher va arslonlar avlodidan ekan. Ular bo'yniga zanjir bog'latmaydi. Mag'rur bo'lishadi.

O'sha kuchukni men qaytib qishlog'imizda ko'rmadim.



1. Bola kuchukni qayerdan topib oldi? Unga nimalar berdi?

2. Kuchuk nega hech narsaga qaramadi?



3. Bolaga bobosi nima dedi?

SARIQ DEVNI MINIB

(*Romandan parcha*)

Injenerman, injener

Ikki oydirki, mana kasalxonada yotibman. Karavotim shundoqqina oynaning tagida, bor-yo'g'i ikki kishimiz. Eshikning oldida, kiraverishdagi o'rinda Said aka yotadi, juda qiziqchi odam. Kuldirgani kuldirgan. O'zi qurilishda ishlarkan. Ishxonasida ham obro'yi zo'r bo'lsa kerak, uni ko'rgani nuqul shoirlarga o'xshab movut shlapa kiygan, qorni katta odamlar keladi. Birovi tovuq pishirib keladi, birovni uzum, olma tashlab ketadi, gul ko'tarib kelganlari ham ko'p. Pishirilgan tovuq kelgan kun, Said aka qanaqa bo'layotganini bilmayman-ku, ammo men ich-ichimdan sevinib ketaman. Nega desangiz, Said aka parranda go'shtini uncha xushlamas ekan, nuqul menga uzatadi.

Uni ko'rgani hamma keladi, jag'i-jag'iga tegmay gapiradigan xotini, ko'zi menga tushishi bilan qo'rqqanidan yig'lab qochadigan Hasan, Husan ismli o'g'illari, birga ishlaydigan yor-birodarlari — ishqilib yonidan odam arimaydi. Hasan bilan Husan menga Jirafa deb nom qo'yishgan. Kasalxonaga tushgan kunim ertasiga bunday qaragam, meni yosh bolalarga qo'shib qo'yishibdi. Biri yig'laydi, biri to'polon ko'taradi. Na uyquda orom bor-u, na mundoq bir maza qilib, tinchgina dard tortasan.

Kattalar xonasiga o'tmoqchi bo'lib:

— Qalpoqcham, qalpoqcham, bo'yimga bo'y qo'shib ber, — deya iltimos qildim.

— Beling gipsda-ku, qanday qilib qo'shaman,
— deydi qalpoqcham.

— Bir ilojini qil.

— Bo'yning cho'zilib ketadi-da.

— Mayli.

— Oyog'ing uzayib ketadi-da.

— Mayli.

Bir mahal bundoq qarasam, bo'ynim uch qarichgacha cho'zilib ketibdi, boshimni ko'targan edim — Afrika o'rmonlarida yashaydigan jirafaning xuddi o'zginasi bo'lib qolibman.

O'sha kuni kechasi meni Said akaning yoniga olib o'tishdi. Shu yo'sinda ikkovimiz hamxona bo'lib qoldik. Undan hol-ahvol so'ragani, hali aytganimdek, hamma keladi, mening esa yo'qlaydigan kishim yo'q.

Kun bo'yi yetimchadek ko'zimni mo'ltillatib eshik poylayman. So'roqlab orqamdan hech kim kelmasligini bilaman-u, shunday bo'lsa ham allakimning kelishidan umidvorman. Oh, hozir singillarim bo'larmidi? Akajonim, sizga nima bo'ldi, deb kechalari boshimda o'tirib chiqishmasmidi, zirqirab og'riyotgan oyoqlarimni bittadan bo'lib olib uqalashmasmidi? Oyijonim-chi, meni shu ahvolda ko'rib, bilaman, avval jig'i-biyroni chiqib bir urishardi-da, keyin isitmasi lovullab turgan peshanamdan o'pard, sochlarimdan silardi. Mana, kech ham kirib qoldi. Hozir oyijonim povullatib sigir sog'yapti. Bir nafasdan so'ng cho'tir yuzli shofer mashinasini haydab, bidonlarni qaldiratib keladi-da, sutlarni olib jo'naydi. Oyim hovliqib uyga keladi, atrofga qarasaki, men yo'q, hamon qaytmaganman. Yig'lay-

yig'lay o'choqqa o't yoqadi. Ko'cha eshik oldida mototsikl ovozi eshitilgandek bo'ladi. Bu — dadam, albatta!

— Dadajon, dadajon! — deb qichqirib yubordim. Said aka xayol surib o'tirgan ekan, bir cho'chib tushdi.

— Iye, kuyov bola, nega yig'layapsiz?

— Yig'laganim yo'q, shunchaki o'zim mashq qilyapman.

— Iye, yig'ining ham mashqi bo'larkanmi?

— Bo'ladi-da.

Yana ikkimiz ham jim bo'lib qolamiz. Men derazaga tikilib, qushchalarning sayrashini, daraxtdan daraxtga sakrab o'tishlarini tomosha qilaman. Oshxonaning mo'risidan buralib-buralib qora tutun chiqyapti, huv nariroqda — osmoni falakda ortidan chiziq qoldirib, kumush qanotlarini yaltiratib samolyot uchib boryapti. Qayoqdan kelayotgan ekan, ehtimol qishlog'imiz tepasidan uchib o'tgandir...

— Shunday qilib, kuyov bola, injenerman, deng?— sekin so'raydi Said aka.

Said akaning mashhur quruvchi ekanligini eshitib, zora o'sha atrofda biron shuhrati tezroq chiqadigan kattaroq ish topilib qolsa, degan umidda o'zimni quruvchi-injener qilib tanitgan edim.

— Ha, injenerman, — deb qo'yaman.

— Institutni bu yil bitirganmisiz?

— Ha, bu yil bitirganman.

— Hammasi bo'lib bir hafta ishladingiz xolosmi?

— Ha, bir hafta.

— Qurilishda, uka, ehtiyot bo'lish kerak.

— Nimasini aytasiz, — deyman yengil uh tortib, — o'zim qurayotgan uyning u yoq-bu yog'ini ko'ray deb tomiga chiqqan edim, oyog'im toyib ketdi-da.

— Lekin, uka, jamoangiz menga ma'qul bo'lmadi. Ikki oydan buyon loaqal bittasi holing ne kechdi, deb so'rab kelmadi-ya! Bunaqangi jamoaning boridan yo'g'i.



Hoshimjon Said akaga nima uchun yolg'on gapirdi?



* * *

— Shuning uchun ham o'sha yerdan ketmoqchiman-da.

— Xo'p desangiz, mana bizga boring, quruvchi-injener anqoning urug'i bo'lib turibdi hozir. Boring, birgalashib ishlaymiz, bilmaganimizni bir-birimizga o'rgatamiz.

— Borib kimga uchrashaman? — deb so'rayman gap orasida.

— Xo'p desangiz, birgalashib boramiz, o'zim o'rtada turaman. Bosh injenerimiz yoshlarni jon-dilidan yaxshi ko'radi.

Oltmish to'rt kun deganda Said akaning tosh tushib majaqlangan oyog'i tuzalib, qo'ltiqtayoqsiz, hech kimning ko'magisiz bir o'zi yurib chiqib ketdi. Uy manzilini qoldirib, tez-tez kelib holimdan xabar olib turishga va'da ham berdi.

— Tezroq chiqishning payidan bo'lavering, — dedi u xayrlashayotganda. — Siz bilan bizga bu yerda yotaverish yarashmas ekan. Ish masalasida esa ko'nglingiz tinch bo'lsin, o'zim gaplashib qo'yaman.



Said akaning o'rniga uzoqdan qarasangiz samovarga o'xshab ko'rinadigan, qo'l-oyog'i kalta, xo'ppa semiz bir odamni yotqizishdi. Juda uyquchi ekan, faqat ovqat mahalida uyg'onadi. O'shanda ham bir ko'zi paqqos uyquda bo'ladi. Buning ustiga shunaqangi xurрак tortadiki, rang-barang ovozlarni shunaqangi ko'p chiqaradiki, diqqat bilan quloq solsang, xuddi ichida orkestr chalinayotganga o'xshaydi. Bir qarasangiz bo'g'izlangan qo'ydek xirillab qoladi, bir qarasangiz buzuq karnay chalayotganga o'xshaydi, ba'zan eski paravozdek pishillagan ovozlar chiqaradi, tongotarga yaqin surnay, doira sadolariga o'xshash g'alati ovozlar yangraydi. Gohida qo'rqib ketib, beixtiyor hamshirani chaqirib yuborganimni o'zim ham bilmay qolaman.

Baxtimdan o'rgilayki, xo'ppa semiz amaki bilan uzoq turmadik. Said aka ketgach, o'n uch kun deganda meni ham chiqaradigan bo'lib qolishdi. Bechora Said aka menga boshdan oyoq yangi sarmo qilib, o'z „Volga“sini haydab kelibdi. Mendan qo'rqib qochadigan o'g'illari bir dastadan gul ko'tarib olishgan.

— Iye, amaki, bo'yingizning qolgani qani? — deb so'radi Hasan.

— Voy, amaki, tag'in siz boshqa odam bo'lmang? — so'radi Husan.

Gipsdan chiqishim bilan qalpoqchamga yolvorib, bo'ynim bilan oyog'imni biroz qisqartirib, belimga bel qo'shib, asli odam holiga kelib olgan edim.

Said akamlarning uyi shaharning bir chekkasida ekan. U yangi qurilganga o'xshaydi. Ko'cha tomoni ham suvalmagan. Darvozaga bo'r bilan „Hasan-Husan“ deb yozib qo'yishibdi...

Xonadonning erkatoiy o'g'li bo'lib, darmonga kirguncha, shu yerda qolib ketdim. Bir-ikki marta stadionga ham borib keldim, albatta. Lekin ichiga kirishga yurak qurg'ur betlamadi. Nazarimda, o'sha kuni yegan tepkilarim bilan futbolga bo'lgan muhabbatim ham jindek lat yeganga o'xshaydi. Bora-bora futbol desa, ko'nglim ozib, o'qchiydigan bo'lib qoldim. Fotima kelinoyim Said akadan ham mehribon ekan. „O'g'lim, tezroq tuzaling“ deb tuxumlar pishirib beradi deng, go'shtlar qovurib bergan kunlari ham ko'p bo'ldi. Tan-joni soppa-sog' yigitlardan emasmanmi, o'n besh kun deganda o'ziyam naq boquvdagi otdek gijinglab ketdim.

Bir yuz-u ellik uchinchi qurilish trestining o'n to'rtinchi uchastkasiga injener etib tayinlandim. Trestning bosh injeneri meni ko'rishi bilan:

— Qadamlariga hasanot, azizim, — deb qo'llarimni qattiq qisdi. Bu gaplarga yaxshi tushunmasam ham, odob yuzasidan biror narsa deyishim kerak-ku, degan o'y bilan lab-lunjimni endi yig'ishti-rayotgan edim, bosh injener:

— Hojati yo'q, hojati yo'q, azizim, — deb qo'llimni yana ham qattiqroq qisdi, — hamma gapni Said aka aytib berganlar. Biz uchun bu kishining har bir so'zi oltin. Faqat, azizim Ro'ziyev, ishga qachon tushmoqchisiz? Shuni aytsangiz bas.

— Ertadan tusha qolay.

— Muvaffaqiyat tilayman, azizim! — dedi bosh injener.

Shirin xayollarga berilib, bir kunning o'tganini sezmay qolibman. Ertasiga esa, hurmatli o'rtoqlar, injenerlik faoliyatim qizigandan qizib ketdi.

Yetmish kishidan iborat qurilish brigadasiga boshchilik qilishim kerak ekan. Bosh injener Olimjon Olimjonovich:

— Mana bu, siz qurishingiz kerak bo'lgan 71-uyning loyihasi, — dedi devoriy gazeta chiqaradigan qalin qog'ozni qo'limga berib, — mana bu esa, azizim, genplan, qurilish obyektingizni mana shularga qarab belgilab olaverasiz. Menga savolingiz yo'qmi, azizim?

— Tushunarli, azizim, — dedim ikkinchi qog'ozni ham uning qo'lidan olib.

Olimjon Olimjonovich ketgach, qog'ozlarning goh unisiga, goh bunisiga tikilib, ancha vaqtgacha xunob bo'lib o'tirdim.



1. Hoshimjonga qanday vazifa yuklandi?



2. U o'z aybini tushunib yetdimi?

* * *

Rostini aytsam „loyiha“, „genplan“ degan so'zlarga hech tushunmayman. To'g'ri, qog'ozlarda maydamayda chiziqlar, hech tushunib bo'lmaydigan katta-kichik belgilar to'lib yotibdi. Lekin kallamni har qancha ishlatsam-da, hech narsaga tushuna olmayapman. Shuning uchun ham qog'ozlarga tikilganча, uyat ish qilib qo'ygan yosh boladek lalayib o'tiraverdim.

— O'ртоq injener, ishga qachon tushamiz? — so'radi ishchilardan biri.

— Hozir, men loyihalarni bir o'rganib olay, — dedim sir boy bermay. Brigadaning hamma a'zosi, asosan, yoshlar. Oralarida qop-qora sochlarini qizil durrachalar bilan tang'ib olgan oy yuzli qizlar ham o'tiribdi. Shu payt boshimga ajoyib bir fikr keldi-yu, sevinganimdan qarsak chalib yuborayozdim.

— Ilgari qurilishda ishlaganlar bormi? — deb so'radim. O'n beshtasi baravar qo'l ko'tardi. Sevinchimga sevinch qo'shildi. — Ish boshlashdan avval sizlardan imtihon olmoqchiman.

— Marhamat! — dedi yetmish kishi bir og'izdan.

— Qani ayting-chi, qo'limdagi qog'ozlarning qaysi biri loyiha-yu, qaysi biri genplan? — Shunday deb qog'ozlarni baland ko'tardim. Yonginamda o'tirgan jingalak sochli yigit:

— O'ng qo'lingizdagi loyiha, chap qo'lingizdagi genplan, — deb javob berdi.

— Barakalla! Qani, kim aytadi, qurilishning birinchi ishi nimadan boshlanadi?

— Poydevorning o'rnini qazishdan, — degan ovozlari eshitildi har tomondan.

— Poydevorning chuqurligi qancha bo'lishi kerak?

— Loyihada ko'rsatilganidek.

Shunga o'xshash savollarni ketma-ket beraverdim, shunga o'xshash javoblarni ham ketma-ket olaverdim. Bir mahal bunday qarasam, ancha-muncha narsadan xabardor bo'lib, aqlim to'lishib qolibdi. „Qani endi ishga, o'rtog'lar!“ deb yubordim.

Lekin ish demaganning ham changini osmonga chiqarvordik-da, bir kun o'tar-o'tmas poydevorning o'rnini qazib qo'yibmiz-a. Qurilish obyektining shundoqqina yonginasiga brezentdan palatka tikib oldim. Yotish-turishim shu yerda. U yoq-bu yoqqa yugurib vaqtingiz ketmasin, deb telefon ham tushirib berishgan. Ba'zan Olimjon Olimjonovich:

— Allo, bu kim? — deb qoladi.

— Injener Hoshimjon Ro'ziyev, — deb qo'yaman.

— E, salom, azizim, ishlar qalay boryapti?

— Joyida!

— Taxminan necha foizi bajarildi?

— Yaqinda yuz bo'ladi!

— Barakalla, ofarin! — deydi Olimjon Olimjonovich. — Shuning uchun ham yoshlarni yaxshi ko'raman-da, yoshlar — olov qalblar, yoshlar — burgutlar, yoshlar, eh yoshligim! Lekin, azizim, bu yog'iga ham bo'sh kelmaysiz.

Yigirma bir kun deganda o'ttiz sakkiz xonadonli yetmish birinchi uy bitib, foydalanishga topshirsa bo'laveradigan darajaga kelib qoldi. Oh, o'sha kungi mening quvonchimni aytsangiz. Sevinganimdan yuragim koptokdek o'ynab turibdi, yuguraman, yelaman, yuzlarimni o'zim bitkazgan uyning devorlariga surib, „uyim, uyginam, ey, men bitkazgan turar joylar!“ — deb irg'ishlayman.

Qabul marosimi tantanaliroq o'tib, shuhratim Farg'ona tomonlarga ham borsin, degan umidda juda ko'p tashkilotlarga qo'ng'iroq qildim, vakillar yuborishni so'radim. Ertasiga, o'zim kutgandek, hamma yoqni shlapa kiygan basavlat odamlar

bosib ketdi. Shahar ijroiya komitetidan ko'zoynakli o'rtoq Qurbonov, gazetadan bo'yniga fotoapparat osgan novcha bo'yli o'rtoq Ibrohimov, trestimizning gapirganda „tak-tak“ deb gapiradigan boshlig'i o'rtoq Malikov, militsiyadan jamiki militsionerlarning kattasi o'rtoq Toshmatov — hamma-hammalari yetib kelishdi.

— Boshladikmi? — dedi Olimjon Olimjonovich komissiya a'zolariga murojaat qilib.

— Ta-ak, boshladik! — dedi o'rtoq Malikov.

Uchtadan-to'rttadan bo'lib, uyning sifatini tekshirishga tushib ketishdi.

— Iye, — dedi Olimjon Olimjonovich hayron bo'lib, — uyning kanalizatsiyasi qani?

— Qanaqa kanalizatsiya? — dedim rangi-qutim o'chib.

— Rasvo qilibsiz-ku! — deb baqirdi bosh injener.

Shu payt narigi tomondan ham komissiyaning bir guruh a'zolari hovliqqancha kelib qolishdi.

— O'rtoqlar, uyni qabul qilolmaymiz, — dedi bittasi, — xonalarning hammasi qiyshiq.

— Nega endi qiyshiq bo'lar ekan? O'zingiz qiyshiq, — dedim jahlim chiqib. Ammo gapimni tugatmasimdan yuqoridan qahqaha ovozi eshitildi-yu, zinadan kula-kula odamlar tushib kela boshlashdi.

— O'rtoqlar, yangilik... — dedi oldingisi o'zini kulgidan arang tiyib, — tepadagi xonalarning hech qaysisiga eshik ochilmagan, uylar bamisoli gugurt qutisiga o'xshaydi ...

Bo'ldi kulgi, bo'ldi qahqaha. Qahqaha ovozlari bosilmasdan turib ko'cha tomondan ham komisiyaning ikki a'zosi entikib, bir narsadan quruq qolayotgandek hovliqib qolishdi.

— Bu uy bo'lmabdi, ko'chaga ko'prik bo'libdi. Mana loyiha, ishonmasangiz o'zingiz tekshirib ko'ring. Uy ko'chaga ko'ndalang tushib qolgan, ha-ha ko'ndalang!

Yana gurullab kulgi ko'tarildi. Ammo bu galgi kulgida na quvonch, na shodlik, na taajjub bor edi. Unda olam-olam g'azab, olam-olam nafrat mujassam. Hammasi kulyapti. Mening ustimdan kulyapti. Shu g'azab, shu nafratning hammasi mening boshimga yog'ilyapti... Bir nafas avval o'zimda yo'q shod edim, xursand edim, sevinchlarim bir dunyo edi... Endi-chi? Boshim egilgan, ko'zimdan miltillab yosh oqyapti, yig'layapman.

— Jinoyatchi! — dedi vakillardan biri.

— Brakchi! — dedi boshqasi qo'lini bigiz qilib.

— Qamash kerak! — deb o'shqirdi kattalardan biri. — Ushlang uni, o'rtoq Shermatov.

Sehrli qalpoqchamni sekin boshimga kiydim-u, ko'zdan g'oyib bo'la qoldim. Qayoqqa boraman, endi qaysi dargohdan boshpana axtaraman!



1. Uyni qabul qilish marosimida qanday voqea yuz berdi?

2. Bilim olmasdan biror kasbni egallash mumkin ekanmi?



Hoshimjonning xatti-harakatlari yuzasidan o'z fikrlaringizni bildiring. U haqda qanday xulosaga kelganingizni



ayting.



Farhod Musajonov

1932-yilda tugʻilgan



Farhod Musajonov 1932- yilda Toshkentda tugʻilgan. U sermahsul va koʻp qirrali ijodkor. Bolalar uchun hikoyalar, qissalar yozgan. Koʻplab badiiy filmlarning muallifi. Uning „Oftobni quvalab“, „Boʻsh kelma“, „Bir qultum buloq suvi“ kabi asarlarini bolalar sevib oʻqishadi.

QO'SHOQVOY UKASINI O'YNATDIMI?

Qoʻshoqvoy bitta qiziq kitob oʻqib qoldi. Unda Anvar degan bola ukasini juda yaxshi koʻrishi, doim ovutib-oʻynatib yurishi yozilgan edi. Kitob Qoʻshoqvoyga juda yoqib tushdi. U ham oʻsha Anvar degan bolaga oʻxshab ukasiga bir yaxshilik qilmoqchi boʻldi. Qanday oʻynatsam ekan, deb rosa oʻyladi. Oxiri ukasi Parpini chaqirdi-da:

— Hozir senga qayiqcha yasab beraman, — dedi.

— Rostdanmi, yasab bering, yasab bering, — dedi Parpi xursand boʻlib. Qoʻshoqvoy qogʻozdan qayiqcha yasay boshladi. Parpi akasining ishiga koʻzlarini tikib qarab turdi. U sevinchi ichiga sigʻmay:

— Qachon bitadi, aka, qachon bitadi? — deb ketma-ket soʻrab turardi.

Nihoyat qayiqcha bitdi. Parpi ikki qo'llab qayiqchaga yopishgan edi, Qo'shoqvoy uni to'xtatdi:

— Oldin men o'zim oqizib ko'ray-chi, qanday chiqqan ekan.

Aka-uka sevinib, uning ketidan yugurishdi. Qayiqcha devor tagiga yetganda uni yana Qo'shoqvoy ushlab oldi.

— Endi bera qoling, men ham bitta o'ynay, — yalindi Parpi.

— Hovliqmasang-chi, — jerkib berdi ukasini o'yinga qiziqib ketgan Qo'shoqvoy.

— Sen oqizishni bilmaysan, cho'ktirib yuborasana. Oldin yaxshilab qarab, o'rganib ol, deyapman-ku senga. Qo'shoqvoy qayiqchani bu gal ham o'zi suvga oqizdi. Qayiqcha suv betida qalqib borardi. Shu payt u ariq labida o'sib yotgan o'tga urilib ketib, to'ntarilib qoldi.

Qog'ozi ivib, cho'kib ketdi.

— Voy, attang, — deb yubordi Parpi ko'zlarini javdiratib.

— Qo'yaver, xafa bo'lma, — dedi Qo'shoqvoy,— senga boshqasini yasab beraman.

— Kerak emas, — dedi Parpi qovog'ini solib, — unisini ham o'zingiz o'ynab, cho'ktirib yuborasiz.



1. Qo'shoqvoy ukasi Parpiga nima yasab berdi?
2. U qayiqchani ukasiga berdimi?
3. Qo'shoqvoyning o'rnida bo'lganingizda siz nima qilar edingiz?



1. Qo'shoqvoyning qilgan ishlariga baho bering.
2. Ushbu hikoyaga mos maqollardan ayting.



TURDI, VELOSIPED VA MEN

Ko'zimni ochsam, tepamda buvim turibdilar. Qattiq uxlab qolgan ekanman, g'ijinib qo'ydim.

— Nega uyg'otasiz? Nima, endi sizning dastingizdan dam olish kuni ham uxlab bo'lmaydimi?!

— Kallayi saharlab uyg'otgani o'zimning ham ko'zim qiymaydi, — dedilar buvim, — nima qilay, anavi bezbet o'rtog'ing kelgan edi. Yarim soatdan oshdi, eshikning tagida turibdi tirjayib. G'iyosjon hali uxlab yotibdi, desam ham ketmaydi.

Buvim „bezbet“ deb Turdini aytadilar. Bilma-ganlar buvimni jahldor kampir ekan, deb o'ylashi mumkin, lekin aslida buvim bolalarni juda yaxshi ko'radilar. Gohida bir to'da bo'lib hovlida to'polon boshlasak, hassalarini do'qillatib quvib beradilar, bolalar tumtaraqay bo'lib qochib qolishadi. Buvim ularning orqasidan kulib qo'yadilar. Mahalladagi hamma bolalar buvimdan qo'rqishadi. Faqat bitta Turdi buvimning po'pisalarini pisand qilmay, tirjayib turaveradi. Shuning uchun buvim uni, yarim hazil-yarim chin, „bezbet“ deydilar.

Turdi kelganini eshitib, sakrab turdim-u, hovliga chiqdim. Uning odati shunaqa, ginaxonlikni bilmaydi. Bugun mushtlashsa, ertaga hech narsa bo'lma-gandek gaplashib ketaveradi.

— Nima bo'ldi, bunaqa vaqtli turadigan odating yo'q edi-ku! — so'radim undan.

— Yur, velosiped uchamiz, — dedi Turdi tomdan tarasha tushgandek.

— Velosiped bo'lsa jon-jon deb uchardim.

— Topamiz.

— Qayerdan?

— Esingdami, uzog' yili mening bitta velosipedim bor edi, o'sha sal buzilib qolgan. Tuzatib minamiz.

— Bo'ptil! — suyunib ketdim.

Yugurганиmizcha Turdilarnikiga bordik. U meni o'tinxonaga boshlab kirdi. Nomi o'tinxona bo'lgani bilan ichiga kirsa odam yo'qolar ekan. O'tin ham, ko'mir ham, eski-tuski stol-stullar, simkaravot, tog'oralar, tagi tushgan chelaklar hammasi shu yerda.

— Qani velosipeding? — so'radim Turdidan.

— Hozir topamiz, — dedi Turdi, — shu yerda bo'lishi kerak.

Shunday dedi-yu, emaklab qaqir-ququrlarning ichiga sho'ng'ib ketdi. Men ham velosipedni axtarib, engashganimcha stolning tagiga kirdim. Stolning tagidan o'tib, beshikka duch keldim. Yerga yotib, uning ham tagidan o'tmoqchi bo'lib boshimni suqqan edim, peshanam bir narsaga to'q etib tegdi. Bunday qaragam, tuvak ekan.

— Turdi, kichkinaligingda beshikda yotganmisan? — deb so'radim.

O'tinxonaning narigi burchagidan Turdining ovozi eshitildi.

— Yo'q, dadam o'sha beshikda yotgan ekanlar, buvim ataylab olib qo'yganlar, esdalik uchun.

Yana qidirishga tushib ketdik. Qulog'imga Turdining pishillashi eshitildi, xolos. Bir mahal taqira-tuqur qilib bir narsa ag'darilib tushdi-ku! O'rnimdan turib qaragam, kir yuvadigan eski jomashovning tagidan tirjayib Turdi chiqib kelyapti.

— Bitta g'ildiragini topdim, — dedi u sevinib. Ko'p o'tmay men velosipedning ikkinchi g'ildiragini topdim. Yana ozgina qidirgan edik, saksovulning tagidan ramasi ham chiqib qoldi.

— Sal buzilgan deganing shumi? Dabdalasi chiqib yotibdi-ku! — dedim Turdiga. — Buni tuzatish uchun kamida bir hafta kerak. Ta'tilda qayerda eding. Yur, undan ko'ra, futbol o'ynagani boramiz. Dam olish kuni bekor o'tmasin.

— G'ildiraklarini qo'ysak, bo'ldi, tuzaladi-qoladi, — Turdi to'la ishonch bilan gapirardi...

Ertasiga ertalab nonushta qilib o'tirganimda Turdi maktabga chaqirib kelib qoldi. Apir-shapir choyimni ichdim-u, portfelimni qo'ltiqlab ko'chaga yugurdim. Turdi meni ko'rishi bilan so'radi:

— Uy vazifasini qildingmi?

— Yo'q, — javob berdim men, — qachon qilaman, o'zing bilan birga bo'ldim-u.

— Men ham qilmadim, — dedi Turdi iljayib.

Shundan keyin ikkalamiz jim bo'lib qoldik. Anchagacha miq etmay bordik.

— Bittadan „2“ oladigan bo'ldik, — dedi Turdi.

Men „to'g'ri“ degandek, bosh silkib qo'ydim. Turdining aytgani keldi. O'qituvchi ikkalamizning ham kundaligimizga bittadan „2“ qo'ndirdi.

— Xol qo'ydi-a!? — dedi pichirlab Turdi dars paytida.

Ensam qotib, Turdiga javob ham bermadim. Alam qiladi-da, odamga! Doim dars tayyorlab kelsang-u, bir marta uy ishini qilmay qolsang, darrov „2“ qo'yish kerakmi? Alamimizni nimadan olishni bilmay, Turdi ikkalamiz jo'rttaga to'polon

qila boshladik. Hali oldimizdagi partada o'tirgan Saidaning sochidan tortamiz, hali orqadagilarga qarab basharamizni burishtirib, maynavozchilik qilamiz, ataylab shang'illab gaplashamiz. Bu ham yetmagandek, o'zimizdan o'zimiz qiqir-qiqir kulamiz.

— G'iyos, bugun juda kayfing chog'mi? Yoki „2“ olganingga shunchalik suyunib ketyapsanmi? — so'radi o'qituvchimiz Xatira opa.

— Nima bo'пти bitta „2“ olgan bo'lsam, — dedim qo'rslik bilan, — yig'laydi deb o'ylaganmi-dingiz?

— Bilmadim, yig'lash kerakmi, yo'qmi, ammo yolg'ondakam kulish senga sirayam yarashmas ekan, — dedi Xatira opa.

Maktabdan qaytayotganimizda qo'yarda-qo'y-may Turdi meni do'konga sudradi. Shunaqa xiraki, shiraga o'xshab yopishadi odamga. Noiloj ko'ndim. Do'konga borib velosipedga yangi murvatlar, kamera, nippel sotib oldik. Uyga kelib nomiga ovqat yegan bo'ldim-u yana Turdilarnikiga yugurdim. Ikkalamiz yana velosiped tuzatishga kirishib ketdik. Oxiri bir amallab velosipedni tuzatdik. Qorong'i tushib qolgan bo'lsa ham, ko'chaga chiqib rosa uchdik.



1. Turdi qanday bola ekan?

2. U do'stini nima qilishga undadi?



* * *

Terlab-pishib uyga kirib bordim. Shu paytgacha nima qilib yuribsan, deb so'rashgan edi, Turdilarnikida dars tayyorladik, deb qo'ya qoldim. Ish o'ngidan kelib dadam kundaligimni ham so'ra-

madilar. Esilariga tushib qolmasin, deb sekingina o'z xonamga kirib ketdim. Dars tayyorlayman deb kitobni ochsam, ko'zim qamashadi. Kitobni yopdim-da, birpas shalpayib o'tirdim. Oxiri qandoq qilib uxlab qolganimni ham bilmayman.

Ertasiga maktabda uy ishini qilmaganimiz uchun Turdi ikkalamiz yana bittadan „2“ qo'ndirdik. Maktabdan kelganimizdan keyin Turdi yana velosipedga yopishdi. Men ichimda jon-jon deb turgan bo'lsam ham:

— Ey, Turdi, bunaqada „ikkichi“ bo'lib ketamizku, — dedim har ehtimolga qarshi.

— Qanaqada? — so'radi Turdi.

Keyin sakrab velosipedga mindi-yu, uchirib haydab ketdi. Orqasidan qarab qoldim, havasim keldi. „Kel, nima bo'lsa bo'lar“, deb ketidan yugurdim. Shu kuni ham rosa velosiped uchdik.

Shunchalik berilib ketibmizmi, qorong'i tushib qolganini ham sezmadimiz. Endi uyga qaytmoqchi bo'lganimizda oldimizdan Lola chiqib qoldi. Yo'q, ortiqcha gap qilgani yo'q, faqat „Charchamadilaringmi, bundan uch soat burun kinoga ketayotganimda ham velosiped uchib yurgandilaring“, — dedi.

— Biz charchash nimaligini bilmaymiz, — ishshayib javob qildi Turdi.

Lola boshqa bir so'z demay yo'lida davom etdi.

Lekin bizni ko'rgani chatoq bo'ldi, nega deganda sinf rahbarimizga dars tayyorlash o'rniga qorong'i tushguncha velosiped uchib yurishibdi, deb chaqishi mumkin.

Aytganim keldi. Ertasiga maktabga borsak, katta tanaffus vaqtida Lola men bilan Turdini o'quvchilar xonasiga kirishimizni taklif qildi. Turdi ikkalamiz tirjayib qo'ydik. Ho, kim qo'yibdi bu kishiga gaplashishni. O'zi o'ninchida o'qiydi, sinfimizni otaliqqa olgan. Bo'yi ham atigi yarim qarichgina katta bizlardan. Tilimizning uchida, nomiga sizlab gapiramiz. Kattalik qilib o'quvchilar xonasiga chaqiribdilar. Mayli, ko'raylik-chi, nimalar derkin?

Turdi ikkalamiz oldinma-ketin xonaga kirib bordik. Lola to'rdagi stulga o'tirdi. Xuddi kattalarga o'xshab qoshlarini chimirib bizlarga tikildi.

— Keldik, — dedi Turdi tirjayib.

Men kulib yubormaslik uchun yerga qarab oldim.

— O'tiringlar, — dedi Lola.

— Xo'p bo'ladi, — Turdi oldingidan ham ko'proq tirjayib stulga o'tirdi. Nima uchundir borgan sari mening kulgim battar qistab ketyapti. O'zimni zo'rg'a bosib o'tiribman.

— Nega tirjayasan? — deb so'radi Lola Turdidan.

— Tirjaymayapman, basharam o'zi shunaqa, — dedi Turdi.

Men o'zimni tutolmay, „piq“ etib kulib yubordim. Turdi ham shuni kutib turgan ekanmi, xaxolab yubordi.

— Ha, maynavozchilik qilyaptimi birov, kulasanlar? — dedi Lola jiddiylik bilan. — Menga musobaqaga qatnashasanlarmi-yo'qmi, aytlaring, keyin chiqib xohlaganlaringcha kulaverlaring.

— Qanaqa musobaqaga? — so'radi Turdi.

— Velosipedchilar musobaqasiga. Yaqinda tuman birinchiligi uchun bolalar o'rtasida poyga o'tkaziladi. O'shanda ishtirok etish uchun eng yaxshi velosipedchilarni tanlab olib, mashg'ulot o'tkazamiz. Poygada yutganlar Toshkentga, respublika musobaqasiga boradi.

Turding ko'zlari chaqnaq ketdi. Lekin sir boy bermay, tasmollab so'radi:

— Hammani ham olaverasizlarmi?

— Hammani ham olavermaymiz, faqat qiziqqanlarni, astoydil sportchi bo'lishga qasd qilganlarni olamiz. Ming epchil bo'lsin, qiziqishi bo'lmasa, undan yaxshi velosipedchi chiqmaydi, — dedi Lola.

— To'g'ri-yu, lekin men bilaman, „ikki“si borlarni olishmaydi. Olishsa ham, „ikki“ngni tuzat, bo'lmasa musobaqaga qatnashmaysan, deb miyani achitishadi.

— Hech qanday musobaqaga qatnashmasang ham baribir, agar „ikki“ng bo'lsa tuzatasan, deb miyangni achitishadi. Tuzatmasang, sinfda qolasan, — dedi Lola beparvolik bilan.

— To'g'ri... — dedi Turdi boshini qashlab. Keyin menga qaradi. — Yozilmaymizmi, G'iyos?

— Bilmasam, — dedim men...

— Yozilamiz, — dedi Turdi unga.

— Nima? — qog'ozdan boshini ko'tarib so'radi Lola.

— Yozilamiz, deyman.

— Familiyang nima edi? — bilmagandek so'radi Lola.

Turdi sakrab o'rnidan turdi.

— Ermatov Turdi.

— Seniki-chi?

— Ashurov G'iyos, — dedim men.

— Bo'пти bo'lmasa, — dedi Lola familiyalarimizni yozib olib. — Ertadan mashg'ulot boshlanadi. Bolalar maktab maydonchasida yig'ilishadi. Kech-qurun soat oltiga yetib kelinglar.

— Xo'p bo'ladi, — deb chiqib ketdik.

Endi uch-to'rt qadam yurgan edim, esimga bir narsa tushib qolib, orqamga qaytdim. O'quvchilar xonasining eshigini ochib, Lolaga „xayr“ dedim. Meni ko'rib Turdi ham qaytdi. Eshikdan boshini suqib:

— Xayr bo'lmasa, Lola opa, — dedi tirjayib.

— Xo'p, xayr, — dedi Lola ham jilmayib.

Shundan keyin sinfimiz tomon yugurgancha ketdik.

O'sha kundan keyin, oradan bir oycha vaqt o'tdi. Turdi ikkalamiz velosipedga juda berilib ketdik. Lekin, avvalgidek, kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay velosiped minmaymiz. Haftasiga uch marta ikki-uch soatdan mashg'ulot bo'ladi. Hozir maktabimizda Turdidan usta velosiped haydaydigan bola yo'q. Tuman chempioni bo'lmoqchi va albatta shahar birinchiligi uchun bo'ladigan musobaqada qatnashmoqchi. Murabbiy Sodiq aka harakat qilsang, yaxshi natija ko'rsatib, sovrinni o'rinni egallashing mumkin, deptilar.

Hadeb Turdini gapirasan, o'zing-chi, deb so'rarsiz. Men ham musobaqada qatnashaman, maktabimizning yuzini yerga qaratmasman, deb o'ylayman.

Olgan „ikkilaringiz“ nima bo‘ladi, deysizmi? Allaqachon Turdi ham, men ham tuzatdik. „Ikki“ngni tuzatgin, deb hech kim zo‘rlagani yo‘q. Faqat velosiped to‘garagiga qatnashsanglar, dars tayyorlashga vaqtlaring yetmay qolmasin, deb Lola kun jadvali tuzib berdi. Shu jadvalda nima yozilgan bo‘lsa, o‘shani qilaverdik. Vaqtida ovqat, vaqtida velosiped, vaqtida dars... hammasini ham qilib ulgurdik. Qarabsizki, „ikki“dan ham qutulib qolibmiz. Yaxshi narsa bo‘lar ekan bu jadval.



1. Turdi bilan G‘iyosning darslarni o‘zlashtirishi nima uchun pasayib ketdi?

2. Buni sezgan Lola ularga nimani taklif qildi?



3. Ular Lolaning taklifini qabul qilib to‘g‘ri ish qilishdimi?



Erkin Vohidov

1936- yilda tug‘ilgan



O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov 1936-yil 28-dekabrda Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanida tug‘ilgan. Uning she‘riy to‘plamlari va dostonlari kitobxonlar tomonidan sevib o‘qiladi.

Erkin Vohidovning bolalarga bag‘ishlab yozgan she‘rlari ham talaygina.

O'ZBEGIM

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o'zbekim.
Senga tengdosh Pomiru
Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim.

So'ylasin Afrosiyobu
So'ylasin O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida
Bitta marjon, o'zbekim.

Al-Beruniy, al-Xorazmiy,
Al-Forob avlodidan,
Asli nasli balki o'zluq,
Balki tarxon, o'zbekim.

O'tdilar sho'rlik boshingdan
O'ynatib shamshirlarin,
Necha xoqon, necha sulton,
Necha ming xon, o'zbekim.

Tog'laring tegrangda go'yo
Bo'g'ma ajdar bo'ldi-yu,
Ikki daryo — ikki chashming
Chashmi giryon, o'zbekim.

Qaysari Rum nayzasidan
Bag'rida dog' uzra dog',
Chingizu Botu tig'iga
Ko'ksi qalqon, o'zbekim.

Yog'di to'rt yondin asrlar
Boshingga tiyri kamon,
Umri qurbon, mulki toroj,
Yurti vayron, o'zbekim.

Davr zulmiga va lekin
Bir umr bosh egmading,
Sen — Muqanna, sarbador — sen
Erksevar qon, o'zbekim.

Sen na zardusht, sen na buddiy
Senga na otash, sanam,
Odamiylik dini birla
Toza imon, o'zbekim.

Ma'rifatning shu'lasiga
Talpinib zulmat aro,
Ko'zlaringda oqdi tunlar
Kavkabiston, o'zbekim.

Tuzdiyu Mirzo Ulug'bek
Ko'ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga ilk —
Qo'ydi narvon, o'zbekim.

Mir Alisher na'rasiga
Aks-sado berdi jahon,
She'riyat mulkida bo'ldi
Shohu sulton, o'zbekim.

Ilm-u she'rda shoh-u sulton
Lek taqdiriga qul,
O'z elida chekdi g'urbat
Zoru nolon, o'zbekim.

Mirzo Bobur — sen, fig'oning
Soldi olam uzra o't,
Shoh Mashrab qoni senda
Urdu tug'yon, o'zbekim.



She'riyatning gulshanida
So'ldi mahzun Nodira,
Siyam tanni yuvdi ko'z yosh,
Ko'mdi armon, o'zbekim!

Yig'ladi furqatda Furqat,
Ham muqimlikda Muqim,
Nolishingdan Hindu Afg'on
Qildi afg'on, o'zbekim.

Tarixing bitmakka xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak,
Chunki bir bor chekkang ohing
Mingta doston, o'zbekim.

Ortda qoldi ko'hna tarix,
Ortda qoldi dard, sitam,
Ketdi vahming, bitdi zahming,
Topdi darmon, o'zbekim.

Bo'ldi osmoning charog'on
Tole xurshidi bilan,
Bo'ldi asriy tiyra shoming
Shu'laafshon, o'zbekim.

Men Vatanni bog' deb aytsam,
Sensan unda bitta gul,
Men Vatanni ko'z deb aytsam,
Bitta mujgon, o'zbekim.

Faxr etarman, ona xalqim,
Ko'kragimni tog' qilib,

Ko'kragida tog' ko'targan,
Tanti dehqon, o'zbekim.

O'zbekim deb keng jahonga
Ne uchun madh etmayin!
O'zligim bilmoqqa davrim
Berdi imkon, o'zbekim.

Men buyuk yurt o'g'lidirman,
Men bashar farzandiman,
Lekin avval senga bo'lsam
Sodiq o'g'lon, o'zbekim.

Menga Pushkin bir jahonu,
Menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor,
Ko'ksim osmon, o'zbekim.

Qayga bormay boshda do'ppim,
Shuhratim, qadrim buyuk,
Olam uzra nomi ketgan
O'zbekiston, o'zbekim.

Bu qasidam, senga xalqim,
Oq sutu, tuz hurmati,
Erkin o'g'lingman, qabul et,
O'zbekim, jon o'zbekim.



1. She'rni ifodali o'qing.
2. O'zbekistonga bag'ishlangan boshqa biror shoirning she'rini o'qiganmisiz? O'qigan asaringizning nomini ayting.
3. She'rning birinchi qismini yodlang.



ABADIYAT HAQIDA RIVOYAT

Roviy aytar:

Allazamon —

Allaqaysi ma'voda

Falokatga uchrab karvon

Poyoni yo'q sahroda,

Bu nogohon

Tasodifdan

Barcha o'tib dunyodan,

Shu tasodif amri

bilan

Omon qoldi

Bir odam.

Belbog'iga osganicha

Quruq ko'za —

suvdonni,

Kezdi necha

Kunduz, kecha

Bu dashti bepoyonni.

Keza-keza

oxir toldi.

Umid uzdi jonidan.

Bir payt

nogoh

chiqib qoldi

Bir chashmaning yonidan.

Yiqilganicha suvga

behol

Lab cho'zganda tashna tan,

To'lqinlandi

birdan zilol,

Sado chiqdi chashmadan:
„Shoshma, yo'lchi,
Ichursan, bas,
Muzdek,
 tiniq,
 to'laman.

Ammo bilki,
Oddiy suvmas,
Obihayot bo'laman.
Azob chekding ko'p
 sahroda,

Mayli,
To'yib ichib ol.
Meni ichgan bu dunyoda
Mangu yashar
 bezavol.

OI, ich, yasha davron surib
Abadiy bu dahr aro,
Ammo
Meni ichmay turib
Fikr qilgin avvalo.
Hayotga-ku

 to'ymas ko'zing,
Yashaysanmi umrbod?
Mangu hayot uchun o'zing
Yaraysanmi,
Odamzod?
Mangulik der
 odam nasli,

Lek
 insoniy tafakkur —

Abadiyat nadir asli,
Qila olmas tasavvur“.
Yo'lchi hayron,
Yo'lchi sergak,
Bu qandayin chashmadir?
Ichay desa —
 cho'chir yurak,
Ichmay desa —
 tashnadir.

Uzoq-uzoq
O'yga toldi,
Suv labida o'ltirib.
Oxir
Obihayot oldi
Ko'zasiga to'ldirib.
O'ylay-o'ylay
Nari ketdi —
Ul sehrlı buloqdan.
Nogoh
Hazin sas eshitdi —
Sado keldi yiroqdan.

* * *

Bordi,
E, voh,
 yotar bir bosh
Qum ustida
 benajot,
Nola chekar,
To'kar ko'z yosh,



«La'nat,
deydi,
ey, hayot!
O'sha suvdan ichdim nega?
Afsus!»
deru
o'kinar.
Yo'lichiga u:
— Rahm et menga,
O'ldir, —
deya o'tinar.
Ming yil avval
Shu buloqdan
Suv ichganman,
cho'mganman,
Yashayverib,
Bu qiynoqdan
O'zni qumga
ko'mganman.
Umr ko'rdim haddan bisyor,
Hech toqatim qolmadi.
Yer yuzida
Mening biror —
Hamsuhbatim
qolmadi.
Azob bormi
Bundan ulug',
Dahshat bormi
ziyoda?
Menga yerda
tiriklik yo'q,
O'lim ham yo'q
dunyoda.

Yo'lchi boqdi
Hayratda lol
Tirik inson qabriga,
So'ngra
 qumga cho'kdi behol,
Rahmat aytdi sabriga.
O'z holiga
 ming shukr etdi,
Yig'ib so'nggi sabotni —
Qum ustiga
To'kib ketdi
Yo'lchi obihayotni.
Yo'lchi ketdi
Bo'lib xoli
Mangulikning g'amidan.
Totib qoldi
Cho'l niholi
Obihayot namidan.
Ildiziga uning alhol
Tomchi yetdi,
Shu faqat,
Yillar o'tib,
 o'sha nihol
Chinor bo'ldi oqibat.
Shundan chinor
Uzoq yashar,
Shundan chayir tanlari.
Mangulikdan kechib bashar,
Foniy umr tanladi.

Kel, ey ko'nglim,
Bizning hayot

Emas ekan
 jovidon,
Bu dunyoda
 izla najot,
Yasha faqat
 shodumon.
Bu hayotning
Yarmi rohat,
Yarmi g'amdir,
 shukr qil.
Umring uzun bo'lsa —
 rahmat,
Agar kamdir,
Shukr qil.
Shu oftobu
Ming bir ohang.
Ming bir rangli bu dunyo
Senikidir,
Hayot esang,
Hayot esang avvalo.
Ham shavq bilan,
Ham dard bilan
O'tar ekan bu damlar
Omon bo'lsin
Sen anglagan,
Seni anglar
 odamlar.



She'ni ifodali o'qing.
Rivoyat mazmunini so'zlab bering.



Miraziz A'zam

1936-yilda tug'ilgan



Miraziz A'zam 1936-yil Toshkentda tavallud topgan. „Aqli bolalar“, „Senga nima bo'ldi?“, „Yerga dovruq solamiz“, „Bir cho'ntak yong'oq“ kabi ajoyib she'riy to'plamlari bosilib chiqqan. Adabiyotda tarjimon sifatida ham o'z o'rniga ega..

ASROR

(Dostondan parcha)

Yig'ilish davom etadi

Asror minbarga chiqdi,
Ozroq turdi shalvirab.
Uzr aytdi kimgadir,
Keyin birdan qaltirab,
Bo'g'ilib dedi: — Ra'no!
Senga bir savolim bor...
Ra'no dedi: — So'rayver!
Mening javobim tayyor!
— Nega pilla qurtiga
Qo'noq tut kesmadingiz?
— Qo'noq tutning bargida
Shirasi kammi debmiz.
— Asosingiz bormidi?
— Qurt qo'noq barg yemadi.

— Qo'noq sabab ekanmi?
(Ra'no javob bermadi.)
Javob qaytar. Javobing
To'g'ri bo'lsin misli o'q.
— Bizga tut bargi kerak!
Qay xilidan? Farqi yo'q!
— Bu gal to'g'ri gapirding:
Qurt tut bargga parvona.
„Qo'noq tutni yemadi“ —
Degan gaping bahona.
Siz qo'noq tut kesishga
Erinchoqlik qilgansiz.
Baliq tutni kesishni
Qulayroq deb bilgansiz.
Yo qolmagan hoynahoy
Butalmagan qo'noq tut.
Xo'jalikdan olgansiz
Mo'ljal bilmay ko'proq qurt.
Endi reja to'lsin deb,
Aylanarsiz uyma-uy.
Chalasiz-da, chor-nochor,
O'zingiz to'qigan kuy...
Zirillab yurgandirsiz
Endi quloqni ushlab.
Nima qilasiz bunda
Aybingizni xaspo'shlab?!

Asror qaddin rostladi,
O'yga botdi ko'zlari.
Chamasi u xotirjam
Ta'sirchan so'z izladi.
Lekin bundan voz kechib,

Peshonasin ushladi.
Gapirganday o'ziga
Asta so'zlay boshladi:
— U kungi ko'ngilsiz gap
O'ylatib qo'ydi meni.
Hamon tashib yuribman
Qalbimning alamini.
Kezdim hovlima-hovli,
Tomorqama-tomorqa.
Bir gapni aytib qo'yay
Dalillarga qilib orqa:
Bu yil qishloqda hech kim
Tut mevasin yemaydi.
Yillar o'tib bolalar
Shinni nima, bilmaydi.
Buning uchun kim aybdor?
Birov emas. O'zimiz.
Reja desa ko'rmaydi
Hech narsani ko'zimiz...



1. Yig'ilishda qanday masala muhokama qilindi?
2. Asror nima uchun kuyib-pishib gapirdi?



* * *

Asror tut mevasiga
Gapni bura boshladi.
Shunda o'sha sharttiki
Ra'no luqma tashladi:
— Mulohaza qilasan
O'ziga xos, mustaqil.
Lekin, Asror, ketdi vaqt,
Bizga gapni qisqa qil!

Asror norozi bo'lib
Muallimga qaradi.
Muallim parvo qilmay,
Sochlarini taradi.
— Tugata qol, ha, — dedi
Loqaydgina sas bilan.
Nazdida, unga hech kim
Boqmasdi havas bilan.
Ruhi tushdi Asrorning,
Yolg'iz sezdi o'zini.
— Mayli, gapim tamom, — deb
Pirpiratdi ko'zini.
Umrida u ilk bora
O'zining haqligiga
Gumon qildi.
To'satdan
Ishonmadi aqliga.
Bir odam so'zlayversa
Befoydadan befoyda,
Ko'pchilikka yoqmasa...
Demak, masala mayda...
Demak, tugashi kerak
Bundan buyon tutchilik.
Endi yashashga haqli
Faqat ipakqurtchilik...
Ammo birdan Rahimjon
Sakrab turdi o'rnidan:
— UZR, o'rtoq muallim,
UZR, Ra'no, qadrdon!
Sizlardan bir iltimos:
Cheklamanglar gapini.

Sezarmiz so'ng, ehtimol,
Gaplarining nafini.
O'zimizni ma'qullab,
Tinglamasak o'zgani,
Qotib qolish demak bu,
Yo safimiz to'zgani...
Gapir, Asror, tinglaymiz,
Gapir hamma gapingni,
Bo'shataver ko'nglingni,
Qo'yaver talabingni...
Asrorning vujudidan
O'tganday bo'ldi to'fon.
O'zini ushlashiga
Yo'q edi sira imkon.
Tiqilardi tosh bo'lib
Allanima bo'g'ziga.
Kipriklari achishar,
So'z kelmasdi og'ziga.
Voy Rahimjon, Rahimjon,
Shunday ekansan-da sen.
Qalbing bir zulmat desam,
Kunday ekansan-da sen.
Bor ekan-ku, safdoshlik,
Qalbi daryo hotamlar.
Bor ekan-ku, haqiqat,
Bor ekan-ku, odamlar.
Asror rostlab qaddini
Dedi qilt-qilt yutinib:
— Tut mevasin maqtayman,
Do'stlar, yana botinib.
Bu tut degan mevamiz

Quvvat koni aslida.
Shohlar so'ratib yegan
Tutni bahor faslida.
Sizlar shohdan kammassiz,
Tut bu — bahor himmati.
Tutga to'ying bir marta,
Yilga yetar quvvati.
Ilik uzildilarga
Darhol beradi barham.
Ham angina bo'lmaysiz,
Ruhingiz bo'lar bardam.
Tutning shifobaxshligi
Ma'lum ko'hna tarixda.
Barcha fazilatlari
Sig'maydi bir ta'rifga.
Ipak kerak xalq uchun,
Ipak — kiyishga kerak.
Tut esa kerak xalqqa,
To'yib yeyishga kerak.
Tutni pilla tufayli
Haqqimiz yo'q qirishga.
Xalaqit bermasin-da,
Bir ish ikkinchi ishga!..



Tutning inson salomatligi uchun qanday foydasi bor ekan?



Ko'rilgan masala yuzasidan siz ham o'z fikringizni bildiring.

Abdulla Oripov

1941- yilda tugʻilgan



Atoqli shoir Abdulla Oripov 1941-yil Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi Neko'z qishlog'ida dunyoga kelgan. U ijodi bilan o'zbek she'riyati rivojiga katta hissa qo'shdi. Abdulla Oripov ijodida bolalar uchun yaratilgan asarlar ham talaygina.

SAMOVIIY MEHMION, BESH DONISHMAND VA FARROSH KAMPIR QISSASI

Xabar keldi Fan shahriga
Olis Jungli tomondan.
O'tgan kecha allanarsa
Yonib tushmish osmondan.
Yulduz desa yulduz emas,
Yo yo'ldoshmi bir daydi.
Har holda u shov-shuv solgan
Tarelkaga o'xshaydi.
Bu xabardan ilm ahli
Bir zum o'yga toldilar.
Yana biror mish-mishdir deb
Shubhaga ham bordilar.
Charxlab turish kerak ammo
Tuyg'u bilan aqlni...

Har ehtimol jo'natdilar
Jungliga besh vakilni.

Beshovi ham tengsiz olam,
Besh qit'adan bo'lmish jam.
Dunyodagi barcha ilm
Shul beshovda mujassam.

Dunyodagi tillarni-ku
Besh barmoqday bilishar.
Kerak bo'lsa, qushlar bilan
Xandon suhbat qilishar.

Xullas, beshov yig'ilishib
Jungli tomon yeldilar.
Hatto farrosh kampirni ham
Birga olib keldilar.

Darhaqiqat, Jungli notinch,
Ne daraxtlar shalpaygan.
O'rtalikda allanarsa
Yotar edi, yalpaygan.

Oynaklarni tutib beshov
U yog'idan o'tdilar.
Bu qanaqa gap bo'ldi deb
Bu yog'idan o'tdilar.

Va nihoyat sirli uyni
Urrib ochib olishdi.
Ichkariga qarab birdan
Angrayishib qolishdi.

Yotar edi o'rindiqda
Allaqanday bir maxluq.
Bir ko'zi bor... manglayida,
Ikkinchisi mutlaq yo'q.

Lab-dahani odamga ham
O'xshab-o'xshab ketardi.
Qo'l-oyog'i uzun-uzun,
Sap-sariqdir rang zardi...

Besh donishmand o'zni endi
Yo'qotishdi tamoman:
Hazelakam gapmi axir
Mehmon tushmish samodan!

Mana buni aytsa bo'lar
Eng oliy, zo'r muammo!
O'rab oldi uni beshov,
Miq etmasdi u ammo.



1. Fan shahridan qayerga vakillar yuborildi?
2. Samodan qanday mehmon tushdi?



* * *

Ko'rsatishdi unga dastlab
Cheksiz olam tarhini.
Somon yo'li, alfa, beta
Burjlarining farqini.

Mehmon esa qimir etmay
Yotardi jim, sulayib.
Manglayida bitta ko'zi
Boqar edi do'layib.

Ko'rsatdilar unga yana
Yozuv, shakl, formula.
Moziyni ham ko'rsatishdi
Kino qilib bir yo'la.

Dunyodagi tillarni-ku
Lug'at qilib uyishdi.

Shu jumladan, o'zbekcha ham
Bir-ikki so'z deyishdi.

Mehmon hanuz qimir etmay
Yotardi jim, sulayib.
Manglayida bitta ko'zi
Boqar edi do'layib.

Karmikan, deb qulog'iga
Baqirib ham ko'rdilar.
Soqovmi, deb imo bilan
Chaqirib ham ko'rdilar.

Tahdid bilan hatto biroz
Siquvga ham olishdi.
Oxir charchab, o'zlari ham
Sulayishib qolishdi.

Ish chiqmadi, demak, bizni
Tushunmadi u taraf!
O'sha payt, deng farrosh kampir
Kirib keldi tentirab.

Farrosh-da u, uni-buni
Yig'ishtirmoq unga tan.
O'rindiqda yotgan zotni
Ko'rdi kampir daf'atan!

— Voy bechora bolaginam,
Dard zabtiga opti-ku!
Holdan toyib, boshqa ko'zi
Yumilib ham qopti-ku!

Rangini ko'r, somon deysan,
Suvdanmikan yo o'tdan! —

Shundoq deya farrosh kampir
Bo'la ketdi girgitton.

Azbaroyi mehr bilan
Boshginasin siladi.
Tikandayin tikka o'sgan
Sochginasin siladi.

Kampir bilmas, kim bu maxluq,
Yo bilsa ham unutdi.
Icha qolgin, jon bolam, deb,
Hatto unga suv tutdi.

O'shanda deng, haligining
Qon chopdi-ya yuziga.
Duvva-duvva yosh ham keldi
Bittagina ko'ziga.

Jon kirganday bo'ldi birdan
Oyoq-qo'li qimirlab.
Jilmayganday bo'ldi hatto
Gapirganday shivirlab.

Aylantirib bitta ko'zin
Boqdi u yoq-bu yoqqa.
Bir mahal deng, dabdurustdan
Mehmon turdi oyoqqa.

Olimlarning ushbu holdan
Chimirildi qoshlari.
Bu qanaqa sir bo'ldi, deb
Tamom qotdi boshlari.

Kor qilmadi shuncha ilm,
Etdi qancha sargardon.
Farroshlarning yulduzidan
Tushdimikan yo mehmon.

Ne bo'lsa ham murod hosil,
Fan shahriga yelishdi.
Farrosh kampir sirin esa
Sal keyinroq bilishdi.

Olimlarning xizmatlari
Yo'q, bekorga ketmapti.
Shuncha ishni qilishibdi.
Faqat Mehr yetmapti.



1. Samodan tushgan mehmon bilan olimlar qanday muloqot qilmoqchi bo'ldilar?
2. Farrosh kampir nima uchun samoviy mehmonga yoqib qoldi?
3. Ayting-chi, olimlar nima uchun uning ko'ngliga yo'l topa olmadilar?



Mehr-muruvvat qanday kuchga ega ekanligini ushbu rivoyat va hayotiy misollar asosida aytib bering.



Yarra Sa'dullayeva
(1934- yilda tug'ilgan)



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, yozuvchi Yarra Sa'dullayeva 1934- yilda Toshkent shahrining Sebzor dahasida tug'ilgan. Uning bolalar uchun yozgan hikoyalari „Yaltiroq halqacha“, „Bekinmachoq“, „Qog'oz qush“, „Chip-chipjon“ kabi to'plamlariga jamlangan.

„HOZIR, BUVIJON!“

Dilbar maktabdan keldi-yu, apil-tapil choyini ichdi. Stol ustini naridan beri yig'ishtirgan bo'lib, ko'chaga yugurdi.

— Qayoqqa, qizim? — so'radi Malika xola nabirasining indamay chiqib ketish odatini bilgani uchun.

— Hozir, buvijon, — dedi ko'cha eshikka yaqinlasha turib Dilbar.

Buvijonisi orqasidan „Tezroq kel“ deb qoldi va chala artilgan stol ustini boshqatdan artdi. Keyin erinibgina yog'ayotgan qordan oqarib qolgan yo'lkani supurib qo'ydi. Jo'mrakdan suv burab, paqirlarni to'ldirdi, oshxonaga eltdi. „Bolam tushmagur-ey, kap-katta bo'lib qoldi-yu, nima qilarkin bilib-bilib ish qila qolsa! Hatto ovqat yegan idishini ham yuvmaydi. „Hozir“, deydi-yu, lip etib g'oyib bo'ladi“.

Malika xola katta naqshinkor darvozadan ko'chaga qaradi. Chuvullashib o'ynayotgan bir to'da bolalar orasida Dilbar ham bor edi.

Malika xola bir-ikki qadam bosib, nabirasini chaqirdi:

— Dilbarxon, hey, Dilbarxon!

Dilbar bir qaradi-yu, „Hozir, buvijon!“ deya yana o'yinga tutindi.

— Kela qol, yordamlashib yubor, qizim! — dedi Malika xola yalingansimon. Bu so'zlar Dilbarning qulog'iga kirdimi-yo'qmi, har qalay u buvisining gapini javobsiz qoldirmadi:

— Hozir, buvijon!

Malika xola hovlisiga kirib ketdi. Yerto'ladan

kartoshka, piyoz olib chiqdi. Un eladi. Xamir qordi. Xamirni kelini kelganda qilsa ham bo'lardi-yu, uni ayadi. Axir Dilbarning oyisi ishdan charchab keladi-da.

Oradan ancha-muncha vaqt o'tdi. „Hozir“ degan qizchadan hamon darak yo'q. Malika xola yana ko'cha eshigidan mo'raladi. Tavba, Dilbar qayoqqa ketdiykin? Bolalar ham siyraklashib qolishibdi. Malika xola bolalardan so'radi. Ular „Lolalarnikiga ketdi“, deyishdi.


— Chaqirib bera qol, bolam, — dedi Malika xola ulardan biriga. Bola yugurib bordi-yu, yugurib keldi:

— „Hozir“ dedilar.

Malika xola chiqib qolar deb kutib turdi. Chiqmadi. Oradan ancha mahal o'tgach, qo'lidagi qo'g'irchog'ining ro'molini to'g'rilab, bitta-bitta qadam bosib, Dilbar bilan o'rtog'i kela boshladi. Oshxona oldidan o'tib ketayotgan edi, buvisi:

— Kela qol, qizim, kartoshka artib yubor, — dedi xafa bo'layotganini yashirishga urinib.

— Hozir, buvijon! — shunday dedi-yu, Dilbar o'rtog'ini boshlab uyga kirib ketdi. O'rtog'inikidan olib chiqqan qo'g'irchoqni karavotiga yotqizdi, ustiga oq choyshabcha yopdi. Qulog'iga yana buvisining ovozi chalindi. Mayingina qilib: „Hozir, buvijon!“ dedi.

-  1. Siz Dilbarning o'rnida bo'lganingizda nima qilar edingiz?
2. Odobli qizlar qanday bo'lishi kerak?



Dilbarning ishiga baho bering.



„HECH KIM KO‘RMASIN“

— Oyi, jon oyi, menga bir narsa olib keling.

— Xo‘p, bolajonim.

Rixsi opa bolalardan xabar olay deb uyiga qo‘ng‘iroq qilganda telefon go‘shagini kenja o‘g‘li Dilshod ko‘tardi. Uning ovozini eshitib, opa judayam suyunib ketdi.

— Oyi, — dedi Dilshod erkalanib, — menga olib keladigan sovg‘angizni hech kim ko‘rmasin.

Rixsi opa buni „aka-opasiga to‘satdan ko‘rsatmoqchi bo‘lsa kerak“, deb tushundi va uyiga borganda zar qo‘g‘ozli shokoladni uning o‘ziga berdi. Hasan-Zuhralar ham oyilari kelganiga xursand bo‘lib ketishdi. Darrov dasturxon yasashdi. Buvijonlari bilan tayyorlangan qovurdoq ustiga barra piyoz sepib olib kelishdi. Guzardagi novvoyxonada pishgan sedanali non qaymoqqa qorilganmi, juda shirin edi.

— Qo‘zichoqlaring yordamchi bo‘lib qolishdi. Menga qarashgan, Dilshodni bog‘chasiga olib borishgan, dadasiga xat yozishgan, — dedi buvijonisi ikki yonida o‘tirgan ikki do‘mbog‘ini maqtab.

— Sizni qiynamasliklarini bilib ketdim-da Andijonga, oyi.

Ovqatni yeb bo‘lishgach, Rixsi opa yig‘ishtiray desa, bolalar qo‘yishmadi.

— Chaqqontoylardan o‘rgilay, ustozlaringga rosa maqtaydigan bo‘ldim-da, — dedi Rixsi opa suyunib. Choyni o‘zi yangidan damladi. Andijondan keltirgan pashmakni olib chiqdi. Nazarida dastur-

xonga nimadir yetishmayotganga o'xshardi. Rixsi opa Dilshodga bir qarab qo'ydi. Hech kimga sezdirmay, „olib chiq“ degandek imlab ham ko'rdi. Dilshod yo tushunmadi, yo...

Keyin qulog'iga bir narsa deb pichirladi. Haytovur akasi ham, opasi ham, hatto buvijonisi ham eshitishmadi. Shundayam Dilshod indamay, pashmak yeb o'tiraverdi.

Rixsi opa judayam hayron edi. Nega olib chiqmayapti? Yo dadasiga ilinayaptimi? Ochiqchasiiga bir narsa dey desa, Dilshod sir saqlashni so'ragan.

Shokolad nonushtaga ham chiqmadi. Bog'chaga ketayotganida Rixsi opa Dilshodning tamshanib ketayotganini, labida shokoladning yuqi borligini ko'rdi.

— Kecha nega olib chiqmading, Dilshod?

Dilshod shoshmasdan yutinib, javob berdi:

— Olib qo'yishadi-da.

Rixsi opa unga bunday qilish yaxshi emasligini, saxiylik katta fazilat ekanini aytmoqchi edi, qo'shni opa va bolalar ularga yetib olishdi-yu, gap bo'lindi.

Kechqurun uyga buvijonisini ko'rgani mehmonlar kelib qolishdi. Zuhra bilan Hasan yana yordam berib yurishdi.

— Qizim, shkafdan yangi kosalarni olib chiq. Zuhra olib chiqdi.

— Ustidan issiq suv burab yubor, anchadan beri tutilmagan, — dedi.

Zuhra issiq suvni burab yubordi. Yana o'zi chopqillab, buvisining oldiga kirib ketdi. Rixsi opa

suvni iliq-miliq qilib, ustidagi kosani qo'liga oldi. Qarasa... tagidagi kosada „o'sha shokolad“ ning bir bo'lagi erib yotibdi. Rixsi opa „tavba“, dedi-yu, miyasi bir zumda savollarga to'lib ketdi. „Nega Dilshod bunday qildi? Nega yashirdi? Nega aka-opasiga bermadi?.. Nega? Nega!“ Hozir o'g'lini chaqirib o'zidan so'raydi. Yo'q, biroz sabr qilishi lozim. Mehmolarning oldida ovoz chiqarib bo'lmaydi. Yaxshisi mehmonlarni kuzatishsin, keyin. Qani, o'g'ilchasi nima derkin?



1. Dilshod qanday bola ekan?
2. Siz Dilshodning o'rnida bo'lganingizda nima qilar edingiz?



3. Saxiylik haqida nimalarni bilasiz?

Safo Ochil

(1942-yilda tug'ilgan)



Safo Ochil 1942-yil 20-martda Xorazm viloyatining Yangiariq tumanida tug'ilgan.

U o'z ijodiy faoliyatini 1955- yilda bolalarbop she'rlar mashq qilishdan boshladi. Uning bolalar uchun yozgan asarlari „Umidvor g'uncha“ (1983), „Kamalak va sumalak“ (1987), „Burgut“ (1992) kabi she'riy kitoblariga jamlangan.

QALDIRG'OGH VA BESHIKTERVAT HAQIDA ERTAK

(Sharq ertagi)

Uzoqdan kelib,
Qanoti qiyg'och,
Uy shipiga in
Qurdi Qaldirg'och.

Bunda bexatar
Hayotni tuydi.
Keyin uch-to'rtta
Tuxum ham qo'ydi.

Tuxumlarini
Asrab doimo,
Ko'ksiga bosib
Yotardi, ammo.

Palaponlari
Chiqibdi bir kun.
Biri biridan
Juda ham shirin.

Qaldirg'och ko'ngli
Yashnardi doim.
Bolalarini
Suyib muloyim.

Chug'urlar ular —
Qo'shig'i go'zal.
Tabiatga u
Berardi sayqal.

Bir kun desangiz,
Qarab in tomon...
To'sinlar aro
Kelardi Ilon.

Palaponlarning
Tinchi yo'qoldi.
Ona ko'ksida
Alam o't oldi.

„Chiy-chiy“, „chiy-chiy“, deb
Chorlab yordamga,
Jar soldi ular
Butun olamga.

Sevsa ham hamma
Ularni chindan.
Bormadi qo'rqib,
Chipor ilondan.

Hech kim kelmadi,
Ko'makka biroq,
Qaldirg'och esa
Pirr etib shu choq

Uchib boribdi,
Beshiktervatga.
Beshiktervat-chi,
Keldi madadga!..



Uya oldida
Tebranib turib,
Arra oyog'in
Ishlatib ko'rib.

Turardi tayyor,
Bo'lajak jangga.
Do'stin qasosi
Olib alanga.

Kelardi llon,
Hech pisand qilmay,
Beshiktervatni
Nazarga ilmay.

Inga suqqach bosh,
Shafqatsiz llon,
Ajralib ko'zdan,
Quladi shu on!

HISSA:

Bo'lsangiz agar,
Bir umr inoq,
Sololmas hech kim
Oraga nifoq.



1. Ertak nima haqida ekan?
2. llon nima uchun yengildi?



YARADOR QUSHCHA

1

— Oyi, oyi, oyijon,
Bugun qiziq tush ko'rdim.
Birdan chiqazib qanot,
Osmonda uchib yurdim.

Xuddi shu hozirgidek,
Qo'llarim ham bor emish.
Bir qushchani otdilar,
Shunda qo'llar berdi ish.

Ushlab qolib qushchani,
Uyasiga yotqizdim.
Yaralarini bog'lab,
Tongni birga otqizdim.

Chiyillardi bechora,
Yotar edi tovlanib.
Yig'lab-yig'lab oxiri
Mana, qoldim uyg'onib.

Tushdagidek ne uchun,
Uchib yura olmayman?
Yarador qushchamni men
Nahot ko'ra olmayman?

2

O'yinqaroq bir bola,
Qoshi baroq bir bola,
Sopqonidan otib tosh,
Qush ko'zidan to'kdi yosh.

Qulab tushdi qushchajon,
Tipirchilar chalajon.
Armon qilar qushchajon,
Shafqat kutar qushchajon.

Olib qochdim mushukdan,
In yasadim yashikdan.
Yarasini boyladim,
Xavfsiz inga joyladim.

Don-dun berdim har kuni,
Holin so'rdim har kuni.
Tuzalgach asta-asta,
Zerikdi u qafasda.

Qolgan kabi armonda,
Uchsam derdi osmonda.
Uni yaxshi ko'rardim,
Darrov qo'yib yubordim.



1. Qushlar va jonivorlarga ozor beradigan botalar haqida nima deya olasiz?
2. Nima deb o'ylaysiz, nega qushlarni qafasda saqlash mumkin emas?



Ushbu she'r asosida siz o'zingiz qushlarga qanday g'amxo'rlik qilishingiz haqida so'zlab bering.



Anvar Obidjon

(1947- yilda tug'ilgan)



Anvar Obidjon 1947- yilda Farg'ona viloyati Oltiariq tumani Poloson qishlog'ida tug'ilgan. U hajviy she'rlari va hikoyalari bilan nom qozongan adib sanaladi. Uning ajoyib she'rlari bilan bir qatorda

„Bahromning hikoyalari“, „Olovjon va uning do'stlari“, „Dahshatli meshpolvon“ kabi nasriy asarlarini bolalar sevib o'qiydilar.

XABAR SOTUVCHI

Yangi gaplar sotaman,
Eski gaplar ham.
Bolajonlar, keppoling,
Qoldi juda kam.
Surishtirmang ham — arzon,
Xo'rozqandga — rost xabar,
Pishloqqa — yolg'on.
Almashaman yangisin,
Keraksiz unga.
Eski gapni — puch yong'oq,
Yoki sovunga.
Buni tongda eshitdim,
Eng yangi xabar:
— Yeb qo'yganimish tushida,
Burgutni kaptar.
Quyvon yo'lbars terisin
Yopinib yurib,
Hushdan ketdi ko'zguda,
O'z aksin ko'rib.
O'tgan kuni tulkivoy,
Opkelib xo'roz,
Hiringladi bo'riga,
Taltayib biroz.
Bo'ri esa xush ko'rmas,
Hazil, kulgini.

Avval yedi xo'rozni,
So'ngra tulkini.
„Savodsiz“ deb ayiqni,
Qilganmish ermak —
Uch yil bitta sinfda
O'qigan eshak.
Kecha doktor Arslonga
Arz qildi tuya.
Qimmatbaho terimga
Tushdi, deb kuya.
Doktor uning arziga,
Soldi-yu quloq.
Shilib olib terisin,
Tekshirdi uzoq.
Bugun tongda uchratdim,
Ochko'z to'ng'izni.
Yamlaganmish u birdan
Besh ming qo'ng'izni.
Kirpi borib bozorga,
Olganmish igna...
Qiziqsangiz, yangi gap
Topilar yana.
Bolajonlar, kepqoling,
Xilma-xil xabar,
Uni sotib olganlar,
Ko'rmaydi zarar.



1. Hayvonlarning har biriga izoh bering.
2. She'ni ifodali o'qing va she'rga oid rasm chizing.





Hamza Imonberdiyev

(1954 — 1997)



Hamza Imonberdiyev 1954- yil Janubiy Qozog'istonning Suzoq qishlog'ida tug'ilgan. U o'z ijodini bolalarga bag'ishlagan. Shoirning „Quvnoqlar quvonchi“, „G'aroyib pufak“, „G'aroyibkent hango-malari“, „Lofchilar“, „Aldoqchilar“, „Sehri qo'ng'iroq“, „Qutichada mitticha“, „O'rmondagi tomosha“, „Bir kunlik mo'jiza“, „Hali-hali eslar Vali“, „Oydagi tomosha“ kabi she'riy to'plamlari nashr etilgan.

TURNALAR

Dovul turib dengizda,
Havo tamom buzildi.
Kechga borib turnalar —
Safi bexos uzildi.
Qolib ketdi bir turna
Dosh berolmay jalaga.
Qirrovlari yetmadi
Bee'tibor galaga.
Xavotirda onasi
Safdan chiqar qayrilib.
Qayoqqa ham borardi
Dilbandidan ayrilib.
Qushlar charchab, horigan,

Tugab borar kuch-sabot.
Tortmoqchiday domiga
To'lqinlar sapchir bot-bot.
Azoblardan qushchanning
Ko'zlarida yosh qotdi.
— Chidolmayman, onajon,
Qanotlarim tosh qotdi.
Netardi onayizor,
Yuragin o'rtar bu sas:
— Yana biroz sabr qil,
Sabr qil, bolam, birpas.
Ko'p o'tmay ufq bo'zarib,
Jala ham tinib asta,
Alg'ov-dalg'ovli borliq
Tinchib qoldi birpasda.
Yotar dengiz yastanib.
Na boshi, na cheki bor.
Dengiz uzra turnalar
Uchib borar bemador.
Shu choq olisda yolg'iz
Kema ko'zga chalindi.
Shod qirrovlab turnacha
Onasiga yalindi:
— Uchaylik o'sha yoqqa,
Tog'-qoyaga o'xshaydi.
— Yo'q, yo'q! Bu suzar orol,
Qanotsizlar yashaydi!
Ular haqda avlodlar
Biror xush so'z aytmagan.
Ularga yaqinlashgan,
Hech vaqt omon qaytmagan.

Yo'q, quloqsiz turnacha
Ilmayin ona so'zin,
Uchib ketdi suzuvchi —
Oroldan uzmay ko'zin.
Ona turna qirrovi
Ko'kni tutar bu damlar:
— Ojizlarmiz,
 sizlarga
Insof bersin, odamlar!



She'r mazmunini o'z so'zlaringiz bilan tushuntirib
bering.

RASSOM

— Zo'r rassomman, — der G'ani,
Bolalar aytar, — Qani,
Ishga solib bor kuchni,
Chizib bergin-chi, qushni?
G'ani asta bosh qashlar,
Qator gap to'qib tashlar,
— Chizganim bilan biroq
Jon kirib u qushchaga
Uchib ketsa-chi, shu choq?!
— Filni solib ber bizga?
— Sig'mas deyman qog'ozga.
— Otni sol hech bo'lmasa,
— Chopmoqchisiz-da, rosa?
Rahmdilman jonzotga,
Yo'q, minmaysizlar otga!
Bolalar qiqirlashar,
O'zaro shivirlashar.
— Yo'qsa, nok chiz, — der Oygiz.

— Bo'lmaydi, yeb qo'yasiz.
Labin yalab Alisher
Der: — Shokolad chizib ber.
— Ho, yo'qmi boshqa ishing,
Og'rib qoladi tishing.
Bolalar der: — Bu rassom
Tumshug'idan ilindi.
Juda qizg'anchiq ekan,
O'z-o'zidan bilindi.
So'ng yana pichirlashar,
O'zaro shivirlashar.
— Sendan so'nggi iltimos —
Der kulimsirab Olmos.
— Ishga yo'q, mahmadona,
Maqtanishda yagona.
Bir bolani chiziboq,
Qoyil qolaylik, o'rtoq.
G'ani jim qolar bir dam,
So'ng: — Uyda qopti qalam.
Hozir olib kelaman,
So'ngra solib beraman, —
Deb qalamin yashirdi,
Uyi tomon shoshildi.



Siz nima deb o'ylaysiz, maqtanchoq G'ani aslida ham yaxshi rasm chiza oladimi?



Maqtanma g'oz, hunaring oz maqoli mazmunini izohlang.





Kavsar Turdiyeva

(1958-yilda tug'ilgan)



Kavsar Turdiyeva 1958- yili Toshkent shahrida ziyoli oilasida tug'ilgan. Yoshligidan she'rlar yozishni mashq qilgan. Uning „Varrak“, „O'ynayapman, o'ylayapman“, „Raqamlar bo'ylab sayohat“, „Hayvonot bog'i“ va „Obod mahalla“ kabi she'riy to'plamlarini bolalar sevib o'qiydilar.

QUSH BO'LIB UCHGAN ONA

(Nenes xalq ertagi asosida)

Ona va uchta o'g'il
Yasharkan bir shaharda.
Onasi ish bilan band
Har kun erta sahardan.
O'g'illar-chi? O'g'illar
Doim yarim kechada
Kir-chir bo'lib qaytishar
Rosa o'ynab ko'chada.
So'ng onasi ularni
Ertak aytib allalar.
Ana shunday yasharkan
G'ussa bilmay bolalar.
Lekin doim shundaymas,
Kutilmagan fursatda
Qayg'u kelar, g'am kelar

Chaqin kabi to'satdan.
Bu uyga ham shunday tez
Kirib kelibdi qayg'u,
Onani betob qilib
Yotqizib qo'yibdi u.
Bolalar-chi? Bolalar
Hamon o'yin bilan band.
Chillak otar, to'p tepar
Avvalgidek uch farzand.
Ona esa cho'g'-olov,
Titraydi-yu qaqshaydi.
Eh farzandlar, onangiz
Suvsaganga o'xshaydi.
— O'g'lim, — debdi onasi
To'ng'ichiga mo'ltirab, —
Suv keltirgin, jon bolam,—
Chelakchani to'ldirib.
— Olib kelsin erkangiz,
Kirardingiz so'ziga.
Endi hamma ishlarni
Aytavering o'ziga!
Mana, o'rtancha o'g'il
Kirib kelar xonaga.
— Nima deysiz? — hovliqib
Yuzlanadi onaga.
— Chaqirgandim, bir cho'mich
Suv keltirgin, jon bolam! —
Ona qarar entikib,
— Chanqoq bosilsa zora.
— Bir ish bo'lsa, doim men,
Yo'qmi axir boshqalar?
Onaning ko'zlarida umid so'nar,
Yosh qolar.



— Kenjatoyim, jon bolam, —
U yalinar so'nggi bor: —
Bir qultum suv keltirgin,
Menda qolmadi mador.
Kenja o'g'il eshitmas,
O'yin bilan ovora.
Ona suvsab yotibdi,
Titrab-qaqshab bechora.
Juda muhtoj bo'lganda
Inson oddiy mehrga,
Kutar ekan mo'jiza,
Ishonarkan sehriga.
„Eh, — o'ylabdi onasi —
Bo'lsa edi qanotim,

Daryo tomon uchardim,
Hech qolmadi sabotim".
Shu mahal deng mo'jiza
Sodir bo'lib bir onda,
Ona qushga aylanib
Charx uribdi osmonda.
Buni ko'rgan farzandlar
Ishonmayin ko'ziga,
So'ngra hayron qolibdi,
Kelolmayin o'ziga...
Yugurarkan farzandlar
Qush ortidan silkib qo'l:
„Ketmang! — derlar, — oyijon,
Axir u yoq cheksiz ko'l".
— Endi sizga! — debdi qush, —
Ish qiling deb aytmayman.
Yaxshi qoling, bolalar,
Yoningizga qaytmayman.
Suv to'ldirib, uchragan
Ko'l, ariq, buloqlardan
Yugurishar bolalar
Chaqirtosh, so'qmoqlardan.
— Oyijon, mana suv, suv! —
Oyoqlari qontalash,
Hansirashar, oqar ter
Ko'zyosh bilan aralash.
Endi ayting bularni
Bo'larmi hech kechirib?
Onalarin farzandlar
Yuboribdi uchirib.
— Oyi, mana suv, faqat
Qaytaman, deb ayting siz.

Gunohkormiz, onasiz
Yasholmaymiz, qayting siz.
— Yo‘q, bolalar! — debdi qush, —
Daryo tomon uchaman.
O‘sha yerda suvni ham
To‘yib-to‘yib ichaman...
Kunlar o‘tar, bolalar
Chelaklarni to‘ldirib,
Kutmoqdalar onasin
Ko‘l bo‘yida mo‘ltirab.
Bu bir ertak, mayliga,
Qolsin xayol, tush bo‘lib,
Ammo hech ham onalar
Uchmasinlar qush bo‘lib.



Nima uchun bolalarning onasi qush bo‘lib uchib ketdi?



Rivoyat mazmunini og‘zaki hikoya qiling.



Abdurahmon Akbar

1962-yilda tug‘ilgan



Bolalar shoiri va tarjimon, Usmon Nosir mukofoti sovrindori Abdurahmon Akbar 1962-yili Toshkent viloyatining Niyozbosh qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning „Kichkintoy va paxtaoy“, „So‘zlovchi yomg‘ir“, „Ehtiyotkor toshbaqa“, „Yozning tug‘ilgan kuni“, „Kuylayotgan bog“, „O‘yingaroq bulutcha“ nomli kitoblari chop etilgan.

BEDANA QO'SHIG'I

„Bedananing uyi yo'q
Qayga borsa bitbildiq“.
Qiltuzoqqa ilinib,
Mana biz „uy“li bo'ldik.

Topgan qasrim misoli —
Quv ovchining kallasi —
Usti dag'al to'r parda,
Osti qovoq pallasi.

Don, suv, ushoq bor bunda,
Qorin tarang, doim to'q.
Bunda bor qanot qoqish,
Ammo parvoz qilish yo'q.

Sayrash, o'ylash, yig'lashga
Topilar bunda imkon.
Bor bunda dumaloq erk,
Shunga yarasha osmon.

„Bedananing uyi yo'q,
Qayga borsa bitbildiq“.
Qiltuzoqqa ilinib,
Mana biz „uy“li bo'ldik.

Sayramasam so'yishar,
Sayrasam og'rir jonim.
Ko'zim tikib tolmayman,
Endi senga, osmonim!



1. Bedana ovchining tuzog'iga ilinib, nimadan mahrum bo'ldi?

2. To'rqovoqdagi hayot bedanaga ma'qul bo'ldimi? Siz nima deb o'ylaysiz?



USHALMAGAN TILAK

S. G. Vayanskiydan

Subhi sodiq sovuq qotgan bola
Suruvini qirdan nariga
Asta-sekin haydab borarkan
Ko'zi tushdi go'zal pariga.

Qo'rqib ketdi sho'rlik daf'atan,
Bosolmadi titrog'in sira.
Qo'llaridan tushdi qamchisi
Yaqinlashgan payti sohira.

Har narsaga qodir malakning
Yuragini nedir yoqardi.
U shu tobda mushfiq bolaga
So'ngsiz mehr bilan boqardi.

„Kel, bolajon, cho'chima aslo,
Diqqat ila quloq sol gapga.
Dilda neki orzuying bo'lsa,
Sehrim bois chiqqay ro'yobga.

Balki senga boylik kerakdir?
Tortinmasdan aytaver, qani.
Uying oltin-kumushga to'lgay,
Faqat tilak qilsang bo'lgani.

Ehtimolki, shavkat istarsan?
Ishlaringning bersin rivojin.
Xo'p desang, bas, zumda boshingga
Qo'ndiraman shon-shuhrat tojin.

Nima derdim, juda soz, ma'qul,
Donolikni etsang ixtiyor.

Mayli aql sohibi bo'lgin,
Mayli bo'lgin ilmdan xabardor.

Balki ko'ngling moyil sevgiga?
Qo'y, o'zingni qiynama ortiq.
Rozi bo'lsang, bir go'zalyuzni
O'g'lon, senga aylagum tortiq..."

Sohiraning bu gaplaridan
Chehrasiga yana inib rang,
Umid yonib o'ksik dilida
Qo'ychivon so'z boshladi arang:

„Qo'lingizdan kelsa har ne ish
Yuragimdan quvsangiz g'amni —
Tiriltirib bersangiz menga
Tuproqqa bosh qo'ygan onamni..."

Ufq oqarib, atrof-o'ngirdan
Ko'lankalar yo'qolgan sari,
Ketib borar tobora uzoq,
Ketib borar besado pari.

Bola qolar parishon, dilgir
Ko'k yuzida suzar bulutlar.
Pari yig'lar, uning ko'z yoshi —
Shabnamlarga cho'milar o'tlar...



1. Qo'ychivon bola tong payti kimni uchratdi?
2. Bolaning barcha tilaklarini ro'yobga chiqara oladigan bu pari kim edi?
3. Bola undan nimani so'radi?
4. Nima uchun sehrgar pari bolaning tilagini bajara olmadi?





Dilshod Rajab
1964-yilda tugʻilgan



Isteʼdodli shoir Dilshod Rajabov 1964- yil Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida tugʻilgan.

Shoirning „Qorqiz sovgʻa keltirdi“, „Hazilkashlar davrasida“, „Otamning bogʻi“, „Alifbo“, „Sanoq“ kabi sheʼriy toʻplamlari chop etilgan.

SHAHARDAN XAT

Ali doʻstim, sogʻmisan,
Joyidami jon qishloq?
Hanuz tortib xayolim
Qilur meni lol qishloq.

Tong otishin qichqirib
Eʼlon qilar xoʻrozlar.
Qator-qator qaldirgʻoch —
Simdordagi dorbozlar.

Olov selin toʻsguvchi
Soyabondir sadalar.
Qaynagan shoʻx qumgʻonday
Vaqirlagan baqalar...

Yashil qinga tiqilgan
Qilichday oq teraklar.
Saxiy govmish sigirlar
Sut berguvchi chelaklab.

Bari-bari esimda
Qay birini aytayin.
(Oyim ko'nsalar men ham,
Eh, qishloqda yashardim!)

... Mendan so'rasang, rahmat,
Sog' yuribman ishqilib.
Betonkatak xonada
O'tiribman siqilib.

Chiqqan bilan ko'chaga
Nimani ham ko'rardim —
Dud purkagan moshinlar,
Tekis asfalt yo'llarni...

Yozdim senga bu xatni
Qishloqni xo'b sog'inib.
Kutayapman besabr
Yana ta'til chog'ini.



Shahar bilan qishloq hayotini solishtiring, ularning farqini ayting.



O'G'RINING QISMATI

(*Ertak*)

Juda qadim zamonda
Bir o'rmonzor tomonda
Jonivorlar — It, Zag'izg'on,
„Taq-taq“chi Qizilishton,
Chumoli, Mushuk-Baroq,
Bo'lishib do's-u inoq,
Mehnat qilarkan bari,
O'rtada topganlari...
Baroq tusharkan yo'lga,

Qaytarkan tishlab o'lja.
„Taq-taq“lab daraxt mo'rtin,
Qizilishton topar qurtin.
Mehnatsevar chumoli
Daladan tashir donni...
Bir kuni kelib Sichqon
Debdi: — Ruxsat et, Itjon,
Safingizga qo'shilay,
Men ham sizga do'st bo'lay!
Lekin juda zaifman,
Ravo ko'rsang agar san,
Og'ir ishdan ozod qil,
Men bo'layin qorovul.
Mol-mulklaring asrayin...
... Qorovul bo'ldi tayin.
Lekin ko'p vaqt o'tmasdan,
Zag'izg'onxon to'satdan
Allaqayoqqa donni
Tashiyotgan sichqonni
Ko'rib, hang-u mang bo'ldi,
G'azab-nafratga to'ldi.
Tez ortiga qaytdi-yu
Shohga xabar berdi u.
— Xo'sh, qani ayt, — dedi It, —
Senga tayyordir tobut.
Nega ombor o'marding,
Donni qayga ko'marding?!
O'zin his qilib g'alat,
Sichqon so'ylar qaltirab:
— Kechiring, ne bilibman,
Sal ochko'zlik qilibman.
Takrorlanmas endi hech...

— Bas qil, endi bo'ldi kech!
 Bizlar senga rahm etsak,
 Yaxshilik-chun pand yesak?!
 Qilgan ishing to'g'rimi?
 Bu muttaham o'g'rini
 Eng og'ir jazo bilan,
 Qiyvog'-u azob bilan,
 Chiqarmoq kerak safdan,
 Hoy, mushuk, gapir-chi, san!
 So'z boshladi Baroqvoy:
 — Chindan ahvol juda „voy“,
 Bu tekinxo'r kasofat,
 Qilgani-chun xiyonat
 Ko'pning haqqi — xirmonga,
 Buyuramiz zindonga.
 Ko'rmay o'tsin bir umr
 Quyosh-oydan zarra nur.
 Tor, qorong'u, zax zindon,
 Shu-da o'g'riga makon!..
 ... Endi sizga aytsam sir:
 O'tgan necha kun-u tun,
 Nurdan mahrum bo'lgan-chun,
 Sichqon ko'rmay qolibdi,
 Butkul ko'zdan qolibdi.
 Ana o'shandan buyon
 Nomi emish Ko'rsichqon.



1. Sichqon o'z do'stlarining haqqiga xiyonat qilib, to'g'ri ish qildimi?
2. Do'stlar uni qanday jazoladilar?





Aka-uka Grimmlar

(1785 — 1863)

(1786 — 1859)

BIR XURMACHA SHAVLA

(*Ertak*)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir qizcha yashar ekan.

Qizcha bir kuni o'rmonga maymunjon olib kelish uchun boribdi va u yerda bir kampirni uchratibdi.

— Salom, — debdi kampir qizchaga. — Menga rahm qilib, maymunjoningdan bersang-chil!

— Mang, buvi, — debdi qizcha.

Kampir maymunjonni yeb bo'lib:

— Sen menga maymunjon berding, men ham senga biron narsa sovg'a qilaman. Mana senga xurmacha, sen faqat shuni aytishing kerak:

Bir, ikki, uch,

Xurmachada shavla pish.

Shunda u shirin, mazali shavla pishira boshlaydi! Shundan so'ng aytasanki:

Bir, ikki, uch,

Pishirishdan kech.

Shundan so'ng xurmacha shavla pishirishdan to'xtaydi.

— Rahmat, buvi, — debdi qizcha va xurmachani olib, uyiga — onasining oldiga ketibdi.

Onasi bu xurmachani ko'rib juda suyunibdi. Mehnat qilmasdan hamma vaqt shirin va mazali shavla bo'lsa-yu, tag'in nega suyunmasin?

Bir vaqt qiz uydan qayoqqadir ketibdi. Onasi bo'lsa xurmachani o'z oldiga qo'yib:

Bir, ikki, uch,
Xurmachada shavla pish, —

debdi. Xurmacha shavla pishira boshlabdi. Ko'p shavla pishiribdi. Onasi to'yib-to'yib yebdi. Xurmacha esa shavlani hadeb pishiraveribdi.

Bir, ikki, uch,
Pishirishdan kech, —

deyishi kerak edi onasi. Lekin bu so'zni esidan chiqarib qo'ygani edi. Xurmacha hamon shavla pishiraveribdi. Uy ham shavlaga to'libdi, uy oldida ham shavla, tomida ham shavla, hatto ko'chalar ham shavlaga to'lib ketibdi, u hamon to'xtamay shavla pishiraveribdi. Onasi juda ham qo'rqib ketib, qizchasi huzuriga yugurib ketibdi. Lekin yo'lda issiq shavla daryo bo'lib oqqani uchun o'tish juda qiyin ekan. Yaxshiyam qizchasi uydan uzoqda emas ekan. Qizcha ko'chadagi voqeadan xabardor bo'lib, darrov uyga yuguribdi. Juda qiyinchilik bilan kelib, eshikning halqasidan ushlab ochibdi va:

Bir, ikki, uch,
Pishirishdan kech, —

deb qichqiribdi.

Shunda xurmacha shavla pishirishdan to'xtabdi.

Ammo xurmacha shunday ko'p shavla pishiribdiki, kimning qishloqdan shaharga borishiga to'g'ri kelgan bo'lsa, unga bu shavla shaharga yetguncha kifoya qilar ekan.

Hech kim bundan shikoyat qilmabdi. Chunki shavla juda shirin va mazali ekan.



Ertak mazmunini so'zlab bering va shu asosda o'zingiz xulosa chiqaring.



Ivan Andreyevich Krilov

(1789 — 1844)



QURBAQA VA CHUMOLI

(Masal)

Qadim bitta Qurbaqa
Qish kuni och qolibdi.
Ovqat topolmay juda
Oyoq-qo'li tolibdi.

Yurib-yurib bechora
Talay reja o'ylabdi.
Borib bir Chumoliga
Ahvolini so'ylabdi:

— Ey, do'stim Chumoliboy,
Uyingga bug'doy to'lgur,
Agar bo'lsang bemalol,
Qarzga ul-bul berib tur.



Ikki hissa oshirib
Qarzimni to'lay yozda.
Ochlikdan sillam qurib,
O'lib qolmay ayozda.

Rahmi kelib Chumoli
Beribdi picha ovqat.
Qurbaqaga keyin u
Debdi jindek maslahat:

— Og'ayni, senga bir gap:
Yozda ko'p qilmay „vaq-vaq“
Qish g'amini o'ylasang,
Ro'zg'oring bo'ladi g'arq.

Uning maslahatini
Qurbaqa ma'qul debdi.
Chumolidan olganin
Ancha vaqt ayab yebdi.

Qish o'tib, o'tib bahor,
Poylagan yoz kelibdi.
Uning „vaq-vaqa“siga
Yoz rosa soz kelibdi.

Chumoli gapin tamom
Unutibdi Qurbaqa.
O'tkazibdi yozni ham
Qilaverib „vaq-vaqa“.

Chumoli-chi, yoz bo'yi
Qishligini g'amlabdi.
Qishga ovqat yig'ishni
Qurbaqa o'ylamabdi.

Qurbaqa shu holicha
Qishga kiribdi quruq.
Tashqari yozmas, ayoq,
Chiqsa, achitar sovuq.

Yeyolmasdan qish g'amin
Bo'libdi xo'p pushaymon.
Bermay Chumoli qarzin
Qurbaqa o'sal — hayron.

Yana o'tgan yilgiday
Maymum yig'lar holiga.
Qarang, tag'in uyalmay
Boribdi Chumoliga:

— O'rtiq, kechir bir safar,
To'lolmadim qarzimni,
Kel, kelar yoz to'larman,
Yana tingla arzimni.

Afsus, Chumoli endi
Tinglamabdi arzini.
Hatto xafa bo'lgandan
So'ramabdi qarzini.



Nima uchun Chumoli ikkinchi marta Qurbaqaning arzini tinglamabdi?



1. Masalning mazmunini o'z so'zingiz bilan aytib bering.



Aleksandr Sergeyevich Pushkin

(1799 — 1837)



BALIQCHI HAM BALIQ HAQIDA ERTAK

O'tgan chog'da dengiz bo'yida
Chol va kampir umr surgandi.
Yerto'lada — eski uyida
O'ttiz uch yil birga turgandi.
Chol to'r solib ovlarkan baliq,
Kampir esa yigirar urchuq.
Chol dengizga to'r soldi bir gal,
Baqa yaproq ilindi yolg'iz.

To'r solganda chol ikkinchi gal,
Ilindi-ku, dengiz o'landi.
To'r solganda chol uchinchi gal,
Chiqib keldi bir chavoq baliq,
Jo'n baliqmas, naq oltin baliq.
Oltin baliq xuddi odamday,
Tilga kirib, yolvorib qoldi,
„Qo'yib yubor dengizga, bobo,
Katta to'lov to'layman senga,
Ko'ngling ne tilasa, bergayman“.
Hayron bo'ldi chol, qo'rqib ketdi,
Rosa o'ttiz uch yil ovladi baliq,
Ammo baliq so'zlaganin u
Eshitmagan edi umrida.
Chol baliqni qo'yib yubordi,
Shunday dedi unga mehribon,
„Oltin baliq, tangri yor bo'lsin,
Kerak emas menga to'loving,
Mayli tushgil zangor dengizga,
Erkin-erkin o'ynab yuraver!“
Chol qaytdi-da kampir yoniga,
Aytdi shundoq qiziq mo'jiza:
„Tutib oldim bugun bir baliq,
Jo'n baliqmas, naq oltin baliq.
Baliq tilga kirib so'zladi,
Ko'p yalindi qo'yib yubor, deb,
O'z uyiga — yashil dengizga;
Katta to'lov to'layman, dedi,
Ne istasang berayin, dedi,
Men olgani botinolmadim,
Qo'yvordim zangor dengizga“.
Cholni qarg'ay boshladi kampir:

„Ey tentak chol, go‘l, devona chol!
Ololmabsan baliqdan to‘lov!
Hech bo‘lmasa bitta tog‘ora —
So‘rab olmaysanmi undan sen,
Tog‘oramiz teshik-ku, axir!“
Chol jo‘nadi zangor dengizga,
Mavj urmoqda dengiz qarasa,
Ham chaqirdi baliqni suvdan,
Baliq chiqib so‘radi undan:
„Nima kerak senga, chol bobo?“
Ta‘zim bilan javob berar chol:
„Podsho baliq, holimga achin,
Xo‘p urishdi kampirim meni.
Tinchlik bermas, qariding demas,
Kerak emish yangi tog‘ora,
Tog‘oramiz teshilgan, axir“.
Oltin baliq aytadi javob:
„Qayg‘urmagil, tangri yor bo‘lsin,
Borgil, yangi tog‘orang bo‘lur!“
Chol qaytsaki kampir yoniga,
Tog‘oralik bo‘libdi kampir.
Lekin urishdi kampir battarroq:
„Ey tentak chol, go‘l, devona chol!
Kir tog‘ora so‘rab oldingmi?
Kir tog‘ora mol bo‘larmidi?
Jo‘na, tentak, baliqqa borgin,
Ta‘zim qilu uy so‘rab olgin“.
Chol jo‘nadi zangor dengizga,
(Zangor dengiz loyqalangandi.)
Chaqirdi u baliqni suvdan,
Baliq chiqib so‘radi undan:
„Nima kerak senga, chol bobo?“

Ta'zim qilib, shunday dedi chol:
„Podsho baliq, holimga achin,
Meni kampir qarg'adi battar.
Tinchlik bermas, qariding demas,
Jag'i tinmas, uy so'rar nuqul“.
Oltin baliq aytadi javob,
„Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin.
Borgil, uy ham bo'ladi nasib!“

* * *

Yerto'lasini tomon qaytsa chol,
Yerto'ladan iz ham qolmabdi,
Mo'rilarini g'ishtdan, oqlangan,
Eman yog'ochidan yasalgan —
Darvozali bir uy turibdi,
Uy yonida mehmonxonasi bor.
Derazaning yonida esa
O'tiribdi kampir taltayib.
Qarg'amoqda cholni battarroq:
„Ey tentak chol, go'l, devona chol!
Kelib-kelib uy so'rabsan-da!
Jo'na darrov baliq yoniga,
Ta'zim qilgil unga sen tag'in,
Qora dehqon bo'lmayman ortiq,
Men begoyim bo'lish istayman!
Chol jo'nadi zangor dengizga,
(Dengiz notinch, to'lqin urmoqda.)
Chaqirdi u baliqni suvdan,
Baliq chiqib so'radi undan:
„Nima kerak senga, chol bobo?“
Ta'zim qilib, chol shunday dedi:
„Podsho baliq, holimga achin,
Kampirni jin urdi battarroq.“

Tinchlik bermas, qariding demas,
Qora dehqon bo'lmasmish ortiq
U begoyim bo'lish istarmish!"
Oltin baliq aytadi javob:
„Qayg'urma, bor, tangri yor bo'lsin“.

Chol qaytdi-ku kampir yoniga,
Nima ko'rar? Baland bir saroy;
Peshayvonda turar kampiri,
Suvsar po'stin uning egnida,
Boshida ham alvon dakana.
Qator-qator inju bo'ynida,
Qo'llarida oltin uzuklar,
Oyog'ida qirmizi etik.
Atrofida oqsoch xotinlar,
Qoq o'rtada kampir turardi...
Kampir tag'in mindi qahriga,
Baliq tomon yo'lladi cholni:
„Tez bor, ta'zim qilgil baliqqa;
Ortiq men begoyim bo'lmayman,
Podsho xotin bo'lish xohlayman“...
Chol dengizga qarab yo'l soldi,
(Zangor dengiz qora rang oldi.)
Chaqirdi u baliqni suvdan,
Baliq chiqib so'radi undan:
„Nima kerak senga, chol bobo?“
Ta'zim qilib, so'z aytadi chol:
„Podsho baliq, holimga achin,
Kampir tag'in boshladi g'avg'o.
Bo'lmas emish ortiq begoyim,
Bo'lar emish erkin malika!
Oltin baliq beradi javob:

„Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin,
Mayli, kampir bo'lar malika“.

Chol qaytdi tez kampir yoniga,
Qarasaki, shohona qasr,
Qasr to'rida ko'rinar kampir —
O'tirardi malika bo'lib.

Xizmatida beklar, amirlar,
Asl sharob quyib bermoqda
Ham malika quymoq yemoqda.
Atrofida talay yasovul,
Yelkalarda oyboltalari,
O'rab turar juda bahaybat.
Buni ko'rib, qo'rqib ketdi chol
Va so'z aytar yetti bukilib:
„Savlatli malika, salomalaykum!
Shoyad endi to'lgandir ko'ngling?“

* * *

O'tdi hafta ketidan hafta,
Kampir battar mindi qahriga.
Erin izlar, chopar yuborib,
Cholni topib keldilar axir.
Kampir shunday dedi choliga:
„Jo'na tag'in baliq yoniga,
Ta'zim qilib, o'tingil darrov.
Bo'lmagayman ortiq malika.
Dengiz shohi bo'lish istayman,
Dengiz-okeanda yashayman.
Xizmatimda tursin baliq ham,
Baliq bo'lsin menga xizmatkor“.

Botinolmas soʻz aytishga chol,
 Boʻla olmas kampir soʻzini.
 Tagʻin bordi zangor dengizga,
 Qora quyun koʻrar dengizda,
 Toʻlqinlar oʻshqirar gʻazabkor,
 Ham toʻlgʻanar, ham uvlar tinmay,
 Chol chaqirar baliqni suvdan:
 Baliq chiqib soʻradi undan:
 „Nima kerak senga, chol bobo?“
 Taʻzim qilib unga aytar chol:
 „Podsho baliq, holimga achin!
 Jonga tegdi laʼnati kampir,
 Ortiq boʻlmas emish malika,
 Dengiz shohi boʻlish istarmish
 Va dengizda yashash istarmish,
 Sen ham borarmishsan xizmatga,
 Boʻlarmishsan unga xizmatkor“.
 Bitta soʻz ham demadi baliq,
 Suvga urib dumini faqat,
 Gʻoyib boʻldi dengiz tagiga.
 Javob kutib turdi shoʻrlik chol,
 Uzoq qolib dengiz boʻyida.
 Qaytdi kampir yoniga axir,
 Koʻrsa, tagʻin oʻsha yertoʻla,
 Boʻsagʻada oʻtirar kampir,
 Qarshisida — teshik togʻora.




1. Baliqchi cholning toʻriga qanday baliq ilindi?
2. Kampir baliqdan toʻlov evaziga nimalar soʻradi?



Ochkoʻzlik qanday oqibatlarga olib kelishini ertak mazmuni asosida soʻzlab bering.





Hans Xristian Andersen

(1805 — 1875)

IRKIT O'RDAKCHA

Shaharning chekkasi juda ajoyib edi! Yoz fasli. Dalalarda javdar oltinday tovlanar, suli ko'kargan, pichanlar o'rilib, g'aram qilingan edi; ko'm-ko'k o'tloqda uzunoyoq laylak yurar, misrchasiga kakillardi — bu tilni u o'z onasidan o'rganib olgan. Dalalar va o'tloqlarning narigi tomonida katta-katta o'rmonlar cho'zilib ketgan, o'rmonlarda esa chuqur ko'llar bor. Shahar chekkasi haqiqatan juda ko'ngilli edi.

Suv to'la chuqur ariqlar bilan o'ralgan eski qo'rg'onni quyosh nurlari yoritib turar edi; uying devoridan to suv bo'yigacha qariqiz o'tlari o'sgan; ular shunday katta ediki, kichkina bola uning yirik barglari tagida tikka tursa ham, ko'rinmas edi. Qariqiz o'tlari o'sgan yer qalin o'rmon kabi xilvat va vahimali edi. Xuddi shu yerda bir o'rdak tuxum bosib yotardi. Uning tuxum bosib yotganiga ancha vaqt bo'lgan edi, oxiri joniga tegdi. Buning ustiga, o'rtoqlari uni ko'rish uchun kamdan kam kelardilar, o'rdaklarga qariqiz o'tlari ichida yotishdan ko'ra, ariqchada suzib yurish ko'proq yoqar edi-da.

Nihoyat, tuxum po'choqlari qisirlab yorildi.

— Chip, chip! — deb tuxum ichidan chiyillagan tovushlar eshitildi. Hamma tuxum sariqlari jonlanib, boshchalarini chiqardilar.

— G'aq, g'aq! — dedi o'rdak.

O'rdak bolalari tuxum po'chog'idan zo'rg'a chiqishdi, ular qariqiz o'tlarining yashil barglariga tikilishar va atrofni tomosha qilishardi. Onasi ularga xalaqit bermadi: yam-yashil o'tloqqa qarasang, bahring ochiladi.

— Eha, yorug' dunyo judayam katta ekan-ku, — deyishdi o'rdakchalar.

Bo'lmasa-chi, ular endi juda keng joyda yashardilar-da.

— Siz butun dunyo — shu yerning o'zi deb o'ylayotgandirsiz? — dedi onasi. — Unday emas! Dunyo uzoqdan uzoqqa, u tomonga, bog' orqasiga qarab cho'zilib ketgan, biroq men umrimda u yerlarga borgan emasman!.. Xo'sh, qani hammalaringiz shu yerdamisiz? — O'rdak o'rnidan turdi.

— Oh, yo'q, hammasi emas. Hammadan katta tuxum hali butun! Qachon bu tuxum ochilar ekan! Tez ochilmasa, yorilib ketaman-ku!

Keyin u yana tuxumni bosib yotadi.

— Xo'sh, ishlar qalay? — deb so'radi ko'rgani kelgan qari o'rdak.

— Manavi katta tuxumni ochishning uddasidan chiqolmay turibman, — dedi yosh o'rdak. — Hali-gacha yorilmay turibdi. Lekin mana bu jo'jalaringa bir qara-chi! Qanday chiroyli! Hammasi ham xuddi otasining o'zi.

— Qani, menga yorilmayotgan tuxumni ko'rsat, — dedi qari o'rdak. — Menga ishonaver, bu kurkaning tuxumi! Senga o'xshab men ham qo'lga tushgan edim. Bu tovuq bolalari bilan ko'p mashaqqat tortganman. Men ularni hech suvga tushirolmagan edim. Ko'p marta g'aq-g'aq, dedim, sira kelishmadi. Qani, yana bir marta qaray-chi! Ha, xuddi o'shaning o'zi! Kurkaning tuxumi! Uni tashlab ketaver, bor, bolalaringni suzishga o'rgat!

— Yo'q, yaxshisi biroz bosib yotay, — dedi yosh o'rdak. — Qirqiga chidadim, qirq biriga ham chiday.

— Yotsang, yotaver! — dedi-da, qari o'rdak ketib qoldi.

Nihoyat katta tuxum yorildi.

— Chip-chip! — deb chiyilladi jo'ja va tuxumdan umbaloq oshib tushdi.

U shunchalik katta, xunuk — irkit ediki, asti qo'yavering! O'rdak uni boshidan oyog'igacha qarab chiqdi.

— Haddan tashqari katta! — dedi u. — Boshqalarga bir tuki ham o'xshamaydi! Chindan ham bu kurka bolasi emasmikan? Har holda zo'rlab bo'lsa ham, suvga tushiraman!

Ertasi kuni havo juda yaxshi bo'lib, yashil qariqiz o'tlarni quyosh nuri qopladi.

O'rdak o'z bola-chaqalari bilan ariqqa qarab ketdi. Sho'lp etdi-da, suvga tushdi.

* * *

— G'aq, g'aq! — deb qichqirdi u, shunda o'rdakchalar ham birin-ketin suvga sho'pillashib

tushishdi. Eng avval suv ularni ko'mib yubordi, lekin ular shu ondayoq sho'ng'ib chiqib, olg'a qarab tuppa-tuzuk suzib ketishdi. Ularning panjalari to'xtamay qimirlardi. Hatto irkit, kulrang o'rdakcha ham boshqalardan qolishmadi.

— Bu qanday qilib kurka bolasi bo'lsin? — dedi o'rdak, — Panjalari bilan biram yaxshi suzadiki! Qaddini to'g'ri tutadi! Yo'q, bu o'zimning o'g'lim. Unga sinchiklab qarasang, uncha yomon emas, qani tez-tez yuringlar orqamdan! Men hozir sizni jamoaga qo'shaman — biz qushchalar hovlisiga boramiz. Faqat sizni biron narsa bosib olmasligi uchun menga yaqinroq yuring, mushuklardan ham ehtiyot bo'ling!..

— Bolalaring juda ajoyib ekan! — dedi qizil lattali qari o'rdak. — O'sha bitta xunugidan boshqa hammasi ham juda yaxshi bolalar ... Bunisi o'xshamayapti! Uni boshqacha qilib tuzatsa yaxshi bo'lar edi.

— Buning hech iloji yo'q, janobi oliylari, — deb javob berdi ona o'rdak. — U chiroyli bo'lmasa ham, sofdil. Boshqalardan yaxshiroq suzadi. Keyin boshqa o'rdakchalarga baravar bo'lib, kichrayib ketar, deb o'ylayman. Tuxum ichida uzoq vaqt turib qoldi, shuning uchun ham ko'ngildagidek bo'lmadi, — u xunuk o'rdakchanning orqasini qashib, patlarini siladi. — Bundan tashqari, u erkak o'rdak, erkak o'rdakka esa chiroy uncha kerak emas. U kuchli va pishiq bo'lib o'sadi-da, o'z kunini ko'rib ketadi, deb o'ylayman.

— Qolgan o'rdakchalar juda, juda ham ko'rkam! — dedi qari o'rdak. — Qani, o'z uyingizdagiday

yayrang, agar ilonbaliqning boshini topsangiz, mayli, menga keltiring.

Birinchi kun mana shunday o'tdi, keyingi kunlar undan ham battar bo'ldi. Bechora o'rdakchani hamma quvardi. Hatto akalari va opalari ham unga jahil bilan: „Mushuk yeb ketsa ham mayli edi, sen taviyani!“ — deyishar, onasi bo'lsa: „Ko'zimga ko'rinma!“ — der edi. O'rdaklar uni tishlab olar, tovuqlar cho'qir, qushlarga ovqat beruvchi qiz esa uni oyog'i bilan turtar edi.

Oxirida o'rdakcha chiday olmasdan, hovlidan yugurib o'tdi-da, to'siqdan oshib tushdi. Qushchalar qo'rqqanlaridan butalar orasidan pirillab uchib ketishdi.

* * *

Ertalab yovvoyi o'rdaklar inlaridan ko'tarilib, yangi o'rtoqlarini ko'rdilar.

— Bu qanaqa qush? — deb so'radilar ular.

O'rdakcha har tarafga o'girilib, bilganicha egilib salom berdi.

— Sen juda irkit, juda taviya ekansan-ku! — deyishdi yovvoyi o'rdakchalar. — Aytganday, xunukliging bilan ishimiz yo'q, lekin biz bilan qarindosh bo'lishni xayol qila ko'rma.

Bechora o'rdakcha! Bu gap uning xayoliga ham kelmagan edi! Faqat qamishzor ichida o'tirib, botqoqning suvidan ichishga ruxsat bersalar bo'lgani.

Shu ahvolda u botqoqlikda ikki kun o'tirib qoldi. Uchinchi kuni u yerga yovvoyi g'oz bolalari uchib kelishdi. Ular yaqindagina tuxumni yorib chiqqanliklari uchun o'zlarini juda katta tutardilar.

— Quloq sol, birodar! — dedilar ular. — Sen shunchalik kulgili tug'ilgansanki, to'g'risini aytganda, bu jihatdan bizga yoqib tushding. Biz bilan birga yurishni va erkin qush bo'lishni istaysanmi? Bu yerdan sal narida yana boshqa botqoqlik bor, unda juda yoqimtoy yovvoyi g'ozcha-qizlar yashaydi. Ular „g'aq-g'aq“ deb so'zlashni biladilar. Sen bu aft-basharang bilan ehtimol ular orasida katta muvaffaqiyat qozonarsan.

Birdan botqoqlik ustida: „Paq! paq!“ etib o'q tovushi eshitilib qoldi, har ikkala g'oz qamish ichiga jonsiz bo'lib yiqildi: suv qondan qizarib ketdi. „Paq!“ degan ovoz yana eshitildi va qamishlar ichidan bir to'da yovvoyi g'ozlar ko'tarildi. Otishma qizib ketdi. Ovchilar botqoqlikni har tomondan o'rab, ba'zilar botqoqlik ustiga osilib tushgan daraxt shoxlariga chiqib olgan edilar. Ko'k tutun daraxtlarni bulut singari qopladi va suv ustiga tarqaldi. Shalop-shalop etib botqoqlik ichida ovchi itlar yugurishdi. Qamish va g'umaylar u yoqdan bu yoqqa silkinardi. Bechora o'rdakcha qo'rqqanidan na o'lik va na tirik — chalajon edi. U boshini qanotlari ostiga yashirmoqchi bo'lgan edi, birdaniga ro'parasida tillari osilgan va ko'zlari yongan ovchi it paydo bo'lib qoldi. U o'rdakchaga qaradi, o'tkir tishlarini g'ijirlatdi, keyin shalop-shalop etib nari ketdi.

„Tegmadi, — deb o'yladi o'rdakcha va nafasini rostlab oldi, — men shunday taviya va irkit ekanmanki, hatto meni yegani itning ham ko'ngli tortmaydi!“ — U qamishlar ichiga yashirindi; uning boshi ustidan o'qlar to'xtovsiz o'tib turar edi. Otish faqat kechqurun tindi, ammo o'rdakcha

qo'rqqanidan yana anchagina qimirlamay o'tirdi. Bir necha soat o'tdi. Oxiri u turishga jur'at etdi, avaylab atrofga ko'z tashladi, keyin dala va o'tloq bo'ylab qochishga tutindi. Shunday qattiq shamol turdiki, o'rdakcha zo'rg'a yurardi. Kech kirganda, u bir yog'och uychaga yetib bordi. Uycha shu qadar eskirgan ediki, oz bo'lmasa qulab ketar edi, lekin qaysi yoniga qulashini bilmay o'zini tutib turardi. Shamol o'rdakchani uchirib ketay-ketay deganda, u dumini yerga tirab olardi.

Uychada o'z mushugi va tovug'i bilan bir kampir yashar edi. U mushukni „o'g'lim“ deb atardi; mushuk belini bukishni, miyovlashni va hatto junidan uchqunlar chiqarishni bilardi, ammo buning uchun uning junini teskari silash lozim edi. Tovuqning bo'lsa oyoqlari kichkina va kalta edi, shuning uchun ham uni „kalta oyoq“ deb atardilar: u tuxum qilar, kampir esa uni o'z qizidek sevar edi.

Ertalab ular yot o'rdakchani ko'rib qoldilar; mushuk miyovlay, tovuq esa qaqillay boshladi.

— Nima ekan u? — deb so'radi kampir.

U atrofni qarab chiqdi-da, bir burchakda turgan o'rdakchani ko'rdi, biroq shapko'rligidan uni o'z uyidan adashgan semiz o'rdak deb o'yladi.

— Mana buni qara-ya! — dedi kampir. — Agar bu o'rdak erkak bo'lmasa, menda o'rdak tuxumlari ham bo'lardi. Qani sinab ko'raylik-chi! Bilamiz-qo'yamiz!

O'rdakchani sinashga kirishdilar. Uch hafta o'tdi, tuxumdan darak bo'lmadi...

Birdan toza va sof havo uning esiga tushib qoldi. U chidolmadi va bu haqda tovuqqa aytdi.

— Senga nima bo'ldi? — deb so'radi tovuq.
— Hech ish qilmay bekor yurasan, shuning uchun miyangga har qanday bo'lmag'ur fikrlar kelaveradi. Tuxum qil yoki miyovla — jinniliging yozilib ketadi!

— Oh, suzishdan yoqimli narsa yo'q! — dedi o'rdakcha. — Kalla tashlab sho'ng'isang, maza qilasan!

— Shu ham maza bo'ldi-yu, — dedi tovuq. Judayam aqldan ozibsan! Mushukdan so'ra-chi, unga suzish bilan sho'ng'ish yoqarmikan? U men taniganlarning hammasidan aqlli. O'zim haqimda so'zlab ham o'tirmayman. So'ngra bizning posh-shaxonimiz kampirdan so'ra, dunyoda undan aqlliroq odam bo'lmasa kerak. U kalla tashlab, juda chuqurga sho'ng'ishni sevadimi-yo'qmi senga aytib beradi...

— Bu yerdan boshimni olib ketish yaxshiroq, deb o'ylayman! — dedi o'rdakcha.

— Ketsang ketaver! — dedi tovuq.

O'rdakcha chiqib ketdi. U suzdi, kalla tashlab sho'ng'idi, ammo atrofdagilar avvalgiday undan kulishar, irkit va badbashara deb atashardi.

* * *

Kuz keldi. Daraxtlarning barglari sarg'aydi. Shamol ularni uzib, osmonga uchirardi! Kunlar juda sovuq bo'lib qoldi. Qalin qora bulutlar yerga ba'zan do'l, ba'zan qor separdi, to'siq ustiga qo'ngan qarg'a sovuqdan tomog'ini qirib qag'illardi.

Huvv! Shunday sovuqni eslasang, badaning uvushib ketadi! Bechora o'rdakchaga juda qiyin bo'ldi.

Bir kuni kechga yaqin, quyosh botmasdan, o'rmon orqasidan kattakon, ajoyib qushlar galasi ko'tarildi. Bunday chiroyli qushlarni o'rdakcha hech ko'rmagan edi — ular bo'yinlari uzun, o'zlari qor kabi oppoq qushlar edi. Oqqushlar allaqanday g'alati ovozlari chiqarib, kattakon qanotlarini silkitdilar va sovuq dalalardan issiq o'lkalarga, ko'k dengizning narigi tomonlariga qarab uchdilar. Ular osmoni falakka ko'tarildilar, buni ko'rgan bechora o'rdakchani g'alati vahima bosdi... Anchagacha o'ziga kelolmadi. O'rdakcha bu qushlarning otlarini va qayerga uchib ketayotganlarini bilmas edi. Biroq o'rdakcha bu qushlarni shunday sevib qoldiki, u yorug' dunyoda hech kimni bunchalik sevmagan edi. U qushlarning chiroyiga hasad qilmadi; ular kabi chiroyli bo'lish uning xayoliga ham kelmadi.

Qish juda-juda sovuq keldi. Suvning muzlab qolmasligi uchun o'rdakcha dam olmasdan suzishi lozim edi, ammo u suzayotgan suv kun sari torayib borardi. Sovuqning zo'ridan hattoki muz chatnab ketdi. O'rdakcha panjalarini tipirlatib to'xtovsiz suzardi. Eng oxiri u butunlay holdan ketdi, uzala tushib yotdi va muzga yopishib yaxlab qoldi.

Ertasiga ertalab bu yerdan o'tib borayotgan dehqon yaxlab yotgan o'rdakchani ko'rdi: u yog'och kovushi bilan yaxni sindirdi va chala o'lik bo'lib qolgan o'rdakchani uyiga, xotini oldiga olib ketdi. O'rdakchani isitdilar.

Bolalar o'rdakcha bilan o'ynashmoqchi bo'ldilar, ammo unga bolalar qiynamoqchi bo'lganday tuyuldi.

U qo'rqqanidan qochib, sut chelagiga tushib ketdi. Sut chayqalib to'kildi. Beka qichqirib, qo'llarini silkidi, o'rdakcha esa uyning u boshidan bu boshiga qarab chopaverdi, uchib borib, yog' idishga tushib ketdi. Undan un solingan bochkaga tushib, unlarni to'zitdi. Voy! U nimaga o'xshab qoldi-ya!

Beka uni otashkurak olib quvdi, bolalar chopisharkan, bir-birlarining oyoqlariga turtinib yiqilishdi, chiyillashib kulishdi. Yaxshiyamki eshik ochiq ekan — o'rdakcha eshikdan chiqib butalar orasiga kirib, qorga o'zini otdi va uzoq vaqt hushsiz yotib qoldi.

Quyosh nurlari bilan yerni yana isita boshlaganda, u botqoqlikda, qamishlar orasida yurardi. To'rg'aylar sayradilar. Bahor qaytib kelgan edi...

Birdan qalin qamishzordan uchta oppoq oqqush suzib chiqdi. Ular shunday yengil va tekis suzishardiki, go'yo suv ustida sirg'anganday tuyulardi. O'rdakcha bu ko'rkam qushlarni darrov tanidi, uning yuragini qandaydir g'am bosdi.

— Shu ulug'vor qushlar oldiga uchib boraman. Shunday irkit bo'la turib, ular oldiga yaqinlashishga botinganim uchun ehtimol ular meni o'lgunimcha cho'qishar...

— Meni o'ldiring! — dedi bechora o'rdakcha va boshini egib turdi. Birdan oyna kabi tiniq suvda o'z aksini ko'rib qoldi. U endi irkit, kulrang o'rdakcha emas, balki qorday oppoq oqqush edi!

Endi o'rdakcha shuncha azob-uqubatlar tortganiga hatto xursand edi. U azoblarga uzoq vaqt chidash berdi, shuning uchun ham o'z baxti va o'zini o'ragan barcha go'zalliklarning qadriga astoydil yeta olardi. Katta oqqushlar esa uning atrofida suzar va uni tumshuqlari bilan silab-siypardilar. Shu vaqt bog'ga kichkina bolalar chopib kirishdi. Ular oqqushlarga non va don tashlay boshladilar. Eng kichkina bola:

— Yangi oqqush uchib kelibdi! Yangi oqqush uchib kelibdi! — deb qichqirib yubordi.

Qolgan bolalar ham:

— Yangi oqqush, yangi oqqush! — deb qichqirdilar.

Bolalar sevinganlaridan chapak chalib, sakrab o'ynar edilar. Keyin ota-onalari oldiga chopib ketdilar, so'ngra yana suvga non va pirojniy tashlay boshladilar. Bolalar ham, kattalar ham:

— Hammasidan ham yangi oqqush yaxshi! U juda chiroyli va yosh ekan, — deyishdi.

Eski oqqushlar uning oldida boshlarini egib turardilar.

U bo'lsa juda uyalib ketdi, boshini qanoti ostiga yashirdi, buning sababini o'zi ham bilmasdi. U hamma masxaralagan va quvlagan vaqtlarni esladi. Endi-chi, endi hamma uni go'zal oqqushlar o'rtasida eng go'zali deydi.

Siren daraxti o'zining xushbo'y shoxlarini suvga, oqqush ustiga egar, quyosh esa juda iliq, yorug' nur sochar... Mana, uning qanotlari shapilladi, kelishgan bo'yi tiklandi, ko'krigidan esa shod qichqiriq eshitildi:

— Irkit o'rdakchaligimda men bunday baxtni xayolingma ham keltirmagan edim!



1. Irkit o'rdakcha nima uchun o'z to'dasidan ajralib, boshqa yoqqa ketib qoldi?
2. U qanday voqealarni boshidan kechirdi?
3. O'rdakcha hikoya oxirida nima uchun o'zini baxtli his qildi?



Ertak asosida haqiqiy baxtga erishish uchun nima qilish kerakligi haqida so'zlab bering.



Nikolay Alekseyevich Nekrasov

(1821 — 1877)



MAZAY BOBO VA QUYONLAR

I

Avgust edi, „Malix Vejey“ yonida man
Qush ovlardim kekxa Mazay bobo bilan.

Birdan jimlik cho'kdi qishloq atrofida,
Quyosh qoldi qora bulut girdobida.

Uncha qalin emas edi bulut qurg'ur,
Lekin birdan sharros quyib berdi yomg'ir.

Shaffof yomg'ir to'g'ri yerga sanchilardi,
Yerni boplab po'lat simdek qamchilardi.

Ikki ovchi shiddat bilan tez yugurdik,
Qandaydir bir ombor ichra qochib kirdik.

Mazay bobo hikoyasin boshlay, keling,
Ey, bolalar, diqqat bilan quloq bering:

Har yoz uning mehmoniman hafta bo'yi,
Menga juda yoqib qolgan uning uyi.

Ajoyib bir hovlisi bor, behad dilbar,
Uni bezab turar turli pechak gullar.

Mana shunday tovlanadi bo'lib ko'rkam,
Baland ustun uzra turar uylari ham.

(Bu yerlarni suv bosadi bahor chog'i,
Ariqlari to'lib oqar bahor chog'i,
Venetsiyadek suvda suzar qishlog'i.)

Shuning uchun Mazay bobo, gapning chini:
Jon-tani bilan sevar qishlog'ini.

Farzandi yo'q; nevarasi bilan yashar,
Zerikadi, yakkaboshlik qilib asar.

Qirq tosh kelar bir shahar bor, unga har choq,
Hech gap emas to'g'ri o'rmon kesib chiqmoq.

— Ko'cha emas, — deydi Mazay bobo, — o'rmon,
Unda yashar faqatgina qush-u hayvon.

— Xo'sh, jinlar-chi? Ishonmayman, butun kecha,
Uchratmadim kutib, hatto azongacha.

Lekin yaxshi: savatingni to'ldirasan,
Ham o'zingni malinaga to'ydirasan...

Unda qushlar sayraydiki, ehe... qanday,
Bamisoli bo'sh bog'chada kuylaganday.

O'tkir muguz, olov ko'zli boyo'g'li ham —
„Hu-hu“laydi; tunga borib topar barham.

Lekin o'rmon tunda juda vahimador,
Man o'zim ham qo'rqqan edim, bo'lay iqror.

Shunday jimlik, zo'r vahima kasb etadi,
Bo'm-bo'sh qolgan butxonani eslatadi.

Qarag'aylar g'ijirlaydi unda-bunda,
Qari kampir alahlagan kabi tunda.

Mazay ovsiz o'tkazmaydi bir kunni ham,
Yashasa-chi endi tinib-tinchib beg'am.

Ko'zi xira tortib qolgan, otar arang,
Ba'zan tegmas nishonga, bo'lar garang.

Achchiqlanmas Mazay bobo asti bundan,
Lekin quyon qochib qolar ildam undan.

Nixtab qolar barmog'ini u tomonga
„Hap sanimi, to'xtab turgin!“ der quyonga.

Mashhur qishloq ovchilari tasvir etgan,
Ertaklarga uning boshi to'lib ketgan.

Sindirgandan beri miltiq tepkisini,
Olib yurar Kuzya gugurt qutisini.

U karqurni chaqiradi aldab-suldab,
O'qdoniga gugurt joylab otar boplab!

Hayvonlarni ov qiluvchi boshqa birov,
Bir dekchada olib yurar ko'mir-olov.

Nega kerak, olov desam, ovda senga
Qo'l sovuqqa chidamaydi, deydi, menga.

Agar quyon ko'rib qolsam o'sha zamon,
Qurolimni qo'yib asta chekka tomon.

Isitaman qo'llarimni, deydi qurg'ur,
So'ng ularni ag'daraman, deydi bir-bir...

Men Mazaydan hikoyalar ko'p eshitdim,
Sizlar uchun shundan faqat birin bitdim.

II

Ko'p ezmalik qildi Mazay bu omborda:
„Bizning kichik, pastqamgina botqoqzorda
Besh hissa ko'p bo'lar edi turli qushlar;
Tutmasalar edi ularni to'r bilan,
Ezmasalar edi ularni zo'r bilan;
Quyonglar-chi? Ularga ham... rahming kelar,
Erta bahor toshqinlari boshlangan dam
Yuzlab halok bo'ladilar buningsiz ham.
Yo'q! Bu ham kam! Quvlab qolar qishloqilar,
Tutar, ular changal bilan ham g'arq qilar.
Noinsoflar ...

Men bir kuni o'tin uchun

Qayiq bilan borar edim.

Talay-talay quyon oqib kelar edi.

Yo'l-yo'lakay —

Tutib bordim. Suv ko'payib borar butun.

Bir orolcha ko'rib qoldim. Unda ancha

Quyongchalar turishardi uymalashib.

Bechoralar sari daryo har daqiqa

Ko'tarilib borar edi haddan oshib.

Suv bosishga qolgan jinday joy, atigi

Bir gaz eni, bir sarjinja uzunligi...

Yetib bordim, qocholmasdan quloqlarin —

Silkitardi, tutib oldim shunda birin.

Buyruq berdim hammasiga: hatlang, qani!
Hatlardilar quyonlarim, yaxshi juda!

Joylashdi-yu, quyonchalar komandasi,
Orolcha ham qolib ketdi suv ostida.
„Ko’rdingizmi?“ dedim, „Men-la hazillashmang!
Chiqmang Mazay aytganidan ham adashmang!“
Daryoda jim suzar edik, suhbat shirin,
To’ngak uzra ko’rib qoldim tag’in birin.
Og’irligi tushmas, deya solib oldim,
Endi eshkak urganimda olg’a tomon.
Ko’rib qoldim: butazorda ona quyon,
Arang turar, boy xotinday seppa-semiz,
Kamzulimga o’rab oldim uni ham tez.
Dir-dir titrar... Kun ham endi botib borar.
Mana, sershox bir yog’och ham oqib borar.
Unda suzib ketishardi oqim tomon.
Jonlarini saqlab qolgan o’nta quyon.
Qimirlamay yotar biri, biri tikka,
Ham o’tirib olgan biri, quloq dikka.
„Sizlarni ham olardim-u, esiz-esiz,
G’arq etasiz qayig’imni, siz shubhasiz!“
Ammo yana rahmim kelib, unga asta
Yaqinlashdim, eshkak bilan bir nafasda.
Yog’ochning bir chakkasidan ilib oldim,
Ularni ham o’z orqamdan sudrab qoldim...
Shu ahvolda men qishloqdan o’tgan zamon,
Xotin-xalaj, bolalar ham bo’ldi hayron:
„Qarang! Nima qilyapti Mazay bobo!“
„Mayli qarang, tega ko’rmang bizga ammo“.
Seldan daryo oqimiga chiqib oldim,
Haddan ziyod sevinishdi quyonlarim.

Koʻrdilarki, qirgʻoq qalin chakalakzor,
Oʻrmon, ekin maydonlari — hammasi bor.
Tik turishar, chor tarafga nazar otib,
Haydashga yoʻl bermaydilar, lopillatib,
Soʻng yogʻochni qirgʻoqqa men yopishtirdim.
Dedim: „Sizni xudoyimga topishtirdim...“
Shataloq otib
Ketdi quyonlar.
Men dedim: „Hay-hay,
Kichkina jonlar!
Qoching, ehtiyot
Boʻlingiz oʻzga.
Lekin qish vaqti
Koʻrinmang koʻzga!
Nishonga olib
Oʻq uzaman „Paq!“
Va alla boʻlib
Yiqilasiz naq!“
Zum oʻtmasdan tarqalishib ketdi har yon,
Qayiqchamda qoldi faqat toʻrtta quyon.
Darmonlari ketgan suvda ivib qolib,
Olib keldim tezdin uyga qopga solib.
Bemorlarim yaxshi uxlab turishdilar,
Isib, uxlab hamda rosa toʻyishdilar,
Soʻng ularni olib chiqdim oʻtloq tomon,
Qop ichidan qoqib tashlab va shu zamon,
Hay-hayladim, quvib qoldim, tarqaldilar,
Xoʻp shataloq otib koʻzdan yoʻqoldilar.
Men ularga tagʻin qayta-qayta aytdim:
„Qishda aslo koʻrinmangiz“, — deb kuzatdim.
Men ularni ovlamayman bahor, yoz ham,
Terilari aynib ketar, manfaat kam!..“



1. Mazay bobo qayerda yashar ekan?
2. U ovchilarga nimalar haqida so'zlab berdi?
3. Mazay bobo nima uchun quyonlarni qo'yib yubordi, siz uni qanday inson deb o'ylaysiz?



She'r mazmunini og'zaki so'zlab bering.



Lev Nikolayevich Tolstoy

(1828 — 1910)



G'AROYIB DON

Bolalar jarlik yonidagi yo'ldan kattaligi tuxumdek keladigan g'alati bir narsani topib olishdi. Ko'chadan o'tib ketayotgan yo'lovchi buni ko'rib, bir miriga sotib oldi va shaharga eltib, podshoga noyob narsa sifatida pulladi.

Podsho donolarni yig'ib, bu narsa tuxummi yoki g'alla donimi — aniqlashga farmon berdi. Donolar qancha bosh qotirishsa ham javob topisholmadi. Haligi narsa derazada yotgan edi, tovuq kirib qoldi va uni cho'qilab, teshib qo'ydi: hamma u narsaning g'alla doni ekanligini ko'rdi. Donolar podsho huzuriga borib:

— Bu javdar doni ekan, — deyishdi.

Podsho hayratlandi. Donolarga bu donning qachon, qayerda dunyoga kelganini bilinglar, deb amr qildi. Donolar rosa bosh qotirishdi, kitoblarni

titkilab ko'rishdi, lekin javob topisholmadi. Podsho huzuriga kelib, shunday deyishdi:

— Javob topolmadik. Kitoblarimizda bu haqda hech nima bitilmagan ekan. Dehqonlardan so'rab ko'rish kerak, qariyalardan birontasi bunaqa g'allani qachon, qayerda ekilganini eshitishmaganmikin?

Podsho odam yuborib, huzurimga qari dehqonni olib kelinglar, deb buyurdi. Qariyani topib, podshoning qarorgohiga olib keldilar. Qarib-qartaygan, tishlari to'kilib ado bo'lgan chol arang ikki tayoqqa suyanib kirib keldi.

Podsho unga donni ko'rsatgan edi, qariya ilg'ay olmadi; arang yarmini ko'rgan bo'ldi, yarmini paypaslab bildi. Podsho so'roqlay boshladi:

— Boboy, mabodo sen bunaqa g'alla doni qayerda unganini bilmaysanmi? Yoki o'zing biron joyda shunaqa don sotib olmaganmiding?

Cholning qulog'i og'ir edi, arang eshitib, arang tushundi. Javob bermoqqa tutindi.

— Yo'q, — dedi u, — umrimda bunaqa g'alla ekmaganman, mazasini ham totmaganman, sotib ham olmaganman. G'alla sotib olganimizda doni xuddi hozirgidaqa mayda bo'lardi. Darvoqe, buni otamdan so'rab ko'rish kerak: ehtimol u bunaqa g'alla doni qayerda unganini bilar.

Cholning otasini topib, podsho huzuriga keltirishdi. Bitta tayoqqa suyangan qari chol kirib keldi. Podsho unga g'alla donini ko'rsatdi. Chol hali ko'zdan qolmagan, donni yaxshi ko'rar edi. Podsho uni so'roqlay boshladi:

— Mabodo sen mana bu g'alla doni qayerda unganini bilmaysanmi, boboy? O'zing tomorqangda ekmaganmisan? Yoki sotib olmaganmisan?

Chol bu gaplarni o'g'lidan ham yaxshiroq eshitdi.

— Yo'q, — dedi u, — umrimda bunaqa g'allani ekmaganman, ta'mini ham totmaganman. Sotib ham olmaganman, chunki bizning zamonimizda pul degan narsa hali urf bo'lmagandi. Har kim o'z aravasini o'zi tortar, kimga yetishmay qolsa, topganini baham ko'rishardi. Bunaqa g'alla qayerda bino bo'lganini bilmayman. Bizning g'allamiz hozirgi donlardan yirikroq va bo'liqroq edi, ammo bunaqasini ko'rmaganman. Otamning aytishicha, uning zamonida g'alla hozirgiga qaraganda bo'liqroq, yanchimi ham mo'lroq bo'larkan. Otamning o'zidan so'rash kerak.

Podsho cholning otasiga chopar yubordi. Boboyni topib, qarorgohga keltirishdi. Qariya tayoqsiz yurib keldi, qadam olishi yengil, ko'zlari yorqin, qulog'i yaxshi eshitar, so'zlari ham burro edi. Podsho cholga donni ko'rsatdi. Qariya donni aylantirib tomosha qildi.

— Anchadan buyon qadimiy g'allani ko'rmagan edim, — dedi chol. U donni tishlab, ta'mini totgan bo'ldi.

— Xuddi o'zi, — dedi u.

— Qani, menga ayt-chi, otaxon, tomorqangda shunaqa donni ekmaganmiding? Yoki odamlardan sotib olmaganmisan?

Chol kulimsirab qo'ydi:

— Bizning zamonamizda bironta mo'min banda non oldi-sottisini xayoliga keltirmasdi. Pulning nimaligini bilishmasdi: hammaning noni butun, qorni to'q edi. Bunaqa g'alla hamma yerda unib-o'sardi. O'zim ham xuddi shunaqa g'alla ekib,

yanchganman, hosilini olganman. Uning orqasidan bir umr tirikchilik qilib, odamlarni boqqanman.

Podsho so'roqladi:



— Qani ayt-chi, otaxon, bunaqa g'allani qayerda ekkanding? Tomorqang qaysi tomonda edi?


— Xudoning buyurgan yeri mening tomorqam edi. Shudgor qilgan yerimda ekin-tikin qilaverardim. Seniki-meniki degan gap yo'q edi. O'zimniki deganda, faqat o'z mehnatimizni tushunardik.

— Unda menga mana bu ikki jumboqni tushuntirib bersang, — dedi podsho. — Nega ilgari shunaqa g'alla yetishtirilgan-u, endi uning urug'i qurib ketdi? Nega nevarang ikki tayoqda, o'g'ling bitta tayoqda, o'zing esa shundoqqina yengilchaqqon kirib kelding? Ko'zlaring yorqin, tishlaring hali ham mustahkam, tillaring burro va xushmuomala. Mana shu ikkala jumboqni menga tushuntirib bersang, otaxon!

Qariya shunday javob berdi:

— Bu ikki jumboqning asosiy sababi shundaki, odamlar halol mehnat bilan tirikchilik qilishdan bo'yin tovlay boshladilar, birovning mulkiga ko'z olaytirishga tutindilar. Ilgari tirikchilik bo'lakcha edi: boriga qanoat qilib, birovnikiga ko'z olaytirishmasdi.

-  1. Siz g'aroyib donning urug'i yo'qolib ketganining sababi nimada deb o'ylaysiz?
-  2. Nima uchun buva o'g'li va nabirasidan ko'ra sog'lom, baquvvat ekan?
3. Halol mehnat, boriga qanoat qilish nimaga olib boradi?

 Ushbu hikoya asosida rasm chizing.



Vsevolod Mixaylovich Garshin

(1833 — 1888)



SAYOHATCHI QURBAQA

I

Bor ekan, yo'q ekan, dunyoda bir vaqir-vuqur qurbaqa bo'lgan ekan. U botqoqlikda o'tirib olib, chivin va pashshalarni tutib yeyar ekan. Ko'klamda o'z o'rtoqlari bilan birga qattiq-qattiq vaqirlar ekan. Agar bordi-yu, laylak yeb qo'ymasa, butun umrini juda soz o'tkazgan bo'lar ekan. Lekin bir kuni shunday hodisa yuz berib qolibdi.

Qurbaqa suvdan chiqib turgan bir to'ngak ustiga o'tirib, iliq yomg'ir tomchilari ostida rohatlanmoqda edi.

„Voy bugungi havo biram chiroyli, dunyoda yashash shunaqa ham lazzatliki...“ — deb o'ylardi u. Yomg'ir uning ola va yaltiroq badaniga shivalar, tomchilari sevintirar, unga shu qadar lazzat berar, yoqar ediki, vaqirlab yuborishdan o'zini zo'rg'a tutib turardi. Biroq baxtiga hozir kuz fasli ekanligi, qurbaqalarning kuzda vaqirlamasligi birdan esiga tushib qoldi, vaqirlash uchun ko'klam bor-ku, axir.

Shu sababli jimgina o'tirib, lazzatini suraverdi.

II

Birdaniga osmondan o'qtin-o'qtin chiyillagan ingichka ovoz eshitilib qoldi. O'rdaklarning mana shunday bir jinsi bor: ular uchayotganlarida qanotlari havoni kesib, xuddi ashula aytgandek, to'g'rirog'i, hushtak chalayotgandek ovoz chiqaradi... Shu gal o'rdaklar osmonda katta bir doira yasab, boyagi qurbaqa yashaydigan botqoqlikka qo'ndilar.

O'rdaklardan biri:

— G'ag'-g'ag', ovqat-povqat yeb olish kerak, hali yo'limiz uzoq, — dedi.

Qurbaqa bu so'zni eshitib, darrov bekinib oldi. U o'rdaklarning bunday, yo'g'on ovozini eshitmagan edi. U har ehtimolga qarshi, sho'ng'ib to'ngakning ostiga kirib ketdi. Lekin biroz o'ylanib turgach, yapaloq boshini suvdan chiqarib turishga qaror qildi. O'rdaklarning qayoqqa uchib ketishlarini bilishga juda qiziqdi.

— G'ag'-g'ag', — dedi o'rdaklardan biri. — Sovuq tushib qolyapti! Tezroq janubga ketaylik! Tezroq!

Bu taklifni hamma o'rdaklar ma'qullab g'ag'alashdi. Shu vaqt qurbaqa botirlanib:

— O'rdak xonimlar, sizlar uchib bormoqchi bo'lgan janub qanday joy? Sizlarni bezovta qilganim uchun kechiringlar, — dedi.

O'rdaklar birdan qurbaqani qurshab oldilar. Dastlab ularda qurbaqani yeb qo'yish istagi tug'ildi. Lekin uning kattaligini va tomoqdan o'tmasligini nazarda tutib, yeyishdan aynidilar. Shundan keyin hammalari birdan qanot qoqib qichqira boshladilar:

— Janub biram yaxshi, biram issiq! U yerdagi iliq botqoqliklarda chuvalchanglar shunday ko'pki, asti qo'yaverasan...

— Meni ham birga olib ketinglar!

— Ajab qiziq gapirding-da, — dedi o'rdak, — seni qanday qilib opketamiz! Qanoting yo'q-ku!

— Qachon uchmoqchisiz? — deb so'radi qurbaqa.

— Tezdan, tezdan! — deb hamma o'rdaklar g'ag'illashdi.

— G'ag'-g'ag'-g'ag'! Bu yer sovuq. Janubga ketamiz, janubga!

— Besh daqiqa o'ylab olay, ruxsat beringlar, — dedi qurbaqa, — hozir qaytib kelaman. Albatta, biron yaxshiroq narsa o'ylab kelsam kerak.



1. Qurbaqa qayerda o'tirib xayol surdi?

2. U o'rdaklar bilan qanday tanishdi?

3. O'rdaklar qayoqqa ketishayotgan edi? Ular qurbaqaga janub haqida nimalarni gapirib berishdi?



Bo'linga mos sarlavha toping va ertakning davomini o'qing.



III

Shundan so'ng qurbaqa o'tirgan to'ngagidan shalop etib suvga sho'ng'idi va boshqa narsalar o'ylashimga xalal bermasin deb, balchiq orasiga ko'milib oldi. Besh daqiqa o'tdi. O'rdaklar endigina uchamiz deb turgan edilarki, birdan boyagi to'ngak oldida qurbaqaning tumshug'i suvdan ko'rinib qoldi. U juda shod, xurram edi.

— O'yladim, topdim! — dedi qurbaqa. — Sizlardan ikkitangiz bir novdani olasizlar-da, biringiz

bir uchidan, ikkinchingiz bir uchidan tishlaysiz. Men bo'lsam novdaning qoq o'rtasidan tishlab olaman. Sizlar meni ko'tarib uchasizlar. Men ham osilib boraveraman. Faqat shart shuki, g'ag'illamanglar, men ham osilib vaqillamayman. Shunday qilsak, hamma ish joyida bo'ladi.

Bu ish garchi yengil ko'rinsa ham, butun bir qurbaqani juda uzoq chaqirimgacha og'iz ochmay, jimgina ko'tarib borish oson bo'lmasa-da, qurbaqaning aqli o'rdaklarni hayron qilib qo'ydi. Shuning uchun ular qurbaqani olib borishga yakdillik bilan rozi bo'ldilar.

Pishiqlik bir novda topdilar. O'rdaklardan ikkitasi novdaning ikki uchidan tishlab oldi. Qurbaqa esa novdaning qoq o'rtasidan tishladi. Shunday qilib, hammalari osmonga ko'tarildilar. O'rdaklar juda baland uchganlaridan qurbaqaning yuragi yorilib ketayozdi. Bundan tashqari, o'rdaklar tekis uchmasdan, hadeb novdani siltar edilar. Bechora qurbaqa havoda qo'g'irchoqdek osilib tipirchilar va og'zidan novdani chiqarib yuborib, yerga paqillab tushishdan qo'rqib, joni boricha novdani qattiq tishlab borar edi. Shunday bo'lsa ham, tezda bu ahvolga ko'nikib qoldi va hatto u yoq-bu yoqqa ham qaraydigan bo'ldi. Pastda dalalar, yaylovlar, daryolar va tog'lar ko'rinardi, lekin qurbaqa bularni yaxshi ko'rolmas edi. Chunki novdaga osilib ketayotganidan, yuqorigagina qaray olardi, xolos. Shunday bo'lsa ham, oz-moz ko'rib, shu ko'rganlariga ovunib va kerilib borardi.

„Xo'p ajoyib narsani o'ylab topdim-da“, deb ko'nglidan o'tkazardi qurbaqa.

Ularning orqasidan uchayotgan boshqa o'rdaklar qurbaqani hay-haylashib maqtashardi:

— Qurbaqamizning kallasi hayron qoladigan darajada aqlga to'la ekan-da. Hatto o'rdaklar ichida ham bunda qangisi kam topiladi, — der edilar.

Qurbaqa ularning maqtoviga minnatdorchilik bildirishdan o'zini zo'rg'a tutdi. Lekin og'zini ochishi bilanoq shunday qo'rqinchli balandlikdan tushib ketishini eslab, jag'larini mahkamroq jipslashtirdi va sabr qilishga jazm qildi. U shu taxlitda bir kun salanglab uchdi. Uni ko'tarib borayotgan o'rdaklar uchib ketayotib, chaqqonlik bilan almashinib olardilar. Bu juda qo'rqinchli edi: qurbaqa qo'rqqa-nidan bir necha bor vaqillab yuborishiga sal qoldi, biroq qo'rqmaslik kerak edi. U o'zini tetik tutdi.

Kechqurun bu ulfatlar bir botqoqlikda tunadilar. Saharlab o'rdaklar qurbaqani olib, tag'in yo'lga tushdilar. O'rdaklar bug'doy o'rilgan dalalar, yaproqlari sarg'aya boshlagan daraxtzorlar va xirmonlar bilan to'liq qishloqlar ustidan uchib o'tdilar. U yerda odamlarning ovozi va javdar yanchadigan to'qmoq tovushlari eshitilib turardi. Odamlar o'rdaklar galasiga qarar, undagi allaqanday g'alati bir narsani payqab, qo'llari bilan ko'rsatardilar. Qurbaqa ham pastroq uchishni xohlar, o'zini ko'rsatgisi va o'zi haqidagi gap-so'zlarni eshitgisi kelardi.



1. Qurbaqa janubga uchish uchun qanday chora o'ylab topdi?

2. O'rdaklar qurbaqa haqida nima deyishdi?



3. Qurbaqa osmonda uchayotganida nimalar to'g'risida o'yladi?



VI

Navbatdagi dam olishda qurbaqa:

— Bunchalik baland uchmasak bo'lmaydimi! Agar ko'nglim behuzur bo'lib qolsa, qo'qqisdan yiqilib ketishdan qo'rqaman, — dedi.

Shunda rahmdil o'rdaklar past uchishga va'da berdilar. Darvoqe, ertasiga shunchalik past uchishdiki, yerdagi odamlarning ovozlari ham eshitilib turdi:

— Uni qaranglar, uni qaranglar! O'rdaklar qurbagani opketishyapti, — deb bir qishloqda bolalar qichqirdilar.

Qurbaqa buni eshitishi bilanoq yuragi o'ynab ketdi.

— Uni qaranglar, uni qaranglar! Ajoyib! — deb ikkinchi qishloqda kattalar qichqirdilar.

„Buni o'rdaklar emas, balki men o'ylab chiqarganimni bilarmikanlar“, deb o'ylandi qurbaqa.

— Uni qaranglar, uni qaranglar, — deb yana bir qishloqdagi odamlar qichqirishdi. — Shunaqa ham ajoyib narsa bo'ladimi? Buni kim o'ylab chiqardi ekan!

Shu yerga kelganda qurbaqaning sabri tugadi va har qanday ehtiyotni unutib, kuchining boricha qichqirib yubordi:

— Men o'ylab chiqardim! Men! Men!

Shunday dedi-yu, charxpalak bo'lib, yerga tusha boshladi. O'rdaklardan biri o'z yo'ldoshini uchib ketayotib ushlab olmoqchi bo'lgan edi, ulgura olmadi. Qurbaqa to'rtala oyog'ini tipirchilatib, yerga o'qday tusha boshladi. Lekin o'rdaklar juda

tez uchib ketayotganliklari uchun qurbaqani qutqara olmadilar. Baxtni qarangi, uning tushgan joyi qishloq chetidagi loyqa bir hovuz ekan.

V

U apil-tapil suvdan sho'ng'ib chiqib, kuchining boricha qichqirdi:

— Men bildim! Men o'ylab topdim!

Lekin atrofda hech kim yo'q edi. Kutilmagan shapir-shupirdan qo'rqqan shu yerlik qurbaqalar suvga yashirinib olishdi. Ular suvdan chiqqanda notanish qurbaqani ko'rib hayron bo'lishdi.

U boshdan o'tgan ajoyib voqeani aytib berdi. Butun umr o'ylab, nihoyat o'rdaklar bilan sayohat qilishning ajoyib yangi usulini topganligini, o'ziga qarashli o'rdaklar borligini, o'sha o'rdaklar uni xohlagan joyga olib borishlarini, go'zal janubda bo'lganligini, u yerning juda yaxshi ekanini, u yerda iliq va ajoyib botqoqliklar ko'pligini, chivin, pashsha va boshqa hasharotlarning juda ham ko'p ekanini aytib berdi.

— Endi qanday yashashlaringizni bilish va o'z ko'zim bilan ko'rish uchun sizlarning oldingizga keldim. Bahorgacha shu yerda qolaman. O'rdaklarimga javob berib yubordim. Ular bahorda kelib meni olib ketishadi, — dedi.

Lekin o'rdaklar qaytib kelmadilar. Ular qurbaqa yerga tushib, chilparchin bo'lgan bo'lsa kerak, deb juda achingan edilar.



1. Qurbaqa o'rdaklarga nima uchun pastlab uchishni taklif qildi?

2. Qurbaqa nima uchun yerga tushib ketdi?
3. U hovuzdagi qurbaqalarga nimalar deb maqtandi?



1. Bo'limga sarlavha topib, qayta hikoya qiling.
2. Hikoya mazmuni asosida qisqacha bayon yozing.



Jozef Redyard Kipling

(1863 — 1936)



MAUGLI

MAUGLINING BIRODARLARI

Ma'lum urf-odatlariga asoslangan Changalzor qonuniga ko'ra hayvonlar bolalarini ovga o'rgatayotganlaridagina odam o'ldirishga ijozat beriladi. Lekin shunda ham hayvonlar podasi yoki galasi ov qilmaydigan joyda odam zotini o'lja qilishga ruxsat beriladi. Odam ovlangandan keyin sal kun o'tmasdanoq, bu yerlarda qanchadan qancha qurol-yarog'li, fil mingan oq tanlilar, qo'llariga mis ushlagan va o'q-yoylari shay qilib qo'yilgan hindlar paydo bo'ladi. U holda changalzordagilarning holiga voy. Hayvonlar orasidagi rivoyatga ko'ra, odam barcha jonli maxluqlar orasida eng nozik va ojiz maxluq bo'lganligi tufayli, unga tajovuz qilish haqiqiy ovchining sha'niga yarashmaydi. Yana o'sha rivoyatlarga ko'ra, shubhasiz, bu haq

gap bo'lsa kerak, odamxo'rlarning vaqt o'tishi bilan tuki to'kilib, barcha tishlari tushib ketar emish.

Irillash tobora kuchayib, nihoyat sapchishga hozirlangan yo'lbarsning gulduros „A-a-a“lagan na'rasiga aylandi.

Oradan sal o'tmay, yo'lbarsning uvullashidan ko'ra Sherxonning ingrashiga o'xshash ovoz eshitildi.

— U o'ljasini tutolmadi, — dedi Ona Bo'ri. — Nega bunday bo'ldi?

G'ordan bir necha qadam nariga chopib borgan Ota Bo'ri chakalakzor orasida to'lg'anayotgan Sherxonning alamzada irillashini eshitib qoldi.

— U xomkalla panjalarini kuydirib olibdi. O'tinchining gulxanida nima bor edi senga, ahmoq, — dedi po'ng'illab Ota Bo'ri. — Taboqi ham u bilan birga.

— Kimdir tog'ga o'rmalab chiqyapti, — dedi shivirlab Ona Bo'ri. — Tayyorlanib tur!

Chakalakzordagi butalar astagina shitirlagan ham ediki, Ota Bo'ri orqa oyoqlariga tiralib o'tirib, sapchishga hozirlandi. Agar shu holatni kuzatib turgan bo'lsangiz bormi, dunyodagi eng hayratli manzaraning guvohi bo'lardingiz: Ota Bo'ri nima-ning ustiga sapchiyotganini ham bilmay, to'satdan olg'a tashlandi-yu, to'rt-besh fut balandlikdan yana sapchigan joyiga qaytib o'tirib qoldi.

— Odam! — deya irilladi u. — Qara! Odam bolasi! — Ularning shunday ro'parasida pastakkina butani ushlab, qorachadan kelgan, endigina atak-chechak qilishni o'rgangan, qip-yalang'och,

jajjigina, do'mboqqina bolakay iljaygancha turardi. Bo'ri uyasida, yana tun paytida bunday jajji bolakayning paydo bo'lishi hech qachon ko'rilma-gan hodisa edi. U Ota Bo'ring ko'zlariga tikilib qaradi va kulib yubordi.

— Odam bolasi shunaqa bo'ladimi? — deb so'radi Ona Bo'ri. — Ularni hech qachon ko'rmagan edim. Qani, bu yoqqa olib kel-chi.

Bolalarini tishlab yurishga odatlangan, zarur bo'lib qolganda tuxumni ham darz ketkazmay tishlay oladigan bo'ri, go'dakning yelkasidan avaylab tishlab, bolalari orasiga keltirib qo'ydi. Go'dakning yelkasida tishning izi ham ko'rinmadi.

— Voy kichkinaligini! Qip-yalang'och-u, hech narsadan cho'chimaydi-ya, — dedi mehribonlik bilan Ona Bo'ri (bolakay esa bo'ri bolalari orasiga suqulib, issiqqina joyga talpinardi). — Voy tavba! U bolalarimga qo'shilib emyapti! Ana, odam bolasi qanday bo'lar ekan! Bo'ri bolalari orasida odam bolasi ham bo'lishi qaysi bir urg'ochi bo'riga nasib bo'lgan, axir!

— Men bunday hodisa qadimda ham bo'lganini eshitganman. Ammo bizning zamonda va ayniqsa, To'damizda shunday hodisa bo'lganini eslolmay-man, — dedi Ota Bo'ri. — Hali sochi ham yo'q. Uni bir turtib o'ldirib qo'yish hech gap emas. Qara, qo'rqmay tikilib turibdi-ya!

G'or og'ziga tushib turgan oy nurini allanarsa to'sib qo'ydi. Sherxonning bahaybat boshi bilan yelkasi uyani to'sdi. Uning orqasidan Taboqining:

— Janob, janob! Bola xuddi shu uyaga kirib ketdi, — deya chiyillagan ovozi eshitildi.



— Janob Sherxonning qadamlariga hasanot!
— dedi ko'zlaridan g'azab chaqnab turgan Ota Bo'ri. — Qanday xizmat bilan keldilar?

— O'ljamni beringlar! Odam bolasi shu yerga kirib ketdi, — dedi Sherxon. — Bolaning otanasi qochib qoldi. Hoziroq uni menga berasanlar.

Sherxon endi alamiga chidamay quturayotgandi. Ammo g'orga kirish yo'li yo'lbarsga torlik qiladi. Ota Bo'ri buni juda yaxshi bilardi. Hatto u hozir turgan yerining o'zidayoq, na yelkasini, na panjalari qimirlata olardi.

— Bo'rilar — erkin qabila, — dedi Ota Bo'ri. — Ular har bir uchragan ola-bula odamxo'rlarga emas, balki To'da Yetakchisiga itoat qiladilar. Odam bolasi bizning ixtiyorimizda. Xohlasak o'zimiz ham o'ldiraveramiz.

— „Xohlasak, xohlasak!“ Nima qilishlaring bilan ishim yo'q. Buni men — Sherxon aytyapman! — yo'lbarsning na'rasi g'or ichini gulduros sadoga to'ldirib yubordi. Ona Bo'ri emizib turgan bolalarini o'zidan chetlatib, olg'a tashlandi. Uning zulmat ichida ikki ko'kimtir ko'zlari Sherxonning o't chaqnab turgan ko'zlari bilan to'qnashdi.

— Javobni esa men — Raksha (iblis)dan eshit. Hoy Langri, shuni yaxshi bilib olginki, odam bolasi menga tegishli va mening bag'rimda qoladi! Uni hech kimsa o'ldirolmaydi. To'da qayerda bo'lsa, bola ham shu yerda bo'ladi, u bilan birga yashaydi va ov qiladi! Hoy go'daklar kushandasi, baliqxo'r va qurbaqalar jallodi, o'zingga ehtiyot bo'l, vaqt kelib, bu go'dak sening boshingni yesa ajab emas! Yaxshilikcha bu yerdan qorangni o'chir,

changalzorning yovuz maxluqi! Yo'qsa u dunyoga to'rt oyog'ing bilan oqsoqlanib ketasan! Yo'qol bu yerdan, changalzorning kuyindi maxluqi...

— Har qanday it ham o'z uyida ovozinig boricha akillaydi! Ko'ramiz, odam zotidan bo'lgan asrandi haqida To'da ahli nima derkin! Hoy uzundum muttahamlar, shuni bilib qo'yingki, go'dak mening o'ljam, ertami-kechmi, axir bir kun uni yeyishim turgan gap! — deb irilladi.

Ona Bo'ri hansirab, bolalari yoniga cho'zildi. Ota Bo'ri unga qat'iy dedi:

— Sherxonning gapida jon bor: go'dakni To'da ahliga ko'rsatmoq shart. Ha, aytgancha, sen uni olib qolmoqchimisan, Onasi?

— Olib qolmoqchimisan emish! — dedi ensasi qotib Ona Bo'ri. — O'zing o'ylab ko'rsang-chi, qop-qorong'i tunda, qip-yalang'och go'dakning yolg'iz o'zi bu yerga kelishdan cho'chimadi-ku, axir! Qara, qara, bolalarimdan birini chetga turtib, o'rniga kirib olishga ham ulgurdi, Oqsoq jallod bo'lsa go'dakni o'ldirib, Vayngangga qochib qolardi. Qilg'ilikni u qilardi-yu, balosiga biz qolardik. Odamlar esa yo'qolgan go'dakning xunini bizdan olib, tinch uyamizni vayron qilishardi. Uni olib qolmoqchimisan emish! Ha, men uni o'z bag'rimda qoldiraman. Tinchgina orom olaqol, qurbaqacham — Maugluginam. Ha, men seni Maugli — qurbaqacha deb erkalayman. Sherxon sening payingda bo'lganidek, bir kuni kelib, sen ham Sherxonning izidan tushib ov qilasan!

— Ammo To'da ahli nima derkin? — dedi Ota Bo'ri. — Changalzor qonunida aytilishicha, oila

koʻrgan har bir boʻri oʻz Toʻdasidan ayrilib chiqishi mumkin. Ammo boʻri bolalari oʻsib-ulgʻaygach, ularni har oyda bir marta, oy toʻlishgan paytda oʻtkaziladigan Toʻda Kengashiga olib kelib, oʻzga boʻrilarga koʻrsatishi zarur. Shundan soʻng boʻri bolasi oʻzining dastlabki ov oʻljasi — bugʻuni oʻldirmaguncha istagan joyida shataloq otib yuraveradi. Shu orada katta boʻrilarning birortasi ham boʻri bolasini oʻldirolmaydi. Agar shunday qotil topilgudek boʻlsa, uning jazosi oʻlim. Bunday fikr qilib koʻrsang, haqiqatdan shunday boʻlishi lozimligini tasdiqlaysan.

* * *

Boʻri bolalari ulgʻayib, bemalol chopqillaydigan boʻlgach, Toʻda kengashga yigʻiladigan kunlarning birida Ota Boʻri bolalari, Maugli va Ona Boʻrini Kengash qoyasiga boshlab bordi. Bu yuzlab boʻrilar yashiringan katta-katta xarsang toshlar bilan qoplangan tepalik edi. Qoyada esa kuchli va chaqqonligi uchun butun Toʻdaning yetakchisi etib saylangan soʻqqabosh kulrang boʻri choʻzilib yotardi. Kengashda hech kim miq etmasdi. Ota-onalari davra qurib oʻtirgan maydonda boʻri bolalari umbaloq oshib oʻynashardi. Katta boʻrilardan baʼzi birlari dam-badam shoshilmay oʻrinlaridan turib, u yoki bu boʻri bolasining oldiga kelib, uning basharasiga uzoq tikilib qarab, soʻng yana joyiga qaytib kelib oʻtirardi. Baʼzan esa Ona Boʻrilar, tagʻin kattalar nazar-eʼtiboridan chetda qolmasaydi, degan

mulohazaga borib, o'z bolalarini oy yog'dusi tushib turgan yerga itarib chiqarishardi.

— Hoy bo'rilar, ogoh bo'ling, qonun Sizlarga ayon, buni unutmang! — deya o'z qoyasidan turib bong urdi Akela. Uning so'zini ilib olgan mehribon Ona Bo'rilar ham:

— Hoy bo'rilar, ehtiyot bo'ling, yaxshilab mulohaza yuriting! — deb chuvullashdi.

Nihoyat, navbati kelgach, Ota Bo'ri qurbaqacha —Mauglini davra o'rtasiga itarib chiqarar ekan, Ona Bo'ri sergaklanib, hurpaydi, Maugli yerga o'tirib olib qiqirlab kuldi-da, oy nurida yaltirab ko'ringan mayda toshlarni o'ynay boshladi.

Shu orada Akela oldingi oyoqlariga qo'ygan boshini biron marta ham ko'tarmadi, faqat:

— Hoy bo'rilar, ogoh bo'ling! — deb dambadam takrorladi.

Qoya ortidan Sherxonning bo'g'iq irillashi eshiltildi:

— Go'dak menga tegishli! Uni menga qaytaring! Erkin xaloyiqqa odamzodning nima zarurati bor?

Akela bo'lsa o'zini eshitmaganga oldi. U faqat:

— Hoy bo'rilar, ogoh bo'ling! Nega endi Erkin xaloyiq begonalar gapiga quloq solishi kerak ekan? Yaxshilab o'ylab ko'ring! — deya xitob qildi.

Bo'rilar bo'g'iq uvullashdi. Faqat to'rt yashar bo'rilardan biri Akelaning gapiga javoban Sherxonning:

— Erkin xaloyiqqa odamzodning nima keragi bor? — degan savolini takrorladi.

Changalzor qonuniga ko'ra, odamzodni To'daga qabul qilish-qilmaslik masalasida tortishuv boshlangudek bo'lsa, masalaning ijobiy hal qilinishi uchun To'dadagilardan, hech bo'lmaganda ikkita bo'ri uni yoqlab gapirishi shart. Ammo ota-ona bu masalada lom-mim deb og'iz ocholmaydi.

— Bu go'dakni kim yoqlaydi? — dedi Akela.
— Erkin xaloyiq orasidan kim gapirmoqchi?

Hech kimdan sado chiqmadi. Agar ish janjalga borib taqaladigan bo'lsa, bu o'zi uchun hayotmamot bo'lishini yaxshi anglagan Ona Bo'ri kurashga hozirlandi.

Shu payt orqa oyoqlarida tik turib olgan hayvonning do'rillagan ovozi eshitildi. Bu tanbal keksa ayiq Balu edi. Balu bo'ri bolalarini changalzor qununlariga o'rgatar, faqatgina yong'oq, asal va ildizlar bilan ovqatlanganligi tufayli ko'ngli qayerni tusasa, shu yerda sang'ib yurardi. Shuning uchun ham unga o'zga hayvon jinsidan bo'lishiga qaramay To'da Kengashida qatnashish huquqi berilgandi.

— Odamzod farzandi? Xo'sh, nima bo'libdi, — dedi Balu, — men go'dakni yoqlayman. Hech kimga uning zarari tegmaydi. So'zamol bo'lmasamda, gapning lo'ndasini aytaman-qo'yaman. U to'dada yuraversin. Kelinglar, boshqa bo'ri bolalari qatori go'dakni ham bag'rimizga olaylik. Unga ta'lim-tarbiya berishni o'z zimmamga olaman.

— Yana kimdir so'zlashi kerak, — dedi Akela.
— Bolalarimizning tarbiyachisi Balu o'z mulohaza-

sini aytdi. Undan boshqa yana kim so'zlamochi?

Davra o'rtasida qora soya paydo bo'ldi. Bu terisi tim qora qoplon Bagira edi, ammo uning tim qora terisida oq nurlar oy yog'dusida qora selonga chizilgan oq hoshiyalardek yaltirab turardi. Taboqidek ayyorligi, yovvoyi qo'tosdek jasurligi, yarador fildek dovyurakligi bilan butun junglida dong'i ketgan Bagiraning so'zini ikki qilishga hech kimning yuragi dov bermasdi. Lekin uning tovushi daraxtdan chak-chak tomib turgan yovvoyi asaldek muloyim, terisi esa momiqday yumshoq edi.

— Hoy Akela, Erkin xaloyiq, siz ham eshiting, — deya miyovladi Bagira, — aslida sizning yig'iningizda gap aytishga mening haqqim yo'q-ku-ya, ammo Changalzor qonunida aytilishicha, mabodo To'da orasida go'dakning hayot-mamoti ustida tortishuv boshlansa, tovon to'lab, uning hayotini saqlab qolish mumkin. Lekin bu tovonni to'lashga kimning haqqi bor-u, kimniki yo'qligi to'g'risida qonunda lom-mim deyilmagan. Gapim to'g'rimi?

— Shunday! Shunday! — deb qichqirishdi har doim qorinlari ovqatga to'ymaydigan yosh bo'rilar. — Bagiraning gapida jon bor! Go'dakning joni uchun tovon olish — ayni muddao! Qonunda ham xuddi shunday deyilgan.

— Bu yerda gapirish huquqiga ega bo'lmasam-da, ruxsatlaringiz bilan bir-ikki og'iz so'z aytsam.

— Gapirsang-chi, axir! — deb shang'illadi yigirmatacha ovoz birdaniga.

— Murg'akkina go'dakni o'ldirish nomus. Bundan tashqari, bola ulg'aygach sizlar uchun ajoyib ovunchoq bo'ladi. Balu go'dak foydasiga bir necha

og'iz gapirdi. Agar sizlar qonunga ko'ra, odam bolasini To'daga qabul qilishga rozilik bersangiz, men ham tovon sifatida bu yerdan yarim milcha narida hozirgina bo'g'izlangan semiz qo'tosni in'om etaman. Qalay, masalani shu tarzda hal etish u qadar qiyin bo'lmasa kerak?..



1. Nima uchun odam bolasini to'dada olib qolishdi?
2. Qaysi hayvon bolaning to'dada bo'lishini xohlamadi?



Maugli ertagi haqida o'z taassurotlaringizni yozing, ertak asosida rasm chizing.



Yonas Avijyus

(1922-yilda tug'ilgan)



SOZANDA CHIGIRTKA

(Ertak)

O'rmon fuqarolarining orasida chigirtkadan shod-xurram yashaydigani topilmaydi. U kun bo'yi o'tlarning ustida o'ynab, g'ijjagini chalib yuradi. Shu sozandaligi uchun hamma uni yaxshi ko'radi, butun dunyoni axtarsang, bunday sozandani topa olmasan, deb u bilan faxrlanishadi.

— Chigirtka, hoy chigirtka, — deb chaqiradi yovvoyi asalarilar. — Bir kuy chalib, o'ynab bergin. Quvonib-quvonib asal tashiylik.

Sozanda chigirtka asalarilar uya qurgan kovak yoniga chiqib, boshqa ixlosmandlari chaqirguncha g'ijjak chalib, o'ynab beradi.

— Chigirtka, hoy chigirtka, — deb chaqiradi o'rgimchak. — Asalarilarni quvontirganing yetar. Ular ko'pchilik: sensiz ham bir-birini quvontirave-rishadi. Men yolg'izman, ustiga-ustak, qariman. Kuy chalmasang, to'ringa pashsha tushmayapti.

Sozanda chigirtka o'rgimchak to'r to'qigan butaga sakrab o'tib, to boshqa muxlislari chaqir-maguncha kuy chalib, o'ynab beradi.

Sozanda chigirtkaning hayoti shu tarzda daraxt-dan daraxtga, butadan butaga sayohat qilish bilan o'taveradi. Uning sehrli kuyi qayerda chalinsa, o'sha yerda shod-xurramlik boshlanadi. Janjallar tugaydi, arazlashishga, yovlashishga, gina-kuduratga barham beriladi. Hamma bir-biriga mehr qo'yib, apoq-chapoq, bahamjihat bo'lib, qishga tayyorlanadi, ish qizigandan qizib ketadi.

Olmaxonlar inlariga yong'oq tashiydi. Dumlarini yelpig'ich qilib, quchoqlarini shirin-shakar mevalarga to'ldirib, ixchamgina inlariga chopishadi.

Yovvoyi asalarilar asal tashiydi. Gullarning totli sharbatini simirib, yirik qanotlarini yalt-yult tovlantirib, shodon vizillashadi.

Chumolilar o'zlaridan katta chaqaloqlarini tashi-shadi. Chaqaloqlarining tez kunda o'zlariga o'xshagan chumoliga aylanib, qatorga kirishidan, ularga deb qurilayotgan uylarining bitay deb qolganidan quvonib, baxtiyor g'imirlashadi.

O'rgimchak o'lja poylaydi. Chevarlik bilan to'qigan to'riga pashsha qo'nishini kutadi, sira zerikmaydi.

Chigirtkaning sozi sayrab, o'zi o'yin ko'rsatib turganidan hammalari shod-xurram, quvonch bilan



mehnat qilishadi. Shu xursandchilik bilan yoz o'tib, kuz ham kirib keladi.

Yomg'ir yog'ib beradi. Shimol tomonlardan achchiq izg'irin esib, bir kundayoq hamma daraxtlarni bulduruqqa belaydi.

Sozanda chigirtkamiz bitta xazonni boshiga yopinchiq qilib, sovuqdan qalt-qalt titraydi.

— Hoy oshnalar, rahm qilinglar, — deb yalinadi chumolilarga. — Qo'lchalarim sovqotib ketdi. Uylaringda isinib olay.

— Biz-ku yo'q demasdik, lekin uyimiz senga tor, — deyishdi chumolilar. — Gavgangni qara, qanday sig'asan? Yaxshisi, asalarilardan so'ra.

Lekin asalarilar ham chigirtkani uylariga kiritishmadi.

— Biz-ku, yo‘q demaymiz, lekin uyamizning og‘zi kichkina. Keyin baland-da, sakrab chiqolmaysan. Yaxshisi, olmaxondan so‘ra, dumiga yopishib olsang, uyiga chiqarib oladi, maza qilib yashaysan.

Chigirtka olmaxondan iniga kiritishni iltimos qiladi.

— Mayli, — deydi olmaxon, — kovagimga olib chiqaman, lekin xizmatim uchun menga g‘ijjak chalib turasan.

— Qanday chalaman? — deb yig‘lamsiraydi chigirtka. — Bo‘g‘inlarim sovuqda qotgan, g‘ijjagimning torlari ham muzlagan, shu ahvolda sozandalikka yaramayman.

— Unda seni boshimga uramanmi? Dumimda olib yurib, qish bo‘yi tekinga boqaymi? — deb achchiqlanadi olmaxon. — Jo‘na, ishyoqmas. Yozda hamma ishlaganda o‘ynab yurding, endi shu bilganingdan qolma. O‘zi soppa-sog‘ bo‘lib, tilanchilik qiladiganlarni yomon ko‘raman.

— Yozda o‘zing kuy chalib, o‘ynab ber, deb iltimos qilarding-ku, — deya qo‘rqa-pisa eslatdi chigirtka. — Kuylarimni ham yaxshi ko‘rarding.

— Nima bo‘pti shunga? Menga kuy chalib, o‘zingni o‘ylama, deganmidim? O‘yinni ham, ishni ham o‘z vaqtida qilish kerak, — deb olmaxon nasihat o‘qidi-da, bitta yong‘oq po‘chog‘ini otib yubordi. — Ma, ol, yozda g‘ijjak chalganingga. Xizmat haqimni bermadi, deb g‘ingshib yurma tag‘in...

— Nima shovqin? — deydi bir tuynukka kirib olgan o'rgimchak. — Nima bo'lyapti o'zi? E-e, senmi sozanda chigirtka. Yaxshi bo'ldi kelganing. Endi qishlik uyquga ketmoqchi bo'lib turgan edim, bitta uxlatadiganidan chalib yubor.

— So'zandaligi burnidan chiqibdi-ku, — deb vizillashdi asalarilar. — Yozda sayr qilaverib, qo'lchalari qotib qolibdi. Endi kimnikiga sig'indi bo'lishni bilmayapti. Tuynugingga kiritib olsang-chi, bukri!

— Tilanchini boshimga uramanmi? — deydi o'rgimchak. — Pashsha bo'lganida boshqa gap edi. Uyqu oldidan qorinni to'yg'azib olardim.

Bu gapdan kayfi uchgan chigirtka boya olmaxon tashlagan yong'oq panasiga biqinib oladi.

Sovuq shamollar esa osmon bo'ylab yomg'irga to'yingan sur bulutlarni haydab kelar, daraxtlarning so'nggi xazonlarini shart-shurt yulib, hushtak chalgancha barcha hasharot-u jonivorlarni issiqqina uylariga haydab kiritar edi...



1. Yoz faslida chigirtka vaqtini qanday o'tkazdi?
2. Kunlar sovishi bilan u qanday ahvolda qoldi?




Siz shunday mazmundagi ertakni o'qiganmisiz? O'sha ertakning nomini ayting.



QADIMIY AFSONALAR

Ko'hna yunon mif va afsonalari



Asotirlar ibtidoiy insonlarning koinot, tabiat hodisalarining mohiyati, paydo bo'lish sabablarini o'zlaricha izohlash maqsadida yaratgan og'zaki hikoyalardan iborat. Shuning uchun insoniyat tafakkurining ilk mevasi sifatida asotirlar qadimgi ajdodlarimizning atrofni o'rab olgan borliqqa, turli-tuman narsa va hodisalarga, koinot va yerosti dunyosiga bo'lgan qarashlaridan iborat. Biroq bu qarashlar barcha hodisa va narsalarni jonli mavjudot tarzida jonlantirish orqali hikoya qilinadi. Ana shunday xayoliy tushunchalardan hosil bo'lgan afsonalarni — **miflar**, ularning yig'indisini **mifologiya** deb ataladi. Yunon mifologiyasi ming-ming yillik tarixga ega.

KEMADAGI JANJAL

Shamolning bu mudhish hazilidan argonavtlarning ko'ngli g'ash bo'libdi. Hamma churq etmay o'zining kundalik ishini bajarar, kemada na kulgi, na hazil, na ko'pni ko'rgan dengizchilarning hikoyalari eshitilar ekan. Orfey ham qo'shiq aytmabdi.

Dengiz ham notinch ekan. Shiddatli shamol goh zo'rayib, goh pasayar, kemani goh u tomonga, goh bu tomonga surar ekan. Kemani boshqarish kema haydovchiga qiyinlik qilar, ulkan to'lqinlar eshkak eshishga imkon bermas, „Argo“ juda sekin olg'a suzar ekan.

Birdan Geraklning eshkagi sinib, oqim uni bir lahzada olib ketibdi, qahramonning qo'lida faqat dastasi qolibdi. U dastani jahl bilan to'lqinlarga irg'itibdi va o'zi o'rnidan turib ketibdi.

Yazon kema haydovchiga:

— Qirg'oqqa bur! To'lqinlar bilan kurashib charchadik, dam olish kerak. Geraklga ham yangi eshkak zarur. U eshkakni qirg'oqdagi o'rmondan topa oladi. Yerga chiqaylik! — debdi.

Kema haydovchi itoat etib, kemani qirg'oqqa yo'llabdi. Tezda ular quyuq o'rmon bilan qoplangan kimsasiz, huvullab yotgan qirg'oqqa yetib kelishibdi. Gerakl plash xizmatini o'taydigan sher terisini yelkasiga tashlab, qilichi, kamoni va o'q-yoy solingan o'qdonini olibdi-da, yangi eshkak topib kelish uchun o'rmonga jo'nabdi. Charchagan eshkakchilar xursand bo'lib, eshkakni qo'yibdilar va o't ustiga uzala tushib, kechki ovqatni kutib yotibdilar. Gerakl

tarbiyalagan yosh Gilasni esa (uni Gerakl jonidan ham yaxshi ko'rar ekan), o'rmondan bironta ariq topib, suv olib kelgani yuborishibdi.

Gilas qushlarga jo'r bo'lib, hushtak chala-chala o'rmon ichida kezib yuribdi, atrofga quloq solibdi. Bir tomonda, butalar ortida chashma suvining erinchoqlik bilan shildirayotgani qulog'iga chalinibdi. Bola butani ikki tomonga ochibdi, shunda uning qarshisida yiltillab, tinch o'rmon soyi ko'rinibdi. Atrof sukunat qo'ynida, ikki ko'm-ko'k qurshoq orasini to'ldirib turgan soy suvi shunday dilbar, shunday tinch ko'rinar ekanki, Gilas har narsadan hadiksiramay suvga yaqin kelibdi va soyda butalar, daraxtlar, ko'm-ko'k osmon, o'rmon ustida suzib yurgan bulutlarning hamda katta ko'za ko'targan o'zining ajoyib aksini ko'rib, zavq bilan uzoq tomosha qilibdi. Birdan u tip-tiniq suv ichida yashil sochli go'zal Nimfani ko'rib qolibdi; u Gilasni har xil baliqlar suzib yurgan top-toza qumli suv ostiga imlab chaqirarmish.

Bola qo'rqib ketibdi, ko'zani tezroq suvga botirmoqchi bo'lib engashibdi, xuddi shu payt suvdan ikkita ingichka qo'l chiqib, uning bo'ynidan qattiq quchoqlabdi va tortib, suvga tushiribdi. Gilas ko'zani qo'lidan tushirib yuboribdi va „dod“ deb qichqirib suvga botib ketibdi.

Argonavtlar uning baqirganini eshitishibdi. Geraklning do'sti Polifem qilichini sug'urib, changalzorga otilibdi. Bolaga bironta yirtqich hayvon hujum qilgan bo'lsa kerak, deb o'ylab yordamga oshiqibdi. Biroq suv bo'yida hech kim ko'rinmabdi. Faqat soy

chekkasida ko'za sinib yotgan emish, xolos. Gerakl bu vaqtda o'rmon ichkarisiga kirib borib, yangi eshkakka yaraydigan yosh qarag'ay topibdi. U daraxtni quchoqlab kuch bilan tortib, ildizi bilan sug'urib olibdi. O'z ishidan mamnun bo'lib, qarag'ayni yelkasiga tashlabdi va yo'nib eshkak shakliga keltirish uchun dengiz qirg'og'iga ko'tarib jo'nabdi.

Gerakl Gilasning yo'qolganini eshitib, qarag'ayni yerga tashlabdi va o'z o'ktamini izlab ketibdi. Geraklning yerga engashib o'tlar ustidan va butalardan iz qidirishi behuda ketibdi, faqat suv chetidagi qumdagina Gilas shippagining izi ko'rinib turarkan.

Yo'q, Gilasni o'rmon hayvoni o'z iniga olib qochmagan, yirtqich qush ham olib ketmagan ekan. Gerakl bilan Polifem to'rt tomonga o'girilib: „Gilas! Gilas!“ deb chaqirishibdi. Shunda javob o'rniga Gilasning uzoq-uzoqlardan xo'rsinish desa xo'rsinishga, nola desa nolaga o'xshamaydigan past tovushi eshutilibdi. Ular bu tovushning qayerdan kelayotganini bilolmay, har tomonga yugurishibdi. Tovush esa suvdan chiqayotgan ekan, agar ular soy ichiga qaraganlarida sho'rlik Gilasning suv ostida yig'layotganini, nimfalar esa uni tinchitmoqchi bo'layotganini ko'rar ekanlar.

Biroq do'stlar yo'qolgan bola o'zlaridan sal narida ekanini bilmay, uni qidirib o'rmonning ichkarisiga qarab ketishibdi. Ular tun bo'yi o'rmonda adashib yurib, dengiz qirg'og'idan juda uzoqlashib ketibdilar, endi ularga kemandagi tovushlar ham eshitilmay qolibdi.

Argonavtlar bu kecha maza qilib dam olishibdi. Tongga yaqin Zuhra yulduzi chiqishi bilan kema haydovchi Tifis uygʻonibdi va yoʻlovchi shamol esayotganini sezibdi. Tifis oʻrtoqlarini uygʻotibdi-da, tezroq yoʻlga chiqaylik, deb shoshiribdi. Argonavtlar bir zumda otlanibdilar. Shamol oq yelkanga kelib urilibdi, kema toʻlqinlar osha suzib ketibdi.

Quyosh chiqib, kun yorishganda argonavtlar Gerakl bilan Polifemning oʻrni boʻshligini bilishibdi. Gilas ham koʻrinmabdi. Safar davomidagi bu birinchi yoʻqotish argonavtlarni hayajonga solibdi.

Nima qilish kerak? Qaytishsinmi? Biroq yoʻlovchi shamol esyapti... Ular avvalgi joyga qaytishning xavfli ekanini bilishibdi. Doʻstlarini begona mamlakatda yolgʻiz qoldirib ketaverishsinmi... Yoʻq, yoʻq!.. Yazon nima qilish kerakligini aytsin. Yazonni boshliq qilib saylashgan. „Yazon — boshliq, Yazon yoʻl-yoʻriq koʻrsatsin!“ — argonavtlar shunday deyishibdi va Yazonni oʻrab olib, undan maslahat ber, deb talab qilishibdi.

Biroq Yazon ularning gapini eshitmaganday indamay turaveribdi. U kema haydovchi yonida boshini egib, qovogʻini solib, oʻylab oʻtirar ekan. Shunda Geraklni hammadan yaxshi koʻradigan Telamon qattiq gʻazabi kelib hayqiribdi:

— Yazondan umid kutmang! Koʻryapsizmi, u parvosiga ham keltirmaydi. U hamma vaqt Geraklga hasad qilib yuradi, endi xursand — dong chiqarishga hech kim xalaqit bermaydi. Balki bu ishlarni u nayrang ishlatib, joʻrttaga

qilgandir. Kema jo'naganda Gerakning oramizda yo'qligini bilardi... Bu mudhish ishda Tifis Yazonga yordam qilgan... Bas, men sizlar bilan ortiq suzishni xohlamayman! Orqaga, Orqaga! Eshityapsanmi, kema haydovchi! Orqaga bur, qirg'oqqa yo'l ol! — Telamon ko'zlari yonib, kemani birish niyatida Tifisga tashlanibdi va uning qo'lidan rulini tortib olmoqchi bo'libdi. Kuchli shamol esayotgani uchun kemani burish xavfli ekan. Boreyning ikkala o'g'li, qanotli qahramonlar, Telamonnini qo'lidan tortib, ushlab qolishga harakat qilishibdi, uni qattiq koyishibdi. To'satdan zo'r to'lqin ko'tarilib, bortga kelib urilibdi va ikkita qudratli qo'l kemaning tagidan ushlab, uni to'xtatib qo'yibdi. Argonavtlar oldida butunlay baqa to'niga chulg'angan, pahmoqsoqol dengiz xudosi ko'rinibdi, u qovog'ini solib, dahshat bilan shunday debdi:

— Janjalni to'xtating. Qayoqqa va nima uchun ketayotganingizni unutmang. Orqaga qaytmang, tezroq olg'a suzing! Yazonning hech qanday yomon niyati yo'q. O'rtoqlaring qirg'oqda Zevsning ixtiyori bilan qoldi. Geraklni boshqa ishlar, boshqa qahramonliklar kutadi. Sizlar Yazon bilan safarni davom ettiravering. — U shunday debdi-yu, dengiz tubida ko'zdan yo'qolibdi. Telamonning g'aza-bi shamol kabi bir zumda tinibdi, u do'stini xafa qilgani uchun o'zi uyalib qolibdi. U xijolat chekib, Yazonning oldiga kelibdi va sekin:

— Odobsizlik qilib, qo'pol gapirganim uchun kechir! Bu so'zlarni qayg'u va g'azabga to'lganimdan aytib yubordim, — debdi.

Yazon Telamonnini kechiribdi va u bilan yarashibdi. Kemadagilar yana totuv bo'lib ketishibdi, argonavtlar ahillik bilan eshkak eshishibdi, „Argo“ esa dengizda tobora olg'a suzib boraveribdi.



1. Afsona nima?
2. Qanday afsonalarni bilasiz?
3. Asotirlar nima?
4. Kemada nima uchun janjal chiqibdi?
5. Telamonning do'stidan kechirim so'rashini qanday baholaysiz?

ODISSEY

Sardor o'z hamrohlarini qirg'oqda qoldirib, o'n ikkita sherigi bilan orolni tomosha qilish uchun ketadi. Yurib-yurib ular kattakon bir g'orga ro'para keladilar. G'or ichiga kirsalar, savat-savat pishloqlar, xumcha-xumcha qatiq-suzmalar turganmish. Bir mahal tashqaridan tapir-tupur tovushlar eshitilib, g'orning ichiga katta-katta qo'y-echkilar kirib keladi, ularning ketidan mollarning egasi — bahaybat siklor Polifem ham kiradi. Uning manglayida kattakon bittagina ko'z bor. Qo'rqinchli maxluqni ko'rgan Odissey va uning hamrohlari hang-mang bo'lib qoladilar. Polifem ularga g'azab bilan o'shqiradi. Bahaybat qo'llari bilan sayyohlarning ikkitasini tutib oladi-da, gir aylantirganicha yerga urib o'ldiradi, keyin ularni qozonga soladi; ovqatlanib bo'lgach, g'orning og'zini kattakon tosh bilan berkitib, bamaylixotir uyquga ketadi. Odissey uxlab yotgan odamxo'rni o'ldirmoqchi bo'ladi-yu, lekin

toshni siljita olmasliklariga ko'zi yetgach, tag'in o'ylanib qoladi. Tong otgach kechagi fojia yana takrorlanadi. Polifem Odisseyning sheriklaridan yana ikkitasini o'ldirib, nonushta qiladi-da, haligi tosh bilan g'or og'zini berkitib, mollarini boqqani jo'naydi. Odissey odamxo'r devning qo'lidan qutulish yo'llarini axtaradi. Nihoyat bu yo'lni o'ylab ham topadi: g'or ichida yotgan uzun bir xodani olib, uning uchini nayza qilib, kuydirishadi-da, so'ngra bir burchakka yashirib qo'yishadi. Kech-qurun qo'ylarni haydab g'orga qaytgach, Polifem ikkita odamni o'ldirib, kechki xo'rak tayyorlaydi, ovqatlanib, o'rniga yotmoqchi bo'lganida, Odissey o'zi bilan olib kelgan sharobdan unga bir qadah tutadi. Sharob Polifemga juda ma'qul bo'ladi, shekilli, u yana bir qadah talab qilib, soqiyning nomini so'raydi. Bu so'roq Odisseyni o'ylantirib qo'yadi. Qadahni Polifemga uzatarkan:

— Sen nomimni bilishni istamoqchimsan. Mening nomim Hechkim, — deydi.

— Juda soz, Hechkim, — deya javob qaytaradi odamxo'r iljayib, — bu yaxshiliging uchun seni hammadan keyin yeyman, bu mening senga ko'rsatgan himmatim bo'lsin.

Polifem yana bir qadah sharob ichadi, kayfi oshib yerga yastanadi va shu onning o'zida uyquga ketadi.

Odissey sheriklariga ishora qiladi, ular xodaning nayza tomonini o'tga tutib, siklarning ko'ziga sanchadilar. Og'riq alamidan Polifem chunon baqiradiki, uning ovozi eshitgan oroldagi boshqa

siklorlar g'or og'ziga to'planib, sheriklaridan dodlayotgani sababini va uni qanday maxluq xafa qilganini so'raganlarida Polifem jon holatda:

— Hechkim, Hechkim, — deb javob qaytaradi.

Siklorlar Polifemdan achchiqlanib, tarqab ketadilar. Tong otadi. Polifem alam dardidan oh-voh qilib, g'or og'zidagi toshni siljitadi-da, har bir qo'y, har bir echkinning sirtini paypaslab g'ordan chiqaradi. Odissey esa qo'ylarning qorniga bittadan hamrohini bog'lab qo'yadi, o'zi eng kattakon, serjun qo'yning qorniga osilib oladi. Shu tariqa Odissey va uning qolgan sheriklari eson-omon g'ordan chiqib, o'limdan qutuladilar. Sayyohlar o'zlari bilan Polifemning qo'y-echkilarini ham olib ketadilar. Kemaga tushib, qirg'oqdan ancha uzoqlashganlaridan keyin Odissey yakkako'zga qarab:

— Bilib qo'y, Polifem, ko'zingni ko'r qilib qo'ygan kishi — Itaka podshohi Odissey bo'ladi, — deb qichqiradi.

Shunday qilib, Odissey dahshatli maxluqning qo'lidan beshikast qutulsa-da, Polifemni ko'r qilgani tufayli keyinchalik uning boshiga juda ko'p kulfat tushadi.



1. Odissey va uning hamrohlari odamxo'r devdan qanday qutuldilar?
2. Odissey qanday aqlli ish tutdi?
3. Siz yana qanday afsonalarni bilasiz?



Afsonaning davomi nima bilan tugashini tasavvur qiling.



MUSTAQIL O'QISH UCHUN

YOZ KECHASI

Rauf Parfi

Yoz kechasi. Osmon-falakda,
Kunduzning kitobi o'qildi.
Tars yorildi qovun palakda,
Oltin shaftolilar to'kildi.

Dalalarda mudraydi uyqu,
Dala yotar kutib quyoshni.
Ariqlarda doim uyg'oq suv
Polizlarga ketadi shoshib.

Yoz sha'niga qo'shiq to'kilar,
Chigirtkalar chirillar chunon.
Yomg'ir yog'ar, go'yo yog'ilar
Issiq tuproq ustiga marjon.

Yoz yomg'iri iliqdir biram,
Shitir-shitir uning qo'shig'i.
Bir shirin hid taralar yerdan
Va yurakka ketar qo'shilib.

BARAKALLA

(Hikoya)

Yayra Sa'dullayeva

Buvam sirayam tinch o'tirmaydilar. Bahor kelishi bilan yana yangi bir ishni o'ylab topadilar. Darvozamiz yonidagi kichik bir maydoncha axlatxonaga aylanib, ko'chani xira qilib yotardi.

Shuni tozalab, olma, olcha ko'chati o'tqazdilar. Ular ostiga jo'yak tortib, pushtalariga rayhon, jambil, qalampir, yana nimadir ekdilar.

Nihollar bahor yomg'irida gurkirab o'sdi. Gi'r-g'ir shamol esganda rayhonlarning xushbo'y hidlari ko'cha bo'ylab tarala boshladi. Buvam esa hamon tinmaydilar. O'tini yulib, tagini yumshatadilar, ariqdan paqir-paqir suv keltirib sug'oradilar. Bo'sh qolganlarida shu yerga kursi qo'yib, ko'chatlarni qo'riqlab o'tiradilar.

Yaqinda ular bir haftacha kasal bo'lib qoldilar. Nihollarni o't bosib ketdi. Shunda buvamdan so'radim:

— Endi nima qilish kerak, buvajon?

— Nihollarni o'tash, sug'orish, chopish kerak.

— Unda men chopa qolay, — dedim.

— Voy qizim-e, — dedilar buvam kulib, — bu ish senga og'irlik qiladi. Qo'yaver, boshqalarga aytaman.

Buvamlarga gap qaytarmadim-u, lekin o'zimcha bir reja tuzdim. Ko'cha boshida quvlashib yurgan o'rtoqlarimni chaqirdim. Zarifa darrov keldi-yu, Barno „Hozir boraman“, deb qoldi.

Men chetda yotgan shoxdan uchta qoziq yasab, jo'yak boshlariga qoqdim. Uchta qalin qog'ozga „Yulduz“, „Zarifa“, „Barno“ deb yozdim-da, qoziqlar uchiga ilib qo'ydim. Tepamda angrayib turgan Zarifa dedi:

— Ha, tushundim, Yulduz. Uch o'rtoq uchta jo'yakni bo'lishib olib, kim o'zarga o'ynarkanmiz-a?

— To'ppa-to'g'ri, topding, — dedim ziyrakligiga qoyil qolib.

Biz o'z jo'yaklarimizdagi rayhon, jambillarni yovvoyi o'tlardan tozalay ketdik. Barnodan esa darak yo'q edi.

— Barnoni kutma, u kelmaydi, — dedi Zarifa.

— Va'da berdi-yu, nega kelmaydi?

— Bilasan-ku, ishga tobi yo'q. Maktab bog'ida necha marta hashar qildik, qatnashganmi? Faqat tepamizda turib: „Undoq ishla, mundoq qil!“ deyishni biladi. Innaykeyin-chi, boshqalarning ishini o'ziniki qilib ko'rsatishga usta.

— Bo'lmasa, — dedim Zarifaning so'zlariga ishonib, — Barnoning jo'yagini ham o'zimiz tozalay qolamiz.

Uchinchi jo'yakning u boshidan men, bu boshidan Zarifa tushdi. Ko'p o'tmasdan u ham top-toza bo'ldi. Endi yuz-qo'limizni yuvmoqchi bo'lib turgan edik, Barno ko'rinib qoldi. Ishimizga havasi kelganini bildirmasdan: „Va-a, ishlash shunaqa bo'larkanmi, chalakam-chattil!“ — dedi labini burib. Jo'yakka tushib, u yer-bu yerda qolib ketgan mayda o'tlarni o'zicha yulgan bo'ldi. Xuddi shu vaqt ichkaridan hassani do'qillatib buvam chiqib keldilar. Ekinlar tagi chinniday bo'lib qolganini ko'rib, oppoq qoshlari ostidagi xira ko'zlari charaqlab ketdi.

— Barakalla, mushkulimni oson qilibsizlar! — deb qayta-qayta duo qildilar. So'ng uchovimizning peshanamizni siladilar. Buvamlarga „rahmat“ derkanmiz, Barnoning ovozi hammamiznikidan ham balandroq chiqdi.

SEN TUPROQSAN, QADIMIY TUPROQ

Turob Niyoz

Sen tuproqsan, qadimiy tuproq,
Azizdirman misli non qadar.
Oy To'maris, Muqanna, Shiroq
Ayadilar Seni jon qadar.

Sen tuproqsan, qadimiy tuproq,
Ulug' Temur ko'tardi boshga.
Har bir zarrang ayladi ardoq,
Yetgandayin bo'lding quyoshga.

Sen tuproqsan, qadimiy tuproq,
Navoiyning qadami tekkan.
Firoqingda jo'mard Bobur shoh
Umr bo'yi dard, alam chekkan.

Sen tuproqsan, qadimiy tuproq,
Nodira-yu Mashrablar suygan.
Ular bevaqt uzilgan yaproq,
Alamidan vujuding kuygan.

Sen tuproqsan, qadimiy tuproq,
Qondan bezding, to'ymading nurga.
Oz suyilding, toptalding ko'proq,
Burkamading asrlar gulga.

Bugun sening husningga boqqan,
Tanishi ham emasdir oson.
Sen — paxtazor, sen — gulzor, bog'san,
Sen ozod yurt — hur O'zbekiston.

SHIROQ

Mirkarim Osim

*Ololmasam o'z elimning erkini
Odam bo'lib nega keldim dunyoga ...*

„Qirq qiz“ dostonidan

Yoz boshlanib, Yaksart bo'yidagi cho'llarda o'tlar qovjiray boshladi. Bu yerlarda yashovchi sak qabilalari sero't yaylovlarga ko'chish taraddudiga tushishdi. Yangi yerlarga ko'chish bu ko'chmanchilar uchun bir bayramdek edi. Ular bahor mavsumida yashab, o'rganib qolgan yerlarini tashlab ketish oldidan bir-birlarinikiga qo'noq bo'lib borar, dorivor o'tlarni yeb semirgan biyalarning sutidan tayyorlangan o'tkir qimizlarni ichib, vaqtichog'lik qilishardi.

Biroq bu safar odamlarning ko'ngliga qil sig'mas, o'tovlardan na qo'shiq tovushi, na qizlarning xushchaqchaq kulgisi eshitiladi.

Baland bir yerga qurilgan katta oq o'tovni egnilariga yarg'oq teridan kamzul, boshlariga uchi ingichka, uzun qalpoq kiygan qurolli soqchilar qo'riqlab turadilar.

O'tov ichida esa sak qabilalarining oqsoqollari kengash qurib o'tiradilar. To'rga solingan ayiq terisi ustida chordana qurgan Rustak oqsoqollarga vaziyatni tushuntiradi:

— Eron shohi Darayavush O'kuzdan kechib, Sug'diyani bosib oldi. Eroniyar barcha xalqni talab, erkaklarni qul, xotinlarni asir qilib ketayotirlar. Endi navbat bizga keldi. Darakchilarimiz shohning biz

tomonga Ronosbat boshchiligida katta bir qo'shin yubormoqchi bo'lganligidan darak berayotirlar...

Rustak — soch-soqoli oqargan, biroz munkayib, cho'kib qolgan suyakdor chol. U bir vaqtlar keng yag'rinli, baland bo'yli pahlavon edi. Yakkama-yakka janglarda sak urug'ining dushmanlaridan ko'p bahodirlarni yer tishlatgan edi. Rustakning nomi Sug'diyada ham, Eronda ham mashhur edi.

Hozir u saklar va sug'dlarning ashaddiy dushmani bo'lgan Eron shohi va uning qora niyatlari to'g'risida gapirar ekan, g'azabdan nafasi tiqilar, ko'zlari o't chaqin sochar edi. U gapini tugatib, dushmanni daf etish uchun qanday choralar ko'rish kerakligi to'g'risida o'z fikrlarini aytishni urug' oqsoqollaridan so'radi.

— Qo'lidan ish kelmaydigan chollar, kampirlar, bolali xotinlarni qo'y va yilqilar bilan uzoq cho'llarga yuborib, qolgan er va ayollarning barini qurollantirsak va dushman bilan bir tomchi qonimiz qolguncha urushsak, — deb gap boshladi urug' oqsoqollaridan Saksfar. U oltmishga borib qolgan bo'lsa-da, yoshlardek ikki beti qip-qizil, serg'ayrat va tavakkalchi odam edi. — Zolim Eron shohiga qul bo'lgandan ko'ra jang maydonida o'lgan yaxshis

Rustak uning uzundan uzoq gapini sabr bilan tinglab, boshini quyi solganicha o'ylanib qoldi.

— Jangda mardlarcha o'lmoq oson gap, lekin dushmanni yanchib tashlab, undan qasos olmoq qiyin. Biz mardlik ko'rsatib, nomimizni qoldirish to'g'risida emas, balki el-yurtimizning erkini qanday

qilib saqlab qolish to'g'risida o'ylashimiz kerak, — dedi u qiziqqon Saksfarga qarab.

Oqsoqollar mum tishlagandek miq etmay o'tirar edilar. Ko'p mamlakatlarni bosib olib, jang maydonlarida ko'p tajriba orttirgan, yaxshi qurollangan Eron qo'shini bilan urushmoq juda mahol ekanligini ular yaxshi tushunar edilar.

Boshliqlar bu mushkul muammoni yechish uchun bosh qotirib o'tirganlarida, o'tov eshigi oldida turgan qurolli yigit Shiroq degan bir cho'ponning kirishga ijozat so'rayotganini bildirdi.

— Shiroq? — deb qoshini chimirdi Rustak. — Kim u?

— Shiroq bizning urug'dan. O'zi ertakchi, dostonchi, dono chol. Butun umri cho'ponlik bilan o'tgan, — dedi Saksfar.

— Undog' bo'lsa, chaqir bu yoqqa, o'sha dono cholni.

Eshikdan yoshi oltmishdan oshgan tetikkina, barvasta bir chol kirib ta'zim qildi.

— Ijozat bersanglar, men ham qatoringizda o'tirib, o'z fikrimni aytsam. Nima to'g'risida gaplashayotganingizni bilaman.

— O'tir, o'tir, gapingga quloq solamiz, — dedi Rustak.

— Eron shohining askarlari Sirdaryo ostidagi qum donalaridan ham ko'p, ularni jangga chorlab, yengish mahol. Ammo ularni qirib tashlash uchun bir yo'l bor. Quloq soling...

Oqsoqollar Shiroqning og'ziga tikildilar. Borgan sari ularning yuzlari yorishib, ko'zlari chaqnayverdi ...

Oq o'tovdan nariroqda cho'qqayib o'tirgan kishilar Shiroqni yaxshi tanir, uning qo'biz chalib aytgan dostonlarini ko'p martaba tinglagan, o'zi ham o'sha dostonlarda madh etilgan sheryurak odamlardan biri ekanligini bilar edilar.

* * *

Oradan ancha vaqt o'tgandan keyin Shiroq o'tovdan chiqdi. Uni ko'rgan qabiladoshlar dahshatga tushib, o'rinlaridan sakrab turib ketdilar. Keksa cho'pon kesilgan ikki qulog'i va burniga kuydirilgan namat bosib, sizib oqayotgan qonni to'xtatishga harakat qilar edi. Kutilmagan bu fojidan hayajonga kelgan odamlar uning atrofini o'rab oldilar va ustma-ust savol yog'dira boshladilar:

- Quloq-burningni kim kesdi?
- Sen sho'rlik nima gunoh qilib eding?
- Aytsang-chi, nega bunday qilishdi?

Rangi oqarib ketgan Shiroq tishini tishiga qo'yib, o'zini bardam tutishga urinar, urug'doshlarining savollariga javob bermasdi. Uni bir joyga o'tirg'izib, kuydirilgan namat bilan qonini to'xtatdilar. Cholning sahro shamoli va cho'l quyoshidan qoraygan yuzida g'azab alomati yo'q edi. U o'ziga kelgach, o'rnidan turdi-da, kun botish tomonga qarab ketdi. Hang-mang bo'lgan kishilar uning orqasidan qaraganlaricha qotib qoldilar.

Dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi sug'd xalqini itoatga keltirgan Eron shohi Yaksartning o'ng qirg'og'idagi ko'chmanchilar ustiga yurish oldidan dam olmoqda edi. U baland paxsa devor bilan o'ralgan bog' o'rtasidagi baland

shiyponda o'z a'yonlari bilan may ichib, suhbatlashib o'tirardi.

Mulozimlardan biri shiypon yoniga kelib ta'zim qildi-da, quloq-burni kesilgan bir kishi shoh huzuriga kirishga izn so'rayotganini bildirdi. Doro uning sak qabilasidan ekanligini bilgach:

— Mayli, kirsin, — dedi.

Ikki qurolli mulozim boshlab kelgan Shiroq shohdan o'n besh qadamcha berida to'xtadi-da, ikki qo'lini tirab yer o'pdi va o'rnidan turib, ta'zim qilganicha qotib qoldi. Eronlar nazdida muqaddas shaxs bo'lgan shahanshohga uning bir necha yaqin odamlaridan boshqa hech kim nafasini yaqinlashtira olmas edi.

Doro I baland bo'yli, qush burun, chiroyli odam edi. Uning ponaga o'xshagan soqoli ko'kragiga tushgan va mayin taralgan edi. Ustidagi to'q qizil zarrin to'ni yiltirar, qo'lidagi uzun aso dastasiga qadalgan qimmatbaho toshlar qorong'i kechadagi yulduzlardek porlar edi. Tosh qo'g'irchoqqa o'xshagan ikki mulozim uni sekin-sekin yelpib turardi.

Doro kamon qoshlarini chimirib, baland ovoz bilan:

— Hoy odam, o'zing kimsan, oting nima va qaysi urug'dansan? — deb so'radi.

— Otim Shiroq, o'zim sak urug'idanman, — deb javob qildi chol.

— Kelib mening istirohatimni buzmoqdan maqsading nima?

— Maqsadim shahanshoh a'lo hazratga xizmat qilmoqdir. Janoblariga xayrixoh bo'lganim uchun qabiladoshlarimdan qattiq sitam ko'rdim. Ularga

men: „Shohi Eron bilan urushaman deb ovora bo‘lmang, sizlarni bir hamlada tor-mor qiladi, yaxshisi itoat kamarini bog‘lab borib, ul zot-bobarakatning etaklaridan o‘ping“, dedim. Hukmdorimiz Rustak bu gapimni eshitib g‘azabga keldi va mening quloq-burnimni kesdirdi. Men endi sizning yordamingiz bilan undan o‘chimni olmoqchiman. Agar ijozati oliy bo‘lsa, yengilmas qo‘shiningizni yolg‘iz podachilar biladigan so‘qmoqlar bilan sak lashkarlarining orqasidan olib chiqar edim, keyin ularni tor-mor qilish qiyin bo‘lmasdi.

Shiroqning gapini eshitib Doro o‘yga toldi. Agar jangovar sak qabilalari shu yo‘sinda yakson qilinsa, O‘kuz bilan Yaksart o‘rtasidagi serunum yerlarni bosib olgan Eron lashkarlarining bexatarligi ta‘min etilgan bo‘lur edi. Ammo bu keksa cho‘ponni bir sinab ko‘rish kerak.

Shiroq shohning ishonchsizlik ko‘zi bilan qarayotganini fahmlab, o‘z so‘zining to‘g‘riligini isbot qilishga kirishdi.

— Axir quloq-burnimni yaqindagina kesilgani ko‘rinib turibdi-ku! Biznikilar bekorga o‘z urug‘lariga bunday sitam yetkazmaydilar, faqat shoh tarafdorlarininggina quloq-burnini kesadilar.

U o‘ylab qo‘ygan dalillarini keltirib, uzundan uzoq gapirdi va o‘zining Eron shohiga sodiqligini, saklarga dushman bo‘lib qolganini isbot qilishga tirishdi, so‘zining oxirida Quyosh tangrisini shafe keltirib ont ichdi.

Doro sarkardalari bilan maslahatlashib, saklar ustiga qo‘shin yuborishga, Shiroqni esa yo‘l boshlovchi qilib olishga qaror berdi.

Eron askarlari yo'l boshlovchining maslahati bilan yetti kunlik suv, oziq-ovqat va yem-xashak olib yo'lga chiqdilar va ko'chmanchilarni chalg'itish uchun daryoning chap qirg'og'idagi qum sahralaridan borib Yaksartdan kechib o'tmoqchi va ularga orqa tomondan hujum qilmoqchi bo'ldilar.

Dastlabki kunlarda yo'l uncha mashaqqatli bo'lmadi. Cho'l o'tlari endi qovjirab kelayotgan bo'lsa ham, onda-sonda buloqlar atrofida ko'm-ko'k o'tloqlar uchrab turardi. Bora-bora cho'l sahroga aylandi, odamlar va otlarning suvga ehtiyoji osha bordi. Afsonaviy otlarning taqalariga o'xshab uyulib qolgan qum tepalardan oshib yoki chetlab o'tish oson emas edi. Qora terga tushib hansiragan otlar oyoqlarini qumdan arang tortib olib, boshlarini quyi solganlaricha bitta-bitta qadam tashlab borardilar. Sahroning berahm quyoshi yomon niyatda kelayotgan bu qurolli odamlarning boshidan olov selini quyay, ichlarini kuydirib, tashnalikdan lablarini qovjiratar, qumlar ustida jimirlab turgan qaynoq havo o'pkalarini yondirardi.

Lashkarboshilarning toqatlari toq bo'lib, saklar lashkargohiga qancha masofa qolganini Shiroqdan surishtira boshladilar. U esa yaqinlashib qolganliklarini va yana ikki kun yurish kerakligini aytib, boshliqlarni yupatgan bo'ldi. Biroq sermashaqqat safarning yettinchi kuni ham saklardan darak topmadilar. Hamma yoq dasht-biyobon, odam yursa oyog'i, qush uchsa qanoti kuyadi. Suv, oziq-ovqat, yem-xashak tamom bo'lgan, oriqlab

ketgan otlar yer iskab, suv qidiradilar, qovjiragan lablari shishib ketgan odamlar bir qultum suv uchun yillik umrlaridan kechishga tayyor!

Shiroqni o'rtaga olib; „Bizni qayerga boshlab kelding, ablah!“ deb, qistibastiga oldilar. Askar-boshilardan biri uning yoqasidan ushlab siltadi va haqorat qila boshladi. Shiroq yoqasini uning qo'lidan qutqarib, namat qalpog'ini boshidan oldida, serajin va keng peshanasining terini artdi. Uning qovjiragan lablari istehzoli tabassumdan yorishib, qiyiq ko'zlarida o't chaqnab ketdi. Atrofini qurshab olgan g'azabli chehralarga mag'rurlik bilan qarab turib, qalpog'ini yerga bir urdi-da, qah-qahlab kulib yubordi:

— Men yengdim, Doro qo'shinini bir o'zim yengdim! — dedi u qichqirib. — Sizlarni aldab, sahroning qoq o'rtasiga olib keldim, — qo'li bilan kun chiqish va kun botish tomonini ko'rsatdi. — Bu yog'i ham yetti kunlik yo'l, bu yog'i ham. Istagan yeringizga boravering! Mening go'rim shu yerda, — deb oyog'i ostini ko'rsatdi.

U o'z murodiga yetgani uchun muqaddas tangriga shukur qilib, allaqanday bir duoni o'qidi. Darhaqiqat, u o'z elini qullikdan qutqarish uchun ming turli azob-uqubatni bo'yniga olgan edi. Mana endi u niyatiga yetdi, dushman askarini halokat jari yoqasiga boshlab keldi. Endi dushman nima qilsa qilaversin!

Bu voqeadan bir oycha ilgari u sak urug' oqsoqollari huzuriga kirganda shunday degan edi:

— Agar mening bola-chaqam va nevaralarimni unutmasangiz, o'z shirin jonimdan kechib, yurt boshiga kelgan baloni daf etardim, bir hiyla ishlatib, shoh lashkarlarini qirib tashlardim...

Oqsoqollar uning gapini oxirigacha tinglab, fikrini ma'qullagan edilar. Shunda u yonidan o'tkir pichog'ini olib, o'z quloq-burnini kesgan va go'yo o'z eliga xiyonat qilgan bo'lib, dushman orasiga kirgan edi...

G'azabdan ko'zlari o'qrayib, aft-basharalari tiri-shib, xunuk bo'lib ketgan Eron sarkardalari Shiroqni o'rab olib, uni ura boshladilar. Sarkarda Ronosbat hamma yog'i dabdala bo'lib ketgan Shiroqni ular qo'lidan qutqarib, bir chetga olib chiqdi-da, suv ichirdi, so'ngra chodirga olib kirib, uni yaxshilikcha yo'lga solmoqchi bo'ldi. Endi eron sarkardasi saklar ustiga yurish qilib, ularni tor-mor etishni xayolidan chiqarib tashlagan, u faqat qo'shinini halokatdan qutqarib qolishni o'ylardi.

— Agar sen sahro quduqlari va yo chashmalarini bizga ko'rsatsang, gunohingdan kechib, Sug'diyada istagan qishloqlardan o'ntasini senga in'om qilardik, — dedi u.

— O'z elimning dushmanlariga yordam berishni istamayman, — dedi u gapni qisqa qilib. Halokat jari yoqasida qolgan eroniylar achchiqlariga chiday olmay fidokor cho'ponni qiyma-qiyma qilib tashladilar.

AHMOQ SICHQONCHA HAQIDA ERTAK

Samuil Yakovlevich Marshak

Tunda sichqon inidan
Alla aytar: — Jon qo'zim,
Jim yot, bolam, kuyuk non
Va sham beray yulduzim.

Javob berar sichqoncha:
— Ovozing ip-ingichka.
Chiyillamay sen menga
Topib ber bir enaga.

Ona sichqon tez borib,
Der o'rdakka yolvorib:
— O'rdak xola, uyga yur,
Bolamni tebratib tur!

Alla aytib, der o'rdak:
— „G'a-g'a-g'a“, tinch yot go'dak.
Yomg'ir tinsa bog'chadan
Topib beray loyxo'rak.

Ammo ahmoq sichqoncha
Uyqusirab zing'ircha.
Aytar: — Yoqmadi sozing,
Baqroq ekan ovozing.

Ona sichqon tez borib,
Der baqaga yolvorib:
— Baqa xola, uyga yur,
Bolamni tebratib tur!

Uni allalar baqa:
— Yig'lama, qo'y, vaqvaqa.

Tong otguncha tinchib yot,
Chivin beray mukofot.

Ammo ahmoq sichqoncha,
Uyqusirab zing'ircha,
Aytar: — Yoqmadi sozing,
Qur-qur ekan ovozing!

Ona sichqon tez borib,
Otga deydi yolvorib:
— Amma, amma, uyga yur,
Bolanmi tebratib tur!

Kishnab alla aytar ot:
— Hi-hi-hing, jonim, tinch yot!
Yonboshlagin, bo'lgin jim,
Senga beray to'rva yem.

Ammo ahmoq sichqoncha,
Uyqusirab zing'ircha,
Der: — Menga yoqmas sozing,
Shang'i ekan ovozing.

Ona sichqon tez borib,
Der baliqqa yolvorib:
— Cho'rtan xola, bizga yur,
Bolanmi tebratib tur!

Baliq ochib og'zini,
Darrov allalar uni.
Biroq eshitilmas soz,
Chunki chiqmas hech ovoz.

Shunda ahmoq sichqoncha
Uyqusirab zing'ircha,

Aytar: — Yoqmadi sozing,
Chiqmas ekan ovozing!

Ona sichqon tez borib,
Der mushukka yolvorib:
— Mushuk xola, uyga yur,
Boramni tebratib tur!

Mushuk kelib bir palla,
Xurillab aytar alla:
— Miyov, miyov! Yulduzim,
Karavotga yot, qo'zim.

Shunda ahmoq sichqoncha
Uyqusirab zing'ircha,
Deydi: — Yoqimli sozing,
Buncha shirin ovozing!

Ona sichqon kelib tez,
Karavotdan o'sha kez
Topolmay o'z bolasin,
Axtarar ko'z qorasin.

MUNDARIJA

VATANIMIZ — FAXRIMIZ

Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston. <i>Muhammad Yusuf</i>	4
Vatan haqida qo'shiq. <i>Aziz Abdurazzoq</i>	5
Men nechun sevaman O'zbekistonni. <i>Abdulla Oripov</i>	8
Vatan haqida she'r. <i>Abdulla Avloniy</i>	9
Qirg'oqdagi jang. <i>Habibulla Zayniddin</i>	10

BUYUK AJDODLARIMIZ MEROSINI O'RGANAMIZ

<i>Yusuf xos Hojib</i> . Qutadg'u bilig.....	18
Inson qadri bilimda.....	19
Tilingni avayla — omondir boshing.....	19
Foydali fazilat va yaramas odat.....	20
„Qutadg'u bilig“dan. <i>Sa'dulla Ahmad tarjimai</i>	23
<i>Alisher Navoiy</i> . Lison yt-tayr.....	25
Hikoyat.....	27
Hikoyat.....	28
<i>Kaykovus</i>	29
„Qobusnoma“dan. Do'st tutmoq zikrida.....	30
Hikoyat.....	32
Omonatni saqlamoq zikrida.....	33
<i>Gulxaniy</i> . Tuya bilan Bo'taloq.....	36

XALQ OG'ZAKI IJODI

Cho'pchagim — cho'pchak, oltin belanchak

Ertaklar.....	40
Uch hikmatli so'z.....	41
Adolat. <i>Asqad Muxtor</i>	44
Maqollar.....	54
Mehnat va mehnatsevarlik haqida.....	54
Do'stlik va ahillik haqida.....	54
Ilm va hunar haqida.....	55
Topishmoqlar.....	55
Tabiat hodisalari haqida.....	56
Hayvonlar va qushlar haqida.....	56
Hasharotlar haqida.....	57
O'simliklar haqida.....	57
Tez aytishlar.....	58
Doston.....	58
Alpomishning qaytishi.....	60
Rustamxon.....	63

Bolam	66
Do'mbira	67
Atsonalar	76
Insoniyat tarixi	77
Donolar o'giti	82

O'ZBEK YOZUVCHI VA SHOIRLARI — BOLALARGA

<i>Abdulla Avloniy</i>	84
Saxiylik	84
Maqtanchoq g'oz	85
Qanoat	86
Yaxshilik yerda qolmas	86
<i>Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon</i>	87
Qish kechalari	87
Kuz yomg'iri	89
<i>Mirtemir</i>	89
Yurt qo'shig'i	90
Ona tilim	90
<i>Hamid Olimjon</i>	93
Bunyodning jangi	93
<i>G'afur G'ulom</i>	110
Shum bola	110
<i>Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek</i>	118
Bola Alisher	118

BOLALAR YOZUVCHI VA SHOIRLARI IJODIDAN

<i>Quddus Muhammadiy</i>	127
Urishqoq chivin va shamol polvon haqida	127
<i>Po'lat Mo'min</i>	132
Xo'roz nega qichqiradi?	132
Yer chopildi — javob topildi	133
<i>Nosir Fozilov</i>	134
Insho	135
<i>Xudoyberdi To'xtaboyev</i>	146
Erkinlik	147
Sariq devni minib	149
<i>Farhod Musajonov</i>	160
Qo'shoqvoy ukasini o'ynatdimi?	160
Turdi, velosiped va men	162
<i>Erkin Vohidov</i>	170
O'zbekim	171
Abadiyat haqida rivoyat	175
<i>Miraziz A'zam</i>	181
Asror	181
<i>Abdulla Oripov</i>	187
Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi	187

<i>Yayra Sa'dullayeva</i>	192
„Hozir, Buvijon“	193
„Hech kim ko'rmasin“	195
<i>Safo Ochil</i>	197
Qaldirg'och va beshiktervat haqida ertak	198
Yarador qushcha	200
<i>Anvar Obidjon</i>	201
Xabar sotuvchi	202
<i>Hamza Imonberdiyev</i>	204
Turnalar	204
Rassom	206
<i>Kavsar Turdiyeva</i>	208
Qush bo'lib uchgan ona	208
<i>Abdurahmon Akbar</i>	212
Bedana qo'shig'i	213
Ushalmagan tilak	214
<i>Dilshod Rajab</i>	216
Shahardan xat	216
O'g'rining qismati	217

JAHON BOLALAR ADABIYOTI

<i>Aka-uka Grimmlar. Bir xurmacha shavla</i>	220
<i>Ivan Andreyevich Krilov. Qurbaqa va chumoli</i>	222
<i>Aleksandr Sergeevich Pushkin. Baliqchi ham baliq</i> haqida ertak	225
<i>Gans Xristian Andersen. Irkit o'rdakcha</i>	232
<i>Nikolay Alekseyevich Nekrasov. Mazay bobo va quyonlar</i>	243
<i>Lev Nikolayevich Tolstoy. G'aroyib don</i>	249
<i>Vsevolod Mixaylovich Garshin. Sayohatchi qurbaqa</i>	253
<i>Jozej Redyard Kipling. Maugli</i>	260
<i>Yonas Avijyus. Sozanda chigirtka</i>	270

QADIMIY AFSONALAR

Ko'hna yunon mif va afsonalari

Asotirlar	275
Kemadagi janjal	276
Odissey	281

MUSTAQIL O'QISH UCHUN

Yoz kechasi. <i>Rauf Parfi</i>	284
Barakalla. <i>Yayra Sa'dullayeva</i>	284
Sen tuproqsan, qadimiy tuproq. <i>Turob Niyoz</i>	287
Shiroq. <i>Mirkarim Osim</i>	288
Ahmoq sichqoncha haqida ertak. <i>Samuil Yakovlevich</i> <i>Marshak</i>	297

QUMRI ABDULLAYEVA, DILOROM NASRIDDINOVA,
SITORA RAHMONBEKOVA

O'QISH KITOBI

*Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishidagi ixtisoslashtirilgan
maktablarning 4-sinfi uchun sinov darsligi*

*„Oqituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2008*

Muharrir *S. Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Sh. Xo'jayev*
Texnik muharrir *T. Greshnikova*
Kompyuterda sahifalovchi *K. Hamidullayeva*
Musahhih *M. Ibrohimova*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 4.01.2008. Bichimi 60×90 $\frac{1}{16}$.
Kegli 14; 12 shponli. Helvetika garniturasida. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli b.t. 19,0. Nashr t. 17,5. 10000 nusxada bosildi.
Buyurtma №182.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-
matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 129, Navoiy ko'chasi, 30- uy. // Toshkent,
Yunusobod dahasi, Murodov ko'chasi, 1- uy.
Shartnoma № 12—80—07.

Abdullayeva Q.

O'qish kitobi: Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishidagi ixtisoslashtirilgan maktablarning 4-sinfi uchun sinov darsligi / Q. Abdullayeva, D. Nasriddinova, S. Rahmonbekova.—Toshkent: „O'qituvchi“ NMIU, 2008. — 304 b.

I. Nasriddinova D. II.Rahmonbekova S.

BBK 83ya71